INTRODUCTION: the article analyzes the growing relevance of religion and national identity issues in modern society, as well as the strengthening of their interrelationship.

AIM: the main objective of the study is to identify the factors contributing to the relevance of religion and national identity issues in modern society and to examine their importance for social stability and the preservation of cultural identity.

MATERIALS AND METHODS: the study included an analysis of literature and sociological research on religion and national identity.

DISCUSSION AND RESULTS: the results confirm the significance of national and religious identity in modern society.

CONCLUSION: the study results confirm the importance of religion and national identity as pressing issues in modern society and their role in fostering social cohesion and preserving national identity.

Keywords: religion, national identity, modern society, globalization, cultural diversity, social stability, national identity, religious values.

For citation: Bahrom Ibragimov. (2024) ‘Actualization of religion and national identity issues in modern society’, Inter education & global study, (8(1)), pp. 20–30. (In Uzbek).

XXI asr boshlarida butun dunyo bo’ylab rivojlangan milliy integratsiyalashuv va milliy o’zlikni anglash kabi jarayonlar har bir xalqning kelib chiqish tarixi, madaniyati va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

qadriyatlarini qaytadan tadqiq qilinishiga turtki bo'ldi. Xususan, bunday vaziyat hozirgi sobiq ittifoq davlatlari xalqlarining ham ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rolь o'ynab, ushbu davlatlar xalqlarining milliy qiziqishlarini ifodalagan siyosat sifatida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Shundan kelib chiqqan holda mustaqillik yillarida o'zbek xalqining davlatchilik va xalq sifatida shakllanish tarixini tadqiq etish, bir tomondan yosh mustaqil davlatimizning kelajagi uchun zaruriyat sifatida, ikkinchi tomondan esa davr talabi bo'lib namoyon bo'la boshladi. Shuningdek o'zbek xalqining shakllanish tarixi mustaqillik yillarida tadqiq qilinishi dolzarb bo'lgan masalalardan biri sifatida olimlarimiz tomonidan yangicha yondoshuvlar va qarashlarni shakllantirdi. Bu masalaning e'tiborli jihati shundan iboratki, o'zbek xalqi tarixini tadqiq etish ancha oldin boshlangan bo'lib, bu masalaga ma'lum bir davrning iqtisodiy-siyosiy manfaatlari doirasida, boshqa bir tarixiy davrda esa ob'ektiv zarurat sifatida yondoshilgan. Bu esa o'z navbatida o'zbek xalqining shakllanish jarayoni davomida o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlarni turli ko'rinishda oydinlashtira bordi.

Ma'lumki mustaqillikka erishganimizdan so'ng, o'zbek davlatchiligi va xalqimizning milliy tarixini o'rganish, uni tadqiq etish, tarixiy xotirani tiklash nafaqat milliy taraqqiyotimiz uchun zaruriyat balki, davr talabi hamdir. Ayni paytda millatlarning o'zligini anglash, milliy ma'naviy me'roslarini, milliy urf-odat an'ana va qadriyatlarini qayta tiklashga bo'lgan intilishlari kuchayib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda katta yutuqlarga erishdilar. Buning natijasi o'laroq, ularda jahon taraqqiyotida yetakchilik qilishga bo'lgan intilish ham kuchayib bormoqda.

Har bir davlat nainki u mustaqil ekan, birinchi navbatda o'zligini anglashga, milliy qadriyatlari hamda aьanalarini eьzozlashga eьtibor qaratadi. Ammo bugungi kunda dunyodagi ko'plab mamlakatlar olib borayotgan milliy siyosat fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilmoqda. Bunday jamiyat olimlar fikricha, xalqlarning milliyligiga emas, balki ularning umumiyligiga ya'ni, umummanfaatlarga asoslanadi. Shunday bir vaziyatda yuqorida aytib o'tilgan masalalar millat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarda nomutonosiblikni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek bugungi kunda xalqlar va millatlar o'zlarini faqatgina davlat va uning belgilari bilangina emas, balki madaniyat, san'at, millatning tipologik belgilari hamda boshqa bir qancha xususiyatlar bilan aynanlashtirmoqda. Qolaversa, uchinchi ming yillikka qadam qo'ygan insoniyatning kuchli davlatlar siyosatidagi yangicha imperialistik o'yinlar, dunyoni bo'lib olishning kosmopolitizm va demokratiya niqobi ostidagi g'oyalarida milliylikning ildiziga bolta urish va uni inkor etuvchi nazariyalar ko'plab yaratilayotgan ekan, milliy identifikatsiya jarayoni tushunchasini nazariy va amaliy jihatdan aniqlab olish biz oldimizga qo'yyayotgan kontseptsiyaning keyingi rivojiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliylik masalasining mohiyatini to'la tushunish, millat mohiyatini tushunishni taqozo etadi. Bugungi kunda millat tushunchasini tadqiqotchilar turlicha talqin qilib, turli xil kontseptsiya va yondashuvlardan kelib chiqqan holda tahlil etmoqda. Hozirgi paytdagi zamonaviy tadqiqot natijalariga ko'ra, millat bu - ma'lum ruhiy birlikka ega, o'z-o'zini anglagan guruhning tarixiy shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy birligi bo'lib, ushbu

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

guruh dunyoni o'ziga xos qabul qilish asosida milliy qadriyatlar yaratgan, ularni o'ziga xos shaklda ifodalagan kishilar birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bu milliy qadriyatlar ijtimoiy hayotning serqirraligini, sermazmunligini ifodalaydi va insoniyatning boyligi sifatida rivojlanishni talab etadi.

Milliylik masalalariga qiziqish va milliy identifikatsiyani jarayon sifatida rivojlanishi insoniyatning bevosita va bilvosita intellektual salohiyatining o'sishi hamda yutuqlarga erishishi bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqotchilarning nuqtai nazarlariga ko'ra, "Milliylik" masalasi millatlararo tizimda ham, davlat ichidagi milliy munosabatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Har ikkala ko'rinishda ham ijtimoiy taraqqiyot jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, mafkuraviy va boshqa sohalardagi barcha murakkab masalalarni hal qilish ko'zda tutiladi. Tadqiqotchilarning bu boradagi fikrlariga ko'ra, milliy davlatni qaror topishi milliy masalaning dastlabki hal qilinishi bilan bir qatorda, ichki (polietnik davlatlarda) va tashqi munosabatlarda yangi milliy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan O'rta asrlarda va yangi davrda milliy masala millatlarni milliy zulmdan qutqarish masalasi bilan bog'liq bo'lgan, keyinchalik esa bu milliy mustaqillikka erishish muammosiga aylandi. Bugungi kunda millat va milliylik tushunchasiga tadqiqotchilar turlicha yondoshmoqda, turlicha ta'rif berishmoqda. Bu borada quyidagi umumiy ta'riflarni keltirib o'tmoqchimiz: Birinchidan, millatni katta ijtimoiy guruh deb e'tirof etish mumkin. Ikkinchidan, shu guruhning ichida uni birlashtirib turadigan ma'lum bir aloqalar siyosiy, madaniy, tarixiy, diniy, til va boshqalardan iboratdir. Ularning harakatchan, beqaror va o'zgarib turadigan ierarxiyasini hisobga olgan holda, mavjudligini ko'rsatish mumkin. Uchinchidan, millatning ajratilishi doim ideologlar tomonidan guruh ongiga singdiriladigan "umumiy taqdir" mifi bilan bog'liqdir, to'rtinchidan, inson o'zini u yoki bu millatga qo'shish uchun o'zining harakatlarini ma'lum bir siyosiy va g'oyaviy kontekstga mansub deb bilishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda biz bugungi kunda butun dunyodagi rivojlangan davlatlarni olib qaraydigan bo'lsak, o'sha davlatlarda yashaydigan millatlar asosan o'z aqli, tafakkuri, bilimi, dunyoqarashi, mehnatkashligi bilan katta yutuqlarga erishishgan. Bu xoh sportda, xoh iqtisodiyotda, xoh huquqda xoh siyosatda va boshqalarda bo'lsin.

Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy hayotning taraqqiyot yo'llari, milliy va umuminsoniy taraqqiyot tamaddunlarining uyg'un holda rivojlanishi, qolaversa, ma'lum millat yoki mamlakatning iqtisodiy-ma'naviy jihatdan yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni ko'p hollarda millatning ma'naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi tolerantlik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Aynan shuning uchun ham o'zbek xalqi tarixida shakllangan boy ma'naviy meros, bugungi kunda davlatimizning mustahkam poydevori sifatida hozirda rivojlanib borayotgan globallashuv, milliy integratsiyalashuv va milliy identifikatsiya kabi jarayonlarga o'ziga xos bo'lgan immunitet sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunga misol tariqasida mustaqillikka erishgan sobiq ittifoq davlatlarining deyarli barchasida mustaqillik yillari va undan keyingi davrlarda kechgan milliy o'zlikni anglash orqali milliy mustaqillikni mustahkamlashga bo'lgan intilish va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

qiziqishlarini ifodalagan siyosatni keltirish mumkin. Bunday jarayonlarda millatning faqat uzoq o'tmishga ega bo'lishi emas balki, boy ma'naviy meros, unutib bo'lmas milliy qadriyatlar va madaniyatga ham ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etib, uning keyingi kelajagi uchun xizmat qila boshlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalqimizning milliy shakllanishida Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham muhim rolь o'ynagan. Xususan Xorazm davlatini yurtimiz hududida shakllangan eng qadimiy davlatlardan biri deb hisoblaydigan bo'lsak, bu davlatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy- iqtisodiy hayotida ro'y bergan jarayonlar ma'lum bir davrlarda hukmron mafkura hamda boshqa sabablarga ko'ra o'zgarib turgan. Masalan IX-X asrlar, XII-XV asrlar, XVII-XIII asrlar va XIX-XX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Tarixiy manbalarga ko'ra, Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda turkmanlarning tutgan o'rni ham muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, tadqiqotchi Otamurod Qo'shjonovning fikrlariga ko'ra, Turkman urug'lari Xiva xonligining siyosiy hayotida o'ziga xos o'rinda bo'lgan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, ular XVII-XVIII asrlardayoq Xiva xonlari va sultonlarining hokimiyat uchun olib borgan kurashlariga, keyinchalik "O'zbek zadogonlarining birinchi navbatda yirik o'zbek qabilalari-mang'it va qo'ng'irot zadogonlarining tinimisiz urushlariga tortildilar". Shuning bilan birga Turkmanlar mamlakatda qo'ng'irotlarning markazlashgan davlat barpo qilishiga yordam berdilar. O'z hukmronligini mustahkamlab olgan Xiva hukmdorlari esa yirik sug'orish ishlarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi, natijada Xorazmning g'arbi va shimoli-g'arbida sug'oriladigan yangi katta yer maydonlari yuzaga keldi. Bu yerlarga asosan turkman urug'lari ko'chirildi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XIX asrning birinchi choragidan Xiva xonligida turkman urug'lari xonlikning navkarlik xizmatiga tortiladilar. Navkarlikka xizmat qilish turkman urug'larining xonlik oldidagi asosiy harbiy aylana bordi. 1825 yilda xonlik navkarligi xizmatidagi turkman urug'lari soni 2989 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 1827 yilda 4108, 1832 1833 yillarda 5898, 1848 yilda 8360 nafarni tashkil qilgan. Ular xonlik navkarlarining jangovar qismi hisoblanganlar. Xonlarning harbiy yurishlarida va chet el bosqinchilariga qarshi olib organ kurashlarida mamlakat qo'shini ba'zan deyarli turkman navkarlaridan tuzilgan yoki ular jangchilarning ko'pchilik qismini tashkil etgan. Tadqiqotchi fikricha, XIX asr oxir –XX asr boshlarida Xiva xonligidagi siyosiy masalalardan biri xon hukumati va turkmanlar orasidagi munosabatlar masalasidir. Turkman urug'larining 1910 yildan keyin xon siyosatiga qarshi chiqishlari avj oldi . Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining milliy shakllanishida yurtimiz hududida mavjud bo'lgan barcha davlatlar va bu davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar muhim rol o'ynaydi.

Shundan kelib chiqqan holda tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimiz tarixida XI-XIV asrlarda ro'y bergan muhim ijtimoiy jarayonlar ham xalqimizning milliy shakllanishida muhim rol o'ynagan degan fikrni yuzaga keltiradi. Chunki bu davrlarda musulmon sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasiga ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining asosiy mafkurasiga aylanib ulgurgan edi. Mavorounnahrda arab

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

xalifaligining fotixlik siyosati natijasida o'zining barcha haq-huquqlaridan ajralib, madaniyati oyoq osti qilingan aholi islom dinini qabul qilishga, shariat ahkomlarini bajarishga, shuning bilan birga arab tili va yozuvini o'rganishga majbur bo'ladi. Ma'lum vaqt mobaynida aholi murakkab bo'lgan arab imlosini o'zlashtiradi lekin, arab tilini mukammal o'rganib, bu tilda asarlar yarata olish uchun yerli xalq olim va mutaffakkirlariga qarib bir yarim asr aqt kerak bo'ldi. Bunga sabab yuqoridagi bo'limda aytib o'tganimizdek, o'zbek xalqining ilk ajdodlari asrlar mobaynida, asosan turk va eroniy tillar oilasiga mansub tillarda so'zlashgan va bu tillarda asarlar yaratgan. Ammo shunday bo'lsa-da, arab xalifaligi davrida yashagan yetuk olim va mutaffakkirlar bir emas, bir nechta tillarda ijod qilgan va asarlar yaratgan. Shuningdek bu davrda buyuk allomalar bilan bir qatorda islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy Maxmud Zamaxshariy va kabi ulamolar yuksak darajada kamol topdi.

Agar tarix zarvaraqlarini varaqlaydigan bo'lsak, Mavorounnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilgach, uning o'rnida mustaqil Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Anushteginiylar davlati tashkil topadi. Bu davrda islom ta'limoti, shariat va ilm-ma'rifatga e'tibor yanada kuchayib, markaziy shaharlarda ko'plab masjidu madrasalar barpo etila boshlaydi. Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, Buxoro shahri markazga aylanib, bu shahar XI asrdan e'tiboran "Qubbat ul-islom" ya'ni, "Islom dinining gumbazi" nomi bilan butun musulmon sharqida dong taratadi. Biroq o'sha davrdagi hukmron tabaqa islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida foydalanishga intilib, mafkuraning barcha sohalari islomga tobe qilinadi hamda, asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan zardushtiylik e'tiqodi qoldiqlari va hurfikrlilikka qarshi keskin kurash olib borishadi. Mana shunday og'ir bir vaziyatda tasavvuf ta'limoti ijtimoiy omillardan biri sifatida Mavorounnahr aholisining ichki ma'naviy-ruhiy dunyosida muhim rol' o'ynaydi. Feodal davrda yuzaga kelgan bu diniy-falsafiy oqim dastlab Iroqda VII asrning o'rtalarida paydo bo'ladi.

Tasavvuf ta'limoti zamirida umumiy tarzda aytganda, poklangan zohid, taqvodorlik ma'nosini anglatuchi diniy ta'limot yotadi. Shuningdek bu ta'limot asosida inson faoliyati va uning kamoloti ko'ndalang masala sifatida qo'yiladi. Unda har bir kishining xalq bilan aloqada hayot kechirishi lozimligi va insonning har bir nafasida ong, aql-idrok bo'lmog'i, bosgan har bir qadamiga diqqat-e'tiborda bo'lishi, shuning bilan birga yurt, Vatan ishqi bilan yonishi kerak deb uqtiriladi. Bundan tashqari tasavvuf ta'limoti keng yoyila boshlagan bir paytda, feodal munosabatlar ham kuchaya boshlaydi biroq, bunga nisbatan aholida norozilik kayfiyati zo'rayib borsa-da, ushbu ta'limotdagi g'oyalar boy ma'naviy ozuqa sifatida nafaqat ular ongini to'ldiradi balki, ularni milliy jipslashishga ham chorlaydi.

Shuningdek tasavvuf ta'limotida tariqat yo'llari nihoyatda keng bo'lib, uning turli xil turlari bir paytda vujudga kelmay, turli davrlarda turli hududlarda tarqala boshlaydi. Masalan, Turkistonda XII asrda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi. Ushbu ta'limotning barcha turlarida Vatan va inson manfaatiga xizmat qiluvchi g'oyalar mavjud bo'lib, ularning har biri ikkinchisini to'ldirib, takomillashtirib boradi. Masalan tasavvuf ta'limotida keng tarqalgan kubroviya yo'nalishida inson kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishi va shu bilan birgalikda Vatan ravnaqi yo'lida hamda og'ir damlarda omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi hamda rivojlanishi uchun kurashishga da'vat etadi. Tarixdan ma'lumki, tasavvuf ta'limotining Kubroviya tariqatiga asos solgan Najmiddin Kubro bunday g'oya yo'lida 1221-yilda Chingizxon boshliq mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashishda jangda shahid bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda tasavvuf ta'limoti XIV asrda Naqshbandiya tariqatida yanada rivojlanib, ushbu tariqatdagi asosiy g'oyalar bo'lgan o'z mehnati bilan kun kechirish, muhtojlarga xayr-ehson berish, sofdil va kamtar bo'lish bilan birga ma'naviy-axloqiy kamolotga erishish orqali, olloh visoliga yetishish yo'llari yotadi. Bu ta'limotning asosiy g'oyasi bo'lgan "Dil ba yoru dast ba kor" ya'ni ("Dil yor bilan, qo'l esa ishda bo'lsin") inson hayotining asosiy mohiyatini tashkil qilib, bunda inson qo'li har doim mehnatda bo'lish bilan birga, dil esa har doim ollohda, xudoda bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Naqshbandiya tariqatidagi aynan mana shu hikmat Mavorounnahr aholisining kuchayib ketgan feodal munosabatlar davrida Vatanga va hayotga mehr-muxabbat uyg'otib, sabr-toqat bilan mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishga da'vat etadi. Shunday qilib, XII asrda Mavorounnahrda keng tarqalgan tasavvuf ta'limoti ushbu mintaqa aholisining ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bu ham o'zbek xalqining milliy shakllanishida yetakchi ijtimoiy omillardan biri bo'ldi. Buni biz ajdodlardan qolgan va bugungi kunda ham davom etib kelayotgan boy ma'naviy meros sifatida, xalqimizga xos bo'lgan Vatanga muxabbat, chidamlilik, sabr-toqatlilik, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, olijanoblik, kechirimlilik va boshqa fazilatlarni mavjudligida ham ko'rishimiz mumkin.

XVIII asrlardan boshlab sodir bo'la boshlagan Markaziy Osiyo tarixidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy turg'unlikni tanazzul davri sifatida baholash mumkin. Arab bosqini Markaziy Osiyodan boshqa dinlar va diniy ta'limotlarni siqib chiqarish barobarida islom madaniyatini yunon, eron, hind madaniyati bilan boyigan Markaziy Osiyo madaniyati ilm-fani bilan uyg'unlashgan holda takomillashishiga olib keldi. Bunga asosiy sabablardan biri islom dinidagi inson tarbiyasi va uning ma'naviy kamoloti masalasi edi. Bundan tashqari islom dinidagi insonni ta'lim olishga va ilm izlashga bo'lgan da'vat ham mintaqada ilm-fanni rivojlanishiga turtki bo'ldi. Buning natijasi esa Markaziy Osiyodan buyuk olim va ulamolarni yetishib chiqishi bilan belgilanadi. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom rasmiy hukmron dinga aylangan, ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan edi. Islom dini Markaziy Osiyoda faqat arablarning dini bo'lib qolmadi, u ko'pgina sharq xalqlarining ham umumiy diniga aylandi. Shuni aloxida e'tirof etish kerakki, Qur'onda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyatlar xalklarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sirning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ahamiyatini turlicha baholash, tahlil qilish mumkin, ammo uning o'tmishda ham muayyan qadrga ega ekanligini inkor qilishning iloji yo'q. Zaminimizda yashagan har bir mutafakkir, olim, alloma ijodida islom dini iloxiy kadriyatlarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga islomning yurtimizda tarqalishi va arab istilosi davrida ko'pgina milliy kadriyatlarimizning yuqotib yuborilganligini ham alohida qayd qilmok kerak. Bu to'g'rida Beruniy "Qadimgi xalqdardan qolgan yodgorliklar" asarida afsus bilan yozib qoldiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo xususan hozirgi O'zbekiston hududida tarqalgan sivilizatsiya arab dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta aks ta'sir ko'rsatgan. Tarixiy manbalarda arablarni madaniy va ilm-fan jihatidan qoloq millat sifatida ma'lumotlar uchraydi. Shunday bo'lsa-da Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelgunga qadar bo'lgan sivilizatsiyani har tomonlama yetuk deb aytish qiyin edi. Garchi bu sivilizatsiya madaniy jihatdan taraqqiy etgan bo'lsa-da, ilmiy-ma'rifiy jihatdan past edi. Bunga sabab sifatida bir nechta omillarni keltirish mumkin. Shulardan eng asosiysi insonlarni birlashtirib turadigan hukmron mafkuraning yo'qligi edi. To'g'ri mintaqada islom dini kirib kelgunga qadar bir necha din va diniy ta'limotlar rivojlanib, mintaqa xalqlarining ma'naviy taraqqiyotida muhim rolь o'ynagan edi. Misol sifatida bularning eng asosiysi bo'lgan zardushtiylikni olish mumkin. Bu ta'limotdagi falsafa insonni nafaqat bir-biriga balki, tabiatga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga ham iliq va samimiy munosabatda bo'lishga da'vat etadi. Zardushtiylik ta'limotidagi ma'naviyat va qadriyatlar islom dinidagi qadriyatlar hamda ma'naviy-ruhiy olam bilan uyg'unlashadi. Ya'ni, islom dini kirib kelgunga qadar mavjud bo'lgan Markaziy Osiyodagi madaniyat va qadriyatlar islom dini kirib kelishi bilan butunlay yo'qolib ketmaydi aksincha, u bilan uyg'unlashadi. Ana shuning uchun ham dunyodagi hozirgi islom davlatlaridagi islom madaniyati hozirgi Markaziy Osiyo shu bilan birga bu hududda tarqalgan islom madaniyatidan keskin farq qiladi. Islom dini bilan bog'liq bo'lgan bu va boshqa mintaqalarda tarqalgan islom madaniyati bir-birini identifikatsiya qilmaydi. Chunki ular o'rtasida o'xshashlik mavjud bo'lsa-da, bir-biridan alohida ajralib turadigan aniq farqliklar mavjuddir. Bu borada islom dini o'zi tarqalgan keng hududlardagi islom dini madaniyatlari bilan emas balki, boshqa dinlar bilan identifikatsiya bo'lishi mumkin.

Islom dini yurtimizga kirib kelganidan keyingi davrlarda ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu nisbiy barqarorlik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi. O'sha davr-buyuk mutafakkirlaridan biri Muxammad al-Xorazmiy xalifa al-Ma'mun tashkil qilgan "Baytul hikma" da katta mavqega ega bo'lgan. U ilgari surgan g'oyalarda qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari izohlangan.

XIV asrning 60-yillarida Mavorounnahrda hukm surgan nixoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o'z davrining bunday talabini yaxshi tushungan va u shuning uchun ham bor e'tiborini Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Bunday yuksak va mashaqqatli maqsadni amalga oshirishda Amir Temur ruhoniylar, harbiylar, savdogar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

va shahar hunarmandlariga tabaqalariga tayanib ish tutgan. Bundan tashqari u turk, arab, va eronliklar tarixini chuqur bilgan va amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanday bilimlarni qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan hamda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashgan.

Shuningdek Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi nomoyondalari bilan bir qator din sohasidagi mashhur ulamolar bilan doim suhbatda bo'lgan. Shu sababdan ham aynan Amir Temur davrida islom dini yuksak darajada rivojlanadi va masjidu madrasalar soni oshadi. Amir Temur davrida ilm-fanning ko'plab sohalari rivojlanishi uning bu sohaga doimiy e'tiborda bo'lganligidan dalolat beradi. Shuning bilan birga Amir Temur davrida ijtimoiy hayot gullab yashnaganligi bugungi kunda majud bo'lgan bu boradagi barcha tarixiy asarlar va adabiyotlarda uchraydi.

Xususan Amir Temurning hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, bu asar "Temur tuzuklari" deb nomlanadi. Amir Temur va Temuriylar tarixini tadqiq etgan olimlar fikricha, bu asardagi barcha manbalar uning o'z og'zidan yozib olingan. Asarda davlatni boshqarish uslublari bilan birga bu boradagi sir-sinoatlar shuningdek, Amir Temurning davlatni boshqarish davomida erishgan ulkan yutuqlari hamda ularning sabablari haqida so'z boradi. Shuning bilan birga asarda, davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining yo'nalishi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, askar-sipohilarning maoshi, davlat arboblari hamda qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar hamda boshqa mansabdorlarning davlat ishlarida ko'rsatgan alohida xizmatlarini munosib taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi. Albatta Amir Temur ushbu asarda keltirib o'tilgan barcha uslub va maslahatlarga to'la amal qilgan va busiz u barpo qilgan markazlashgan davlatni tuzib bo'lmasdi ham. Chunki Movarounnahrda Amir Temur hokimiyat tepasiga kelmasidan oldingi ijtimoiy-siyosiy ahvol tang holatda bo'lib, Mavorounnahr hududida yashagan umumiy aholi turli etnik birliklar va urug'-qabilalar sifatida yashab, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ham turlicha bo'lgan. Bu esa o'z navbatida, ushbu hududda yashagan xalqlarning milliy birlik va birdamlik asosida birlashishiga to'sqinlik qilar edi. Bundan tashqari davlatchiligimiz tarixida davlat boshqaruvi haqida asar yozib qoldirgan yagona hukmdor AmirTemur hisoblanadi.

U o'z zamonasi tartiblariga mos ravishda jamiyatni o'n ikki toifaga taqsimlasa-da, mohiyat e'tibori bilan bu o'n ikki toifaga barcha ijtimoiy guruhlar kirgan. Mavorounnahrni Amir Temur va Temuriylar boshqargan davrini tahlil qilishda "Temur tuzuklari" dan tashqari bir qancha boshqa tarixiy asarlarning o'rni katta albatta. Ammo bu asar boshqa asarlardan farq qilib, bu ham bo'lsa unda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosda qurish g'oyasining keng targ'ib qilinganiligidir. Amir Temur bu asardan davlatni boshqarishda keng foydalangan va shu bilan birga u davlat va jamiyatni boshqarishda asardan o'zidan keyingi hukmdorlarning ham foydalanishini targ'ib qilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Shu o'rinda Amir Temurning quyidagi gaplarini eslatib o'tish joizdir: "Bu tuzuklarni saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar..... ular ham ushbu tuzukka amal qilsinlar".

Amir Temur va Temuriylar davridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar faqatgina o'zbek davlatchiligining taraqqiy etgan davri sifatida chegaralanmay, bu davr milliy shakllanishda muhim rolь o'ynagan ijtimoiy-siyosiy omillarning yuzaga chiqishi bilan ham belgilanadi. Bu davrda milliy shakllanishda muhim rolь o'ynagan omillar asosan davlat manfaatlarining xalq manfaatlari bilan uyg'unlashishi natijasida milliy manfaatlarning shakllanishidir. Bunga sabab Amir Temurning mohir davlat boshqaruvi hamda oddiy xalqning g'amu tashvishlarini yaxshi anglaganligi hamdir. Bundan tashqari Amir Temurning islom dinini keng targ'ib qilishi va davlatchilik asoslarini huquqiy jihatdan mustahkamlashidir. Bu o'z-o'zidan nafaqat oddiy xalq balki, davlat amaldorlarining ham sohibqironga nisbatan hurmat ehtiromini kuchaytirgan. Bunga Amir Temur o'tkazgan barcha sohadagi islohotlar ham sabab bo'ladi. Shuningdek Amir Temur vatanni sevish, xalqni ulug'lash, faxrlanish va g'ururlanish singari xususiyatlar bilan birga, to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat kabi hislatlarni ham o'zida mujassam etgan edi. Bu bir tomondan Amir Temurga xos bo'lgan hislatlar bo'lsa, ikkinchi tomondan, islom dini va ta'limotining qonun-qoidalariga to'la amal qilishi edi. Bu boradagi e'tiborli jihat shundan iboratki, Amir Temur o'zi sevgan va amal qilgan hislatlarni oddiy xalq tafakkurida ham shakllantira olgan. Shundan kelib chiqqan holda bu davrda quyidagi ijtimoiy omillarni xalq ijtimoiy hayotida mavjud edi deb hisoblasak to'g'riroq bo'ladi: inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etish; har bir fuqaroni ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan eng maqbul yo'lni ko'rsata olish; xalqni va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch, e'tiqod manbaining mavjudligi; mintaqada yashovchi barcha xalq, elat va ijtimoiy qatlamga birday munosabatda bo'lish.

Amir Temur va Temuriylar davrining tarix oldidagi xizmatlari benihoya katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal taoqoqlikka barham berib, yurt va xalqni o'z hukmi ostida birlashtira oldi va markazlashgan davlatni tuzdi. Xalq va millat rivoji uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-siyosiy omillar shu davrda yuzaga chiqdi va bu o'zbek xalqining milliy shakllanishida yetakchi rolь o'ynadi. Bundan tashqari iqtisodiy va madaniy sohadagi ulkan islohotlar xususan, hunarmandchilik, savdo-sotiq hamda madaniyat rivojiga zamin yaratib berdi. Shuningdek Bugun biz "Temur va Temuriylar madaniyati", "Temuriylar davlati", "Ulug'bek va Samarqand astronomiya maktabi", "Navoiy" va "Bobur" kabi qutlug' so'zlarni nafaqat o'zbekning balki jahon xalqlari asarlari sahifalarida ham uchratar ekanmiz, bu kabi iboralarning zamirida Amir Temurning xizmatlari beqiyos ekanligini anglab yetamiz. Ikkinchidan, esa Amir Temur o'zi bilib-bilmasdan ko'plab mamlakatlarni mustamlakachilik zulmidan ozod qilish bilan birga xalqlarga erk berib, ularni millat bo'lib shakllanishiga imkoniyatlar yaratadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Keyinchalik Amir Temur vafotidan keyin hukm surgan Temuriylar davrida hokimiyat uchun boshlangan kurash va ichki nizolar mintaqaga yangi siyosiy kuchlarning kirib kelishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, millat shakllanishi davomida boshdan kechirgan tarixiy jarayonlar u hoh ijtimoiy, hoh siyosiy, hoh madaniy bo'lsin bu uning millat sifatida shakllanish davomidagi butun borlig'idir. Ana shu borliq tufayli inson millat sifatida o'zini boshqalardan farqlaydi yoki aynanlashtiradi. Ammo buning uchun ham ma'lum bir sharoit, muhit va davr bo'lishi lozim. Aynan ana shunday davr va muhit o'zbek xalqi tarixida asosan IX-X va XIV-XV asrlarda ro'y beradi. Bunga sabab aynan shu davrlarda milliy shakllanishda muhim rolь o'ynagan ijtimoiy-siyosiy omillar bilan birga, taraqqiy etgan islom dini va uning ma'naviy olami, o'zlikni anglash, etnik birliklar birligi, milliy qiziqishlarni uyg'otgan siyosiy tuzum hamda markazlashgan davlatning mavjudligi edi. O'zbek xalqining shakllanish tarixi davomida kechgan shu kabi omillar o'zbek identifikatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil qiladi. Bu xususiyatlarga uzoq tarixga ega bo'lgan davlatchilik hamda uning mustahkam asoslari, kuchli e'tiqod manbai, tolerantlik, bag'rikenglik, boy ma'naviy meros, madaniy uyg'unlashuv, asrlar davomida saqlanib kelayotgan umumbashariy qadriyatlar (masalan tabiatga, ekologiyaga, hayvonot olamiga nisbatan) va boshqalarni kiritish mumkin. Milliy shakllanishda muhim rolь o'ynagan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy omillar yurtimiz hududida kechgan tarixiy jarayonlar xususan, xonliklar va chor Rossiyasi davrida ham davom etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Choriyev A. Inson falsafasi. 2 tomlik. Mustaqil shaxs. / Monograflya. T., Chinor ENK, 2002.
2. Эстетическое воспитание студентов. Москва: Высшая школа, 1980.
3. Estetik tarbiya asoslari. —Toshkent: O'qituvchi, 2001
4. G'aybullayev O. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat/Monograflya. T., Chashma print, 2008
5. Reich Ch.A. The Greening o f Amerika. N.Y., 1970

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ibragimov Bahrom**,o`qituvchi, [**Ибрагимов Бахром**, преподаватель], [**Ibragimov Bahrom**, teacher]; manzil: O'zbekiston, 100194, Toshkent shahar, Yunusobod tuman, Yangishahar ko'chasi, 9A-uy [адрес: Узбекистан, ул. 100194, город Ташкент, Юнусабадский район, улица Янгишахар, дом 9А], [adress: Uzbekistan, 100194, Tashkent city, Yunusabad district, Yangishahar street, 9 A-house.]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

GOOGLE EARTH DASTURI VA UNING TARIX FANLARINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

© M.J. Boltayeva[1]✉
[1]Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax Filiali,Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

Kirish: maqolada Google Earth dasturining tarix fanlarini o‘qitishda qo‘llanilishi va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – google earth dasturining tarix darslaridagi o‘rni va o‘quvchilarda tarixiy-geografik tasavvurni shakllantirishdagi ahamiyatini o‘rganishdir. shuningdek, tarixiy hodisalar va joylarni vizual ko‘rsatish orqali o‘quvchilar uchun murakkab mavzularni osonlashtirish imkoniyatlarini o‘rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda google earth dasturining ta’lim jarayonida qo‘llanishi bo‘yicha adabiyotlar va pedagogik materiallar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, Google Earth dasturidan foydalanish tarixiy joylar va hodisalarni aniqroq tushuntirish, ularni geografik joylashuvi bilan bog‘lash imkoniyatini beradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari google earth dasturining tarix fanlarini o‘qitishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Google Earth, tarix ta’limi, geografik tasavvur, virtual ekskursiya, interfaol o‘qitish, tarixiy joylar, vizual ta’lim.

Iqtibos uchun: Boltayeva M.J. Google Earth dasturi va uning tarix fanlarini o'qitishdagi ahamiyati // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.31–37.

ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ GOOGLE EARTH И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

© М.Ж. Болтаева[1]✉
[1]Джизакский филиал Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется использование программы google earth в преподавании истории и её значение в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить роль программы google earth на уроках истории и её значение в формировании у учащихся историко-

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

географических представлений, а также возможности облегчения сложных тем через визуализацию исторических событий и мест.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ литературы и педагогических материалов по использованию программы google earth в образовательном процессе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование google earth позволяет более точно объяснять исторические места и события, связывая их с их географическим расположением.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что программа google earth имеет большое значение в преподавании истории.

Ключевые слова: Google Earth, преподавание истории, географическое представление, виртуальная экскурсия, интерактивное обучение, исторические места, визуальное обучение.

Для цитирования: Болтаева М.Ж. Программное обеспечение Google Earth и его значение в преподавании истории // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 31–37.

GOOGLE EARTH PROGRAM AND ITS IMPORTANCE IN TEACHING HISTORY

© Mokhichekhra J. Boltayeva[1]✉
[1] Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the use of google earth software in teaching history and its significance in the educational process.

AIM: the main objective of the study is to examine the role of google earth in history lessons and its importance in developing students' historical-geographical perception, as well as exploring opportunities to simplify complex topics for students by visualizing historical events and places.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing literature and pedagogical materials on the use of google earth in the educational process.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that using google earth allows for a clearer explanation of historical places and events by linking them with their geographic locations.

CONCLUSION: the study results indicate that google earth is of great significance in teaching history.

Keywords: Google Earth, history education, geographic perception, virtual tour, interactive teaching, historical places, visual learning.

For citation: Mokhichekhra J. Boltayeva. (2024) Google Earth program and its importance in teaching history, Inter education & global study, (8(1)), pp. 31–37. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Tarixni o‘qitish odatda darsliklar, xaritalar va ma’ruzalar orqali murakkab voqealar, madaniyatlar va joylarni o‘rgatishga asoslangan edi. Biroq, raqamli vositalarning paydo bo‘lishi bilan tarix ta’limi o‘zgarmoqda va bu o‘zgarishlar o‘quvchilarga interaktiv, vizual va immersiv o‘quv tajribalarini taqdim etib, ularning tushunish va eslab qolish qobiliyatlarini oshiradi. Ushbu vositalar orasida Google Earth kuchli resurs sifatida ajralib turadi, bu o‘quvchilarga tarixiy joylarni o‘rganish, topografik xususiyatlarni ko‘rish va turli davrlardagi voqealarning geografik kontekstini o‘rganish imkonini beradi.

Google Earth — bu virtual platforma bo‘lib, unda batafsil sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, 3D landshaftlar va muayyan joylarning tarixiy ko‘rinishlari taqdim etiladi. Ushbu vosita o‘quvchilarga tarixiy ahamiyatga ega joylarga virtual ravishda "sayohat" qilish imkonini berib, ularni tarixiy rivojlanishlarga ta’sir qilgan makon va muhit omillarini o‘rganishga undaydi. Masalan, o‘quvchilar Rim imperiyasi yoki Misr piramidalarining xarobalarini virtual ravishda o‘rganib, ushbu tarixiy joylarning kenglik va ko‘lamini his qilishlari mumkin. Jang maydonlari, savdo yo‘llari va qadimiy aholi punktlarining geografik joylashuvini tushunish orqali o‘quvchilar muhim makoniy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va geografiya bilan tarixning qanday bog‘liqligini chuqurroq anglab etadilar.

Tarix faqat voqealar haqida emas, balki ularning kontekstini tushunish haqida ham ekanligini hisobga olganda, Google Earth o‘quvchilarga tarixiy hikoyalarni haqiqiy dunyo joylari bilan vizual ravishda bog‘lash imkonini beradi. Ushbu maqola Google Earth dasturining o‘ziga xos xususiyatlari va uning tarix o‘qitishdagi qo‘llanishini o‘rganadi hamda bu dastur qanday qilib geografik savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash va qiziqarli hamda interaktiv tarix darslarini yaratishga xizmat qilishini tahlil qiladi.

So‘nggi yillarda ta’lim amaliyotiga raqamli vositalarni integratsiya qilish keng tarqalmoqda, va ko‘plab tadqiqotlarda texnologiyaning sinfda qo‘llanishi bilan bog‘liq afzalliklar va qiyinchiliklar o‘rganib chiqilgan. Tarix ta’limi doirasida tadqiqotchilar Geographic Information Systems (GIS), virtual haqiqat va interaktiv xaritalar kabi raqamli resurslarning tarixiy voqealar va makonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganishgan. Ushbu adabiyotlar sharhida tarixni o‘qitishda Google Earth va boshqa geografik texnologiyalarning o‘quvchilarning ishtiroki, makoniy xabardorligi va tanqidiy fikrlashiga ta’sirini o‘rgangan tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi.

Bir qancha tadqiqotlarda tarix ta’limida interaktiv o‘quv tajribalarini yaratish maqsadida raqamli texnologiyaga o‘tish jarayoni ta’kidlangan. Goodchild va Janelle (2004) fikricha, Google Earth kabi GIS vositalarini sinfda qo‘llash orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni haqiqiy kontekstda tasavvur qilishlari, murakkab tarixiy hodisalarni osonroq tushunishlari va talqin qilishlari mumkin. Hay va Pringle (2003) raqamli xaritalar yoki 3D tasvirlar ko‘rinishidagi vizual yordamlar o‘quvchilarga tarqoq yoki abstrakt voqealarni intuitiv tushunishga yordam berishini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Google Earth kabi interaktiv va immersiv raqamli vositalar o‘quvchilarning passiv ma’lumot olishdan faol o‘quv jarayoniga o‘tishiga yordam

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

beradi. Liff va Shepard (2013)ga ko‘ra, raqamli xaritalar o‘quvchilarni makoniy ma’lumotlarni o‘rganishga va savol berishga undaydi, bu esa o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu yondashuv, o‘quvchilar makoniy ma’lumotlar va tarixiy voqealar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni shakllantirganlari sababli, tarixiy bilimlarning ko‘proq yodda qolishini ta’minlaydi.

Google Earth o‘quvchilarda makoniy fikrlash va geografik savodxonlikni rivojlantirishdagi hissasi uchun tan olingan. Lee va Bednarz (2012) makoniy savodxonlik tarixiy voqealarni tushunishda muhim ekanligini ta’kidlaydi, chunki geografiya ko‘pincha ularni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, janglar, migratsiyalar va savdo yo‘llari geografik xususiyatlar ta’sirida bo‘ladi, bu esa Google Earthning 3D landshaftlari, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va relyef modellarida samarali tasvirlanishi mumkin.

Baker va boshqalar (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqot Google Earthdan foydalangan o‘quvchilarning faqat an’anaviy usullarga tayangan o‘quvchilarga qaraganda makoniy fikrlash ko‘nikmalari yaxshiroq rivojlanganligini ko‘rsatdi. O‘quvchilar tarixiy voqealar sodir bo‘lgan joylarni interaktiv o‘rganish orqali joy va tarixiy hikoyalar o‘rtasidagi mazmunli bog‘liqliklarni hosil qiladilar. Baker va uning hamkasblariga ko‘ra, bu yaxshilangan makoniy xabardorlik geografiyaning inson faoliyatiga vaqt o‘tishi bilan qanday ta’sir qilganini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Google Earthning tarixiy tasvirlar funksiyasi o‘quvchilarga joylarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini o‘rganishga imkon beradi, bu esa tarixiy savodxonlikning asosiy qismi hisoblangan vaqtni tushunishni qo‘llab-quvvatlaydi. Gregory va Ell (2007) kabi tadqiqotchilar vaqtni tushunish yoki tarixiy o‘zgarishlarni qabul qilish qobiliyati tarix o‘quvchilari uchun muhim ko‘nikma ekanligini ta’kidlaydilar. Google Earth orqali o‘quvchilar urbanizatsiya, o‘rmonlarning qisqarishi yoki siyosiy chegaralarning o‘zgarishini kuzatishlari va bu ko‘nikmani rivojlantirishlari mumkin.

Hammond va boshqalar (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘quvchilarning Google Earthdan foydalangan holda tarixiy o‘zgarishlarni kuzatib, sababiyat va davomiylik bo‘yicha muhokamalar olib borishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, urushlar yoki sanoat rivojlanishi tufayli landshaftning o‘zgarishlarini kuzatish orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarning uzoq muddatli ta’sirini anglaydilar. Ushbu vizual vaqt chizig‘i o‘quvchilarga tarixiy taraqqiyot va chekinish tushunchalarini darsliklarsiz osonroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotda Google Earthning tarixiy darslardagi o‘quvchilarning ishtirokini va qiziqishini oshirishi ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Wankel va Blessinger (2013) Google Earth o‘quvchilar uchun o‘yin elementlariga ega interaktiv o‘quv muhitini taklif qilishini, bu esa texnologiyaga o‘rganib qolgan o‘quvchilarga mos kelishini ta’kidlaydilar. Ushbu interaktiv muhit o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ko‘proq ishtirok va yaxshilangan o‘quv natijalariga olib keladi.

Bundan tashqari, Lane (2017) Google Earth asosidagi tarixiy darslarda qatnashgan o‘quvchilar qiziqish va mustaqil o‘qish xatti-harakatlarini ko‘proq namoyon qilganligini aniqladi. Tarixiy joylarni virtual o‘rganish orqali o‘quvchilar mazmun bilan yaqinroq

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

bog‘lanib, mustaqil izlanishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishadi va mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

dabiyotda Google Earthning tarixni o‘qitishdagi samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, ayrim qiyinchiliklar ham ta’kidlangan. Brooks va Tofallis (2016) fikriga ko‘ra, ayrim o‘qituvchilarning Google Earth bilan tanish emasligi uning sinflarda qo‘llanilishini cheklashi mumkin. Ushbu to‘siqni bartaraf etish uchun Google Earthning tarix ta’limidagi amaliy qo‘llanilishiga doir o‘qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Shuningdek, ba’zi ta’lim muassasalarida texnologiya va ishonchli internetga kirish imkoniyati cheklangan. Goodchild va boshqalar (2014)ga ko‘ra, sinfda raqamli vositalarning samaradorligi texnologik infratuzilmaga bog‘liq, va bu barcha maktablarda bir xil darajada mavjud emas. Bu nomutanosiblik ayrim o‘quvchilar uchun Google Earth va boshqa vositalarning imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Adabiyotda Google Earth tarix ta’limida qimmatli resurs ekanligi, o‘quvchilarga tarixiy voqealarni makoniy orientatsiyaga ega bo‘lgan, interaktiv platforma orqali o‘rganishga imkon berishi ta’kidlangan.

Google Earthning Tarix Ta’limiga Oid Xususiyatlari

Google Earth — bu virtual globus bo‘lib, foydalanuvchilarga turli geografik landshaftlarni o‘rganish imkonini beradi. Tarix ta’limi uchun foydali bo‘lgan asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tarixiy Tasvirlar: O‘quvchilar turli davrlarga oid tasvirlarni ko‘rib, muayyan joylarda vaqt davomida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni kuzatishlari mumkin.

Ko‘cha Ko‘rinishi: Yerdan ko‘rinadigan tasvirlarni taqdim etib, o‘quvchilarga muhim diqqatga sazovor joylarni va joyning o‘zi, relefi va arxitekturasini o‘rganish imkonini beradi.

3D Relyef: Landshaftlarni vizualizatsiya qilish imkonini berib, janglar, migratsiyalar va aholi punktlarining joylashuvini tushunishga yordam beradi.

Qatlamlar va Belgilar: O‘qituvchilar ma’lum joylarga maxsus belgilash belgilarini qo‘shishlari va siyosiy chegaralar, topografiya va iqlim ma’lumotlarini kiritishlari mumkin.

Google Earthni Tarix Ta’limida Qo‘llash.

Google Earth tarixiy voqealarni ma’lum joylarga bog‘lash orqali o‘quvchilarga noyob tasavvur beradi. Ba’zi qo‘llanmalari quyidagicha:

Tarixiy voqealarni xaritalash: O‘qituvchilar Google Earthdan tarixiy voqealar, masalan, janglar, imperiyalar yoki savdo yo‘llari uchun joylarni belgilash uchun foydalanishlari mumkin. Masalan, Buyuk Ipak Yo‘lini Google Earthda kuzatish o‘quvchilarga yo‘lning murakkabliklarini va savdogarlar duch kelgan geografik qiyinchiliklarni tasavvur qilish imkonini beradi.

Qadimgi sivilizatsiyalarni o‘rganish: Misr piramidalari yoki Rim Kolizeyi kabi qadimiy joylarni o‘rganish orqali o‘quvchilar qadimiy jamiyatlarning me’moriy va madaniy amaliyotlariga doir tushunchalarni oladilar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Vaqt o‘tishi davomidagi o‘zgarishlarni kuzatish: Tarixiy tasvirlar funksiyasi shaharsozlik, o‘rmonlarning kamayishi va hududiy kengayish kabi o‘zgarishlarni o‘rganishga yordam beradi, o‘quvchilarga tarixiy rivojlanishni aniqroq his qilish imkonini yaratadi.

Geografik va makoniy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tarix ta’limida ko‘pincha geografik kontekstni tushunish zarur bo‘ladi. Google Earth ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

Geografik Bog‘liqliklarni Tasavvur Qilish: O‘quvchilar mamlakatlar, dengizlar va tog‘larning yaqinligini ko‘rib, ba’zi voqealar nima uchun aynan shu joylarda sodir bo‘lganini tushunishlari mumkin.

Voqealarga Topografiyaning Ta’sirini Tahlil Qilish: 3D Relyef funksiyasi orqali o‘quvchilar janglarda tog‘ to‘siqlari kabi landshaftning tarixiy voqealarga qanday ta’sir qilganini qadrlaydilar. Kartografiya ko‘nikmalarini rivojlantirish: O‘qituvchilar o‘quvchilarga yo‘llarni xaritalash yoki qatlamlarni yaratish topshiriqlarini berishlari mumkin, bu esa xaritalarni o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmalarini oshiradi.

Google Earthdan sinfda foydalanishning afzalliklari.

Google Earthning interaktiv xususiyatlari bir qator ta’limiy afzalliklarni taqdim etadi, jumladan:

Ishtirok va rag‘batni oshirish: Google Earthning vizual va interaktiv formati tarixni o‘rganishni o‘quvchilar uchun qiziqarliroq qiladi.

Yodda saqlashni kuchaytirish: O‘quvchilar vizual ravishda ko‘rgan ma’lumotni yaxshiroq yodda saqlashadi. Google Earth tarixiy bilimlarni vizual tasvirlar bilan bog‘lab, eslab qolishni kuchaytiradi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish: Tarixiy tasvirlar va topografik ma’lumotlarni tahlil qilish o‘quvchilarning geografiyaning tarixga ta’siri haqida tanqidiy fikrlashiga turtki beradi.

Google Earth tarix ta’limini rivojlantirish uchun dinamik va samarali vositadir. O‘quvchilarga tarixiy joylarni virtual tarzda o‘rganish va tarixiy voqealarga geografik omillarning ta’sirini vizualizatsiya qilish imkoniyatini berish orqali u an’anaviy, ko‘pincha mavhum yondashuvni o‘zgartiradi. Ushbu interaktiv vosita o‘quvchilarning tarixiy voqealarni tushunishiga yordam beradi va makoniy hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ular geografiyaning inson tarixi rivojiga ta’sirini tahlil qilish va talqin qilishni o‘rganadilar.

Adabiyotlarda Google Earthni tarix ta’limiga integratsiya qilish darslarni vizual va kontekstual jihatdan immersivroq qilish orqali o‘quvchilarni jalb etish va bilimni yodda saqlash qobiliyatini kuchaytirishi tasdiqlangan. Uning tarixiy tasvirlari va 3D landshaft xususiyatlari o‘quvchilarga vaqt o‘tishi bilan sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni kuzatish va tarixdagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini yanada yaxshi anglash imkonini beradi. Texnologiyaga kirish imkoniyati va o‘qituvchilarni tayyorlash zarurati bilan bog‘liq ayrim qiyinchiliklarga qaramay, Google Earthning sinfdagi afzalliklari uni ta’lim uchun muhim o‘quv resursiga aylantiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Raqamli dunyo tobora rivojlanib borar ekan, Google Earth kabi vositalar mazmunli va dolzarb ta'limiy tajribalarni yaratish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablar o'quv dasturlariga ko'proq texnologiyalarni qo'shishga intilar ekan, Google Earth tarix ta'limini boyitish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi, shunday qilib, o'quvchilar nafaqat tarixiy faktlarni o'rganadilar, balki o'tmishning geografik va vaqt bo'yicha o'lchamlarini chuqurroq tushunadilar. Bunday vositalarni ta'lim jarayoniga kiritish natijasida yanada ma'lumotli, jalb etilgan va tanqidiy fikrlovchi o'quvchilar avlodi shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Goodchild, M. F., & Janelle, D. G. (2004). Spatially Integrated Social Science. Oxford University Press.
2. Hay, I., & Pringle, J. K. (2003). Geographical Information Systems in Geography and Archaeology: GIS and Techniques.
3. Mohammed, N. Z., Ghazi, A., & Mustafa, H. E. (2013). Positional accuracy testing of Google Earth. International Journal of Multidisciplinary Sciences and Engineering, 4(6), 6-9.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Boltayeva Mohichexra Jamshid qizi**, dotsent,PhD [**Болтаева Моҳичехра Жамшид кизи,**доцент, PhD], [**Mokhichekhra J. Boltayeva,** associate professor,PhD]; manzil: O'zbekiston, Shahar: Jizzax, Sh.Rashidov shox ko'chasi, 259 uy [Адрес: Узбекистан, Город: Город: Джизак, ул. Ш.Рашидова, дом 259], [Address: Uzbekistan, City: Jizzakh, Sh. Rashidov branch street, house 259];

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

RINOLALIYALI BOLALARDA TOVUSH QO`YISH XUSUSIYATLARI

© D. Baltabayeva[1]✉
[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada rinolaliyali bolalarda tovush qo‘yishning o‘ziga xos xususiyatlari va ushbu jarayonda duch kelinadigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – rinolaliyali bolalarda tovushlarni to‘g‘ri shakllantirish jarayonida qo‘llaniladigan korreksion yondashuvlarni o‘rganish va samarali pedagogik metodlarni ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda rinolaliyali bolalar bilan ishlashga mo‘ljallangan logopedik adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, rinolaliyali bolalar uchun tovushlarni to‘g‘ri shakllantirishda maxsus logopedik yondashuvlar va nafas mashqlari qo‘llanilishi sezilarli samara beradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari rinolaliyali bolalarda tovush qo‘yish jarayonini rivojlantirish uchun maxsus logopedik metodlarning zarurligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: rinolaliya, tovush qo‘yish, nutqiy nuqson, logopedik mashg‘ulotlar, korreksion ish, nafas mashqlari, talaffuz.

Iqtibosuchun: Baltabayeva D. Rinolaliyali bolalarda tovush qo`yish xususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 38–46.

ХАРАКТЕРИСТИКА ЗВУЧАНИЯ У ДЕТЕЙ С РИНОЛИЕЙ

© Д. Балтабаева[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются особенности постановки звуков у детей с ринолалией и трудности, возникающие в этом процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить коррекционные подходы, применяемые в процессе правильного формирования звуков у детей с ринолалией, и разработать эффективные педагогические методы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ логопедической литературы, предназначенной для работы с детьми с ринолалией.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование специальных логопедических подходов и дыхательных упражнений для

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

правильного формирования звуков у детей с ринолалией дает значительный эффект.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают необходимость использования специальных логопедических методов для развития процесса постановки звуков у детей с ринолалией.

Ключевые слова: ринолалия, постановка звуков, речевое нарушение, логопедические занятия, коррекционная работа, дыхательные упражнения, произношение.

Для цитирования:Балтабаева Д. Характеристика звучания у детей с ринолией // Inter education & global study.2024. №8(1). С. 38–46.

CHARACTERISTICS OF SOUNDING IN CHILDREN WITH RHINOLIA

©Durdona Baltabayeva[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the specific characteristics of sound articulation in children with rhinolalia and the difficulties encountered in this process.

AIM: the main objective of the study is to examine the correctional approaches used in the process of correctly forming sounds in children with rhinolalia and to develop effective pedagogical methods.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing speech therapy literature designed for working with children with rhinolalia.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that using special speech therapy approaches and breathing exercises for correct sound formation in children with rhinolalia provides significant benefits.

CONCLUSION: the study results confirm the necessity of using specific speech therapy methods to improve sound articulation in children with rhinolalia.

Keywords: rhinolalia, sound articulation, speech impairment, speech therapy sessions, correctional work, breathing exercises, pronunciation.

For citation: Durdona Baltabayeva. (2024) Characteristics of sounding in children with rhinolia, Inter education & global study, (8(1)), pp. 38–46. (In Uzbek).

Respublikamizda so`nggi yillarda turli kasalliklarni erta tashxislash va asoratlarini oldini olishga qaratilgan turli xil dasturiy tadbirlarni takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta'lim berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori, 2017 yil 29 dekabrdagi "2018-2022 yillarda bolalarda tug`ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash davlat dasturi to`g`risida"gi PQ-3440-sonli qarori va boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Nutq insonlarning kommunikatsion faoliyatiga va ijtimoiylashuv jarayonlariga ta'sir etuvchi bilish jarayonidir. Hozirgi davrda nutq nuqsonlarining turlari va ularning har tomonlama o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish korreksion pedagogik faoliyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rinolaliya nutq nuqsoni ham boshqa nutq kamchiliklari singari o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan, erta diagnostikani talab qiluvchi murrakkab nuqsondir. Lab va tanglayning tug‘ma yoriqligi sababli, bolaning ovqatlanishi, uning fiziologik va fonatsion nafas olishi ozmi-ko‘pmi buziladi, yuz mushaklarining tabiati o‘zgaradi, fonematik eshitish pasayadi, tilning patologik holati kuzatiladi. Tabiiyki, bularning barchasi bolaning talaffuz xususiyatlariga va nutqini shakllanishiga ta’sir qiladi.

Rinolaliyadagi nutqning talaffuz tomonining buzilishi o‘ziga xos va juda aniq belgilarga ega. Xususan, bu tovush talaffuziga taalluqlidir, chunki ochiq burun ottenkali, ham ochiq rinofoniya, ham dizartriyada sodir bo‘ladi. Ammo rinolaliyada tovushlarning o‘ziga xos hosil bo‘lishi boshqa nutq patologiyalarida sodir bo‘lmaydi.

Artikulyatsiya organlarining harakatlanish funksiyasini meyorlashtirish to‘g‘ri talaffuzni tarbiyalashning zarur shartidir. Undosh tovushlarni qo‘yishga kirishilar ekan, muayyan tartibga rioya qilish kerak bo‘ladi. Korreksiya artikulyatsion jihatdan jarangsiz tovushlarni shakllantirishdan boshlanadi: bular lab-tish frikativ *f* va lab-lab portlovchi *p* tovushlaridir.

Ish ushbu tovushlar artikulyatsiyasini ovozsiz ko‘rsatishdan boshlanadi, fonemaning nomi aytilmaydi. Bolaga u bilan qanday tovush talaffuzi o‘rganilishi aytilmaydi. Bu o‘rinda odatda patologik talaffuz stereotipi kuchli mustahkamlanib qolgan bo‘ladiki, bola bu tovushni avvalgidek talaffuz qiladi. Nuqsonli artikulyatsiyaning takrorlanishini oldini olish uchun, artikulyatsiya keyinroq boshqa undosh tovushlar quyilayotganida ham ovozsiz ko‘rsatiladi.

F tovushining qo‘yilishi. Boladan pastki labni ustki tishlarga yaqinlashtirish va keyin yo‘nalgan uzoq nafas chiqarish so‘raladi. Bu turdagi nafas chiqarish avvaldan tayyorlov bosqichida yaxshilab mashq qilingan bo‘lishi kerak. Tanglay-halqum yetishmovchiligi bo‘lgan bolalarda, agar yumshoq tanglay mushaklarining harakatchanligi past, og‘izdan nafas chiqarish zaif va qisqa bo‘lsa, havoning burun yo‘llariga o‘tib ketishini kamaytirish uchun, burun kataklarini ikki yondan qisib turishga to‘g‘ri keladi. Faqat shu yo‘l bilan og‘iz ichida kerakli bosimni hosil qilish va bolaga kerakli kinesteziyalarni his qilishga ko‘maklashish mumkin. Bu usul dastlabki mashg‘ulotlarda (2-3) qo‘llanadi va har bitta keyingi mashqda mexanik yordam kamaytirib boriladi va nihoyat qo‘l bilan sal tegib qo‘yish darajasigacha olib kelinadi. Shunday qilib, havoning burunga oqib o‘tishini kamaytirishga erishish mumkin bo‘ladi. Tovushni bevosita bo‘g‘in tarkibida chiqarishga harakat qilgan yaxshiroq, shunda uning undosh bilan qo‘shilib kelishida qiyinchiliklarni chetlab o‘tsa bo‘ladi.

P tovushining qo‘yilishi. Lab-lab *p* tovushining korreksiyasi, artikulyatsiyada til o‘zagining qatnashuvi va burun emissiyasining mavjudligidan tashqari, tish-jag‘ tizimining tuzilishidagi anomaliyalar tufayli ham qiyinlashishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Masalan, lab va tanglayda ikki tomonlama kemtiki bo‘lgan bolalarda ko‘p hollarda lablar harakatchanligi cheklangan, tish qatorlari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi, jag‘lararo suyak protruziyasi (oldinga bo‘rtib chiqishi) kuzatiladi, alveolyar o‘simta kemtiki ikki tomonlama bo‘ladi. *P* tovushini to‘g‘ri talaffuz qilish uchun lablar osoyishta, kuchlanmasdan birikishi va bu birikuv bir onda havo chiqarish bilan tugallanishi kerak bo‘lganligi uchun, bu tovushni qo‘yish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Imkon darajada meyorga yaqinlashtirilgan lab artikulyatsiyasini hosil qilish uzoq vaqtni talab qiladi. Artikulemani ovozsiz shakllantirish uchun, boladan u onasini lablarini cho‘chchaytirib, qanday o‘pishini ko‘rsatish so‘raladi. Bu harakatni amalga oshirish malakasi hosil qilingach, pushkadan otishga taqlid qilishga o‘tiladi. Logoped bolaga pushka qanday o‘tishini ko‘rsatadi va undan ushbu harakatlarni ko‘rsatib berishni so‘raydi. Bu mashqni bajarish uchun og‘izdan yo‘naltirilgan nafas chiqara olish kerak. Ushbu mashqni bajarishda eshituvni nazorat qilib borish talab etiladi. Bu maqsadda bo‘g‘zi tor shisha idish qo‘llanadi. U bolaning lablariga yaqin olib kelinadi. Havo oqimi shishachaga kirganda, o‘ziga xos shovqin chiqsa, mashq to‘g‘ri bajarilgan hisoblanadi.

Ayrim logopedlar *P* tovushini lunjlarni shishirib turib qo‘yishda taklif qiladilar. Bunday usulni qo‘llash maqsadga muvofiq emas, chunki bu [P] tovushining normadagi talaffuzi uchun xos bo‘lmagan noto‘g‘ri kinesteziyalarning mustahkamlanishiga olib keladi. Bola *P* tovushini lunjlarni shishirib turib talaffuz qilishga o‘rganib qoladi va natijada bu harakatlarni bartaraf qilish uchun qo‘shimcha ish olib borishga to‘g‘ri keladi.

Shivirlagan *p* paydo bo‘lganidan keyin, uni ovoz bilan talaffuz qilishga o‘tiladi. Buning uchun tovushni qattiqroq talaffuz qilish talab etiladi. Logoped oldin bu qanday qilinishini ko‘rsatib beradi.

Shakllangan talaffuz ko‘nikmalarining mustahkamlanishi statik va dinamik nafas gimnastikasi jarayonida olib boriladi: tik turgan holda, qo‘llar yonga ochiladi, tana pastga engashib nafas olinadi, nafas chiqara turib *a-fa* deb qo‘shiqsifat talaffuz qilinadi; *p* tovushi bilan ham xuddi shunday mashq bajariladi; tik turgan holda, qo‘llar pastga tushirilib, barmoqlar mushtlanadi va nafas olinadi, keyin nafas chiqarishda pastga engashib, bir paytning o‘zida quyidagi bo‘g‘inlar zanjiri talaffuz qilnadi: [fa]-[fo]-[fe]-[fi]-[fu]. *P* tovushli bo‘g‘inlar ham xuddi shu tarzda mustahkamlanadi.

Bunday gimnastika, tovushlarni avtomatlashtirishdan tashqari, yana og‘izdan chiqadigan nafasni kuchaytirishga va suyak-abdominal nafas ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Pastga engashar ekan, bola diafragma mushaklarining ishini faollashtiradi, shunday qilib, og‘izdan nafas chiiarishni uzaytiradi.

Keyinchalik bolalar bo‘g‘inlar zanjirini bitta nafas chiqarishda avval ikki, keyin esa uch martagacha oshira oladilar.

T tovushining qo‘yilishi. Til oldi, portlovchi *t* tovushining to‘laqonli artikulyatsiyasiga tish qatoridagi har xil buzilishlar to‘sqinlik qiladi. *T* tovushini qo‘yish tayyorlov mashqlaridan boshlanadi, bu mashqlar tilning og‘iz bo‘shlig‘ining old bo‘linmasiga surilishiga yordam beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Tovush “tuflash”ga taqlid asosida qo‘yiladi. To‘g‘ri kinesteziyalarni keltirib chiqarish uchun boladan til uchida turgan non uvoqlarini tupurib tashlash so‘raladi. Biroq dastlabki mashg‘ulotlarda bu mashqni xatto mexanik yordam bilan ham bajarish qiyinchilik tug‘diradi. Patologik talaffuz ko‘nikmasidan uzoq vaqt foydalanganlik tufayli bolada turg‘un yutish artikulyatsiyasi yuzaga keladi, ya’ni “tupurish” o‘rniga “yo‘talish” sodir bo‘ladi, chunki bunda til uchi og‘iz bo‘shlig‘ining tubida yotadi, nuqsonli tovush esa til ildizining ishi hisobiga hosil bo‘ladi. Bolaga tilchamiz uycha ichiga berkinishni emas, balki tashqariga o‘ynashga chiqishni hohlayotgani tushuntiriladi. To‘g‘ri kinesteziyalarni keltirib chiqarish uchun, bolaga og‘izdan chiqib turgan til uchidagi non uvoqlarini tuflash taklif qilinadi. Shunday qilib, taktil analizator ishga tushiriladi. Agar shunda ham og‘izdan chiqariladigan nafas yetarli darajada bo‘lmasa, bu holda non uvoqlari til ustida qolaveradi va bola buni his qilishi mumkin. Og‘izdan chiqadigan nafas uzoq, yo‘nalgan bo‘lsagina, uvoqlar til uchidan uchib ketadi.

Keyingi mashg‘ulotlarda “tupurish” dan asta-sekin *t* tovushini ovozsiz talaffuz qilishga o‘tsa bo‘ladi. Ishning bu bosqichida, “tupurish”ga qaraganda, murakkabroq artikulyatsion harakatlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Tishlar ko‘rinadigan holda jlimayish talab qilinadi, ya’ni lab artikulyatsiyasini olib tashlash kerak bo‘ladi.

Bola shakllangan kinesteziyalarni to‘liq mustahkamlab olganidan keyingina, ovozsiz artikulyatsiyadan *t* ni ovoz chiqarib talaffuz qilishga o‘tish mumkin. Ish eshitib nazorat qilish yordamida olib boriladi. Buning uchun og‘zi ingichka shisha idishchadan foydalanish mumkin. Idishchaning og‘zi nafas chiqarish paytida bolaning labiga yaqinlashtiriladi. Agar bola havo oqimini to‘g‘ri yo‘naltirayotgan bo‘lsa, shisha og‘zidan o‘ziga xos xushtak eshitiladi.

Bolada tish orqa artikulyatsiyasiga o‘tish ayniqsa qiyin kechishi mumkin, chunki ustki labi va tanglayi tug‘ma kemtikli tug‘ilgan bolalar ko‘p hollarda tish qatorining buzilishlaridan aziyat chekadilar, ayrim hollarda ustki tishlarsiz tug‘ilishlari ham mumkin. Ular bilan olib boriladigan ishda yaxshiroq natijalarga erishish uchun ko‘rish orqali nazoratdan foydalinish mumkin. Bunda bolaga tilchasi o‘ynashni hohlamayotgani, aksincha, uychaga berkinib olgisi kelayotgani tushuntiriladi. Til holatining to‘g‘riligini ko‘zgu yordamida nazorat qilish mumkin.

Bolaning tili og‘iz bo‘shlig‘ida yoyilib, yastanib yotgani tufayli, til oldi undosh tovushlarni yonboshdan talaffuz qilish holatida ish usullari biroz o‘zgaradi, tilning old qismi al’veolalar (jag‘ suyaklarida tish ildizlari o‘rnashgan uyalar) bilan birikuv hosil qilmaydi, havo oqimi esa yondan yo‘naladi.

Korreksiya an’anaviy yo‘l bilan amalga oshiriladi: “tuplash”dan tish orasidan chiqadigan *t* ga o‘tiladi. Biroq, asosiy urg‘u eshituv nazoratiga beriladi. Bolaga ro‘molchani o‘rtasiga tuflab yuborish taklif qilinar ekan, shishacha navbatma-navbat til uchiga va og‘iz chekkalariga keltiriladi. Bunda bolaga shishacha til uchiga yaqin turganida hushtak eshitilishi lozimligi tushuntiriladi. Tushuntirish va namoyish qilish bir paytda sodir bo‘lishi kerak.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi bo‘g‘inma-bo‘g‘in olib boriladigan dinamik nafas gimnastika jarayonida mustahkamlanadi.

Lab-tish, lab-lab va til oldi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalari mustahkamlangach, jarangli undoshlarni qo‘yishga o‘tsa bo‘ladi: *b, v, d*. Bir paytning o‘zida sirg‘aluvchi tovushlar artikulyatsiyasini shakllantirishga tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Jarangli undosh tovushlarni qo‘yish ishi *a* tovushini cho‘zib kuylab talaffuz qilishdan boshlanadi. Fonatsiya paytida bola, logopedning ovozsiz artikulyatsiyasiga taqlid qilib, kerakli xatti-harakatlarni takrorlaydi va shu yo‘l bilan intervokal pozitsiyadagi tovushga ega bo‘lish mumkin.

Bolaga o‘zining yaxshi ko‘rgan qo‘g‘irchog‘i yoki boshqa biron o‘yinchog‘ini (quyoncha, ayiqcha) uxlatish uchun [a]-[a]-[a] deb alla aytishni taklif qilish mumkin. Qo‘shiq aytish paytida pastki lab ustki tishlar bilan biroz tishlanadi va natijada *v* tovushi hosil bo‘ladi. Qo‘shiq aytish paytida ikki labning bir-biriga urilishi natijasida *b* tovushini chiqarish mumkin: [a]-[a]-[b] [a]-[a]-[b].

D tovushini qo‘yishda boladan tilchasini ustki tishlar tomon itarishni so‘rash mumkin, go‘yo tilcha sayr qilishni, o‘ynashni hohlayapti-yu qattiq yopiq eshikchaga urilayapti, eshikcha esa uni chiqargisi yo‘q.

Ayrim hollarda tovushlarning to‘g‘ri talaffuziga taqlid qilish yo‘li bilan yoki taktil analizatordan foydalanib erishish mumkin. Bolaning qo‘li bo‘yinga halqum sohasiga qo‘yiladi, shu yo‘l bilan u ovozpaychalarining ishini sezishi mumkin. Avval logoped buni qanday qilish kerakligini ko‘rsatadi, keyin bola bu harakatlarni birgalikda takrorlaydi. Bosqichma-bosqich dinamik nafas gimnastikasi tovushlar ustida intervokal pozitsiyada ishlash uchun qo‘llanadi.

Kerakli artikulyatsion holat ustida ishlashda ko‘rish analizatori jalb qilinadi. Ko‘zgu qarshisida bolalar til holatidagi farqni ko‘rishlari mumkin. Jarangsiz sirg‘aluvchi *s* tovushining qo‘yishi. *S* tovushining korreksiyasi an’anaviy usulda olib boriladi, faqat ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi, ya’ni bunda asosiy urg‘u tilning og‘iz bo‘shlig‘ida patologik qotib qolganligini bartaraf etishga hamda maqsadga yo‘naltirilgan havo oqimining ishlab chiqarilishiga qaratiladi.

Til orqa artikulyatsiyasiga o‘tishda ayrim qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bola tovush artikulyatsiyasini to‘g‘ri bajarayotganiga qaramay, til tish orqa holatiga o‘tkazilganida, til mushaklari tortishadi, bu esa artikulyatsion holatning o‘zgarishiga olib keladi. Til keskin torayadi va nafas bilan chiqarilayotgan havo oqimi o‘rta chiziq bo‘ylab emas, yon kemtiklardan o‘ta boshlaydi. Bunda artikulyatsiya shu ondayoq to‘g‘ri bajarila boshlaydi. O‘z navbatida bu, rinolaliyadan tashqari, bolada dizartriyaning kuchsiz shakli, ya’ni til gipertonusi mavjudligidan guvohlik beradi. Bu muammoni hal qilishda, bo‘shashtiruvchi massajdan va artikulyatsion gimnastikadan tashqari, mexanik yordamga murojaat qilinadi va eshitish analizatori faol jalb etiladi.

Bu o‘rinda bola bilan quvnoq tilcha to‘g‘risidagi ertakni eslash va uni kerakli izohlar bilan to‘ldirish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Logoped: Sening tilchang ko‘chada juda ko‘p o‘ynadi, avval rosa chopdi, sakradi, mashqlar bajardi, endi esa u charchadi va o‘zining kichkinagina uychasi – og‘zingga berkinib olib, uxlamoqchi.

Shunday qilib, logoped bolaga tilini orqa tishlar orqasiga olib o‘tishga yordam beradi.

Logoped: Voy, ana, qara, tilchang o‘zining yumshoqqina o‘rniga yotib oldi, lekin uning uychasi juda issiq ekan, shuning uchun u hech uxlay olmayapti. Kel, biz unga yordam beramiz. Biz sen bilan unga salqin havo yuboramiz. Tilchamiz tashqarida o‘ynab yurganida yuborgan edik-ku, xuddi shunaqa.

Bola lablarini tabassum uchun old tishlari ko‘rinadigan qilib sal cho‘zib, tilini pastki tishlar tagiga joylashtirganda, uning og‘zining chekkalarini qo‘l bilan sal siqib ushlab turish va shu paytning o‘zida shisha og‘zini old tishlarga yaqin olib kelish kerak. Logoped bolaga bu shisha sehrli ekanligini va unga havoni to‘g‘ri puflagandagina shisha xushtak chalib javob berishini tushuntiradi.

Shundan so‘ng, bola havoning old tishlar chekkasiga ishqalanishidan paydo bo‘ladigan o‘ziga xos xushtak eshitiladigan qilib puflashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda rinolaliyali bolalarda til mushaklari tonusining pasayishi kuzatiladi. Hamma til mushaklarining bo‘shashganligi va zaifligi, ayniqsa til uchining falajligi shunga olib keladiki, bola til uchini pastki tishlarga yetarli kuch bilan, yana til yuzasining old qismini pastga egib turib, bosa olmaydi. Natijada bola tish orqa artikulyatsiyasini to‘g‘ri bajarish o‘rniga, uning tili og‘iz bo‘shlig‘ining tubida passiv holda yotadi va til uchi bilan oldingi tepa tishlar o‘rtasida kerakli tarnovcha hosil qila olmaydi.

Kerakli artikulyatsion holatni shakllantirish uchun konfet yoki novvot bo‘lakchalariga tiqilgan plastmassa tayoqchalaridan foydalanish mumkin. Tayoqcha tilning o‘rtasiga uzinasiga joylashtiriladi va tish orqasiga itarib qo‘yiladi, shunda til uchi bilan ustki tishlar orasida ingichka novcha (ariqcha) hosil bo‘ladi. Havo oqimini mana shu nov bo‘ylab yo‘naltirar ekan, bola kerakli xushtak ovozining paydo bo‘lishiga erishadi.

Jarangsiz sirg‘aluvchi [c] tovushini qo‘yish ustida ish olib borar ekan, logoped, odatda, bir paytning o‘zida lab-lab, lab-tish va til oldi undosh tovushlarini avtomatlashtirish bilan shug‘ullanadi hamda ularning jarangli-jarangsizligi bo‘yicha differensiatsiyasini amalga oshiradi. Shuning uchun jarangli sirg‘aluvchi *z* tovushining korreksiyasiga uning jarangsiz jufti *s* tovushi ustida olib borilgan ishdan keyin o‘tish mumkin. Ishlov berib bo‘lingan aritikulyatsion holatni ko‘rsatib, bolaga xuddi chivindek vizillash taklif qilinadi.

Har bitta qo‘yilgan navbatdagi tovush bosqichma-bosqich dinamik nafas gimnastikasi vositasida ishlanishi va shu yo‘l bilan qo‘yib bo‘lingan tovushlar qatoriga qo‘shilishi kerak.

Sirg‘aluvchi tovushlar talaffuzidagi buzilishlar tish qatorining shakllanmaganligi tufayli saqlanib qolishi mumkin. Alveolyar o‘simtaning kemtiki bilan bog‘liq yon tishlarning vaqtincha bo‘lmasligi bu tovushlarni talaffuz qilishda qo‘shimcha shovqin hosil bo‘lishiga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

olib keladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, prikus (tishlam) normallashsa, bu nuqson yo‘qolishi mumkin.

Shovqinli undosh tovushlar artikulyatsiyasi ko‘p hollarda rinalaliya uchun xos bo‘lgan patologik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Til ustining ko‘tarilgan orqa qismi va halqumdan chiqarilgan nafas bu tuvushlarga o‘ziga xos tus bag‘ishlaydi. Shovqinli undosh tovushlarni talaffuz qilishda korreksion ish vazifalariga artikulyatsiya organlarining to‘g‘ri holatini o‘rnatish va og‘izdan yo‘naltirilgan nafas chiqarishga erishish kiradi.

Ish jarangsiz *sh* tovushni qo‘yishdan boshlanadi. Bunda artikulyatsion holatlar va artikulyatsion harakatlarni shakllantirish bosqichida egallangan ko‘nikmalardan foydalaniladi. Bolaga “kosacha” mashqini eslash taklif qilinadi: bunda til keng qo‘yiladi, uning uchi tepaga ko‘tariladi va shu holatda ushlab turiladi. Keyin “kosacha” og‘iz bo‘shlig‘ining ichiga suriladi. Bolaga tilcha hozir uxlamayotgani, shuning uchun u pastga tushishi mumkin emasligi eslatib turiladi. Tilning tepada turish holati mahkamlanganidan keyin, yo‘naltirilgan puflashga o‘tiladi. Havo oqimining noto‘g‘ri yo‘nalganligiga yo‘l qo‘ymaslik uchun bolaga yelkani shishib turgan kema rasmini ko‘rsatish mumkin: “Faraz qil, - sening og‘zing bu – kemacha, tiling esa – mana shu yelkan. Yelkan shamoldan shishib turishi uchun to‘ppa-to‘g‘ri tilga puflash kerak”. Affrikat *ch* ni qo‘yishda har bir bolada tovushni talaffuz qilishda til holatini to‘g‘ri aniqlash malakasini hosil qilish va e’tiborni yo‘nalgan havo oqimiga qaratish zarur. Korreksiya an’anaviy usulda *t* tovushidan olib boriladi. Tovushlarni avtomatlashtirish ustida olib boriladigan ishda, qatiyan ketma-ketlikka rioya qilish kerak, ya’ni sodda nutq turlaridan murakkabroq turlariga o‘tish kerak. Leksik material asta-sekin murakkablashib boradi.

Ish logoped ortidan so‘zlarni takrorlashdan boshlanadi. Bo‘g‘inlarni takrorlashni to‘la ma’noda avtomatlashtirish deb bo‘lmaydi, chunki ko‘p hollarda tovush bevosita bo‘g‘inning o‘zida chaqiriladi. Keyinchalik bolalarga tez aytishlar, hikoyachalar, she’rlarni logoped bilan birga takrorlash taklif qilinadi. O‘zlashtirilgan materialni qayta hikoya qilib berish, rasmga yoki rasmlar turkumiga qarab hikoya tuzish bo‘yicha vazifalar ancha murakkab vazifalar hisoblanadi.

Rinolaliyali bolalarda tovushlarni avtomatlashtirish uchun didaktik materialni tanlash oson emas, chunki avval nutqqa lab va portlovchi til oldi tovushlar kiritiladi. Shovqinli va sirg‘aluvchi tovushlar bu paytda bola talaffuzida mavjud bo‘lmaydi. Tovushlarni avtomatlashtirishda bola nuqsonli talaffuz qiladigan tovushlar bo‘lgan bo‘g‘inlar, iboralar va matnlardan imkon darajada qochish kerak bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Shokirova Sh.D. Kompleks yondashuv asosida yuqori lab va tanglayning tug‘ma kemtiklarida korreksion-logopedik ishni takomillashtirish: Monografiya. – T.: “UMID DESIGN” nashriyoti, 2024. – 330 b.
2. Shokirova SH.D. Specific characteristics of children's feeding in congenital deformities of the upper lip and palate // Proceedings of International Congress on

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

"Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences". Ilmiy- amaliy xalqaro konferensiya materiallari. - Canada. 2022. 10 dekabr. -B. 181-189.
3. Shokirova SH.D. Yuqori lab va tanglayning tug'ma kemtiklarida bolalar bilan abilitatsiya jarayonini tashkil etish // "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnali. - Toshkent, 2022. - № 5. - B. 226-229. (13.00.00 №6)
4. Специальная педагогика (Состовители Аксенова П.И. Архипов.Б.А., Белякова П.И.) М. Владос. 2000
5. Lex.uz
6. library. Ziyonet. Uz
7. https:/studfile.net

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Baltabayeva Durdona**, magistrant, [**Балтабаева Дурдона** – магистрант], [**Baltabayeva Durdona**, master student]; manzil: O'zbekiston, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy. [адрес: Узбекистан, ул. 130100. Город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, 27.], [address: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilonzor district, Tashkent city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING TA’LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

© D.T. G`apurova[1]✉
[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish masalalari yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mos ta’lim muhitini yaratish, ularning ehtiyojlariga mos metodlarni aniqlash va ta’lim jarayonlarini individual yondashuvlar bilan boyitishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda maxsus ta’lim bo‘yicha adabiyotlar tahlili, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ta’lim muassasalarida kuzatuv va intervyular o‘tkazish usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus o‘quv metodlari va o‘quv dasturlaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirganini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ta’lim jarayonlarini tashkil etishda maxsus pedagogik yondashuvlar va moslashtirilgan o‘quv dasturlaridan foydalanishning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, maxsus ta’lim, differensial yondashuv, ijtimoiy moslashuv, maxsus ehtiyojlar, pedagogik metodlar, o‘quv dasturlari.

Iqtibos uchun: G`apurova.D.T. Rivojlanishida nuqsoni bor bo`lgan bolalarning ta`lim jarayonlarini tashkil etish. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 47–53.

РАЗВИТИЕ ДЕФЕКТОВ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛНОГО ПРОЦЕССА ДЕТЕЙ-ИНВАЛИДОВ

© Д.Т. Гапурова[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье освещаются вопросы эффективной организации образовательного процесса для детей с нарушениями развития.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — создание подходящей образовательной среды для детей с нарушениями развития, определение методов,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

соответствующих их потребностям, и обогащение образовательного процесса индивидуальными подходами.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались методы анализа литературы по специальному образованию, наблюдение и интервью в образовательных учреждениях с детьми с нарушениями развития.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование специальных учебных методов и образовательных программ для детей с нарушениями развития повысило эффективность образовательного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают эффективность использования специальных педагогических подходов и адаптированных образовательных программ в организации образовательного процесса для детей с нарушениями развития.

Ключевые слова: дети с нарушениями развития, специальное образование, дифференцированный подход, социальная адаптация, особые потребности, педагогические методы, учебные программы.

Для цитирования: Гапурова Д.Т. Организатсия образовательного процесса для детей с отклонениями в развитии.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 47–53.

DEVELOPED DEFECTS OF ORGANIZING EDUCATIONAL PROCESSES OF DISABLED CHILDREN

© Dilnoza T. G`apurova[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights issues in effectively organizing the educational process for children with developmental disabilities.

AIM: the main objective of the study is to create an appropriate educational environment for children with developmental disabilities, identify methods that meet their needs, and enhance the educational process with individualized approaches.

MATERIALS AND METHODS: the study used methods such as literature analysis on special education, observations, and interviews in educational institutions with children with developmental disabilities.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that using special teaching methods and educational programs for children with developmental disabilities increased the effectiveness of the educational process.

CONCLUSION: the study results confirm the effectiveness of using special pedagogical approaches and adapted educational programs in organizing the educational process for children with developmental disabilities.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Keywords: children with developmental disabilities, special education, differentiated approach, social adaptation, special needs, pedagogical methods, educational programs.

For citation: Dilnoza T. G`apurova. (2024) 'Organization of educational processes for children with developmental disabilities', Inter education & global study, (8(1)), pp. 47–53. (In Uzbek).

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo‘lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg‘ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo‘shishlariga umid bog‘lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bo‘lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiyada, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» singari qator muhim me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta’lim olish, hayotda o‘z o‘rnini topish huquqlariga egadirlar.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori inklyuziv ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini keng joriy qilishga qaratilgan choratadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarni o‘rganish bo‘yicha davlat va nodavlat hamkorlik loyihalari amalga oshirilib kelinmoqda. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar o‘zi istiqomat qilayotgan hududlaridagi umumta’lim maktablarida yoshlariga muvofiq sinflarda asosiy o‘quv dasturi bilan birgalikda, maxsus dasturlar asosida maxsus ta’lim olishlarini, sinfdagi tadbirlarda tengdoshlari bilan ishtirok etishlarini bildiradi.

1993 yil 1 dekabrda 153 mamlakatda bolalar huquqlari haqidagi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi vositasida, ularda bolalar kelajagini muhofaza qilishga tayyor ekanlik namoyish etildi. Konvensiya butun jahon bolalar huquqlari haqidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomasidir. Konvensiya – bola huquqlari haqidagi universal rasmiy Kodeksdir. Konvensiyada bolalar huquqlari to‘rt toifaga ajratib berilgan bo‘lib, ular 54 moddani o‘z ichiga qamrab olgan [1].

1994 yilda YuNESKO «Maxsus ta’lim zaruriyati» nomli hujjatni tayyorlab, unda maxsus ta’limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun ta’limni tashkil etish hamda

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqdi. Ushbu ta’lim turida asosiy o‘rin reabilitatsiya masalalariga ajratilgan [10].

Hujjatda: «Maxsus ta’limni alohida yordamga muhtoj insonlarga tashkil etishdan maqsad – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o‘smirlarni mustaqil, hamma qatori yashash sharoitida jamiyatga tiklash», – deb ta’kidlangan [7].

Ye.L.Goncharova, O.S.Nikolskaya, O.I.Kukushkina ta’kidlashicha, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola maksimal darajada rivojlanishi, ta’lim va tarbiya olishi uchun zarur sharoitlarga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning har bir toifasi uchun har bir yoshga, rivojlanish xususiyatiga va ta’lim bosqichiga qarab alohida ta’limni teng darajada aniq, batafsil va ilmiy asoslangan xolda olib borilishi zarurligini bildiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Imkoniyati cheklanganlik – qobiliyatsizlik, degani emas.

Xar kanday xolatda ham, kasallik va kamchilikda xam, muammolar bo‘lsa xam bolada taraqqiyot davom etadi [5]. D.B.Yakubjanovaning ta’kidlashicha, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun” reja-dasturiga muvofiq butun jahonda umumiy ta’lim tizimiga inklyuziv ta’limni joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda [9]. Bugungi kunda “imkoniyati cheklanganlik” tushunchasiga nisbatan ijtimoiy yondashuv ahamiyatining oshib borishi bu toifadagi shasxlarning nafaqat o‘zgalar yordamiga muhtoj bo‘lgan, jamiyatning alohida - nofaol toifasini tashkil etishidan qat’iy farqli o‘laroq, rivojlanishining dastlabki davrlaridanoq ulardagi nuqsonlarnigina emas, balki boshqalar kabi jamiyatga faol integratsiyalashuvi va ijtimoiylashuv imkoniyatlarini ham o‘rganish, korreksion-pedagogik texnologiyalar va metodlar orqali o‘zining turli sohalardagi ehtiyojlarini qondirishga qodir bo‘lgan shaxs darajasi tomon kamol topishiga ko‘maklashish zarurligi e’tirof etilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy tajribaning paydo bo‘lishi va takomillashuvi normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan murakkabroq kechadi. Chunki jismoniy va psixik nuqsonlar ularning yoshiga mutanosib ravishda hayotiy faoliyatning turli sohalaridagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari va ijtimoiy-madaniy munosabatlarga erkin kirisha olishlariga halal beradi [3].

Ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korreksionsharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orkali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish lozim [7].

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Jahonda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda jamiyat hamda davlatni rivojlantirishning teng huquqli ishtirokchisi ekani e’tirof qilinmoqda.

Maxsus ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim olishini yo‘lga qo‘yish, ularning ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, nogironligi bo‘lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish hamda inklyuziv ta’limga jalb etish UNICEF tashkiloti tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda [2]. Bolada nuqson bo‘lishiga qaramay, unga qo‘lidan keladigan ish turini o‘rgatish, o‘qitib tarbiyalab, jamiyatda o‘z o‘rnini topib ketishiga yordam berish (ijtimoiy reabilitatsiya qilish) zarurdir [8].

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish ko‘zda tutilmoqda.

Natijada inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, u bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta’lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat’i nazar ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlashga qulay imkoniyat yaratadi.

Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta’lim maktablarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatga kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug‘diradi.

Inklyuziv ta’lim nafaqat nogiron bolalar o‘rtasida, balki sog‘lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o‘rtasida, maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham fanlarni o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o‘quvchilarning bir-biriga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba’zan sog‘lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o‘z tengdoshlariga qo‘shilmay, tortinishi, o‘z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o‘stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta’lim amaliyoti va ta’lim xizmatlarini tashkillashtirishda o‘zgarishlar qilishga to‘g‘ri keladi.

Bularning barchasi inklyuziv ta’lim jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas’uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi. Olib

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

borilgan izlanishlar va tadqiqotlar asosida inklyuziv ta'lim texnologiyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Inklyuziv ta'lim texnologiyasi (ITT) – bu uzluksiz ta'lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashgan, sharoitga qarab o'zgaruvchan, maxsus o'quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir» [6].

Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Арипова Ш.Д. Болалар нутқининг грамматик қурилишини ривожлантиришда коррекцион-педагогик иш тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатsiяси автореф. – Т., 2018. - 58 б.
2. Арсланова М.М. Имконияти чекланган болаларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг айрим методологик масалалари. "Халқ таълими" илмий- методик журнали. 2018. № 4. 128-132 бет.
3. Гончарова Е.Л., Никольская О.С., Кукушкина О.И. Дети с особыми образовательными потребностями в системе понятий культурно- исторической психологии // Альманах Института коррекционной педагогики. 2019. Альманах № 39
4. Назарова Н.М, Моргачёва Е.Н, Фуряева Т.В Сравнителная специалная педагогика. 2 – е издание. Академия. М.: 2012.
5. Шомахмудова Р.Ш. / Махсус ва инклюзив таълим / - Т.: 2017. 214 б.
6. Шомахмудова Р.Ш. ва б. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари. Услубий тавсиянома Т.: 2008. 90 б.
7. Шомахмудова Р.Ш. ва б. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Ўқув методик қўлланма Т.: 2007. 52 б.
8. Якубжанова Д.Б. Бўлажак дефектологларда касбий ижодкорликни ривожлантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатsiяси автореферати. – Т.: 2017. – 54 б.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

9. Farrel.P The Impact of Research on Developments in Inclusive Education. 2004.
1. Ўзбекистон Республикаси “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонуни.
2. Арипова Ш.Д. Болалар нутқининг грамматик қурилишини ривожлантиришда коррекцион-педагогик иш тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатsiяси автореф. – Т., 2018. - 58 б.
3. Арсланова М.М. Имконияти чекланган болаларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг айрим методологик масалалари. “Халқ таълими” илмий- методик журнали. 2018. № 4. 128-132 бет.
4. Гончарова Е.Л., Никольская О.С., Кукушкина О.И. Дети с особыми образовательными потребностями в системе понятий культурно- исторической психологии // Альманах Института коррекционной педагогики. 2019. Альманах № 39
5. Назарова Н.М, Моргачёва Е.Н, Фуряева Т.В Сравнителная специалная педагогика. 2 – е издание. Академия. М.: 2012.
6. Шомахмудова Р.Ш. / Махсус ва инклюзив таълим / - Т.: 2017. 214 б.
7. Шомахмудова Р.Ш. ва б. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари. Услубий тавсиянома Т.: 2008. 90 б.
8. Шомахмудова Р.Ш. ва б. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Ўқув методик қўлланма Т.: 2007. 52 б.
9. Якубжанова Д.Б. Бўлажак дефектологларда касбий ижодкорликни ривожлантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатsiяси автореферати. – Т.: 2017. – 54 б.
10. Farrel.P The Impact of Research on Developments in Inclusive Education. 2004.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТСИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**G`apurova Dilnoza Tajibay qizi**, dosent, [**Гапурова Дилноза Тажибай кизи**, доцент], [**Дилноза Т. Гапурова**, docent]; манзил: O’zbekiston,Toshkent sh.Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27-uy. [адрес: Узбекистан, ул. Город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунйодкор, 27.], [аддресс: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilonzor district, Tashkent city]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBALARI

© D.X. Maxkamova[1]✉
[1]Qo‘qon davlat pedagogika instituti , Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalarning nutqiy xususiyatlari va ularning rivojlanishi uchun qo‘llaniladigan texnologiyalar tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun nutq rivojlantirish texnologiyalarini aniqlash va bu texnologiyalarning samaradorligini baholash, shuningdek, ularning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llarini taklif qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. kuzatuv, so‘rov va maxsus logopedik mashg‘ulotlar orqali nutqida og‘ir nuqsonlari bor bolalar bilan ish olib borildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalarning nutqiy rivojlanishida individual yondashuv va maxsus texnologiyalarning samarali ekanligini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun rivojlantirish texnologiyalarini qo‘llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: nutq nuqsonlari, nutq rivojlantirish texnologiyalari, logopedik terapiya, bolalar nutqi, kommunikativ ko‘nikmalar, individual yondashuv, interfaol texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Maxkamova. D.X. Ta`lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribalari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 54–60.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© Д. Х. Махкамова[1]✉
[1]Кокандский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются речевые особенности детей с тяжелыми дефектами речи и технологии, используемые для их развития.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определить технологии развития речи детей с тяжелыми дефектами речи и оценить эффективность этих технологий, а также предложить пути развития их коммуникативных и социальных навыков.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы качественные и количественные методы анализа. проводилась работа с детьми с тяжелыми дефектами речи путем наблюдения, опроса и специальной логопедической подготовки.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что индивидуальный подход и специальные технологии эффективны в речевом развитии детей с тяжелыми дефектами речи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что использование развивающих технологий для детей с тяжелыми нарушениями речи имеет высокую эффективность.

Ключевые слова: дефекты речи, технологии речевого развития, логопедия, речь детей, коммуникативные навыки, индивидуальный подход, интерактивные технологии.

Для цитирования:Махкамова Д.Х. Зарубежный опыт использования цифровых технологий в образовательном процессе.// Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 54–60.

FOREIGN EXPERIENCES OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

©Dilshoda X. Maxkamova[1]✉
[1] Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the speech characteristics of children with severe speech impairments and the technologies used for their development.

AIM: the main goal of the study is to identify speech development technologies for children with severe speech impairments and evaluate the effectiveness of these technologies, as well as to suggest ways to develop their communicative and social skills.

MATERIALS AND METHODS: qualitative and quantitative analysis methods were used in the study. Children with severe speech impairments were worked with through observation, survey and special speech therapy sessions.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that an individual approach and special technologies are effective in the speech development of children with severe speech impairments.

CONCLUSION: the results of the study show that the use of developmental technologies for children with severe speech impairments is highly effective.

Keywords: speech disorders, speech development technologies, speech therapy, children's speech, communicative skills, individual approach, interactive technologies.

For citation: Dilshoda. X. Maxkamova. (2024) 'Foreign experiences of using digital technologies in the educational process', Inter education & global study, (8(1)), pp. 54–60. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Raqamli texnologiyalar global miqyosda turli sohalarda, ayniqsa, ta’lim tizimida inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’lim olish jarayoni ko‘proq interaktiv, moslashuvchan va osonlashgan bo‘lib, bu jarayon butun dunyo bo‘ylab keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi paytida masofaviy ta’limning ahamiyati sezilarli darajada ortdi va ta’lim texnologiyalarining har doimgidan ham ko‘proq kerakligi tushunildi. Xorijiy mamlakatlarning ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash tajribalari turli metodlar va platformalar orqali amalga oshirildi. Ushbu maqolada ta’limda raqamli texnologiyalarning samaradorligini o‘rganish, turli mamlakatlarning tajribalarini tahlil qilish va O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy qilish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Tadqiqot davomida turli manbalar orqali xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari va ularning natijalari o‘rganildi. Tadqiqotlar asosida AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Singapur va Avstraliya kabi mamlakatlarning raqamli ta’lim tajribasi tahlil qilindi. O‘rganilgan manbalar orasida ilmiy maqolalar, hukumat hisobotlari va xalqaro tashkilotlarning ta’lim bo‘yicha monitoringlari asos qilib olindi. Shuningdek, turli mamlakatlardagi raqamli ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim dasturlari, va o‘quvchilarning ushbu jarayonga moslashuvi haqidagi statistik ma’lumotlar ham tahlil qilindi.

AQShning ta'lim tizimida aralash ta'lim modeli keng qo‘llanilmoqda, bunda an'anaviy darslar bilan bir qatorda onlayn darslar o‘tiladi. Bu model talabalarga ta'lim olishda ko‘proq natijalar taqdim etadi. unga, COVID-19 pandemiyasi vaqtida bu modelning ahamiyati kuchaydi va undan keyin ham davom etmoqda. Kollej va universitetlar kompyuter korpusidan masofaviy o‘qitish modelini joriy qilmoqda, bu esa talabalar bilim olishni osonlashtirmoqda.

AQShda raqamli ta’limning rivojlanishi keng qamrovli va turli modellarni o‘z ichiga oladi. Maktab va universitetlarda raqamli ta’lim platformalari, jumladan, Google Classroom, Zoom, Khan Academy, va boshqa onlayn ta’lim tizimlari keng qo‘llanilmoqda. AQShda masofaviy va aralash ta’lim (gibrid ta’lim) modeli juda ommalashgan bo‘lib, bu modelda an’anaviy darslar bilan bir qatorda onlayn darslar ham o‘tiladi. Bu nafaqat pandemiya paytida, balki pandemiyadan keyingi davrda ham talabalarning bilim olish jarayonini davom ettirishga yordam beradi.

AQShda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari ta'lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. AI asosida ishlaydigan platformalar o‘quvchilarning bilim darajasiga va ishlariga moslashtirilgan individual o‘quv rejalarini taklif qiladi. Masalan, DreamBox, ALEKS va Aqlli chumchuq kabi platformasi.

Interaktiv texnologiyalar ta'limda keng qo‘llanilib, o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. AQShda AR (augmented reality) va VR (virtual reality) texnologiyalari orqali talabalar murakkab mavzularni amaliyotda o‘rganish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Masalan, zSpacevaNearpod kabi dasturlar. AQShda ta'lim jarayonida ijtimoiy soha va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

boshqa ijtimoiy platformalar ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Edmodova va Microsoft Teams kabi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning qo‘llanishi haqidagi ma'lumotlarni kengaytirish uchun quyidagi jihatlarni keltirish mumkin. Janubiy Koreyada "Smart Ta’lim" dasturi doirasida raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu dastur doirasida barcha maktablar va universitetlar zamonaviy raqamli o‘quv materiallari, ta’lim platformalari va vositalari bilan ta’minlangan. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilar va talabalar uchun ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Dastur doirasida o‘quvchilar zamonaviy texnologiyalar orqali bilim olishga va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

EBS - bu Janubiy Koreyaning milliy raqamli ta’lim platformasi bo‘lib, masofaviy ta’limda katta rol o‘ynaydi. EBS orqali talabalar va o‘quvchilar o‘z vaqtida darslarni onlayn ravishda o‘zlashtirishlari mumkin. Platformada turli fanlar bo‘yicha video darslar, interaktiv materiallar va sinovlar mavjud. EBS, shuningdek, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustahkamlash va qo‘shimcha ta'lim resurslariga kirish imkonini beradi.

Janubiy Koreyada sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari ta’lim jarayonida keng qo‘llanmoqda. AI yordamida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlarini aniqlash orqali individual o‘quv rejalarini tuzish imkonini beradi. Misol uchun, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini tahlil qilish va ularning qiyinchiliklariga moslashtirilgan materiallarni taqdim etish orqali har bir o‘quvchining ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

Janubiy Koreyada ta'lim tizimining raqamli infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan. Maktablar va universitetlar raqamli resurslar, kompyuterlar va internetga ega bo‘lib, o‘quvchilarga zamonaviy ta'lim materiallaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida interaktiv ta'lim vositalaridan, jumladan, taqdimot dasturlari, ta'lim dasturlari va o‘yinlardan foydalanadi.

Janubiy Koreyada ijtimoiy tarmoqlar va hamkorlik platformalari, masalan, KakaoTalk va Naver kabi ilovalar, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali aloqani ta'minlaydi. Ushbu platformalar orqali o‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish, materiallar bilan o‘rtoqlashish va muammolarni hal qilishda yordam berishadi.

Janubiy Koreyada o‘qituvchilarni raqamli ta’lim texnologiyalariga tayyorlashga katta e'tibor beriladi. O‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va kurslar tashkil etilib, ular raqamli platformalar va vositalarni qanday samarali qo‘llashni o‘rganadilar. Bu, o‘z navbatida, ta'lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarga yanada sifatli ta'lim berishga yordam beradi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar faol qo‘llanilib, o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. "Smart Ta’lim" dasturi, EBS platformasi, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim dasturlari va zamonaviy infratuzilma orqali Janubiy Koreya o‘quvchilariga sifatli ta'lim berishga harakat qilmoqda. Bu tajribalar O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar uchun raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy qilishda qimmatli saboq bo‘lishi mumkin.Yevropada, xususan, Finlyandiya va Buyuk Britaniyada raqamli ta’lim tizimlari o‘quv jarayoniga keng joriy qilingan. Finlyandiya o‘quvchilariga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Edmodo, Moodle, va Google Classroom kabi platformalar yordamida onlayn darslar o‘tiladi va bu texnologiyalar ta’lim jarayonida interaktivlikni oshiradi.

Buyuk Britaniyada raqamli platformalar va texnologiyalar yordamida sinfdan tashqari ta’limning rivojlantirilishi ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu yondashuv o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olishda yordam beradi va ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan va individuallashtirilgan qiladi. Britaniya ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, o‘quvchilarga o‘z vaqtida va mustaqil o‘rganish imkonini yaratmoqda.

Buyuk Britaniyada "Google Classroom," "Moodle," va "Microsoft Teams" kabi platformalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu platformalar orqali o‘quvchilar dars materiallarini yuklab olish, topshiriqlarni bajarish va o‘qituvchilar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniga ega bo‘lishadi. Shuningdek, ushbu platformalar o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilim olishda va o‘z vaqtlarini o‘zi boshqarishda yordam beradi. Sinfdan tashqari ta’lim jarayoni o‘quvchilarning o‘zlariga qulay bo‘lgan vaqtda mustaqil o‘qish imkoniyatini yaratadi. Buyuk Britaniya o‘quvchilari "BBC Bitesize" va "EdTech Demonstrator" kabi milliy platformalar orqali dars materiallari, testlar va resurslarga bemalol kirish imkoniyatiga ega. Bu platformalar turli mavzular bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish va bilimni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada raqamli platformalar va texnologiyalar yordamida sinfdan tashqari ta’limni rivojlantirish o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olishda va o‘z o‘qish jarayonini yanada samarali tashkil qilishda katta yordam beradi. Shu tarzda, o‘quvchilar zamonaviy ta’lim muhitida raqamli vositalar orqali o‘z bilimlarini chuqurlashtirishi, o‘zlashtirishlarini nazorat qilishi va ta’lim olish jarayonini moslashuvchan qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Singapur dunyoda ta’limda raqamli texnologiyalardan eng samarali foydalanuvchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ular raqamli texnologiyalar yordamida milliy ta’lim tizimini o‘zgartirgan va global tajribalardan foydalangan holda o‘ziga xos model yaratgan. Masalan, Singapurda raqamli texnologiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan o‘quv jarayonlari, onlayn resurslar va sun’iy intellekt texnologiyalari orqali ta’lim sifatini oshirishga katta e’tibor qaratilgan.

Xorijiy mamlakatlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakat o‘z ta’lim tizimiga mos raqamli vositalarni qo‘llab, ta’limni yanada interaktiv va moslashuvchan qilib olmoqda. AQSh, Janubiy Koreya va Singapurda ta’lim texnologiyalariga katta sarmoya kiritilib, raqamli infratuzilma rivojlantirilgan. Bu mamlakatlarning tajribalari O‘zbekiston uchun qimmatli saboq bo‘lib, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish zarur.

O‘zbekistonda raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maktablar va universitetlar internetga ulangan kompyuterlar va boshqa raqamli qurilmalar bilan ta'minlanmoqda. Bu ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni osonlashtiradi. O‘zbekiston ta'lim tizimida raqamli o‘quv materiallari va darsliklarni ishlab chiqishga e'tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan raqamli darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining ishlab chiqilishi ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar bo‘yicha tayyorlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qanday qo‘llashni o‘rgatish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni yangi pedagogik yondashuvlarga tayyorlash O‘zbekiston ta'lim tizimining muhim qismidir. O‘zbekiston ta'lim tizimida interaktiv ta'lim muhitlarini yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Smart ta’lim loyihalari va boshqa interaktiv texnologiyalar yordamida o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadilar, bu esa o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

O‘zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning qobiliyatlarini, muvaffaqiyatlarini va ehtiyojlarini aniqlashda yordam beradi, bu esa ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatini yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston-2030" dasturi doirasida ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni kuchaytirish maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu dastur ta'lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va raqamli ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonida muhim o‘rin tutmoqda. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va global ta'lim standartlariga moslashishga qaratilgan. Biroq, raqamli ta'lim muhitini muvaffaqiyatli yaratish uchun infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘quvchilarni motivatsiya qilish zarur.

O‘zbekistonning raqamli infratuzilmasi rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, xalqaro tajribalardan foydalangan holda raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish va ularni joriy qilish orqali ta’lim sifatini yaxshilash mumkin. Buning uchun pedagog kadrlarni raqamli texnologiyalar bo‘yicha o‘qitish, raqamli resurslarni yaratish va ta’lim jarayonini avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan strategiyalar ishlab chiqish zarur.

Xorijiy mamlakatlarning raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy qilish tajribasi, raqamli vositalar orqali ta’limni yanada moslashuvchan va individuallashtirilgan qilish imkoniyatini yaratadi. O‘zbekistonning ta’lim tizimiga bu tajribalarni muvaffaqiyatli joriy etish orqali o‘quvchilarga sifatli va zamonaviy ta’lim berish hamda ularning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, xorij tajribasi ko‘rsatganidek, davlat tomonidan texnologik infratuzilmani rivojlantirish va pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirishga katta e’tibor berilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. OECD (2020). "The Impact of COVID-19 on Education – Insights from Education at a Glance 2020." Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). URL: https://www.oecd.org/education/

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

2. Kirkwood, A., & Price, L. (2014). "Technology-enhanced learning and teaching in higher education: What is 'enhanced' and how do we know? A critical literature review." Learning, Media and Technology, 39(1), 6-36. URL: https://www.tandfonline.com/
3. Selwyn, N. (2016). "Education and Technology: Key Issues and Debates." Bloomsbury Publishing. URL: https://www.bloomsbury.com/
4. Hwang, G. J., & Chang, H. F. (2021). "A review of trends in digital learning environments for higher education." Educational Technology & Society, 24(2), 1-14. URL: https://www.j-ets.net/
5. E-learning Industry (2021). "Digital Learning in the Post-COVID World: Transforming Education." URL: https://elearningindustry.com/
6. Anderson, T. (2017). "The Theory and Practice of Online Learning." Athabasca University Press. URL: https://www.aupress.ca/
7. Deloitte (2020). "Digital Education: Challenges and Solutions." Deloitte Touche Tohmatsu Limited. URL: https://www2.deloitte.com/

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Maxkamova Dilshoda Xabibjon qizi**, assistent, **Махкамова Дилшода Хабибжон кизи,** ассистент], [**Dilshoda X. Maxkamova**, assistant]; manzil: O'zbekiston 150700, O'zbekiston, Farg'ona viloyati, Shahar: Qo'qon, Turon ko'chasi, 23 [адрес: Узбекистан, ул. 150700, Узбекистан, Ферганская область, Город: Коканд, улица Турон, 23], [address: Uzbekistan, 150700, Uzbekistan, Fergana region, City: Kokand, Turon street, 23].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

ZAMONAVIY JAMIYATDA O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI NAMOYON ETISH SHAKLLARI

© G`.B. Salohiddinova[1]✉
[1]Alfraganus universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada zamonaviy jamiyatda o‘smir yoshdagi bolalarning ijtimoiy-siyosiy faolligini namoyon etish shakllari va ularning jamiyatdagi o‘rniga oid masalalar tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘smir yoshdagi bolalarning ijtimoiy-siyosiy faolligini shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy shakllarini aniqlash hamda ularning jamiyatdagi roli va ahamiyatini o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o‘smir yoshdagi bolalarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bo‘yicha adabiyot tahlili va so‘rovnomalar o‘tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘smir yoshdagi bolalar o‘zlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini turli shakllarda namoyon etadi: masalan, maktab va jamiyat tadbirlarida ishtirok etish, ijtimoiy loyihalarda faol bo‘lish, yoshlar tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar faoliyatiga qiziqish ko‘rsatish, ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirishi.

XULOSA: tadqiqot natijalari o‘smir yoshdagi bolalarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlash zamonaviy jamiyat uchun dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘smir yosh, ijtimoiy-siyosiy faollik, jamiyat, yoshlar ishtiroki, ijtimoiy tarmoqlar, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik mas’uliyati.

Iqtibos uchun: Salohiddinova.G`.B. Zamonaviy jamiyatda o`smir yoshdagi bolalarning ijtimoiy-siyosiy faolligini namoyon etish shakllari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 61–68.

ФОРМЫ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ПОДРОСТКОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

© Г.Б. Салохиддинова[1]✉
[1] Университет Альфраганус, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

Введение: в статье анализируются формы проявления социально-политической активности подростков в современном обществе и их роль в обществе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить современные формы формирования и развития социально-политической активности подростков, а также изучить их роль и значение в обществе.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ литературы и анкетирование по вопросам социально-политической активности подростков.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что подростки проявляют свою социально-политическую активность в различных формах, таких как участие в школьных и общественных мероприятиях, активность в социальных проектах, интерес к деятельности молодежных и неправительственных organizatsiй, выражение мнений в социальных сетях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что поддержка социально-политической активности подростков является актуальной задачей для современного общества.

Ключевые слова: подростковый возраст, социально-политическая активность, общество, участие молодежи, социальные сети, неправительственные organizatsii, гражданская ответственность.

Для цитирования: Салохиддинова.Г.Б. Формы проявления общественно-политической активности детей-подростков в современном обществе.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 61–68.

FORMS OF SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF ADOLESCENTS IN MODERN SOCIETY

© G‘azalxon Saloxiddinova[1]✉
[1] Alfraganus University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the forms of social and political activity among adolescents in modern society and their role in society.

AIM: the main objective of the study is to identify modern forms of developing and fostering social and political activity in adolescents, as well as to examine their role and significance in society.

MATERIALS AND METHODS: the study involved a literature review and surveys on the social and political activity of adolescents.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that adolescents display their social and political activity in various forms, such as participating in school and community events, being active in social projects, showing interest in youth and non-governmental organizations, and expressing opinions on social networks.

CONCLUSION: the study results indicate that supporting adolescents' social and political activity is a relevant issue for modern society.

Keywords: adolescence, social and political activity, society, youth participation, social networks, non-governmental organizations, civic responsibility.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: G‘azalxon Saloxiddinova. (2024) ‘Forms of manifestation of socio-political activity of adolescent children in modern society’, Inter education & global study, (8(1)), pp. 61–68. (In Uzbek).

Siyosiy tizim barqarorligini ta’minlash shartlaridan biri – bu hukumat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro pedagogik hamkorlik mexanizmlarining doimiy ishlashidir. Mexanizm deganda, ma’lum sub’ektlarning bir-biri bilan muayyan manfaatlar bilan o‘zaro ta’siri tushuniladi. Guruh manfaatlarini translyatsiya qilishning qonuniy kanallariga saylovlar, referendumlar; siyosiy partiyalar; ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar; ommaviy axborot vositalari kabilar kiradi. Qonuniy kirish kanallari bilan bir qatorda, konstitutsiyaviy ta’sir usullariga ishonmagan taqdirda, aholi tomonidan qo‘llaniladigan noqonuniy kanallar ham mavjud. Bularga sabotaj va tartibsizliklar, siyosiy terrorizm va boshqalar kiradi.

Davlatning asosiy vazifasi qonuniy kirish kanallarining samarali ishlashi uchun shart-sharoitlarni ta’minlashdan iborat bo‘lib, ular orqali fuqarolar o‘z talablarini siyosiy qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etuvchilarga yetkazadilar. Hukumat va yoshlar kabi yirik ijtimoiy-demografik guruh o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni ob’ektiv ravishda siyosiy tizim barqarorligini saqlashga qaratilgan. Shu sababli, davlat va shu bilan birga fuqarolik jamiyati institutlari o‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini amalga oshirishning huquqiy, konstruktiv, ijtimoiy ijobiy shakllarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga intilmoqda.

O‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi shakllarini tizimli tahlil qilishga urinishlar mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlarida keltirilgan [135]. Siyosiy faoliyatning barcha xilma-xilligi, qoida tariqasida, siyosiy ishtirok turlariga birlashtiriladi. Siyosiy ishtirok shakllarining tipologizatsiyasi quyidagicha taqdim etilishi mumkin:

1. Harakatlarning qonuniyligi darajasiga ko‘ra – an’anaviy va noan’anaviy siyosiy ishtirok. Siyosiy ishtirokning an’anaviy turiga keng ko‘lamli siyosiy resurslarni (saylovlar, saylov kampaniyalarida ishtirok etish, referendumlar) safarbar qiladigan ovoz berish atrofida aylanadigan shakllar kiradi. Siyosiy ishtirokning noan’anaviy turi kurashning institutsional bo‘lmagan usullari va shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi, ya’ni – ish tashlashlar, boykotlar, sabotaj, noqonuniy namoyishlar, mavjud hukumatni ag‘darish uchun ochiq chaqiriqlar.

2. Miqyosi bo‘yicha – global va mahalliy. Bu global muammolarni milliy miqyosda hal qilishda ishtirok etish kabi bo‘lishi mumkin. Mahalliy xarakterdagi xususiy masalalarni hal qilishga aralashish ham shunday.

3. Siyosiy harakatlar motivatsiyasiga ko‘ra – avtonom va safarbarlik. Safarbarlikda ishtirok etish majburiydir. Ma’muriy intizom, qo‘rquv va boshqalar siyosiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi omillar sifatida ishlaydi. Ishtirok etishning safarbarlik turi siyosiy tizimni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

deklarativ qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, uning maqsadi hukmron elitaga sodiqligini namoyish etishdir.

4. Xabardorlik darajasiga ko‘ra – siyosiy ishtirok etishning mantiqsiz misoli vandalizm, hissiy hayajonlangan olomonning hokimiyat harakatlaridan noroziligini bildiruvchi zo‘ravonliklarni o‘z ichiga oladi.

5. Ishtirok etish darajasiga ko‘ra – passiv va faol siyosiy ishtirok. Siyosiy jarayonning passiv ishtirokchilari faol ishtirok etish shakllaridan hafsalasi pir bo‘ladi. Bu yosh avlod uchun ko‘proq xosdir. Ushbu xatti-harakatning sabablari turlicha, xususan, saylov kampaniyalari paytida “giperpolitizatsiya”ga psixologik munosabat va saylovlar orasidagi davrda yoshlarning manfaatlarini e’tiborsiz qoldirish; siyosiy partiyalar va siyosiy rahbarlarga nisbatan umidsizlik. Ushbu turkumda an’anaviy shakllar ham mavjud, asosan ovoz berish. Ammo siyosiy ishtirokning bu shakli sub’ektlar uchun ixtiyoriydir, ularning siyosiy xulq-atvori siyosat bilan bog‘liq bo‘lmagan ko‘plab omillarga bog‘liq (ommaviy axborot vositalarining ta’siri, ijtimoiy muhit, psixologik holat va boshqalar.). Shuning uchun passiv yoshlarning saylovlarda ishtiroki beqaror. Ishtirok etishning doimiy shakli siyosiy masalalarni muhokama qilish, siyosiy internet portallarini ko‘rish va ijtimoiy-siyosiy gazetalarni o‘qishdir. Bunday holda, o‘smir yoshlar siyosiy jarayonga jalb qilinmaydi, lekin ular bunga biroz qiziqish bildiradilar. Passiv guruh, shuningdek, siyosiy jarayonda mutlaq ishtirok etmaslik bilan tavsiflanadi, bunday xatti-harakatlar ishdan bo‘shatish sifatida tavsiflanadi. Siyosiy ishtirokning noan’anaviy shakllari passiv ishtirokchilar uchun aslida qabul qilinishi mumkin emas.

Siyosiy jarayonning faol ishtirokchilari saylovlarga muntazam qatnashish, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va siyosiy partiyalarga a’zo bo‘lish orqali siyosiy jarayonda ishtirok etishga intiladi. Bunday xatti-harakatlar o‘smir yoshlarning siyosiy qarorlarni qabul qilishga ta’siri faktidan xabardor ekanligi bilan izohlanadi. Saylovlarda ishtirok etishdan tashqari, faol guruh jamoat tashkilotlari va harakatlari, siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etish va faol individual fuqarolik pozitsiyasi (fuqarolik tashabbuslari) bilan tavsiflanadi. Faol o‘smir yoshlar o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha kanallardan foydalanadilar va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga maksimal ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladilar. Bu faoliyat samarali bo‘lishi mumkin. Faol o‘smir yoshlar, shuningdek, hozirgi siyosiy yo‘nalish bilan kelishmovchilik tufayli yuzaga kelgan va mavjud siyosiy tizimni o‘zgartirishga qaratilgan faol harakatlarda ifodalangan norozilik xatti-harakatlari bilan ajralib turadi.

Siyosiy ishtirokning norozilik shakllariga mitinglar, piketlar, yurishlar va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa siyosiy harakatlarda qatnashish kiradi. Faol o‘smir yoshlar guruhi siyosiy ishtirokning noan’anaviy shakllariga ham moyil – bu ish tashlashlar, boykotlar, sabotaj, noqonuniy namoyishlar, mavjud hukumatni ag‘darish uchun ochiq

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)


chaqiriqlar. Bunday xatti-harakatning sabablari hukmron elitaga, mavjud siyosiy rejimga va siyosiy institutlarga ishonchsizlikdir.

6. Tashkilot darajasiga ko‘ra – o‘z-o‘zidan va uyushgan siyosiy ishtirok. Siyosiy ishtirokning o‘z-o‘zidan shakllariga turli xil namoyishlar va ommaviy siyosiy nutqlar kiradi. Uyushgan siyosiy ishtirok turli institutsional sub’ektlarning uyushgan harakatlarini – jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etishni nazarda tutadi.

O‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati shakllarining boshqa tasniflari mavjud: yoshlarni davlat tuzilmalari bilan o‘zini o‘zi aniqlash darajasidan va mamlakat siyosiy hayotidagi faollik darajasidan, bevosita va bilvosita, rasmiy va real, professional va noprofessional siyosiy ishtirok va boshqalar ajralib turadi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda o‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligining namoyon bo‘lish shakllari juda xilma-xildir. Biroq, ularning fikriga ko‘ra, eng keng tarqalgani fuqarolik-vatanparvarlik faoliyati, saylovlarda ishtirok etish, siyosiy partiyalarga a’zolik, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va siyosiy kampaniyalardir

(1-rasm):

Qaror qabul qilish va siyosiy boshqaruvda ishtirok etish;	
Siyosiy kampaniyalarda, mitinglarda, namoyishlarda va fuqarolik itoatsizligi harakatlarida ishtirok etish;	
Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish;	
Fuqarolik va vatanparvarlik;	
Vakolatli harakatlar delegatsiyasi (saylov harakati: saylovlarda ishtirok etish).	

Yuqoridagi tasniflarni, shuningdek muallif tomonidan o‘tkazilgan ekspert so‘rovi natijalarini hisobga olgan holda, o‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi namoyon bo‘lishining eng keng tarqalgan shakllarini aniqlash mumkin:

1. Vakolatni topshirish bo‘yicha harakatlar (saylov harakati: saylovlarda, referendumlarda ishtirok etish).

2. Saylov kampaniyalarida nomzodlar va partiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faollar faoliyati.

3. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish (rahbarlarni, shu jumladan, siyosiy partiyalarni tanlash, ularning faoliyatini nazorat qilish).

4. Siyosiy kampaniyalarda, mitinglarda, namoyishlarda, fuqarolik itoatsizligi harakatlarida, uchrashuvlarda, ish tashlashlarda ishtirok etish.

5. Qaror qabul qilish va siyosiy boshqaruvda ishtirok etish.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

6. Mahalliy boshqaruvda ishtirok etish.

O‘smir yoshlar orasida siyosiy faoliyatning eng qulay shakli – bu saylovlarda ishtirok etishdir. O‘smir yoshlar saylov faoliyati mazmuniga ta’sir etuvchi omillar orasida jamiyatda demokratiyaning rivojlanishi, fuqarolarning fuqarolik va siyosiy yetukligi, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligi, saylovchilarning ongi va siyosiy madaniyati darajasi, saylovchilarning mavjudligi, elektoratga qaratilgan g‘oyalarni birlashtirish, jamoatchilik fikrining yetukligi, jamiyatda fuqarolik o‘zini o‘zi tashkil etish mexanizmlarining mavjudligi, siyosiy infratuzilma holati, OAV ning ob’ektivlik darajasi va h.k. kabi omillar mavjud.

Sotsiologlar L.A. Xegel va V.I. Zubkovning so‘zlariga ko‘ra, an’anaviy ravishda saylovlarda ovoz berish istagini bildirganlarga qaraganda 1,5 baravar kam yoshlar qatnashadi. Bu, bir tomondan, ovoz berish fuqarolardan katta kuch talab qilmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, ovoz berish siyosiy tizim tomonidan rag‘batlantiriladigan siyosiy qarorlarni qabul qilish kanalidir [24].

Ovoz berish yoshlarning siyosiy jarayonda siyosiy ishtirokining muhim shakllaridan biridir. Siyosiy partiyalar saylovni qo‘llab-quvvatlashning eng yuqori darajasidan bevosita manfaatdor, chunki saylov natijalari ularning vakillik muassasalarida o‘rin olishlarini ta’minlaydi va shunga mos ravishda resurslar miqdorini oshiradi.

Siyosiy partiya siyosiy va fuqarolik ishtirokining asosiy tuzilmasi bo‘lib, u turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini birlashtirish funksiyasini bajaradi. Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy guruhlarda shakllanadigan manfaatlarni shakllantiradi va davlat organlariga yetkazadi. Biroq siyosiy ishtirokning bu shakli yoshlar orasida yetarlicha mashhur emas.

O‘smir yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘rov paytida respondentlarning atigi 5,57 foizi mintaqadagi har qanday siyosiy partiyalarga a’zo bo‘lgan. Bundan tashqari, tadqiqot o‘smir yoshlarning mintaqaviy siyosiy partiyalarga bo‘lgan ishonchining juda past darajasini aniqladi, bu respondentlarning atigi 1,43 foizini tashkil etdi. Raqamlar o‘smir yoshlarning siyosiy partiyaga a’zolik kabi siyosiy ishtirok shakliga nisbatan shubhali munosabatini tasdiqlaydi.

O‘smir yoshlar o‘z manfaatlarini himoya qila oladigan va dolzarb muammolarni hal qilishga yordam beradigan jamoat tashkilotlariga qo‘shilishni juda xohlashadi. Ularning jamoat tashkilotlariga qo‘shilishining sabablaridan biri saylovoldi davrida yoshlar salohiyatidan saylov manbai sifatida foydalanadigan siyosiy partiyalar va siyosiy elitaga ishonchsizlikdir. Bundan tashqari, yoshlarning umumiy depolitizatsiyasi jiddiy rol o‘ynaydi.

O‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki siyosiy jarayonga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos vositasi bo‘lgan faoliyatning turli shakllarini o‘z ichiga oladi. Bular qo‘llab-quvvatlash harakatlari (namoyishlar, yurishlar, mitinglar) yoki norozilik namoyishlari, deklaratsiyalar, talablar (xatlar), qonunchilik tashabbuslari, nufuzli

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

odamlar bilan uchrashuvlar, forumlarda, kongresslarda, konferensiyalarda, davra suhbatlarida takliflar kiritish, internet resurslaridan foydalanish (yoshlar tashkilotlarining elektron sahifalari), rahbarlarni hukumat tuzilmalariga targʻib qilish, partiyalar faoliyatida ishtirok etish, saylov kampaniyalarida ishtirok etish, bloklar va ittifoqlarni yaratish kabilardan iborat.

Yoshlar ijtimoiy-siyosiy birlashmalarining siyosiy jarayonga ta'sir mexanizmi quyidagi bosqichlardan iborat kirish-chiqish tizimida ifodalanishi mumkin:

1. Yoshlar uyushmalari (siyosiy partiyalarning yoshlar qanotlari, yoshlar parlamentlari) vakillariga qoʻyiladigan talablar.

2. Qonunchilik tashabbuslari, iltimosnomalar va harakatlar orqali yoshlar manfaatlarini ifodalash va birlashtirish.

3. Davlat organlari (yoshlar qoʻmitalari va boshqalar) tomonidan talablarni qabul qilish va ularning qarorlarini qabul qilish.

4. Talablarga javob beradigan yechimlarni amalga oshirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Oʻzbekiston Республикаси Конституциуаси. www.lex.uz
2. Oʻzbekiston Республикасининг "Жамоат бирлашмалари тоʻgʻрисида"ги Qонуни. www.lex.uz
3. Oʻzbekiston Республикасининг "Таълим тоʻgʻрисида"ги Qонуни. www.lex.uz
4. Oʻzbekiston Республикасининг "Ёшларга оид давлат сиёсати тоʻgʻрисида"ги Qонуни. www.lex.uz
5. Oʻzbekiston Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги "2017 — 2021 йилларда Oʻzbekiston Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йоʻналиши боʻйича harакатлар стратегиуасини «Илм, маърифат ва раqамли иqтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тоʻgʻрисида"ги Фармони. www.lex.uz
6. Oʻzbekiston Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги "Mahалла институтининг жамиуатдаги ролини тубдан ошириш ва унинг ahоли муаммоларини hал этишда биринчи боʻgʻин сифатида ишлашини таъминлашга qаратилган чора-тадбирлар тоʻgʻрисида"ги ПФ-209-сонли Фармони. www.lex.uz
7. Oʻzbekiston Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабр. www.president.uz
8. Oʻzbekiston Республикаси Президентининг "Фуqаролик жамиуати институтларини ривожлантиришга коʻмаклашиш борасидаги qоʻшимча чора-тадбирлар тоʻgʻрисида" 2013 йил 12 декабрдаги ПQ-2085-сон qарори. www.lex.uz

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

9. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Social pedagogue's responsibilities in cooperation with a family to increase child sociability. Достижениуа науки и образованиуа, (19 (41)), 59-61.
10. Анохин, М.Г. Политические технологии/ М.Г. Анохин // Вестник российского университета дружбы народов. Сер. Политологиуа. – 2008. – № 6. – С. 55-63.
11. Анциферова, И.В. Политические партии в условиуах трансформatsiи российского общества // Социологиуа власти. – 2006. – № 3. – С.121-136.
12. Батанина, И.А. Политическое участие как фактор регулированиуа конфликтов в системе «власт-общество» в условиуах трансформatsiи современной России. Тула. 2013. 246с.
13. Бабинцев, В.П., Морозова Т.И. Государственнауа молодежнауа политика в РФ / В.П. Бабинцев, Т.И. Морозова. Белгород:Изд-во НИУ «БелГУ», 2011.– 234с.
14. Бабочкин, П.И. Становление жизнеспособной молодежи в динамично изменуающемсуа обществе / П.И. Бабочкин. М.: Социум, 2000. – 176 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМATSIYa ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Salohiddinova.G`B.** o`qituvchi, [**Салохиддинова Г.Б.** учител], [**G'azalxon Saloxiddinova** teacher**,];** manzil: O'zbekiston, Toshkent, Yunusobod tumani, Qoraqamish ko'chasi, 2A-uy. [аддрес: Узбекистан, ул. Ташкент, Юнусабадский район, улица Каракамыш, дом 2А.], [address: Uzbekistan, 2A house, Karakamish street, Yunusabad district, Tashkent city.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

“ONA TILI”, ”IKKINCHI TIL”, ”CHET TILI” TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIYATI VA IKKI TILLILIK MUHITIDAGI O‘RNI

© I.E. Umirov[1]✉
[1]O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada "ona tili", "ikkinchi til" va "chet tili" tushunchalarining mazmuni va mohiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – ona tili, ikkinchi til va chet tilining mazmun-mohiyatini aniqlash va ikki tillilik muhiti doirasida ularning ijtimoiy va psixologik o‘rnini tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tilshunoslik va sotsiologiya adabiyotlari tahlil qilindi. Empirik tadqiqot sifatida ikki tillilik muhitidagi shaxslar bilan intervyular o‘tkazildi va ularning turli tillarni o‘zlashtirishdagi tajribalari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, ona tili insonning asosiy kommunikativ va madaniy-tarixiy identifikatoridir, ikkinchi til esa ijtimoiy integratsiyani oshirishda yordam beradi.

XULOSA: maqolada ona tili, ikkinchi til va chet tili tushunchalarining ikki tillilik muhitidagi o‘rni va ularning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishga ta’siri aniqlandi.

Kalit so'zlar: Ona tili, ikkinchi til, chet tili, ikki tillilik, kognitiv rivojlanish, madaniyatlararo muloqot, til bilish ko‘nikmalari, ijtimoiy integratsiya.

Iqtibos uchun: Umirov I.E. “Ona tili”, ”Ikkinchi til”,”chet tili” tushunchalarining mazmun-mohiyati va ikki tillilik muhitidagi o‘rni // Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 69–75.

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ «РОДНОЙ ЯЗЫК», «ВТОРОЙ ЯЗЫК», «ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК» И ИХ РОЛЬ В СРЕДЕ БИЛИНГВИЗМА

© И.Э.Умиров [1]✉
[1]Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется содержание и сущность понятий «родной язык», «второй язык» и «иностранный язык».

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определить сущность родного, второго и иностранного языков и проанализировать их социально-психологическое место в среде билингвизма.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования проанализирована литература по лингвистике и социологии. В качестве эмпирического исследования были проведены интервью с людьми, находящимися в двуязычной среде, и изучен их опыт изучения разных языков.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что родной язык является основной коммуникативной и культурно-исторической личностью человека, а второй язык способствует повышению социальной интеграции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в статье раскрыта роль понятий родной язык, второй язык и иностранный язык в среде билингвизма и их влияние на личностное и социальное развитие.

Ключевые слова: родной язык, второй язык, иностранный язык, билингвизм, когнитивное развитие, межкультурное общение, языковые навыки, социальная интеграция.

Для цитирования: Умиров И.Э. Сущность понятий «родной язык», «второй язык», «иностранный язык» и их роль в среде билингвизма // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 69–75.

THE ESSENCE OF THE CONCEPTS "MOTHER TONGUE", "SECOND LANGUAGE", "FOREIGN LANGUAGE" AND THEIR ROLE IN THE ENVIRONMENT OF BILINGUALISM

© I.E. Umirov[1]✉
[1]Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the content and essence of the concepts of "mother tongue", "second language" and "foreign language".

AIM: the main goal of the study is to determine the content and essence of mother tongue, second language and foreign language and analyze their social and psychological place within the bilingual environment**.**

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed the literature on linguistics and sociology. As an empirical study, interviews were conducted with individuals in a bilingual environment and their experiences in mastering different languages were studied.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that the mother tongue is the main communicative and cultural-historical identity of a person, and the second language helps to increase social integration.

CONCLUSION: the article identified the place of the concepts of mother tongue, second language and foreign language in a bilingual environment and their impact on personal and social development.

Keywords: mother tongue, second language, foreign language, bilingualism, cognitive development, intercultural communication, language skills, social integration.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: I.E. Umirov (2024) The essence of the concepts "mother tongue", "second language", "foreign language" and their role in the environment of bilingualism, Inter education & global study, (8(1)), pp. 69–75. (In Uzbek).

Ona tili aslida ramziy ma’nodagi atama bo‘lib, u har bir millatning rasmiy tilidir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili shu mamlakat sohiblari bo‘lgan o‘zbek xalqining ona tilidir. Demak, majoziy ma’nodagi “ona tili” muayyan bir xalqning davlat tili hisoblanadi. Shu bois har bir millat farzandlari maktab ta’limida o‘rganadigan dastlabki til ilmi “Ona tili” deb ataladi.

Biz ona tili orqali dunyoni anglaymiz, shu til asosida milliy va madaniy qadriyatlarimizni idrok etamiz. Shunga ko‘ra, til har bir millatning o‘y-fikrlari, qarashlarining ifodachisi hamdir. Til orqali millat farzandlari ta’lim oladi, uning yordamida har bir inson dunyonini anglaydi. Demak, millatning ona tili nafaqat millat shaxsining, qolaversa, butun bir jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ko‘p millatli mamlakatimizda davlat tili – o‘zbek tili bo‘lsa-da, bu yurtimizda istiqomat qilayotgan qardosh xalqlar: qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq, tatar, uyg‘ur, ozarbayjon, turklar va noqardosh xalqlar: ruslar, tojiklar, koreys, ukrainlarning tillari ham o‘zaro muomalada erkin qo‘llanadi. Bu jarayon esa o‘z-o‘zidan ma’lum bir hududda ikki yoki ko‘p tillilikni yuzaga keltiradi.

“Ikkinchi til” atamasi yoki tushunchasi qo‘llanilish doirasiga ko‘ra turli ma’nolarni anglatadi: birinchidan, mamlakatimizda yashayotgan barcha millatlar uchun o‘zbek tili ikkinchi til hisoblansa, ikkinchidan, o‘zbeklarning o‘zi uchun esa rus tili ikkinchi til hisoblanadi. Shuningdek, filologik oliy o‘quv yurtlarida ham ikkinchi til tushunchasi mavjud, bunda mutaxassislik tili sifatida o‘rganayotgan tilidan tashqari boshqa bir tilni o‘rganishi – uning uchun ikkinchi tildir.

Chet tili tushunchasi millat tilidan farqli ularoq, u mamlakat hududidan tashqarida joylashgan, aniqrog‘i, boshqa tizimli xorijiy mamlakatlar tilidir. Demak, o‘zbek xalqi uchun qardosh turkiy tillardan tashqari dunyoda mavjud bo‘lgan barcha tillar xorijiy tildir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Odatda, savdo-sotiq va diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yish masadida har bir mamlakat xalqi jahon miqyosida keng tarqalgan xalqaro tillarni (masalan, ingliz, nemis, fransuz, rus, arab va xitoy tillarini), yaqin qo‘shni davlatlar tilini (masalan, xitoy, koreys tillarini) o‘rganishga harakat qiladi. Jumladan, hozirgi kunda jahon miqyosida ingliz tilining mavqei ko‘tarilib ketishi o‘z-o‘zidan ushbu tilni o‘rganishga ehtiyoj sezilganligini anglatadi. Demak, umum jamiyatning bunday ravnaq topishi muayyan bir jamiyatning bilingvizmga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Ikki tillilik, ya’ni bilingvizmni diglossiya deb ataluvchi hodisadan farqlamoq kerak. Diglossiya ham ikki tillilikka o‘xshaydi. Biroq diglossiya muayyan til jamoasiga mansub

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

shaxsning unga qarashli bo‘lgan tilning turli shevalariaro muloqotga kirisha olish imkoniyatini bildiradi.

Muayyan shaxsning o‘z ona tilining adabiy va uning biror-bir hududiy (shevasi) shakllarida muloqotga kirisha olishi ham diglossiyaning amaldagi ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Diglossiya ikki tillilikka qaraganda keng va faol tarqalgan sotsial-ijtimoiy hodisadir. Jamiyatning har bir a’zosi o‘z tilining adabiy shaklida hamda mahalliy sheva shaklida muloqot yuritishi nazarda tutilsa, diglossiya ommaviy keng tarqalgan hodisa ekanligini ma’lum bo‘ladi.

Ikki tillilik sotsiolingvistikaning ijtimoiy-lisoniy tushunchasi sifatida o‘ziga xos tizimlilikka ega. Ma’lumki, muayyan bir hodisa tizimlilik imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun shu hodisa doirasida birlashuvchi ichki tuzilmalari mavjud bo‘lishi va ular muayyan bir belgi-xususiyatlariga ko‘ra farqlanishi kerak. Boshqacha aytganda, tizim muayyan jihatlariga ko‘ra tasniflanishi, ya’ni klassifikatsiyalanishi zarur. Bunday xususiyat ikki tillilik, ya’ni bilingvizm uchun ham xos bo‘lib, ulardan biri **faol** (aktiv) va **nofaol**(passiv) ikki tillilikdir.

Ikki tillilikning faol ikki tillilik turi o‘z ona tili bilan o‘zga tilning og‘zaki va yozma shakllarini bir xil darajada savodli o‘zlashtirgan shaxslar nutqiga xosdir. Bunday shaxslar ikkinchi tilning ham yozma, ham og‘zaki shakllarida muloqotga kirisha oladi.

Ikki tillilik sharoitida biri boshqasidan farq qiluvchi ikki xil vaziyat mavjud bo‘lib, birinchisida o‘zga tilda bo‘ladigan muloqotda o‘z tilning, ya’ni ona tilining lisoniy xususiyatlari ustuvor bo‘lsa, ikkinchisida, aksincha, ya’ni bu muloqotda o‘zga tilning lisoniy xususiyatlari ustuvorlik qiladi. Nofaol ikki tillilikda ana shu vaziyatlardan biri hukmron bo‘lsa, faol ikki tillilikda ko‘rsatilgan vaziyatning har ikkisi teng darajada amal qiladi.

Nofaol ikki tillilik. Ikki tillilikning bu turi ikkinchi tilni qisman o‘zlashtirgan shaxslar nutqida uchraydi. Nofaol ikki tillilikda bilingv, ya’ni ikki til sohibi o‘zga tilni bir tomonlama o‘zlashtirgan bo‘ladi.

Ikki tillilikning faol va nofaol amali bevosita va bilvosita til kontaktlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Faol ikki tillilik bevosita til kontakti sharoitiga xos bo‘lsa, nofaol (passiv) ikki tillilik bilvosita til kontaktlari bilan aloqadordir. Bilvosita til kontakti ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar, televidenie, internet orqali chet tillarida beriladigan informativ materiallar bilan bog‘liq bo‘lib, bilingv ushbu materiallar mazmunini o‘qib tushunadi, ular mazmunini qisqa bayon eta oladi, biroq shu tilda erkin gapira olmaydi yoki yoza olmaydi.

Me’yoriy ikki tillilik. Me’yoriy ikki tillilik savodxon shaxslar nutqiga xosdir. Bunda bilingv o‘z ona tili va ona tili sanalmagan ikkinchi o‘zga tilning fonetik, lug‘aviy, grammatik qonun-qoidalarini me’yoriy o‘zlashtirgan bo‘ladi. Shuning uchun ikki tillilikning bu turi filologik bilimga ega bo‘lgan, o‘ta o‘qimishli va o‘ta savodxon ziyoli shaxslar uchun xosdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Me'yoriy ikki tillilik ikki tomonlama me'yoriy ikki tillilik va bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik singari ko'rinishlarga ega.

Ikki tomonlama me'yoriy ikki tillilik bilingvning o'z ona tilini va ona tili sanalmagan o'zga tilni savodli o'zlashtirganligiga asoslanadi.

Bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik. Me'yoriy ikki tillilikning bu turida bilingv ikki tildan birini savodli o'zlashtirgan bo'ladi. Ular ikkinchi tilda og'zaki so'zlashuv jarayonida erkin nutqiy muloqot yuritsalar-da, ikkinchi tilning fonetik, lug'aviy-semantik va grammatik me'yorlarini to'liq o'zlashtirmagan bo'ladilar. Jamiyatda to'liq me'yoriy ikki tillilikka qaraganda bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik ko'p uchraydi va faol amal qiladi.

Barchaga ma'lumki, chet tilini o'rganish tabiiy til muhitida samaraliroq bo'ladi, bu esa o'quv jarayonida tabiiy til muhiti bilan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan maxsus ikki tilli ta'lim muhitini sun'iy ravishda shakllantirishni taqazo etadi. Til funksiyalari tizimida tilni o'zlashtirish nafaqat bolaning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, balki tilni muloqot yurituvchi sifatida ham, madaniyatlararo bilimlar vositasi sifatida ham o'zlashtirish uchun katalizator bo'lgan kognitiv sohani shakllantirishga yordam beradi.

Ma'lumki, turli tillar vakillari munosabatlarini to'laqonli amalga oshirishda madaniyatlararo munosabatning muhim ahamiyatga ega ekanligi, chet tilni o'rganuvchi tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga ham kirib borsa, tili o'rganilayotgan mamlakat turmush tarzi, shu xalqning madaniy qadriyatlari bilan yaxshi tanish bo'lsagina ikki til sohibiga aylanishi ta'kidlanadi. Shuningdek, til va madaniyat axborotni kodlash vositasi bo'lib, talabalarda yangi olam timsolini ham shakllantiradi. Ikkinchi til sohibida o'z madaniyatidagi birlamchi olam manzarasi begona tildagi ikkilamchi olam manzarasi bilan qiyoslanadi. Chet tili va shu til egalarining madaniyatini o'rganishda yuzaga keladigan ikkilamchi olam manzarasi – bu shunchaki tilda aks etuvchi manzara bo'lib qolmay, balki til orqali ifodalanuvchi va til yordamida yaratiladigan lisoniy manzara bo'lib, ushbu psixologik omillar ikkilamchi lisoniy-madaniy shaxs shakllanishiga olib keladi.

Ikkilamchi lisoniy shaxsni shakllantirish fikri dastlab Z. Dorney va E. Ushoida tadqiqotlarida ham ilgari surilgan bo'lib, ular til o'rganuvchi o'zida kelajakda qanday mutaxassis bo'lib etishishini oldindan rejalashtirishi orqali motivatsion muhitga tushib qolishi va natijada ikkilamchi shaxs shakllanishi ro'y berishini ta'kidlaydilar. Jumladan, Z.Dorne o'zi ilgari surgan ikkilamchi lisoniy shaxs shakllanishining motivatsion tizimida quyidagi uch jihatni alohida ajratib ko'rsatadi:

1. Mukammal ikkilamchi lisoniy shaxs - til o'rganuvchi o'zini ikkinchi tilni mukammal egallagan shaxs sifatida tasavvur qilishi, bu juda kuchli motivator bo'lib o'rganuvchi hozirgi ko'nikmalari va tilni mukammal egallagandagi ko'nikmalari orasidagi tavofutlarni qisqartirishga harakat qilishi lozim.

2. Zaruriy ikkilamchi lisoniy shaxs - til o'rganuvchi sifatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini egallash kerak.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

3. Ikkinchi tilni o‘rganish - bevosita tilni o‘rganish muhiti va tajribasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Jahon hamjamiyati bugungi kunda ko‘p tillilikka intilmoqda. Tabiiy ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan ko‘p tillilik muhiti kasbiy mutaxassislik bilan bir qatorda xalqaro tillarni yuqori darajada egallash va jahondagi eng yangi ilmiy nazariy qarashlarni o‘zlashtirish asosida o‘z kasbiy ko‘nikma-malakalarini muntazam rivojlantirib borishni taqazo etmoqda. Umumjahon pandemiyasi davrida tibbiyot mutaxassislarining davo choralarini topish yo‘lidagi ilmiy hamkorligi, o‘zaro tajriba almashish harakatlarida xalqaro tillarni biluvchi mutaxassislarning o‘rni naqadar muhimligi barchaga ayon bo‘ldi. Shu bois hozirgi kunda respublikamiz ta’lim sohasida sohaviy til ta’limini kuchaytirishga va nafaqat tillarni o‘rgatishga ixtisoslashga filologik oliy ta’lim muassasalarida, hatto nofilologik yo‘nalishlarda ham mutaxassislik fanlarini chet tillarda o‘qitishni tashkil etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada chet ellik mutaxassislar ham ta’lim jarayoniga jalb qilinmoqda. Ko‘rinadiki, faol ikki tillilik aksariyat holatlarda ko‘p tillilik tomon o‘sib boradi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Demak, ikki tillilik deganda, nafaqat shaxsning ikki tilda so‘zlashishini, balki shu tilda fikrlashini ham tushunmoq kerak. Agar shaxs ikki tilda so‘zlashsa-yu, bir tilda idrok etsa, o‘ylasa, bu har ikki tilni to‘liq egallagan bo‘lmaydi. Chunki bunday shart-sharoitda u avval idrok etgan narsani, fikrini avval ikkinchi tilga tarjima qilishi va keyin muloqotga chiqarishi kerak bo‘ladi. Bu hola nutqiy muloqotda ayrim o‘rinlarda to‘xtalib qolishga, kerakli ifoda shaklini topa olmay ona tilidagi yoki boshqa tillardagi so‘zni qo‘shib ishlatishga olib keladi, ya’ni nutqdagi izchillikning susayishiga olib keladi. Ikki tilli shaxs o‘z ona tilida ham, ikkinchi tilda ham idrok etsa, fikrlay olsagina, u har ikki tilda teng darajada erkin va oson gapiradigan shaxs hisoblanadi. Bunga erishish uchun ikkinchi til ko‘nikmalarini erta bolalaikdan boshlash va ona tili hamda o‘rganilayotgan tilda muntazam so‘zlashib turishni ta’minlash kerak bo‘ladi. Tillarda muloqot yuritishda me’yoriylikning buzilishi, ya’ni u yoki bu tilga ustuvorlik berilishi bolada bir tomonlama me’yoriy ikki tillilikning yuzaga kelishiga olib keladi. Buning yorqin misolini, chet mamlakatlarda yashayotgan vatandoshlarimizning farzandlari o‘sha mamlakat tilini o‘rganishga kuch berishi oqibatida o‘z ona tillarini unutib qo‘yayotganliklarida ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘rinadiki, ikki tillilik (blingvizm) sharoitida shaxs, ya’ni bola nutqini shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiq keladigan eng to‘g‘ri yo‘ldir.[1] Bolaning maktabgacha davrida ikki tilning tanlanishi va mas’ullar tomonidan joriy etilishi olamning lisoniy manzarasini yanada yorqinroq ko‘rishga imkon yaratadi. Chunki mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy xususiyati doimo uning ko‘p millatliligi, ko‘p madaniyatliligi bilan bog‘liq

[1] Sokolova, I.V. Ikki tillilikning shaxsning ijtimoiy-kognitiv rivojlanishiga ta'siri / I.V. Skolova // Ta'lim va fan. - 2012.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

holda shakllangan va rivojlangan. Millatimiz ta'lim tizimi rasmiy asosda ikki tillilikka asoslanmagan bo'lsa-da, biroq jamiyat shaxsining o'zaro muloqatida, ta'lim tizimda o'qitish jarayonida ikki tillilik to'liq amal qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бодуэн де Куртене. Введение в языковедение. – М.: Ленанд, 2018.
2. Исмаилов, М.С. Грамматические способы выражения пространственных отношений при двуязычии (на материале узбекского-русского раннего двуязычия): автореф.дис…канд. фил. наук. – М., 1988.
3. Qурбонова, М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз...дис. – Тошкент, 2009.; Qурбонова, М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол. фан. докт...дис. – Тошкент, 2018.
1. Сайидирахимова, Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дис. – Тошкент, 2004.
2. Умархўжаева, О. Болалар нутқининг баъзи фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997.
3. Berdaliyev A. Sinxron sotsiolingvistika. Toshkent -1992.
4. Sokolova, I.V. Ikki tillilikning shaxsning ijtimoiy-kognitiv rivojlanishiga ta'siri / I.V. Skolova // Ta'lim va fan. - 2012.
5. Chernysheva 2001 yil - Chernysheva E. B. Maktabgacha yoshdagi bolaning kommunikativ xatti-harakati: (Psixolingvistik tadqiqot): dis. .kand. Filol. Sci. Voronej, 2001.
6. 9.Macnamara John The bilingual's linguistic performance: A psychological overview, 1967 // Journal of Social Issues, Issues 23:2(58), 2010.
7. Samarin, D. V.A. Bogoroditski on the role of language borrowings // Philological Sciences Issues of Theory and Practice. 2011-6-2.
8. Weinreich, U. Languages in contact. Berlin: De Gruytor Mouton, 2010.
9. Xarchenko V.K. Bolalar nutqi lug'ati. Belgorod: Belgorod, shtat. ped. Institut, 1994.
10. Tseitlin S.N. Bolalar nutqi: Tilshunoslik terminlari lug'ati / komp. S. N. Tseitlin, M. V. Rusakova. Sankt-Peterburg: Ta'lim, 1993.
11. Ferguson, C.A.& Fishman, J.A. (1977). Language planning process. The Hague, Mouton.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Umirov I. E,** dotsent, [**Умиров И.Е,** дотц], [**E.I. Umirov**, associate professor]; manzil: O'zbekiston, Toshkent, Uch-tepa tumani, daha CHILONZOR-G9A, ko'chasi KICHIK XALKA YO'LI, 21 [adrec: Узбекистан, Ташкент, Уч-тепинский район, даха ЧИЛОНЗОР-G9A, улица КИЧИК ХАЛКА ЁЛИ, 21], [address: Uzbekistan, Tashkent, Uch-tepa district, daha CHILONZOR-G9A, street KICHIK KHALKA YOLI, 21]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TALABALARNI ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

© I.X. Komolova[1]✉
[1]Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda art-pedagogika usullaridan foydalanishning ahamiyati va usullari yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – art-pedagogika usullaridan foydalanish orqali talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish yo‘llarini aniqlash va ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuvlarni integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqotda sifatli tahlil va kuzatuv metodlari qo‘llanildi. Talabalar bilan olib borilgan art-pedagogik treninglar va ijodiy mashg‘ulotlar natijalari baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Natijalar art-pedagogika usullarining talabalarda kasbiy faoliyatga qiziqish va motivatsiyani oshirishga, shuningdek, ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda art-pedagogika usullarini qo‘llash samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: art-pedagogika, kasbiy tayyorgarlik, ijodiy yondashuv, art-terapiya, san’at ta’limi, kasbiy ko‘nikmalar, motivatsiya.

Iqtibos uchun: Komolova.I.X. Talabalarni art-pegagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.76–81.

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АРТ-ПЕДАГОГИКИ

© И.Х. Комолова[1]✉
[1]Самаркандский государственный университет Каттакорганский филиал, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье освещается значение и методы использования художественно-педагогических методов в повышении готовности студентов к профессиональной деятельности.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определить пути повышения готовности студентов к профессиональной деятельности с помощью методов арт-

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

педагогики и изучить возможности интеграции творческих подходов в учебный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались качественный анализ и методы наблюдения. оценивались результаты художественно-педагогической подготовки и творческой деятельности, проводимой со студентами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что методы арт-педагогики оказывают большое влияние на повышение интереса и мотивации студентов к профессиональной деятельности, а также на развитие творческих и коммуникативных навыков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили эффективность использования художественно-педагогических методов в повышении готовности студентов к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: арт-педагогика, профессиональная подготовка, творческий подход, арт-терапия, художественное образование, профессиональные навыки, мотивация.

Для цитирования: Комолова.И.Х. Подготовка студентов к профессиональной деятельности на основе арт-педагогик.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 76–81.

PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASIS OF ART-PEDAGOGY

© Iroda X. Komolova[1]✉
[1]Samarkand State University, Kattakorgan branch, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights the importance and methods of using art-pedagogical methods in increasing students' readiness for professional activity.

AIM: the main goal of the study is to identify ways to increase students' readiness for professional activity through the use of art-pedagogical methods and to study the possibilities of integrating creative approaches into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the study used qualitative analysis and observation methods. the results of art-pedagogical trainings and creative activities conducted with students were evaluated.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that art-pedagogical methods have a significant impact on increasing students' interest and motivation for professional activity, as well as on the development of creative and communicative skills.

CONCLUSION: the results of the study confirmed the effectiveness of using art-pedagogical methods in increasing students' readiness for professional activity.

Keywords: art pedagogy, professional training, creative approach, art therapy, art education, professional skills, motivation.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Iroda. X. Komolova. (2024) 'Preparing students for professional activity based on art-pedagogy', Inter education & global study, (8(1)), pp. 76–81. (In Uzbek).

Kasb – bu insonning ijtimoiy tavsifi bo'lib, bunda bir xil turdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan odamlarning ma'lum bir toifaga mansubligi tushuniladi. Talaba oliy ta'lim muassasasiga kirishdan oldin kasb tanlaydi va bu bo'lg'usi professional sifatida sub'ekt pozitsiyasini aniqlab beradi: yangi vazifalar (kasbiy faoliyatni o'zlashtirish) va mavjud imkoniyatlar orasida, yangi tizimlar munosabati bilan shunga o'xshash munosabatlarning maktabda odatlanib qolingan stereotiplari orasida ziddiyat kelib chiqadi. Kasbiy tayyorgarlik yo'lining o'zi talaba roli pozitsiyasining juda tez o'zgarishini talab qiladi: o'qishning boshida u maktab talabasi bo'lishi kerak emas, uning oxirida esa – talaba bo'lishi kerak emas. Bularning hammasi talabalarning jadal ijtimoiy ulg'ayishini va kasbiy - shaxsiy jihatdan rivojlanishini talab qiladi.

Tadqiqotda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyati uning boshqaruvchanligi metofaoliyatliligidan iboratdir, ya'ni pedagog o'z faoliyatini talaba faoliyatiga qarab qurishi lozim bo'ladi. Ko'pchilik kasb egalari o'z faoliyatlarini malakali darajada tashkil etish bo'lsa, oliy ta'lim pedagoglar uchun talabalarning o'quv faoliyatini tashkillashtirishidan iborat.

Art-pedagogikaning shaxsga ta'siri asosan uch darajada amalga oshiriladi:

I. birinchi daraja, tananing fiziologik va biologik o'zgarishi orqali sodir bo'ladigan psixofiziologik, vizual(ko'rgazmali), eshitish va boshqa rettseptorlarning faollashishi, ya'ni psixofiziologik ta'sir hisoblanadi (B. G. Ananev, V. A. Ganzen, A. L. Gotsdiner, V. N. Myasishev, V. I. Petrushin, D. N. Uznadze va b.);

II. ikkinchi daraja, insonning hissiy-irodaviy tuzilmasiga ta'sir etish bilan bog'liq bo'lgan psixologik, ya'ni, tanani ruhiy bo'sh qo'yish yoki aksincha ruhiy faollashtirishga qulay engillik (A.V.Zaporojets, A.N.Leontьev, P.M.Yakobson va b.);

III. uchinchi daraja, ijtimoiy-psixologik, bunda u shaxsga ta'sir qilib, unda kataraktik reaktsiyaga sabab bo'ladi, o'z navbatida shaxsni o'zgartiradi va uyg'unlashtiradi, ekzistentsial shaxs tuzilmalarini shakllantiradi (L. V. Vigotskiy, T. A. Florenskaya va boshqalar).

Odatda "art-pedagogika" tushunchasi "art-terapiya" atamasi bilan birgalikda ishlatiladi. Biroq, "art-pedagogika" tushunchasini "art-terapiya" tushunchasi bilan solishtirganda shuni e'tirof etish mumkinki, "art-pedagogika" atamasi hali etarli darajada tadqiq etilmagan. Bu ikki tushuncha bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lsada, biroq ular sinonim emas. L.D. Lebedevaning fikricha, "art-terapiya atamasini art-pedagogika bilan almashtirganda, asl tushunchaning mohiyati yo'qoladi".

J. S. Valeyeva, L.D. Lebedeva, I.Yu. Levchenko, Ye.A. Medvedeva, S.V. Starikovalar tadqiqotlarida "art-pedagogika" va "art-terapiya" tushunchalarini qiyosiy tahlilini qilishgan bo'lib, ular ushbu tushunchalar bo'yicha quyidagi xulosani chiqarishgan: ularning semantik va amaliy mazmunida umumiylik va xususiylik mavjud bo'ladi. Bunda insonlarning badiiy-ijodiy faoliyati umumiy, sa'natga bo'lgan munosabatidagi "erkinlik",

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ishlatiladigan asboblari va sa’nat turlarining shaxsga ijobiy ta'siri xususiy sanaladi. Ye.A. Medvedeva “art-terapiya” va “art-pedagogika” tushunchalarini solishtirib, quyidagilarni ta'kidlaydi: “bu atamalarning o‘xshashligi shundaki, tushunchalarning birinchi qismi –“art” – “badiiy” so‘zi sa’nat bilan sinonim sanaladi. Ikkinchi qismida esa: terapiya – davolash ta'siri, tibbiy yo‘nalish; pedagogika – ta’lim, tarbiya, rivojlanish haqidagi fan”. Art-pedagogika inson “muammolari” bilan emas, balki uning imkoniyatlari bilan shug‘ullanadi. Bunda birinchi navbatda insonning ijobiy imkoniyatlari doirasini kengaytirish turadi.

Ko‘rib chiqilayotgan muammo doirasida art-pedagogika bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi bo‘yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

- ta’lim jarayonida tasviriy sa’nat vositalaridan foydalanish;
- ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotning ustunligi;
- o‘qituvchi va talaba hamkorligida badiiy ijodiyot, auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlardagi turli xil bir-biriga bog‘liq mashg‘ulotlar;
- turli mavzularni o‘rganishda sa’nat asarlaridan foydalanish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbga tayyorlash muhitini va ijodiy faoliyatini tashkil etish.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda art-pedagogikaning maqsadi: talabaning ma’naviy va axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida axloqi va estetikasini shakllantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashdir. Axloqiy va estetik immunitetni bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish oliy ta’lim muassasasi o‘quv-tarbiyaviy jarayonining muhim vaziflaridan sanalar ekan, bu tushunchalarga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar bilan izoh berib o‘tamiz.

Axloqiy immunitet – bu mikro va makro muhitda axloqsiz hodisalarga qarshilik ko‘rsatuvchi shaxsiy sifat sanalib, uning jamiyatda tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy vaziyatlarga bo‘lgan munosabatining etarliligi hamda ma'naviy manbalarni salbiy axloqiy yo‘nalishga olib boradigan moddiy va dunyoviy vasvasalarni engishga safarbar etishdir, deydi A.S.Metelyagin. Shuni aytish muhimki, bo‘lajak o‘qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashimizda ularda axloqiy immunitetni hosil qilish birinchi vaziflardan sanaladi. Ya'ni, salbiy holatlarga va muammolarga axloqan yondashib, sa’nat orqali go‘zallikni his qilib, turli vaziyatlarga ijodiy yondashib o‘z “men”ini shakllantirishi juda muhimdir.

Estetik immunitet – bu shaxsning ma'naviy shakllanishining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bunda go‘zallikdan go‘zallikni ajrata olish, sa’natda uyg‘unlikni uyg‘unsizlikdan, tartibdan betartibliklarni farqlashi kabi qobiliyatining hamda insonning hulqida, xatti-harakatida, ijodida; ommaviy ta'sirga va madaniyatsizliklarga chidamli bo‘lishi tushuniladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda estetik immunitetning shakllanishi juda muhim sanaladi. Estetik immunitetning shakllanishi kelgusida kasbiy-tarbiyaviy faoliyatida: tadbir, bayram kechalarini tashkil etishi; o‘quvchi va ularning ota-onalari bilan muloqoti, pedagog imidjini yaratishi va boshqalarda eng muhim qurol bo‘ladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Art-pedagogikani asosiy tamoyillariga insonparvarlik, ijodkorlik, integrativlik va refleksivlik kiradi.

Insonparvarlik g‘oyasi art-pedagogikada asosiy tamoyil sanalib, har bir talabaga badiiy, intellektual va boshqa qobiliyatlaridan qat'iy nazar alohida munosabatda bo‘lish pedagog faoliyatining bosh g‘oyasi sanaladi. Talabaning alohida qobiliyat egasi ekanligiga ishonish pedagog munosabatida namoyon bo‘ladi. Tarbiyaviy maqsadlarga ustuvorlik beriladi: o‘quv jarayoni yaxshilik va yomonlik, mehr-muhabbat, go‘zallik va uyg‘unlik kabi muammolarga boy bo‘ladi. Erkin ijodiy muhitda ijodiy jarayonni tashkil etish orqali shaxsiy ijodkorlik yaratiladi. Ijodkorlik qobiliyati majburlash orqali yuzaga chiqmaydi. Shu sababli, artpedagogdan qanday qilib qulay ijodiy muhit va shart-sharoitni yaratish masalasi turadi. Refleksivlik g‘oyasi – bu insonning muammoli-ziddiyatli vaziyatlarni ijodiy anglashi va engib o‘tishiga tayyorligi hamda g‘ayrioddiy amaliy vazifalarni belgilashi va hal qilishi, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi g‘ayrioddiy munosabatlarga moslashishi tushuniladi. Integrativlik g‘oyasi art-pedagogikaning mazmun mohiyati aks etadi. Avvalo, bunda pedagogika, psixologiya, sa’nat va inson tafakkurining boshqa sohalari integratsiyasi namoyon bo‘ladi. Talabaning axloqiy va estetik qiyofasini boyitishga qaratilgan turli xil badiiy faoliyat turlari va shakllarining uyg‘unlashuvi sanaladi.

Pedagoglik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etib, pedagog yosh qalblar kamolotining me’moridir. U bolalarni g‘oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o‘rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb – hunar egallashlariga ko‘maklashishi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy – iqtisodiy vazifani hal etishga chog‘lanmog‘i darkor. Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun pedagogik mahorat o‘qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart – sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy – metodik yordam ko‘rsatishi hamda o‘qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko‘maklashadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi" Toshkent – "O‘zbekiston"-2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 13 iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6260-son Farmoni
3. Saliyeva Z.T. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc). … diss. – T., 2017. – 243 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

4. Руденко И.В., Кустов Ю.А. и др. Формированийе общепрофессиональных компетентсий студентов в воспитательном протсессе вуза: аксиологический подход: монография /– Тольятти: Кассандра, 2015 – 168 с.
5. Пайдуков Д.В. Формированийе у будущих бакалавров педагогического образования компетентности в области эстетического воспитания школьников: диссертатсия ... кандидата педагогических наук. – Чебоксары, 2015. – 167 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Komolova Iroda Xamidulla qizi**, o`qituvchi, [**Комолова Ирода Хамидулла кизи**, – учительница], [**Iroda. Kh. Komolova**, teacher]; manzil: O'zbekiston,Samarqand viloyati.,Shahar Kattaqo`rg`on,Amir Temur ko'chasi, [адрес:Узбекистан, Самаркандская область, город Каттакорган, улица Амира Темура], [address: Uzbekistan, Samarkand region, Kattakorgan city, Amir Temur street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

MUSIQA SAN'ATIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING KIRIB KELISHI VA SHAKLLANISHIDA MUAMMO VA YECHIMLAR

© B.M.Ibragimov[1]✉

[1] O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: axborot texnologiyalarining rivojlanishi barcha sohalarda, jumladan musiqa san'atida ham tub o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu maqola musiqa san'atiga raqamli vositalar kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqishga qaratilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi musiqa san'atiga axborot texnologiyalarining integratsiyasi natijasida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, empirik kuzatishlar, musiqiy dasturlar va platformalar faoliyati hamda soha mutaxassislari bilan olib borilgan suhbatlar natijalari asosiy manba sifatida qo'llanildi. Shuningdek, kontent-tahlil va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqa san'atida axborot texnologiyalarining rivoji musiqani ishlab chiqarish va iste'mol qilishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Ammo shuningdek, u musiqa san'atiga qiziqishning susayishi, musiqiy ijodkorlikka salbiy ta'sir kabi muammolarni ham keltirib chiqardi. Muammoni hal qilish uchun zamonaviy dasturiy ta'minot va musiqiy ta'lim jarayonlarini uyg'unlashtirish zarur.

XULOSA: musiqa san'atida axborot texnologiyalarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etsa-da, mavjud muammolarni hal qilish uchun ijodiy va texnologik yondashuvlarni birlashtirish muhim. Musiqiy ta'limda innovatsion metodlarni qo'llash orqali san'at va texnologiya o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarur.

Kalit so'zlar: musiqa san'ati, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, musiqa ijodkorligi, integratsiya, innovatsion metodlar, musiqiy ta'lim, muammo va yechimlar.

Iqtibos uchun: Ibragimov B.M. Musiqa san'atiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi va shakllanishida muammo va echimlar // Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 82–89.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ВХОДА И ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

© Б.М. Ибрагимов[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

[1]Национальный институт эстрадного искусства имени Ботира Закирова при Государственной консерватории Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: развитие информационных технологий привело к фундаментальным изменениям во всех сферах, в том числе и в музыкальном искусстве. Целью данной статьи является рассмотрение изменений, произошедших в результате внедрения цифровых инструментов в музыкальное искусство, их положительных и отрицательных сторон.

ЦЕЛЬ: основной целью статьи является выявление проблем, возникающих в результате интеграции информационных технологий в музыкальное искусство, и разработка научно обоснованных решений по их устранению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в качестве основных источников в исследовании использованы анализ научной литературы, эмпирические наблюдения, деятельность музыкальных программ и платформ, а также результаты интервью с экспертами отрасли. Также использовались методы контент-анализа и сравнительного анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что развитие информационных технологий в музыкальном искусстве создало новые возможности в производстве и потреблении музыки. Но это также вызвало проблемы, такие как снижение интереса к музыкальному искусству и негативное влияние на музыкальное творчество. Для решения проблемы необходимо объединить современное программное обеспечение и процессы музыкального образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: хотя внедрение информационных технологий в музыкальное искусство важно, важно сочетать творческий и технологический подходы для решения существующих проблем. Необходимо сохранять баланс между искусством и технологиями, используя инновационные методы в музыкальном образовании.

Ключевые слова: музыкальное искусство, информационные технологии, цифровые технологии, музыкальное творчество, интеграция, инновационные методы, музыкальное образование, проблемы и решения.

Для цитирования: Ибрагимов Б.М. Проблемы и решения входа и формирования информационных технологий в музыкальном искусстве // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 82–89.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE ENTRANCE AND FORMATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE ART OF MUSIC

© Bobir M. Ibragimov[1]✉
[1]National Pop Art Institute named after Botir Zakirov under the State Conservatory of

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the development of information technologies has led to fundamental changes in all fields, including the art of music. This article aims to examine the changes that have occurred as a result of the introduction of digital tools into the art of music and their positive and negative aspects.

AIM: the main purpose of the article is to identify the problems that arise as a result of the integration of information technologies in the art of music and to develop scientifically based solutions for their elimination.

MATERIALS AND METHODS: the analysis of scientific literature, empirical observations, activities of music programs and platforms, and the results of interviews with industry experts were used as the main sources in the research. Content analysis and comparative analysis methods were also used.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the research show that the development of information technology in the art of music has created new opportunities in the production and consumption of music. But it also caused problems, such as a decline in interest in the art of music, and a negative impact on musical creativity. To solve the problem, it is necessary to combine modern software and musical education processes.

CONCLUSION: although the introduction of information technology in the art of music is important, it is important to combine creative and technological approaches to solve existing problems. It is necessary to maintain a balance between art and technology by using innovative methods in music education.

Key words: music art, information technologies, digital technologies, music creativity, integration, innovative methods, music education, problems and solutions.

For citation: Bobir M. Ibragimov. (2024) Problems and solutions in the entrance and formation of information technologies in the art of music, Inter education & global study, (8(1)), pp. 82–89. (In Uzbek).

Qattiq jismlarning past sifatli magnitafonlari 1900 yildan beri mavjud bo‘lib, 1930-yillarning boshlarida kinoindustriya ovozli filmlarga foto - optik ovoz yozishni qo‘llay boshladi. Xuddi shu vaqtning o‘zida Germaniyaning AEG elektronika kompaniyasi birinchi Magnetophon K-1 magnitafonini ishlab chiqdi. U 1935 yil avgustda Berlinda bo‘lib o‘tgan xalqaro radio ko‘rgazmada namoyish etildi.

1940 yilda nemis muhandisi Valter Veber yuqori chastotali o‘zgaruvchan tokning texnologiyasiga patent oldi, bu yozuv va ijro etish sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. 1941 yilda AEG yangi magnitafon modelini (Magnetophon K4HF) chiqardi. Unda Veber tomonidan ochiq yuqori chastotali magnitlanish texnologiyasi birinchi marta qo‘llanildi. 1942 yilda AEG Stereo formatda ovoz yozish bo‘yicha tajribalar o‘tkazdi. Birinchi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

elektroakustik asar 1944 yilda Misr poytaxti Qohiradan kelgan talaba Halim El Dabh tomonidan yozilgan. Halim El Dabh “Zaar” (ingl. Zaar) nomi bilan mashhur qadimiy tasavvuf marosimi(“Sirli poklanish marosimi”)da qatnashib, katta hajmdagi magnitafon yordamida asboblarning tovushlarini va qo‘shiq ovozlarini magnit tasmaga yozib oldi.

Elektron musiqa. Elektron musiqa (nem. elektronische Musik, ingl. electronic music) - bu musiqani qisman yoki to‘liq elektron tarzda ishlab chiqarish, o‘zgartirish va qayta ishlab chiqarishning akustik natijasi bo‘lgan musiqani anglatadi. Ushbu jarayonda ovozning ichki tashkil etilishi birinchi o‘rinda turadi. Ovoz manbai tabiiy yoki sun’iy (akustik va elektron) bo‘lishi mumkin.

Elektron musiqa — 1) elektron musiqa cholg‘ulari, ovoz yozish hamda ovoz taratish (magnitofon kabi) qurilmalari vositasi bilan yaratilgan musiqa asarlari. Kompozitorlik ijodida konkret musiqa, maxsus kompyuter dasturlari asosida ijod etilgan kompyuter musiqasi, kinofilm, spektakl va boshqalar uchun bastalagan amaliy Elektron musiqa kabi turlari ajratiladi.

XX asrning so‘nggi uchdan bir qismigacha elektron musiqa asosan akademik musiqada (sobiq ittifoq dalatlaridaa ham, chet elda ham) tajribalar bilan bog‘liq edi. Ammo bu holat 1970 yillarda ovozli sintezatorlarning ommaviy ishlab chiqarilishi tashkil etilishi bilan o‘zgardi. Sintezatorlar o‘rtacha narxlari tufayli keng ommaga taqdim etildi. Bu holat mashhur musiqa an’ana qiyofasini o‘zgartirdi - ko‘plab jazz, rok va pop musiqachilari tomonidan sintezatorlar keng qo‘llanilishiga olib keldi. XI asrning boshlarida elektron musiqa keng uslub va janrlarni o‘z ichiga oladi. Avangard musiqachilarining yagona tajribalaridan tortib keng takrorlanadigan amaliy musiqaga qadar.

Yapon elektron musiqasi. NHK studiyasini yaratish va elektron musiqa bo‘yicha birinchi ishlar. Wataru Uenami “HNK” elektron musiqa studiyasining asoschisi va direktori. NHK studiyasi 1955 yilda Germaniyaning Technische Hausmitteilungendes NWDRs studiyasi - Sonderheft liber elektronische Musik (1954 N. ½) ichki nizomlari to‘g‘risidagi bayonot NHK muhandislari guruhi tomonidan yapon tiliga tarjima qilinib va buklet shaklida nashr etilgan.

Robert Bayerning ikkita maqolasi yapon bastakorlari orasida ham tarqalib, rasmiy ravishda “Melos jurnali”da nashr etilgan: Zur Geschichte der Elektronischen Musik (1953) va Elektronische Musik (1954). Elektron tovush va eksperimental musiqa bo‘yicha birinchi tadqiqotlar 1954 yilda NHK texnik xodimlari a’zolari tomonidan boshlangan va birinchi musiqiy kompozitsiya Toshiro Mayuzumining ishi bo‘lgan.

Mayuzumining uchta asari 1955 yilga bag‘ishlangan. Bular: “Asosiy sonlarning mutanosibligi bo‘yicha sinus to‘lqinlari uchun musiqa” ("Music for Sine Waves by Proportion of Prime Numbers"), “Asosiy sonlarning mutanosibligi bo‘yicha modulyatsiya qilingan to‘lqinlar uchun musiqa” ("Music for Modulated Waves by Proportion of Prime Numbers") va “Kvadrat to‘lqinlar va tishli to‘lqinlar uchun ixtiro” ("Invention for Square Waves and Sawtooth Waves"). Ushbu uchta etyud oddiy kompozitsiyadan murakkabroq tarkibga o‘tishni shakllantirdi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Birinchi, To‘liq sinus to‘lqinlaridan tashkil topgan birinchi tadqiqot Karlxaynts Stokxauzenning (1953) "Studi I" asariga asoslangan va Furye tahlil nazariyasiga asoslanadi. Biroq, yapon bastakori g‘arb g‘oyalarini rasman ishlatayotgani, shunchaki turli sinusoidal signallarni bir-birining ustiga qo‘yganligi sezildi.

Ikkinchi ishda Mayuzumi spektrni boyitish uchun modulyatsiyadan foydalanadi, lekin hech narsani sintez qilishga ham urinmaydi, balki, elementar spektral birlik - sinus to‘lqin bilan ishlaydi. Stokhauzenning aniq ta’siriga qaramay, nazariy jihatdan - nemis bastakor - tadqiqotchilari uchun muhim bo‘lgan yapon hamkasblari tomonidan har doim deyarli umuman e’tiborsiz qoldirilgan va faqat ovozli va akustik ta’siriga ahamiyat berilgan.

Uchinchi ishda monoxord - arra tishli signal generatori uchun klaviatura tekshirgichidan foydalaniladi. Uning vazifasi juda sodda “ohangdor qismlar qo‘shish” edi. Oddiy ohanglar, glissandolar va impressionistik effektlar ushbu asarga G‘arb klassik tuzilmalari uslubida o‘ziga xos “klassik” belgi beradi va ushbu tadqiqot Baxga bag‘ishlangan bo‘lishi ajablanarli emas, chunki sarlavha: “Ixtiro” "Invention" edi.

Shu erda NHK studiyasidan oldin elektron musiqa Yaponiyda bo‘lmaganmi degan savol tug‘iladi. 1955 yilda NHK elektron musiqa studiyasi tashkil topgan paytda uskunalar quyidagicha edi: meloxord (olti kanalli sinusli signal generatori), monoxord (klaviatura tomonidan boshqariladigan arra tishli signal generatori), har xil osilatorlar, 32 bandli filtr, uzuk modulyatori va magnitafon.

Studiya 1968 yilda ko‘chib o‘tdi. Shu bilan birga, yangi qurilmalar paydo bo‘ldi. Oovozli grafikadan namuna olish uchun fotoformator (NHK texnik guruhi tomonidan ishlab chiqilgan) va oltita kanalli magnitofon, uning bir kanali boshqaruv sifatida ishlatilgan. 1968 yilda ko‘chib o‘tishda studiya jihozlari jadvalda keltirilgan (Quyidagi 1-jadvalda NHK tomonidan taqdim etilgan hujjat).

Elektron musiqa ishlab chiqarish uchun NHK studiyasi uskunalari, 1968 yil
1-jadval

Generatorlar	Filtrlar	Modulatorlar	Yozuvchi moslamalar
·Shovqin generatori ·Impuls generatori ·Kvadrat to‘lqin generatorlari ·Arratishli signal generatori ·Ko‘p funktsional generator ·Photoformer (optik tanlab olish moslamasi NHK da ishlab chiqilgan)	·To‘rtta yuqori / past o‘tish filtri ·1/3 oktava filtri ·Tarmoqli o‘tish filtri ·Oktava filtri ·Sozlanadigan filtr	·Chiziqli amplituda modulyator ·Qo‘ng‘iroq modulyatori	·O‘zgaruvchan tezlikli magnitafon ·Olti kanalli magnitafon ·Mono magnitafon ·Stereo magnitafon

Yuqorida tavsiflagan uchta asarda yapon urf - odatlari bilan qayta bog‘lanish urinishlari to‘xtatiladi, chunki “sof” elektronika va "tasma yozuvlari" bilan birinchi tajribalar allaqachon boshlangan va hattoki yapon elektron musiqasining o‘ziga xosligi haqida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

birinchi mulohazalar paydo bo‘lgan edi. Ovropaning yuqori ixtisoslashgan studiyalaridan farqli o‘laroq, NHK Studio hech qanday muammosiz elektron musiqa, radioeshittirishlar, filmlar uchun musiqa va maxsus musiqiy bilan shug‘ullangan va televizion eshittirish imkoniyatlari mavjud edi. Ushbu ko‘p qirralilik hech qanday texnik, nazariy va estetik cheklovlarsiz “erkin yondashish” tamoyiliga amal qilgan va bu NHK Studio rahbari Vataru Uenami tomonidan asos solingan. Uning kontseptsiyasiga ko‘ra, ideal studiya bo‘sh bo‘lishi kerak, unda bastakorning vazifalari va o‘ziga xos badiiy g‘oyalari asosida ba’zi qurilmalar joylashtirilgan edi. Ushbu kontseptsiya studiya jihozlari darajasida amalga oshirilmaganiga qaramay, g‘oyaviy va estetik cheklovlar mavjud emas edi. Yuqorida ta'kidlagan yagona xususiyat - bu studiya rahbari Vataru Uenami tomonidan taqdim etilgan studiyada ishlash kontseptsiyasi. Adabiyotni o‘rgangan mualliflarni elektron musiqa asboblaridan foydalanadigan xolda an’anaviy yapon teatri, masalan “No” yoki “Buraku” kabi teatrlarga radio-dramalar yozishga undagan. Asarlarning bir nechta namunalari: Mayuzumi tomonidan yozilgan “Aou no Uye” ("Aoi no Ue");, Moroy tomonidan “Kusabira”, (1964 yilda yozilgan, No/Kyogen teatrlashtirilgan pyesalari asosida); yoki Mayuzumining "Elektron tovush va ovoz uchun Mandara" (1969) ("Mandara for Electronic Sound and Voice").(2-jadval)

NHK tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy radioeshittirishlar 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval

Yil	Bastakor	Nomlari	Eslatma
1959	Mokoto Moroi	Pythagoras no Hoshi (The Stars of Pythagoras)	Tatsuji Ishihara poema asosida
1959	Akira Miyoshi	Ondina	
1960	Mokoto Moroi	Akai Mayu (The Red Cocoon)	Kobo Abe hikoyasi asosida
1960	Ioshiro Irino	Nami to Fue (Wave and Flute)	
1961	Mokoto Moroi	Nagai Nagai Michi ni sotte (Alongside a Long, Long Way)	Volfang Borxerta ishiga asosan
1962	Mokoto Moroi	Yamamba	
1964	Mokoto Moroi	Kusabira	“Kiogen” an’anasi asosida (bu kulguli intermedia teatrining bir qismidir)
1965	Mokoto Moroi	Gyosha Phaeton (Phaeton, the Chariot Driver)	
1972	Mokoto Moroi	Waga Izumo	

Ushbu radioeshittirishlarda asosan orkestr musiqasi hamrohligida ishlatilgani bilan bir qator elektron musiqa effektlaridan foydalanilgan.

1950 yillarning o‘rtalaridan oxirigacha. Kompyuterlarning ta’siri 1956 yilda ham davom etdi. **Lejaren Hiller** va **Leonard Isaacson** torli kvartet uchun **Illiac Suite**-ni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

yaratdilar, bu algoritmik kompozitsiyadan foydalangan holda kompyuter yordamida tuzilgan birinchi to‘liq ish edi. “... **Hiller** kompyuterga ma’lum bir uslub qoidalarini o‘rgatish mumkin, degan xulosaga keldi va keyin shunga mos ravishda algortimlar tuzishga chaqirdi.” Keyingi ishlanmalar orasida 1957 yilda nufuzli **MUSIC I** dasturini ishlab chiqqan Bell Laboratoriyasida Maks Mateusning ishi bo‘lib, u elektron musiqani ijro etish uchun birinchi kompyuter dasturlaridan biri bo‘lgan. **Vokoder** texnologiyasi ham ushbu dastlabki davrda katta rivojlanish bo‘ldi. 1956 yilda Stokhauzen Daniyel kitobidan olingan matn asosida Ko‘ln studiyasining birinchi yirik asari "Gesang der Jyunling"ni yaratdi. O‘sha yilgi muhim texnologik yutuq - Raymond Skott tomonidan **Clavivox** sintezatorini ixtiro qilishi va Robert Moog tomonidan sintezator qismlarini yig‘ish edi.

1957 yilda Kid Baltan (Dik Raaymakers) va Tom Dissevelt Gollandiyadagi Filips studiyasida yozilgan "Song Of The Second Moon" (“Ikkinchi Oyning Qo‘shig‘i”) debyut albomini chiqardilar. Jamoatchilik butun dunyo bo‘ylab yaratilgan yangi tovushlarni qiziqish bilan qarshi oldi, bu esa 1958 da Bryusselda bo‘lib o‘tgan Butunjahon ko‘rgazmasida Filips pavilonida to‘rt yuzta dinamik-karnay orqali Varezning “Elektro Poemalar”i ijro etildi. Xuddi shu yili argentinalik bastakor Maurisio Kagel "Transición II" (“O‘tish II”) ni yozdi. Ish Ko‘lndagi WDR studiyasida amalga oshirildi. Ikkita musiqachi fortepianoda, biri an'anaviy uslubda, ikkinchisi torlar, ramka va g‘ilofda ijro etishdi. Boshqa ikkita ijrochi esa kassetadan jonli ijroni birlashtirish uchun oldindan yozib olingan materialdan foydalangan.

Kompyuter musiqasi (ingl. Computer music) – dastlab professional mutaxassislar doirasida musiqiy tovushlarni raqamli sintez qilish, ovozli signallarni raqamli qayta ishlash, turli sonorik tuzilmalarni raqamli ro‘yxatga olish va boshqalar bilan bog‘liq muhandislik ishlanmalari sohasiga murojaat qilish uchun ishlatilgan atama edi. Hozirgi vaqtda "kompyuter musiqasi" ta'rifi ko‘pincha ko‘plab musiqachilar va tinglovchilar tomonidan muayyan musiqa va kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan har qanday musiqaga nisbatan qo‘llaniladi.

Kompyuter musiqasi bo‘yicha ishlarning aksariyati musiqa va matematikaning o‘zaro aloqalariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu munosabatlar qadimgi yunonlar "harmony of the spheres" (“sohalarning uyg‘unligi”)ni ta'riflagandan beri qayd etilgan.

Musiqa yaratish uchun foydalanilgan birinchi kompyuter CSIRAC (qisqacha. Ingliz. Council for Scientific and Industrial Research Automatic Computer, Ilmiy va sanoat tadqiqotlari kengashi uchun avtomatik kompyuter) birinchi Avstraliya raqamli EHM (Elektron Hisoblas Mashinasi – kompyuter) va dasturiy xotira bilan dunyodagi to‘rtinchi kompyuter. CSIRAC dastlab CESAR Mk1 deb nomlangan va hozirgi kunda dunyodagi yagona birinchi avlod kompyuteridir.

Raqamli axborot vositalarini boshqarish uchun hisoblash quvvati va dasturiy ta’minotdagi yutuqlar kompyuter musiqasini yaratish va ijro etish uslubiga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Hozirgi avlod mikro kompyuterlari juda xilma - xil algoritm va yondashuvlardan foydalangan holda juda murakkab audio sintezni amalga oshirishga qodir. Hozirda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

kompyuter musiqasi tizimlari va yondashuvlari hamma joyda keng tarqalgan bo‘lib, musiqa yaratish jarayonida shu qadar mustahkam joylashtirilganki, biz ularga ikkinchi fikrni deyarli berolmaymiz: kompyuterga asoslangan sintezatorlar, raqamli miksherlar va effektlar birliklari shunchalik odatiy holga aylandiki, analoglardan ko‘ra raqamli musiqa yaratish va yozish texnologiyasi odatiy holga aylandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) “E” harfi 283 bet. 87 b.
2. NHK // Энциклопедия Ниппоника: в 28 т. 2-е издание. — Токио: Сёгаккан, 1994—1997. (яп.)
3. Интернет и музыкальное образование школьников //Искусство и образование.-К.,-2000.-№1.-С.45-50.
4. Sibelius Reference. Electronic certificate of application. © 2021 Avid Technology

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ibragimov Bobir Mansurovich**, dotsent v.b, [**Ибрагимов Бобир Мансурович,** и.о.доцент], [**Bobir M. Ibragimov,** associate professor]; manzil: O'zbekiston, Shahar: Toshkent, Tuman: Shayxontohur, Botir Zakirov ko'chasi,1 [Адрес: Узбекистан, Город: Ташкент, Район: Шайхонтохур, улица Батира Закирова, 1], [Address: Uzbekistan, City: Tashkent, District: Shaikhontohur, Batir Zakirov Street, 1];

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TEXNIKA OLIY O‘QUV YURTLARIDA O‘QUV MATERIALLARINI IMITATSION-VARIATIVLIK ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI (INTELLEKTUAL O‘LCHASH ASBOBLARI FANINI O‘QITISH MISOLIDA)

© J.G ‘. Obidov[1]✉

[1]Farg‘ona politexnika instituti,Farg‘ona,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitish texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik yondashuvi yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish va o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarga tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda imitatsion-variativ o‘qitish texnologiyalari va ularning texnika yo‘nalishidagi ta’lim jarayoniga qo‘llanishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar imitatsion-variativlik yondashuvi yordamida "intellektual o‘lchash asboblari" fanini o‘qitishda talabalar bilim darajasining sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari texnika oliy o‘quv yurtlarida imitatsion-variativlik asosida o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash o‘quv jarayonini yanada samarali va amaliyotga yaqinlashtirishi mumkinligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: imitatsion-variativlik, texnika ta’limi, intellektual o‘lchash asboblari, amaliy ko‘nikmalar, simulyatsiya texnologiyalari, ta’lim samaradorligi, innovatsion o‘qitish.

Iqtibos uchun: Obidov J.G`. Texnika oliy o`quv yurtlarida o`quv materillarining imitatsion-variativlik asosida o`qitishni takomillashtirish texnologiyalari(Intellektual o`lchash asboblari fanini o`qitish misolida.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.90–99.

ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА НА ОСНОВЕ ИМИТАЦИИ-ВАРИАЦИИ В ТЕХНИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ (КАК ПРИМЕР ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ)

© Ж.Г. Обидов[1]✉

[1] Ферганский политехнический институт, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются технологии обучения учебным материалам на основе имитационно-вариативного подхода в технических вузах и их роль в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить эффективность обучения учебным материалам в технических вузах с использованием имитационно-вариативного подхода и выявить преимущества использования инновационных технологий в подготовке студентов к практическим навыкам.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ научной литературы по имитационно-вариативным технологиям обучения и их применению в образовательном процессе по техническим направлениям.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что при обучении предмету «интеллектуальные измерительные приборы» с использованием имитационно-вариативного подхода уровень знаний студентов значительно повысился.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что использование технологий обучения на основе имитационно-вариативного подхода в технических вузах может сделать образовательный процесс более эффективным и приближенным к практике.

Ключевые слова: имитационно-вариативный подход, техническое образование, интеллектуальные измерительные приборы, практические навыки, технологии симуляции, эффективность обучения, инновационное обучение.

Для цитирования: Обидов.Ж.Г. Технологии совершенствования преподавания учебного материала на основе имитации-вариации в технических вузах (на примере преподавания науки об интеллектуальных измерительных приборах).// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 90–99.

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING THE TEACHING OF STUDY MATERIALS ON THE BASIS OF IMITATION-VARIATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION TECHNOLOGIES (AS AN EXAMPLE OF TEACHING THE SCIENCE OF INTELLECTUAL MEASURING INSTRUMENTS)

©JamshidG`. Obidov[1]✉
[1]Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the technologies of teaching educational materials based on the simulation-variational approach in technical universities and their role in the educational process.

AIM: the main objective of the study is to improve the effectiveness of teaching educational materials in technical universities using the simulation-variational approach

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

and to identify the advantages of using innovative technologies in preparing students for practical skills.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on simulation-variational teaching technologies and their application in the educational process in technical fields.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that using the simulation-variational approach in teaching the subject "intelligent measuring instruments" significantly improved students' knowledge levels.

CONCLUSION: the study results confirmed that applying simulation-variational teaching technologies in technical universities can make the educational process more effective and closer to practical applications.

Keywords: simulation-variational approach, technical education, intelligent measuring instruments, practical skills, simulation technologies, educational effectiveness, innovative teaching.

For citation: Jamshid G`. Obidov (2024) 'Technologies for improving the teaching of educational materials on the basis of imitation-variation in technical higher educational institutions (in the example of teaching the science of intellectual measuring instruments', Inter education & global study, (8(1)), pp. 90–99. (In Uzbek).

Texnika oliy o‘quv yurtlarida talabalarga o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalarining pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etishning uch qismga O‘zbekistonda, MDH mamlakatlarida va G‘arb mamlakatlarida o‘rganilishi sifatida tasniflash mumkin.

Xorij tajribasiga nazar solsak, ta’lim sohasidagi islohotlar aynan texnika oliy o‘quv yurtlarining texnologik-pedagogik zamonaviy o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida amalga oshirish orqali sifatli ta’lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan interventsion texnik ta’lim tadqiqotini taqdim etadi. Imitatsion-variativlik pedagogikasi asosan texnika oliy ta’lim sohasidagi bo‘lajak kadrlarni tayyorlash va ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun matnlarning ichki tuzilishini tahlil qilishni o‘qitishdan iboratdir. Asosiy e’tibor texnik matnlarni pedagogik texnologiyalar yordamida tushunish hamda sinergetik, germenevtik va praksiologik yondashuv orqali o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik va vizual-amaliy yo‘nalganlik imkoniyatlarini kengaytirish vositasida talabalarning texnik oqilonalik orqali texnika tilini bilish, o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalarini mazmun mohiyati va texnika ta’limidagi ahamiyatini talabalar ongida shakllantirishga qaratilgan.

Dunyoning ilg‘or xalqaro oliy ta’lim texnika oliy o‘quv yurtlarida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan maqsadlarga e’tibor berilganda, imitatsion-variativlik asosida o‘qitish - bo‘lajak muhandislar uchun ta’lim jarayoni, jumladan, hozirgi vaqtda o‘rganish va o‘rganilgan tadqiqotlardan kelajakda butunlay yangi sharoitlarda yoki vaziyatlarda foydalanish imkoniyatidir. Ushbu tadqiqot ishimizda imitatsion-variativlik asosida o‘qitish yordamida texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarini kasbiy kompetentliklarini oshirish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

jihatlari, o‘z kasbini texnologik madaniyatni tashkil etuvchi komponentlar, mutaxassislik fanlarni o‘qitishdagi o‘rni va mazmunini integrallashuvi o‘laroq tushunishni rivojlantirish yoki ularni texnologik jixatdan takomillashtirish usullarini yaratish masalasi ekanligi yoritilgan. Bu jarayonda albatta asosiy fundamental va aprior omil bu imitatsion model hisoblanadi.

O‘zbekistonda Yangi uyg‘onish davri, ya’ni raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga asoslangan Uchinchi Renessans davri - O‘zbekistonning taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning muhim yo‘nalishi bu globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri foydalana oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy muhandislikni texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishdagi moddiy texnik baza hamda dasturiy vositalari orqali darslarni o‘tishda pedagog boshqaruvchi vazifasida bo‘lishi kerak. Bu tamoyil dars o‘tishda rejalashtirilgan o‘quv metodik qo‘llanma yordamida dars o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida faollashtirishni ta’minlaydi. Keyingi jarayon darslarni rejalashtirish jarayoni hisoblanib, unda EHM dasturlarini tayyorlash hamda kommunikatsion vositalarni faollashtirish hisoblanadi.

Hozirda Yevropa mamlakatlarida juda keng tarqalgan AKT vositalaridan biri bu internet provayderlar va internet intellektual aloqa tizimlari hisoblanadi [1]. Ular modul orqali talabalarga masofaviy va mustaqil ta’limni sifatli yo‘lga qo‘yishni ta’minlashmoqda.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini oson hamda tushunarli qilib tinglovchiga havola qilish ham ular oldiga qo‘yilgan maqsadlardan biri hisoblanadi. Mavzularga mos ravishda virtual resurslarni ilg‘or pedagogik metodlar bilan yaratish rivojlanishni ta’minlaydi.

O‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari ijtimoiy tushunchalardagi nazariy va metodologik atama bo‘lib, unga ko‘ra jamiyat taraqqiyoti texnika va texnologiyaning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asosida texnologiya bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta muammo, xususan, konsepsiyani o‘qitishdagi pedagogik muammolar, texnika va texnologiya tabiati, ijtimoiy ahamiyati muhokama qilinmoqda.

Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish jarayonida bir qator asosiy elementlar va shartlar mavjud. Quyida ular qisqacha tavsiflangan:

1. Maqsadli o‘qitish Dizayni: Mustaqil ta’lim jarayonining maqsadlari aniqlanib, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan metodologiyalarni belgilash kerak.

2. Imitatsion o‘yinlar: Talabalarga turli simulyatsiyalar yoki imitatsion o‘yinlar orqali real hayotdagi vaziyatlarni qiyoslash imkonini berish. Masalan, biznes simulyatsiyalari, iqtisodiy model yoki ekologik tizimlar.

3. Vazifalar va senariylar: Talabalarga muayyan vazifalarni va senariylarni berish, bu ularga o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llashga yordam beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

4. Resurslar va materiallar: Mustaqil ta’lim jarayonida foydalaniladigan materiallar – darsliklar, ma’ruzalar, video materiallar, online platformalar va boshqalar.

5. Interaktiv darslar: Talabalarni jarayonga jalb qilish, savollar berish va loyihalar ustida ishlab chiqish orqali interaktiv darslarni tashkil etish.

6. Yakuniy monitoring: Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning yutuqlarini kuzatish, va vaqtida tahlil qilish uchun baholash kriteriyalarini ishlab chiqish.

7. Takroriy o‘qitish va ko‘nikmalarni rivojlantirish: Talabalar o‘z bilimlarini va ko‘nikmalarini takroriy ravishda rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish.

8. Guruh boshqaruvi: Talabalarning guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va hamkorlikda ishlashga yordam beruvchi aktivitilarni tashkil etish.

9. Feedback tizimi: Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga doimiy ravishda fikr-mulohazalar berish va ularning ishlash jarayonini yuksaltirishga qaratilgan tahlillar olib borish.

Bu elementlar mustaqil ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishda talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot doirasida oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirishning samrali tomonlarini ko‘rib chiqish maqsad qilingan.

Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish uchun bir qancha texnologiyalarni qo‘llash mumkin. Ularning mazmuni va mohiyati quyidagi asosiy elementlardan iborat:

Interaktiv simulyatsiyalar. Talabalarlar real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interaktiv Simulyatsiyalar onlayn platformalar, virtual realiti simulyatsiyalari yoki rolikli o‘yinlar shaklida amalga oshiriladi.

Interaktiv simulyatsiyalar o‘quv jarayonini qiziqarli, samarali va amaliy qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Quyida interaktiv simulyatsiyalarning bir nechta misollari keltirilgan:

1) Virtual Simulyatsiyalar

– Kimyo laboratoriyasi simulyatsiyalari: Talabalar virtual laboratoriyada kimyoviy tajribalar o‘tkazishlari mumkin. Misol uchun, PhET Interactive Simulations platformasi orqali turli kimyoviy reaktsiyalarni amalga oshirish.

– Biologiya o‘quv simulyatsiyalari: Virtual ekosistemalarni o‘rganish, hayvonlar va o‘simliklar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga yordam beruvchi simulyatsiyalar.

2) Ijtimoiy Simulyatsiyalar

– Rol o‘ynash o‘yinlari: Talabalar biror ijtimoiy vaziyatda muayyan rolni (masalan, diplomatiya muzokaralarida diplomat) o‘ynab, qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu, tarixiy voqealarni tushunishga chuqur yondashuv beradi.

– Biznes menejment simulyatsiyalari: Talabalar o‘z kompaniyalarini boshqarib, turli iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlarda strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

3) O‘yin yondashuvi

– EduGame platformalari: O‘quv dasturlaridagi o‘yinlar orqali bilimlarni rivojlantirish, masalan, matematika yoki tillarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar.

– Simulatsion iqtisodiyot o‘yinlari: Talabalarga iqtisodiy nazariyalarni amalda qo‘llash imkoniyatini beradigan o‘yinlar, masalan, “SimCity” yoki “Capitalism”.

4) Simulyatsion dasturlar

– “Eyes on the Solar System”: Talabalarga Quyosh tizimining harakatlarini, sayyoralarni va ularning orbitlarini o‘rganish imkonini beradi.

– “Kerbal Space Program”: Talabalarga raketa qurish va kosmosda uchish simulyatsiyalarini ta’minlaydi.

5) Tibbiyot simulyatsiyalari

– Simulyatsion tibbiyot o‘yinlari: Talabalar meditsina bo‘yicha simulyatsion sharoitlarda bemorlarni tasavvur qilinadi va turli diagnostika va davolash jarayonlarini o‘rganishlari mumkin.

6) Onlayn platformalar

– Kahoot! va Quizizz: Talabalarga o‘z bilimlarini tanlov va o‘yin shaklida testdan o‘tkazish imkonini beruvchi platformalar.

– Crowd-Based Simulations: Talabalatlar guruhda o‘zaro fikr almashish va munozara qilish imkoniyatini beruvchi interaktiv muhokama platformalari.

Bu misollar interaktiv simulyatsiyalarning qanchalik keng va xilma-xil ekanligini ko‘rsatadi. Bunday simulyatsiyalar o‘quvchilarning bilimlarini amalda qo‘llash, tajriba orttirish va muammolarni echish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Muammoga yondashuv. Talabalarni muammolar echimini izlashga undovchi faol o‘qitish metodlari. Muammoga yondashuv guruhli muammoni hal etish, case study tahlil qilish va ijodiy ishlar shaklida bo‘ladi.

Muammoga yondashuv texnologiyalari (Problem-Based Learning, PBL) talabalarga muammolarni hal etish jarayonida o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu yondashuvlar ko‘pincha jamoaviy ish va interaktiv o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, talabalar o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar. Quyida muammoga yondashuv texnologiyasiga bir nechta misollar keltirilgan:

1) O‘z-o‘zini o‘rganish va muammo tahlili

– Real hayotiy muammolar: Talabalar muayyan ijtimoiy yoki iqtisodiy muammoni echish uchun guruhlar shaklida yig‘ilib, vaziyatni tahlil qiladilar va echim taklif etadilar. Misol: mahalliy jamiyatda chiqindilarni kamaytirish dasturini ishlab chiqish.

2) Simulyatsiyalar va rolli o‘yinlar

– Ekologik muammolar simulyatsiyasi: Talabalar ekologik muammoni hal qilish uchun turli rollarni (masalan, davlat boshqaruvchilari, tadbirkorlar, ekologlar) o‘ynab, muammoning har tomonlama echimini topishga harakat qiladilar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

– Maktabdagi rol o‘ynash o‘yinlari: Talabalar sinfda muammolarni hal qilish uchun o‘zaro munozara olib boradi va har bir ishtirokchi o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3) Innovatsion loyihalarni amalga oshirish

– Ijodiy loyiha ishlab chiqish: Talabalar muayyan muammoga echim sifatida innovatsion mahsulot yoki xizmat yaratish jarayonida faol ishtirok etadilar. Misol: energiya samaradorligini oshirish uchun yangi qurilma yoki dastur yaratish.

4) Kross-dissiplinar ishlar

– Dasturlash muammolari: Talabalar dasturlash darslarida algoritmlarni ishlab chiqish orqali kompleks muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etadilar.

– Tibbiyotda muammoni hal qilish: Tibbiyot fakulteti talabalari bemorlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun interdisipliner guruhlar tayyorlashlari mumkin.

5) O‘quv dasturlaridagi muammolar

– Matematika masalalari: Talabalar hayotiy masalalarni echish jarayonida matematik formulalarni qo‘llab, muammoni hal etadilar.

– Tarixiy voqealar tahlili: Talabalar tarixiy voqealarni muhokama qilib, ularni zamonaviy kontekstda tahlil qilib, xulosalar chiqaradilar.

6) Ijtimoiy loyiha

– Ijtimoiy muammolarni hal qilish: Talabalar ijtimoiy muammolar, masalan, qashshoqlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarida loyihalar olib boradilar.

7) Guruh ishlari va brainstorming

– Guruh brainstorming sessiyalari: Talabalar jamoa bo‘lib muammolarni muhokama qilishadi va yangi g‘oyalarni ishlab chiqaradilar, bu esa ijodkorlik va innovatsiyani oshiradi.

Muammoga yondashuv texnologiyasi o‘quv jarayonida talabalar uchun faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy tajribalarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi [3]. Bu yondashuvlar nafaqat bilimlarni oshirish, balki real hayotdagi muammolarni echishga tayyorlashga ham yordam beradi.

Malumki hozirgi kunda mustaqil ta’lim jarayonida virtual resurslarga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. Texnika oliy o‘quv yurtlari dars mashg‘ulotlarida har xil interaktiv metodlar orqali innovatsion mavzularda dars mazmunini oshirmoqdalar. Demak shunday mustaqil ta’lim sifatini oshirish uchun ham virtual resurslardan foydalanish hozirda dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Ushbu maqolada esa imitatsion-variativlik asosida takomillashtirilgan modellar undagi ishlash prinsiplari hamda talabalar va o‘qituvchilar uchun samarasi haqida aytib o‘tildi.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan Imitatsion texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash hamda uni amalga oshirishda virtual resurslarni dars jarayonida maxsus o‘tkazish hozirda olib borilayotgan eng muhim faoliyatlardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib mazkur maqolada o‘quv

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

jarayonlarida virtual resurslarni qo‘llash hamda uning o‘quv- uslubiy metodikasini takomillashtirishda turli savollarga javob olish mumkin.

Mustaqil ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini Imitatsion-variativ texnologiyalar asosida o‘qitish dars jarayonida interfaollikni yuksaltiradi, ta’limning interaktivligini ta’minlab beradi. O‘quv jarayonlarni tashkil qilishda virtual resurslarning ishlatilishi darsni jonli tarzda o‘tishini ta’minlaydi, bu esa dinamik jarayonlarni olib keladi. Ushbu darslarni o‘tishda mavzulashtirilgan virtual resurslarni didaktik tamoyillar sosida qayta ko‘rish hamda takror pedagogik texnologiyalar bilan uni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Hozirda yaratilayotgan virtual resurslar mavzuni tushunishga hamda yangi ma’lumotlarni ko‘rish hamda eshitish orqali qabul qilishni ta’minlashga xizmat qiladi. Texnika oliy o‘quv yurtlarida mustaqil ta’limni o‘quv materiallarini Imitatsion-variativ texnologiyalar asosida o‘qitish yuzasidan bugungi kunda juda katta ishlar olib borilmoqda. Xususan Toshkent axborot texnologiyalari instituti Farg‘ona filialida o‘quv materiallarini Imitatsion-variativ texnologiyalar asosida maxsus metodlar joriy etilgan bo‘lib, ushbu metodik jamlanmalarda interaktiv xizmatlar qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida aytib o‘tilgan.

Mustaqil ta’limni tashkil etishdagi yaratilayotgan virtual resurslar orqali o‘rganuvchi o‘ziga oson ravishda qabul qiladi, va unga etarli darajada AKT vositalari bilan ishlash ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. AKT vositalari bilan o‘rganiladigan har bir fan oson va tez ravishda qabul qiluvchiga etkazildai. Undagi virtual baza esa oson ravishda ma’lumotlarni tezkor xotiralarga saqlashni ta’minlaydi.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari (intellektual o‘lchash asboblari fanini o‘qitish misolida) bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo‘lajak muhandislarni zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali, o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashuvchi, innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot sohasiga texnik oqilonalik bilan kirisha oladigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadr qilib tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish texnika oliy ta’lim sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

2. Bo‘lg‘usi muhandislarni tayyorlashda Malaka talablarni tahlil qilish asosida takomillantirish, texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirish dolzarb ekanligi aniqlandi.

3. Texnogen sivilizatsiyaning inqirozi - kelajak texnologik rivojlanish to‘g‘risidagi futurologik yondashuvlarni ishlab chiqish va texnologik taraqqiyotning ijtimoiy taraqqiyotdagi salbiy ta’sirlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

4. Texnika oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak muhandislarida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va tuzilmasining emotsionol-motivatsion, informatsion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik komponentlar bilan gorizontal va vertikal munosabatga kirishish darajasini hisobga olish asosida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

aniqlashtirish, loyihalash echimlarini maqbul tanlash, loyihaviy faoliyatni dual ta’limda qo‘llay olish indikatorlari o‘rtasida qayta aloqani ta’minlash orqali aniqlashtirildi.

5. Texnika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak muhandislarning o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning metodik shart-sharoitlari ijtimoiy-gumanitar, muhandislik-psixologik, tashkiliy-boshqaruv, sotsiotexnik loyihalarni kompyuter grafikasi vositasida ishlab chiqish jarayonlarini tashkil etishda metodik, informatsion va loyihaviy faoliyatni yaxlit didaktik tizimda integratsiyalash orqali takomillashtirildi.

6. Oliy texnik ta’limda texnologik konsepsiyalarni o‘qitish yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili asosida bo‘lajak muhandislarni o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asoslariga doir ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorgarlik darajasini baholashning kognitiv, tashkiliy-faoliyatga doir va aksiologik mezonlari belgilab olindi.

7. Texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, o‘quv-metodik ta’minoti innovatsion ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar va multimediali elektron darsliklar, kompyuter grafik dasturlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirildi.

8. Texnika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak muhandislarni o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalariga doir bilim va dunyoqarashini takomillashtirishda, kasbiy tayyorlash jarayonida o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalariga doir bilimlarini takomillashtirishning didaktik algoritmi analitik-modellashtirish, konstruktiv-shakllantiruvchi (axborotlar ustida ishlash, ijodiy loyihalar yaratish), korreksion-diagnostik (natijalar monitoringi), taqdimot-umumlashtirish kabi bosqichlarni texnik oliy ta’lim tizimiga korporativ moslashtirish orqali takomillashtirilgan.

9. Tanlab olingan texnika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan nazariy tadqiqot va pedagogik tajrib-sinov ishlari natijalaridan kelib chiqib, bo‘lg‘usi muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajasini oshirib borish kabi pedagogik va metodik shart-sharoitlarni yaratish mustaqil ta’lim jarayonida o‘z tasdig‘ini topdi.

10. Texnika oliy o‘quv yurtlaridagi tajriba-sinov ishlari natijalari, bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli va uning asosiy aspektlarini amalga oshiradigan “Texnika fanlarini o‘qitishdagi muammolarning optimal va intellektual” maxsus kursining joriy qilinishi samaradorligini tasdiqladi va taklif etilgan materiallarni texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida foydalanish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

1. Rasulovna M. K., et al. Innovation teaching method in primary education //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – Т. 5. – С. 31-34
2. J.Y.Suyumov., Kompyuter imitatsion modellari asosida faol o‘qitish texnologiyasining nazariy asoslari//Scientific progress Volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601
3. Obidov J.G‘. “Intellektual o‘lchash asboblari”. Darslik. Farg‘ona.“Classic” nashriyoti. 2024 yil//ISBN: 978-9910-652-94-3.
4. Obidov, J.G. Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions**//**E3S Web of Conferences, 2023, 452, 07017 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345207017
5. Erkaboev, A., Obidov, J., Madmarova, U., Alikhonov, E. //Analysis of the ISO 9001 standard model of risk management in analytical testing laboratories//E3S Web of Conferences, 2023, 452, 06009 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345206009

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Obidov Jamshid G`ayratjon o`g`li**,mustaqil tadqiqotchi[**Обидов Жамшид Гайратжон угли**,независимый исследователь,], [**Jamshid G`. Obidov** independent researcher,]; manzil: O‘zbekiston, 150100, O'zbekiston, Farg'ona viloyati, Shahar: Farg'ona, Farg'ona ko'chasi, 86, [аддрес: Узбекистан, ул. 150100, Узбекистан, Ферганская область, Город: Фергана, улица Ферганская, 86], [address: Uzbekistan, 150100, Uzbekistan, Fergana region, City: Fergana, Fergana street, 86.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TA’LIM JARAYONLARINI TALABALARNING KIBERIJTIMOIYLASHUVINI PEDAGOGIK SHART SHAROITLARI

© J. Matnazarov[1]✉
[1]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog‘iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada talabalarning kiberijtimoiylashuv jarayonlarini ta’limda samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar o‘rganiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarning kiberijtimoiylashuvini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning usul va yondashuvlarini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Talabalar bilan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov va intervyular asosida empirik ma’lumotlar yig‘ildi. Shuningdek, pedagogik eksperiment orqali kiberijtimoiylashuv jarayonlarining ta’limga ta’siri baholandi. Adabiyot tahlili orqali mazkur mavzudagi ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar kiberijtimoiylashuvning talabalar o‘rtasida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, ammo nazoratsiz foydalanish ba’zi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqotda ta’lim jarayonlarini kiberijtimoiylashuv jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar belgilab berildi. natijalar kiberijtimoiylashuvning ijobiy tomonlarini oshirish va salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: kiberijtimoiylashuv, pedagogik shart-sharoitlar, raqamli ta’lim, onlayn platformalar, ijtimoiylashuv, talabalarning ijtimoiy faolligi.

Iqtibos uchun: Matnazarov.J. Ta`lim jarayonlarini talabalarning kiber ijtimoiylashuvini pedagogik shart sharoitlari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.100–106.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ КИБЕРСОЦИАЛИЗАЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

© Ж. Матназаров[1]✉
[1] Нукусский государственный педагогический институт, г. Нукус, Каракалпакстан.

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются педагогические условия, необходимые для эффективной организации процессов киберсоциализации обучающихся в образовании.

ЦЕЛЬ: основной целью исследования является выявление педагогических условий, направленных на поддержку киберсоциализации обучающихся, и разработка методов и подходов к их интеграции в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались качественные и количественные методы исследования. Эмпирические данные были собраны на основе социологического опроса и интервью со студентами. Также с помощью педагогического эксперимента оценивалось влияние процессов киберсоциализации на образование. Передовой зарубежный и национальный опыт по этой теме был изучен посредством анализа литературы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что киберсоциализация положительно влияет на развитие социальных навыков у студентов, однако ее использование без присмотра может иметь некоторые негативные последствия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в исследовании определены педагогические условия, необходимые для гармонизации образовательных процессов с процессами киберсоциализации. Результаты показали необходимость совершенствования педагогических подходов для усиления положительных аспектов киберсоциализации и снижения негативных последствий.

Ключевые слова: киберсоциализация, педагогические условия, цифровое образование, онлайн-платформы, социализация, социальная активность студентов.

Для цитирования: Матназаров Дж. Педагогические условия киберсоциализации студентов в образовательном процессе.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 100–106.

PEDAGOGICAL PREREQUISITES FOR CYBER SOCIALIZATION OF STUDENTS IN EDUCATIONAL PROCESSES

©J. Matnazarov[1]✉
[1]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan.

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the pedagogical conditions necessary for the effective organization of students' cybersocialization processes in education.

AIM: the main goal of the study is to identify pedagogical conditions aimed at supporting students' cybersocialization and develop methods and approaches for their integration into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: qualitative and quantitative research methods were used in the study. Empirical data were collected based on sociological surveys and

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

interviews with students. Also, the impact of cybersocialization processes on education was assessed through a pedagogical experiment. Advanced foreign and national experiences on this topic were studied through a literature review.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that cybersocialization has a positive effect on the development of social skills among students, but uncontrolled use can lead to some negative consequences.

CONCLUSION: the study identified pedagogical conditions necessary for integrating educational processes with cybersocialization processes. the results showed the need to improve pedagogical approaches to enhance the positive aspects of cybersocialization and reduce its negative consequences.

Keywords: cybersocialization, pedagogical conditions, digital education, online platforms, socialization, social activity of students.

For citation: J. Matnazarov. Pedagogical prerequisites for cyber socialization of students in educational processes Inter education & global study.2024. №8(1). C. 100–106.

Ta’limning uzluksizligi hayot davomida bilim va ijtimoiy-madaniy tajribani o‘zlashtirishning maqsadli jarayoni sifatida qaraladi. Faylasuflar, sotsiologlar, siyosatshunoslar tomonidan dunyodagi zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat o‘zgaruvchan jamiyat doirasidagi o‘tish davrlari va beqaror vaziyatlar bilan bog‘liq muqobil vaziyat sifatida belgilanadi (Zaytseva, 2009) [1]. Sotsiologiyada individuallashtirish jamiyatning xavf-xatarga qarshi ijtimoiy muhandisligi modeli sifatida ko‘rib chiqiladi, bunda asosiy e’tibor ko‘p xilma-xillikka qaratilgan.

Binobarin, kasb-hunar ta’limining uzluksizligi kelajakda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan muqobil variantlarning mavjudligiga asoslangan ijtimoiy voqelikning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Hayot sharoitlarining muqobilligi va noaniqligi sharoitida o‘qituvchi uchun ta’limning maqsad va vazifalarini amalga oshirish tobora qiyinlashib bormoqda, chunki talaba individual ta’lim traektoriyasini tanlagan va amalga oshirganida xavf maydoni kengayadi, bundan tashqari, murakkablik omillaridan biri sifatida raqamlashtirishni ko‘rib chiqish mumkin. Bu jihatdan quyidagi xavflarni ko‘rib chiqish mumkin:

1) haqiqiy kasbiy pedagogik makondagi o‘zgarishlar, chunki raqamlashtirish ta’lim muhitining boshqa tuzilishi va mohiyatini nazarda tutadi;

2) talabalarning (Z avlodi) va ularning psixofiziologik xususiyatlarining o‘zgarishi, bu o‘quv jarayonining metodologiyasini yangilashni va qo‘shimcha pedagogik kompetensiyalarni o‘zlashtirishni talab qiladi,

3) kelajakda talab qilinadigan hozirgi kasb va malakalarning doimiy o‘zgarib turadigan ro‘yxati;

4) o‘qitishning asosiy quroli – muloqot yangi shakllarga ega bo‘ladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Raqamlashtirish ta’lim jarayonining yana bir xususiyatini yaratadi: o‘quv jarayonining asosi sifatida belgilangan matn orqali o‘qituvchi va talabalarning muloqoti, hatto kattalar texnologiya haqida ataylab aytib berishni boshlashdan oldin ham, raqamli makondan talabalar tomonidan tasodifiy olingan bilimlarni to‘ldiradi. Bu bilim ko‘nikmalar to‘plamiga aylanadi va kelajak dunyosida maqsadlarga erishish uchun etarli bo‘ladi. Bundan tashqari, muayyan texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan qattiq ko‘nikmalar bilan bir qatorda, jamiyatning beqarorligi sharoitida yumshoq ko‘nikmalar algoritmlar va odamlar bilan ishlash ko‘nikmalariga aylanadi. Mantiqiy aloqalarni o‘rnatish, jamoada ishlash va yangi xamda ijodiy echimlarni topish qobiliyati mehnat bozorida tobora ko‘proq qadrlanmoqda, chunki bunday mutaxassislarni o‘rganish va tez o‘zgaruvchan vaziyatga moslashish osonroq. Bundan tashqari, hayotiy faoliyatni raqamlashtirish aloqaning yangi turlarini yaratadi: messenjerlarda aloqa (kompyuter interfeysi orqali); kompyuter bilan aloqa (qidiruv interfeyslari) va kerakli natijaga erishish uchun ikkita kompyuter o‘rtasida aloqa o‘rnatish (smartfondagi ilovalar: xaritalar, jadval naqshlari, maslahatlar, faoliyat sensorlari).

Ushbu tobora murakkablashib borayotgan muqobil sohada o‘qituvchi o‘zining hayotiy faoliyati makonini, hayotiy faoliyati va sog‘lig‘ini dinamik ravishda o‘zgartirishning bevosita va istiqbolli xavflarini, o‘zlarining professional muvaffaqiyatlari ularning kasbga yo‘naltirilgan muvaffaqiyatini va kelajakdagi ta’lim yo‘nalishini tanlashi va amalga oshirishi kerak. Talabaga individual ta’lim yo‘nalishini tanlash va amalga oshirishda hamrohlik qilgan holda, o‘qituvchi talaba uchun xavf va tahdidlarni hisobga olgan holda amalga oshiradi, talabalarning ota-onalari pozitsiyasiga va ota-onalar talabalarning o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun ko‘radigan xavf-xatarlarga e’tibor qaratadi. Shunday qilib, raqamlashtirish sharoitida uzluksiz pedagogik ta’limda riskologiya muammosi dolzarb bo‘lib, u virtual makonni shaxsni ijtimoiylashtirishning to‘liq omili sifatida kiritish natijasida qo‘shimcha xavf va kiber-sotsializatsiya tahdidlari bilan og‘irlashadi.

Ta’lim maydoni keng va ko‘p qirrali tushunchadir. Bu turli shakllar va tashkiliy tuzilmalarda mavjud bo‘lgan haqiqiy tizim, metatizim, ta’limning tartibli ifodasidir. Bu zamonaviy axborot jamiyatida doimiy ravishda kengayib borayotgan umumiy ta’lim — o‘rta, oliy, oliy va kasbiy rivojlanish tizimi. Global axborotlashtirish davrida masofaviy ta’lim yanada qulay va talabga ega bo‘lib bormoqda. Bu, shuningdek, jamiyatning ta’lim va ijtimoiy-madaniy resurslari va uni axborotlashtirish texnologiyalari bilan ta’minlangan o‘z-o‘zini tarbiyalashning turli shakllari.

Umumta’lim tuzilmasi har tomonlama o‘rganilgan va hozirgi obyektiv omillar majmuasi: ta’lim sharoitlari, unga qo‘yiladigan talablar — ilmiy, ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy, iqtisodiy, texnologik va boshqalar, shuningdek, tendensiyalarga asoslangan holda har tomonlama o‘rganilgan va asoslangan.

Shuning uchun, tegishli evolyutsiya bilan shartlar va talablarni o‘zgartirish nisbatan o‘zgarmasdir. Shunga qaramay, ta’lim ijtimoiy bo‘lganligi sababli, subyektiv omil,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

subyektivizm uni tashkil etish va rivojlantirishda yuzaga keladi. Inqilobiy o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin, bu nafaqat tuzilishga, balki ta’lim tizimining arxitekturasiga ham ta’sir qiladi, har doim ham bir xil ijobiylik darajasiga erishmaydi.

Ta’lim sohasining fazoviy tasviri informatsiondir va shuning uchun u ijtimoiy va axborot muhitidagi axborot makonining bir qismidir:

- Birinchidan, u axborot va ta’lim makonining asosiy “o‘lchamini” tashkil etuvchi ta’lim subyektlarini (ta’lim ma’lumotlarini tashuvchilar, tarqatuvchilar va qabul qiluvchilarni) o‘z ichiga oladi.
- Ikkinchi “o‘lcham” qo‘llanilayotgan o‘qitish texnikasi, axborot va ta’lim resurslari, elektron va ta’lim resurslari, media muhiti resurslari.
- Uchinchi “o‘lchov” elektron texnologiyalar va kommunikatsiyalar tomonidan yaratilingan. Ushbu o‘lchamlarning har biri o‘z ahamiyatiga ega bo‘lgan turli xil doimiy va o‘zgaruvchan “o‘lchovlar” da o‘z ifodasiga ega.

Ijtimoiylashuvning muhim “o‘lchovi” bu ta’lim, pedagogika va didaktika fanidir. IT taraqqiyoti davrida informatika tushunchalari umumiy ilmiy tushunchaga aylanganda, keyinchalik pedagogika, fan metodlarining bir qismiga aylanadi. Ta’lim metodologiyasi axborotga aylanadi, pedagogik tizimlar pedagogik texnikada dolzarblashadi. Binobarin, shaxsiy axborot madaniyati, jumladan, uning axborot xavfsizligi madaniyati, media kompetensiyasi va media madaniyati pedagogikaning predmetiga aylanadi.

Axborot ta’lim makonining yana bir tuzilmasi — bu axborot ta’lim makonining taqdimoti, axborot va ta’lim resurslari. Axborot va ta’lim resurslari pedagogik muhitda allaqachon keng qamrovga ega, uning quyidagi xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

Axborot ta’lim muhiti — bu ta’lim muhitining axborot shaklidagi tasviri, uning axborot resurslari, texnologiyalari, o‘quv va boshqaruv tizimlaridagi tasviri, hujjatlashtirilgan shaklda ifodalangan va ta’limga uslubiy jihatdan moslashtirilgan. Axborot va ta’lim resurslarining asosiy maqsadi — ta’limning yangi sifatga o‘tishini ta’minlash: axborot jamiyati uchun tegishli davlat.

Umumjahon telekommunikatsiyalar ta’sirida axborot ta’lim muhiti kengayishi o‘z ijtimoiy madaniyatining raqamlashtirilgan obyektlarini (media obyektlarini) o‘z ichiga olgan va ommaviy axborot vositalari va media-texnologiyalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan jamiyat media muhiti tufayli sodir bo‘ladi. Moslashtirilgan va ixtisoslashtirilgan media resurslari ta’lim media muhitini yaratadi. Media muhiti paritet asosda ommaviy axborot vositalari, media qurilmalari va ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi. Bunday holda, axborot ushbu triadaning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib qoladi: u ijtimoiy va madaniy, ta’lim va psixologik ta’sirning boshlang‘ich nuqtasidir. Ommaviy axborot vositalari va aloqa bu ta’sirni ta’minlaydi, amalga oshiradi.

Shunday qilib, media muhitidagi axborot, ommaviy axborot vositalari, media muhitidan tashqarida yo‘qolgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Subyektning axborot kompetensiyasi uning media kompetensiyasi bilan, axborot madaniyati esa media madaniyati bilan to‘ldiriladi. Ta’lim yangi shaklga o‘tmoqda, uning maqsadi media-

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ta’limning holati media kompetensiyalarini, subyektlarning media madaniyatini va ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ta’limni va multimedia axborot ta’lim resurslarini shakllantirishdan iborat. Binobarin, subyektlarning media kompetensiyasi va media madaniyati ta’limning ham mahsuloti, ham intellektual vositasi sifatida harakat qilishi mumkin. Ular o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun ham zarurdir [2].

Hozirgi kunda axborot jamiyati va Smart-ta’lim shakli sifatida “Smart-jamiyat”ga katta e’tibor qaratilmoqda. Media muhiti va uni tashkil etuvchi komponentlar “Smart-environment”, “Smart-tools”, “Smart-resurs”larga asoslanadi. Shunga mos ravishda, Smart-education media-ta’lim va uning media resurslaridan samarali foydalanish, moslashtirish va rivojlantirish orqali media-ta’limdan ustun turadi. Smart-vositalarning media vositalaridan farqi shundaki, ular kompyuter boshqaruvi ostida media ma’lumotlarini shunchaki qayta ishlab chiqarmaydilar, balki o‘zlari ham Smart muhit ma’lumotlarini mustaqil va avtonom qayta ishlashga qodir. Ya’ni, Smart Tool — bu on-layn rejimda ommaviy axborot vositalari ma’lumotlarini avtonom tarzda qayta ishlash va o‘zgartirishga qodir bo‘lgan mustaqil aqlli tizim. Smart-texnologiya — bu ushbu funksiyalarni bajarishni ta’minlaydigan media-texnologiya.

Media ta’lim va Smart-ta’lim — bu o‘quv mehnatini taqsimlashni o‘z ichiga olgan, boshqa tuzilmaga ega, turli metodologiya, didaktika va fanlarni o‘qitish texnikasi bilan ta’limning tubdan yangi shakllari [3].

Media-ta’lim va Smart-ta’limda axborot-ta’lim resurslarini, elektron va ta’lim resurslarini yanada intellektuallashtirish amalga oshirilmoqda, bu esa prinsipial jihatdan bog‘liq kiber-texnologiya yangi ta’lim media-resursi – kiber-ta’lim tizimini tashkil etuvchi kiberresurs belgilarini yaratadi. Ushbu kiber-resurslar va kibertizimlar ta’lim kibermakonini — axborot va ta’lim makonining elektron virtual ko‘rinishini yaratadi.

Axborotlashtirish, globallashuv, telekommunikatsiyalarning rivojlanishi tufayli o‘zining hosilaviy globalligi tufayli tartibga solingan, tizimlashtirilgan va ko‘p o‘lchovli makonga, kiberfazoga aylantirilgan elektron va aloqa virtual dunyosiga jamoatchilik e’tiborini kuchaytirmoqda. Bu makon intellektual bo‘lib, uning intellekti insonning dastlabki intellektiga (tabiiy) va rasmiy tizimlarning sun’iy intellektiga asoslanadi.

Cyberspace — bu elektron virtual dunyo bilan optimal o‘zaro aloqani ta’minlaydigan axborotlashtirish mahsuloti va vositalari; uning har qanday mumkin bo‘lgan yo‘nalishdagi yo‘llarni modellashtirish va algoritmlash imkonini beruvchi tartiblangan o‘lchamlar to‘plami bilan mavhum tasviri. Bu virtual dunyo munosabatlari modeli bo‘lib, uning belgilari kengayib borayotgan qiymatlar to‘plami bilan birga o‘lchovlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Ta’lim kiberfazosi umumiy kibermakonning o‘ziga xos qismi bo‘lib, ta’lim maqsadiga ega va u bilan maqsadli ta’lim munosabatlari bilan tavsiflanadi. Binobarin, ichki aloqalar, ta’limning kibermakon tuzilmasi kelib chiqadigan bo‘lib harakat qiladi: ular samaradorligi, oqilonaligi va xavfsizligi nuqtayi nazaridan ta’lim subyektlari bilan munosabatlari bilan belgilanadi. Haqiqiy resurslar tasvirlari va ularning munosabatlarini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ifodalovchi kibermakon deyarli va butunlay mavhumdir. Shuning uchun uni haqiqiy emas deb ta'riflash mumkin. U shaxs bilan o'zining haqiqiy orqa va oldinga bog'liqligini amalga oshirishda, ularning o'zaro ta'siridagina "jonlanadi". Binobarin, ta'limning har bir subyekti ta'limning o'zaro ta'siri bilan ta'lim kibermakonini yaratib, uning tarkibiy qismiga aylanadi va shuning uchun pedagogik tadqiqot obyekti (bu ko'rinishda)dir.

Ta'lim kiberfazosi ta'lim va ta'lim subyektlarining shaxsiy rivojlanishi maqsadlariga erishishga qaratilgan ta'lim munosabatlari o'rnatiladigan umumiy kibermakon elementlaridan iborat. Shu munosabat bilan jamiyatning kibermakondagi deyarli barcha resurslarini ta'lim mavzusiga potensial ijobiy ta'sir (ilmiy, ma'rifiy, ijtimoiy, madaniy, mafkuraviy va psixologik) ta'lim kibermakoniga kiritish mumkin. Biroq, ta'lim va fanlarni o'qitish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan ta'lim portallari, moslashtirilgan media resurslari, media elektron ta'lim resurslari ta'lim kibermakonining tarkibiy qismini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. L.V. Zanina, A.V. Miroshnichenko, O.A. Radchenko This is an open access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution License (CC BY 4.0), which permits unrestricted use, distribution, and reproduction in any medium, provided the original author and source are credited. Published by Kazan Federal University and peer-reviyewed under responsibility of IFTE-2019
2. Yu.G. Korotenkov, Computer sciyence and education, Russian Academy of Education, Moscow 4 (2012)
3. Yu.G. Korotenkov, Smart-sociyety and Smarteducation. Materials of the X international sciyentific and practical conference «Trends of modern sciyence 2014»

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Matnazarov J**, mustaqil tadqiqotchi [**Дж. Матназаров**, независимый исследователь], [**J.Matnazarov,** independent researcher]; manzil: Qoraqolpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, улица П.Сейтова], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P.Seytov street];

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

Original paper

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

© M.M. Abdumannopov[1]✉
[1]Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ta'limni raqamlashtirish jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning xususiyatlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi – ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalar o'rtasida mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va bu jarayonda foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalarning o'rganish jarayoniga ta'sirini o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqotda raqamli ta'lim resurslari, onlayn platformalar va o'quv dasturlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalar mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda sezilarli o'zgarishlarga erishadi.

XULOSA: tadqiqot natijalari ta'limni raqamlashtirish jarayoni talabalar o'rtasida mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi, o'z-o'zini boshqarish, raqamli texnologiyalar, o'quv platformalari, ta'lim samaradorligi, zamonaviy ta'lim.

Iqtibos uchun: Abdumannopov M.M. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish xususiyatlari// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.107–113.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИ ОБРАЗОВАНИЯ

© М.М. Абдуманнопов[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

Введение: в статье анализируются особенности развития компетенции самостоятельного обучения студентов в процессе цифровизации образования.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

ЦЕЛЬ: цель данного исследования — выявить эффективные методы развития компетенции самостоятельного обучения среди студентов в условиях цифровизации образования и изучить влияние современных технологий на процесс обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведён анализ научной литературы по использованию цифровых образовательных ресурсов, онлайн-платформ и учебных программ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что в условиях цифровизации образования студенты достигают значительных изменений в развитии компетенции самостоятельного обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что процесс цифровизации образования является эффективным средством для развития компетенции самостоятельного обучения среди студентов.

Ключевые слова: цифровое образование, компетенция самостоятельного обучения, самоуправление, цифровые технологии, образовательные платформы, эффективность образования, современное обучение.

Для цитирования: Абдуманнопов М.М. Особенности развития самостоятельной учебной компетентности студентов в условиях цифровизаци образования.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 107–113.

CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING COMPETENCE IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION OF EDUCATION

© Muhammadsohib M. Abdumannopov[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the features of developing students' independent learning competence in the process of digitalizing education**.**

AIM: the aim of this study is to identify effective methods for developing independent learning competence among students in the context of educational digitalization and to examine the impact of modern technologies on the learning process.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scientific literature on the use of digital educational resources, online platforms, and learning programs.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that in the context of educational digitalization, students achieve significant progress in developing independent learning competence.

CONCLUSION: the study results confirm that the digitalization process is an effective tool for developing independent learning competence among students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

Keywords: digital education, independent learning competence, self-management, digital technologies, learning platforms, educational effectiveness, modern education.

For citation: Muhammadsohib M.Abdumannopov. (2024) Characteristics of development of students' independent learning competence in the conditions of digitalization of education, Inter education & global study, (8(1)), pp. 107–113. (In Uzbek).

Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalar uchun bilim olishga oid yangi imkoniyatlar yaratilayotgan bo‘lsada, bu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud. Texnik va infratuzilmaviy qiyinchiliklar, raqamli savodxonlikning etishmasligi, motivatsiya bilan bog‘liq muammolar, shuningdek, eng maqbul mustaqil ta’limni tashkil etish masalalari talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirishga salbiy ta’sir etadi. Tadqiqotlar orqali muammolarni hal qilish uchun echimlar ishlab chiqilmoqda, jumladan, infratuzilmani yaxshilash, talabalarning raqamli savodxonlikni oshirish, individual yondashuvlarni qo‘llash va o‘qituvchilarni malaka oshirishi kabi yo‘nalishlar o‘quv jarayonini raqamlashtirish sharoitida mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning muhim jihatlaridir. Ta’limni raqamlashtirish va talabalar kompetensiyasini rivojlantirish mavzusi bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, OTM larda talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Ularda ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga ta’siri, talabalarning raqamli ta’lim sharoitida fanlarni o‘zlashtirish qobiliyatlarini oshirish usullari, shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar va ularni engib o‘tish strategiyalari o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar tahliliga ko‘ra ta’limni raqamlashtirish sharoitida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabalarning mustaqil ta’lim olishini rag‘batlantiruvchi yondashuvlardan biridir. F.U. Anarbaeva [1], T. Anderson [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli vositalardan foydalanish talabalarning avtonom o‘rganish qobiliyatlarini oshirishini va ularga mustaqil bilim olishda yordam berishini tasdiqlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mustaqil ta’limni tashkil etish orqali talabalarning bilim olish usullari va o‘quv sur’atlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O‘qitish jarayonida onlayn yoki aralash ta’lim (*blended learning*) modelidan foydalanish talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatlarini oshirishi aniqlandi. Bu model orqali talabalar darslarda bo‘lmagan paytda ham mustaqil tarzda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. S. Wainwright [3] va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar aralash ta’limning samaradorligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda talabalar aralash ta’limda nazariy va amaliy bilimlarni mustaqil ravishda yaxshiroq o‘zlashtirishi, bu esa ularning umumiy akademik natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ommaviy ochiq onlayn kurslarning ahamiyati esa talabalarni masofaviy o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. B. T. Skinner [4] va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ommabiy ochiq onlayn kurslarning talabalarni mustaqil ravishda fanlarni o‘rganishga jalb qilishdagi o‘rni va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

imkoniyatlariga qaratilgan. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida talabalarning bilim olish darajasi va qobiliyatlarini baholash ham ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Masalan, G. N. Bhadri [5] va Drugova E [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarning raqamli platformalaridagi ta'limiy faoliyatini o'rganadi va ushbu tadqiqot talabalarni mustaqil ta'lim olish qobiliyatlariga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Unda talabalar o'z bilimlarini mustaqil o'rganish jarayonida qanday qilib raqamli vositalarni samarali qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan. V.N Ivanov [7] ning tadqiqotlari talabalarning raqamli savodxonligi o'quv jarayonida qanday rol o'ynashini ko'rsatadi. Olib borilgan tadqiqotlar ta'limning raqamlashtirilish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni yaratishi mumkin. Lekin shunday bo'lsada aniq ta'lim yo'nalishlari va kurslari kesimida ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish muammosiga kompleks yondashish dolzarb hisoblanadi.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish muammosiga kompleks yondashish talabalar va o'qituvchilar oldida turgan texnik, pedagogik, metodik, psixologik hamda infratuzilma bilan bog'liq jiharni o'rganishni talab qiladi. Biz bu borada quyidagilarga e'tibor berish foydali deb hisoblaymiz. Ko'pgina talabalar OTM larda mavjud texnologik infratuzilmadan samarali foydalanish ko'nikmasiga ega emaslar. Shu bilan birga internet tezligilining pastligi yoki uni butunlay etishmasligi talabalarning raqamli ta'lim sharoitida to'laqonli ishtirok etishini muayyan darajada cheklaydi. Bundan tashqari, hozir OTM larda qo'llanilayotgan Hemis platformasiga mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradigan dasturiy vositalarni integratsiya qilish, mustaqil ta'lim olish motivatsiyasi va o'zini-o'zi boshqarish, mustaqil ta'limni tashkil etishning aniq mexanizmlari hali mukammal ishlab chiqilmaganligi va mavjud ishlanmalarni muvofiqlashtirish, xorijiy tajribadan foydalanishdagi til cheklovlari ham muhim muammo hisoblanadi. Ushbu muammolarni kompleks hal qilish uchun avvalo ta'lim infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ayniqsa, xususiy kompaniyalar tomonidan ta'lim sohasiga investitsiya kiritilishi, ta'lim, fan, amaliyot formulasini joriy etish muhim hisoblanadi. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun talaba va o'qituvchilarni maxsus o'quv kurslariga jalb qilish maqsadga mufoviq. Shuningdek, ta'lim platformalari va vositalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar va o'quv dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Talabalar uchun o'quv kurslarida raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha qo'llab-quvvatlash xizmati tashkil qilish shular sirasiga kiradi. Talabalar raqamli ta'lim sharoitida o'zlarini boshqarishi va vaqtni to'g'ri taqsimlash qiyinchiliklariga duch keladilar. Onlayn muhitda ularning diqqat-e'tibori chalg'ishi yoki motivatsiyani yo'qotishi mumkin. Mustaqil ta'lim olishni talab qiladigan kurslarda talabalar o'zlarining qiziqishlari va maqsadlarini uzoq muddat davomida saqlab qola olmasligi ko'p kuzatiladi. Bu o'quv jarayonida motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, raqamli o'quv dasturlari va platformalarda interaktiv topshiriqlar, gamifikatsiya usullari, o'z-o'zini baholash va progressni kuzatish kabi vositalar talabalarni ta'lim jarayoniga yanada ko'proq jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

tomonidan doimiy rag‘batlantirish va nazorat qilish tizimi ham o‘quv motivatsiyasini saqlashga yordam beradi. Raqamlashtirish sharoitida har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlari va ta’lim oluvchilarning individual qobiliyatlariga moslashtirilgan o‘quv dasturlari va topshiriqlar to‘plamini ishlab chiqish ko‘p vaqtni oladi. Bu holat, ayniqsa, butun oqimlar kesimida qaralganda dolzarb bo‘lib, u erda shaxsiy yondashuv etishmaydi. Talabalarga moslashuvchan (adaptiv) o‘quv dasturlari va topshriqlar to‘plamini yaratish orqali muammoni hal qilish mumkin. Raqamli platformalar talabalar faoliyatini kuzatib, ular uchun individual ta’lim yo‘nalishlarini avtomatik ravishda moslashtiruvchi algoritmlar yaratishi lozim. Sun’iy intellekt texnologiyalari bu jarayonni engillashtirishi va har bir talabaning individual ehtiyojlariga mos ta’lim imkoniyatlarini taklif qilishi mumkin. Ayniqsa ba’zi o‘qituvchilar (katta yoshdagi, nafaqa yoshidagi) raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llashga qiynalishi sir emas. O‘qituvchilarni raqamli pedagogika usullari bilan tanishtirish, ularni raqamli vositalardan mustaqil ta’limni tashkil etishda foydalanishni qo‘llab-quvvatlash juda muhim. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish o‘zaro va o‘qituvchi bilan yuzma-yuz muloqotiga ham bog‘liq. Bunda sinxron va asinxron o‘qitish usullarini uyg‘unlashtirish foydali bo‘ladi. Onlayn o‘quv jarayonlarida talabalar bilan videokonferensiya, vebinarlar va interaktiv forumlar orqali muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiriladi. Bundan tashqari, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash uchun guruh loyihalari va hamkorlikda o‘rganish vazifalari keng qo‘llanilishi kerak. Shu bilan birga ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi aspektlarni o‘z ichiga oladi:raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;axborotni tahlil qilish va tanlash;o‘z-o‘zini boshqarish va vaqtni rejalashtirish; mustaqil ta’limga motivatsiyani saqlash; raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish; kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish; o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilishni tashkillashtirish; hamkorlik va guruhda ishlashni rag‘batlantirish.

Raqamli muhitda ko‘p miqdorda ma’lumot mavjudligi sababli, talabalarning axborotni tahlil qilish, kerakli va ishonchli manbalarni aniqlash qobiliyatlari rivojlanishi mustaqil ta’lim olish jarayonida hal qilivchi rol o‘ynaydi. Mustaqil ta’lim olish kompetensiyasi tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va eng dolzarb manbalarni tanlash orqali shakllanadi. Shu bilan birga mustaqil ta’limda talaba o‘z o‘quv jarayonini o‘zi boshqarishi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi, maqsadlarni belgilash va o‘z ishini rejalashtirishi talab etiladi. Masofaviy yoki onlayn ta’limda bu jihatlar ayniqsa muhimdir, chunki darslar va topshiriqlarni bajarish mas’uliyati talabaning o‘zida bo‘ladi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish o‘z-o‘zini ta’limga jalb qilish qobiliyati, talabalarning o‘z maqsadlari va natijalarga erishishga bo‘lgan intilishlarini doimiy ravishda yangilab borish bilan bog‘liq. Zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish, masalan, turli ta’lim platformalari bilan ishlash, video ma’ruzalar va testlar o‘tkazish, interaktiv topshiriqlarni bajarish uchun texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish ham talabaning mustaqil o‘qish kompetensiyasini oshiradi. Onlayn muhitda esa talabalar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

o‘zaro va o‘qituvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatishi kerak. Forumlar, bloglar, vebinarlar va boshqa raqamli platformalar orqali fikr almashish, birgalikda loyihalar yaratish va tajriba almashish jarayonida talabalar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Mustaqil ta’lim olish jarayonida o‘zini baholash va erishilgan natijalarni tahlil qilish talaba uchun muhimdir. Turli onlayn testlar, avtomatik baholash tizimlari va o‘z-o‘zini baholash vositalari yordamida talabalar bilim darajasini mustaqil ravishda kuzatib borishi bilish motivatsiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Raqamli ta’limda talabalarning masofadan birgalikda ishlashi, guruh loyihalarida ishtirok etishi, bir-biriga yordam berishi kommunikativ kompetensiyasini oshiradi, chunki talabalar turli muammolarni jamoa bo‘lib hal qilishni o‘rganadilar. Kompleks yondashuv nuqtai-nazaridan bizning fikrimizcha *mustaqil ta’lim olish kompetensiyasi* – bu talabaning mustaqil ta’lim olish faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plami bo‘lib, mustaqil ta’lim topshiriqlarini to‘g‘ri anglashi, ma’lumotlarni tahlil qilishi, kreativ fikrlashi va texnologik jihatdan yondashish qobiliyatini o‘z ichiga qamrab oladi.

Mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi zamonaviy hayotda juda muhim, chunki o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘rganish jarayonlari doimiy ravishda o‘zgarib boradi.

Bizning fikrimizcha mustaqil ta’lim olish kompetensiyasining tarkibiy qismlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ma’lumot qidirish va olish: Turli manbalardan (kitoblar, maqolalar, internet) ma'lumotlarni topish va ulardan foydalanish; O‘z-o‘zini baholash: O‘z bilim darajasini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarni tahlil qilish.
- Rejalashtirish: Ta’lim jarayonini rejalashtirish, maqsadlar belgilash va ularga erishish uchun strategiyalar ishlab chiqish.

2. Tashkiliy ko‘nikmalar:

- O‘z vaqtini samarali boshqarish, o‘qish jarayonini tashkil etish va resurslardan oqilona foydalanish.

3. Motivatsiya va o‘zini rag'batlantirish:

- O‘z-o‘zini motivatsiya qilish, qiyinchiliklarga qarshi turish va o'rganishni davom ettirish.

4. Tahlil va sintez:

- Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni o‘zlashtirish va yangi fikrlar yoki bilimlar yaratish.

5. Muloqot ko‘nikmalari:

- O‘z fikr va g‘oyalarini ifodalash, boshqa odamlar bilan fikr almashish va o‘z-o‘zini taqdim etish.

6. Muammolarni hal qilish:

- O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni hal etish strategiyalarini ishlab chiqish.

Bu komponentlar mustaqil ta’lim olish jarayonini samarali va maqsadga muvofiq qilish uchun zarurdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchilaring raqamli pedagogika va ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilishi muhimdir. Raqamlashtirilgan ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga, ularning raqamli va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Anarbaeva F.U., Qoraev A.F. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish. Analytical Journal of education and development. Vol. 02 Issue: 07 | Jul-2022 ISSN: 2181-2624. – B. 6-9.
2. Anderson, T. (2008). The theory and practice of online learning. In Athabasca University Press eBooks. https://doi.org/10.15215/aupress/9781897425084.01
3. Wainwright, S. (2011). Blended learning in Higher Education: Framework, principles, and guidelines. *Journal of Physical Therapy Education*, *25*(1), 73. https://doi.org/10.1097/00001416-201110000-00013
4. Skinner, B. T. (2019). Making the connection: broadband access and online course enrollment at public open admissions institutions. *Research in Higher Education*, *60*(7), 960–999. https://doi.org/10.1007/s11162-018-9539-6
5. Bhadri, G. N., & Patil, L. R. (2022). Blended Learning: An effective approach for Online Teaching and Learning. *Journal of Engineering Education/Journal of Engineering Education Transformations/Journal of Engineering Education Transformation*, *35*(is1), 53–60. https://doi.org/10.16920/jeet/2022/v35is1/22008
6. Drugova, E., Veledinskaya, S., & Zhuravleva, I. (2021). The Role of Instructional Design in Promoting Digital Pedagogy. Review of the book: Beetham H., Sharpe R. (2020) Rethinking Pedagogy for a Digital Age. *Voprosy Obrazovaniya/ Educational Studies Moscow*, *4*, 333–354. https://doi.org/10.17323/1814-9545-2021-4-333-354
7. Ivanov V.N., Ilyina E.A., Kirillov A.A. Setting up a digital learning environment in a pedagogical university // Praxis Educacional. - 2019. – Vol. 15, № 34. – pp. 643.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o‘g‘li**, o’qituvchi, [**Абдуманнопов Муҳаммадсоҳиб Муҳаммадюсуф ўғли,** учитель], [**Muhammadsohib M, Abdumannopov,** teacher]; manzil: O'zbekiston, Farg'ona viloyati, 712000, Farg'ona, ko'chasi MURABBIYLAR, 19 [адрес: Узбекистан, Ферганская область, 712000, Фергана, ул. МУРБАБЫЛАР, 19], [address: Uzbekistan, Fergana region, 712000, Fergana, street MURBABYLAR, 19]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

NUTQIDA OG‘IR NUQSONLARI BO‘LGAN BOLALAR NUTQNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

© M.M.Kaxxarova[1]✉
[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalarning nutqiy xususiyatlari va ularning rivojlanishi uchun qo‘llaniladigan texnologiyalar tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun nutq rivojlantirish texnologiyalarini aniqlash va bu texnologiyalarning samaradorligini baholash, shuningdek, ularning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llarini taklif qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. kuzatuv, so‘rov va maxsus logopedik mashg‘ulotlar orqali nutqida og‘ir nuqsonlari bor bolalar bilan ish olib borildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalarning nutqiy rivojlanishida individual yondashuv va maxsus texnologiyalarning samarali ekanligini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun rivojlantirish texnologiyalarini qo‘llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. shaxsiylashtirilgan yondashuv va interfaol texnologiyalar yordamida bolalar nutqiy, kognitiv va ijtimoiy jihatdan rivojlanib, kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: nutq nuqsonlari, nutq rivojlantirish texnologiyalari, logopedik terapiya, bolalar nutqi, kommunikativ ko‘nikmalar, individual yondashuv, interfaol texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Kaxxarova.M.M. Nutqida og`ir nuqsonlari bo`lgan bolalar nutqining o`ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish texnologiyalari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.114–120.

ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ И ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ С ТЯЖЕЛЫМИ ДЕФЕКТАМИ РЕЧИ

© М.М. Каххарова[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются речевые особенности детей с тяжелыми дефектами речи и технологии, используемые для их развития.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определить технологии развития речи детей с тяжелыми дефектами речи и оценить эффективность этих технологий, а также предложить пути развития их коммуникативных и социальных навыков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы качественные и количественные методы анализа. проводилась работа с детьми с тяжелыми дефектами речи путем наблюдения, опроса и специальной логопедической подготовки.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что индивидуальный подход и специальные технологии эффективны в речевом развитии детей с тяжелыми дефектами речи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что использование развивающих технологий для детей с тяжелыми нарушениями речи имеет высокую эффективность. с помощью персонализированного подхода и интерактивных технологий дети могут развиваться речево, познавательно и социально, а также расширять свои коммуникативные возможности.

Ключевые слова: дефекты речи, технологии речевого развития, логопедия, речь детей, коммуникативные навыки, индивидуальный подход, интерактивные технологии.

Для цитирования: Каххарова.М.М. Особенности речи детей с тяжелыми дефектами речи и технологии развития..// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 114–120.

CHARACTERISTICS OF SPEECH AND DEVELOPMENT TECHNOLOGIES OF CHILDREN WITH SEVERE DEFECTS IN SPEECH

© Malik M. Kaxxarova[1]✉
[1] Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the speech characteristics of children with severe speech impairments and the technologies used for their development.

AIM: the main goal of the study is to identify speech development technologies for children with severe speech impairments and evaluate the effectiveness of these technologies, as well as to suggest ways to develop their communicative and social skills.

MATERIALS AND METHODS: the study used qualitative and quantitative analysis methods. children with severe speech impairments were worked with through observation, survey and special speech therapy sessions.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that an individual approach and special technologies are effective in the speech development of children with severe speech impairments.

CONCLUSION: the results of the study show that the use of developmental technologies for children with severe speech impairments is highly effective. with the help of a personalized approach and interactive technologies, children can develop speech, cognitively and socially and expand their communicative capabilities.

Keywords: speech disorders, speech development technologies, speech therapy, children's speech, communicative skills, individual approach, interactive technologies.

For citation: Malika. M. Kaxxarova (2024) Characteristics of speech and development technologies of children with severe defects in speech, Inter education & global study, (8(1)), pp. 114–120. (In Uzbek).

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya'ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Bolalar o'sib, ulg'aygani sari ularning nutgi ham rivojlanib boradi. Bu davrda ba'zan nutqning ma'lum darajadagi buzilishlari kuzatilishi mumkin. Nutq kamchiliklarining kelib chiqishi sabablarini oilada har bir ota-ona, maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyachilar, maktabda 157 o’qituvchilar bilishlari zarur. Chunki nutq kishilarning til vositasi orqali aloqa jarayonining tarixan tarkib topgan formasidir. Shuningdek, nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Nutq bolalarda asta-sekin shakllanadi, bola o'sib rivojlanib boradi. Aslida bola nutqning o'sib borishidagi hal qiluvchi bosqich bir yarim yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrga to g'ri keladi. Bu davrda bolaning nutqi muayyan sur'atda, besh yoshdan keyin esa nutq intensiv ravishda xilma-xil o’sib boradi. Biroq ayrim bolalarning nutqiy rivojlanishida bir qator kamchiliklar uchraydi va ma'lum bir sababga bog'liq bo’ladi.

Nutq buzilishining ko'pgina turlari markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog'liq bo'lib, u logoped va nevropatolog-shifokor yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi bilan aniqlanishi mumkin. Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi. Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovskiy).

Bolalarda nutq patologiyasining bilish doirasining rivojlanishini o‘rganuvchi tadqiqotchilar orasida L.S.Svetkaova, T.M.Pirsxalayshvili, E.M.Mastyukova, N.A.Chevelyeva, G.S.Syergevvalar idrokning turli ko‘rinishlarini tadqiq qilganlar;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

G.S.Gumennaya xotira xususiyatlarini o‘rgangan; O.N.Usanova, Yu.F.Gargusha, T.A.Fotekova diqqat-e’tiborni tadqiq qilishgan; I.T.Vlasenko, G.V.Guroves, L.R.Davidovich, L.A.Zaysyeva, V.A.Kovshikov, Yu.A.Elkin, O.N.Usanova fikrlash turlarining o‘ziga xosligini o‘rgangan; V.P.Gluxov tasaffurni tadqiq qilgan.

Nutq rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarda so'zlarning bo'g'in tuzilishining buzilishi ko'p yillar davomida saqlanib qoladi, bu bola har safar so'zning yangi tovush-bo'g'in va morfologik tuzilishiga duch kelganida aniqlanadi (masalan, mototsiklchi, sartarosh). Maktab yoshidagi bolalar ko'pincha o'z-o'zidan nutqda talaffuz qilish qiyin bo'lgan so'zlarni ishlatishdan ongli ravishda qochishadi va shu bilan o'zlarining nuqsonlarini boshqalardan yashirishga harakat qilishadi.

Ta’lim davomida biz tomondan predmet shakli, uning detallarini imo-ishora yordamida ko‘rsatish, rasmlarga tayangan holda tasvirlash kabi qator yordamchi vositalar qo‘llanildi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun korrektsion ishlarning usullarini tanlash oldin har doim bola-logopadni tekshirish amalga oshiriladi. So'zlarning bo'g'in tuzilishi holatini tekshirish an'anaviy sxema bo'yicha bolaning nutqi rivojlanishining umumiy darajasini, uning intellektual qobiliyatlari va yoshini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda alohida o‘yinli mashg‘ulotlarning qisqacha mazmunini keltiramiz.

Ikkita predmetni taqqoslovchi tasvir ustidagi ish quyidagi turdagi mashqlarni qo‘llashdan boshlanadi: logoped boshlagan gapni predmet belgisini bildiruvchi ma’no jihatidan to‘g‘ri so‘z yordamida to‘ldirish (g‘ozning bo‘yni uzun, o‘rdakning esa bo‘yni…); “Limon va apelsinning mazasi qanday?” kabi savollar asosida gap tuzish; fazoviy tavsifga ko‘ra bog‘langan ikki predmetning qarama-qarshi sifatlarini ajratuvchi va belgilovchi mashqlar (daraxt baland, buta esa past); bir guruhga mansub predmetlarni farqlovchi qator belgilarni ketma-ketlikda ajratish. Shuningdek biz logoped va bola tomonidan ikki predmetni qismlariga ko‘ra parallel tasvirlash usulini qo‘lladik (sigir va echki, kuchuk va mushuk) tasvirlash.

Shuningdek biz logoped va bola tomonidan ikki predmetni qismlariga ko‘ra parallel tasvirlash usulini qo‘lladik. (sigir va echki, kuchuk va mushuk) tasvirlash.

Tasvirlovchi hikoyalar tuzishda sxemalardan foydalanish yaxshi natijalarga erishishga imkon berdi.

Qayta hikoyada nutqning tizimi, ifodaliligi, talaffuzi mukammallashadi, gap va matnlarni tuzish malakalari shakllanadi.

Qayta hikoyaga o‘rgatish mashg‘ulotlarini quyidagi aniq reja asosida tashkillashtirdik:

1. Tashkiliy qism. (maqsad – bolalarga diqqatni jamlashga yordam berish, ularni matnni idrok etishga tayyorlash);
2. Matnni o‘qib eshitirish (qayta hikoya qilish topshirig‘ini bermay);
3. Savol-javob shaklida matnni tahlil etish (savollar shunday tuzildiki, ular yordamida bolalar syujetdagi muhim lavhalarni hamda uning nutqiy ifodalanish usullarini yana bir bor aniqlashtirib olish imkoniga ega bo‘ldilar);

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE5

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

4. Matnni bolalar tomonidan qayta o‘qilishi (qayta hikoya qilish topshirig‘ini ma’lum qilish);

5. Bolalar tomonidan matnning qayta hikoya qilinishi (ko‘rgazmali materialga tayangan holda);

6. Nutqiy materialni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar;

7. Bolalar hikoyalarining tahlili.

Mashg‘ulotlarni olib borishda quyidagi vazifalar belgilandi;

1. Bolalarda nutqiy muloqot, nutqiy kommunikatsiya malakalarini mustahkamlash va rivojlantirish;

2. Bog‘langan monologik bayonni tuzish malakalarini shakllantirish;

3. Bog‘langan bayonni qurishni nazorat etish va o‘z-o‘zini nazorat etish malakalarini rivojlantirish;

4. Og‘zaki nutqiy ma’lumotlarning shakllanishi bilan uzviy bog‘langan qator psixik jarayonlarni faollashtirishga ta’sir etish.

Hikoya qilish malakalarini shakllantirish ustidagi korreksion ish o‘qitishning qator tamoyillarini hisobga olgan holdava logoped hamda tarbiyachining birgalikdagi hamkorligi asosida qurildi.

Bolalarning bog‘langan keng bayonni rejalashtirish malakalarini egallashlariga katta e’tibor ajratilib, har bir matnni yoki rasmli material asosida o‘qitish kamida ikki mashg‘ulotda olib borildi. Dizartrik bolalarni hikoya tuzishga o‘rgatish mashg‘ulotlaridan namunalar keltiramiz.

“Aqlli tipratikon” rasm seriyasi asosidagi mashg‘ulot.

Ta’limning ikkinchi yilidagi birinchi davr.

Mashg‘ulotning maqsadi: Bolalarni syujetdagi harakatlarning asosiy momentlarini tasvirlovchi seriyali rasmlar asosida bog‘langan hikoyani tuzishga o‘rgatish.

Asosiy vazifalar:

1. Ko‘rgazmali tasvirlangan syujetni tahlil etish malakalarini, alohida rasmlar mazmunini solishtirish asosida syujetli vaziyatni yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

2. Bolalar jumlali nutqini, savollarga keng javob berish malakalarini, hikoya tuzishda 3-6 so‘zdan iborat jumlalarni qo‘llashni rivojlantirish;

3. So‘z o‘zgartirish malakalarini shakllantirish;

4. Bolalarda ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish;

5. Bog‘langan nutqni mulohaza shaklida shakllantirish va rivojlantirish.

Jihozlar: O‘rta hajmdagi to‘rt rangli rasm va doska.

Mazkur seriyali rasm asosida hikoya qilishga o‘rgatish ikki mashg‘ulotda olib borildi.

Noverbal material ustida ishlash

1. Eshitish diqqatini, eshitish gnozisini va eshitish xotirasini nutqiy bo'lmagan tovushlar materialiga asosida rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar va mashqlar (Qayerga qo'ng'iroq jarangladi? Musiqa asbobini top. Baraban necha marta urildi?).

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE5

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

2. Ritm ustida ishlash (avval oddiy, keyin murakkab). Bolalarga ritmni takrorlashning turli usullari taklif etiladi: qo'llari bilan chapak chalish, to'pni erga urish, musiqa asboblari - baraban, tambur, metallofondan foydalanish.

Vazifalarning turlari quyidagilardan iborat:

- kubikda qancha nuqta bo'lsa, shuncha marta chapak chal (kartada nechta nuqta);

- Qancha marta qarsak chalganini hisoblang va tegishli raqam bilan kartani ko'taring (ritm avval oddiy, keyin esa murakkab taklif qilinadi);

— Ritmlarni solishtirish: !-!!!; !!!-!!!-!!!;

- ritmlarni tanib olish va ularning ramzlarda qayd etilgan ma’lum bir ritmik naqsh bilan bog‘liqligini aniqlash;

- ma'lum bir ritmni logoped modeli bo'yicha, berilgan ketma-ketlik bo'yicha takrorlash;

- Ritmik ketma-ketlikning bir qismini urg’u yordamida ajratib ko'rsatish topshiriqlar: !!!; !!!!!;

- bola tomonidan ritmni mustaqil bilan takrorlash, keyinchalik ritmik ketma-ketlikni belgilar bilan yozib olish;

- davomiy (nay, garmoshka - "-" belgisi) va qisqa tovushlarni (baraban, tambur - "+" belgisi) takrorlash.

Ritmik ketma-ketlik quyidagicha bo'lishi mumkin: --++, ++-+-- va hokazo.

3. Ritmik musiqaga harakatlarni umumiy muvofiqlashtirishni shakllantirish: marsh, engil yugurish, yurish.

Eslatma. Ushbu turdagi ishlar musiqa darslarida ham, logoritmikada ham amalga oshirilishi mumkin, agar logopedik korrektsiya maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida amalga oshirilsa.

4. Qo'llarning dinamik praksisini rivojlantirish mashqlari: model bo'yicha harakatlarni bajarish (chap, o'ng qo'l, ikki qo'l), og'zaki ko'rsatmalar yoki sanoq bo'yicha: musht - qirra, musht - qirra- kaft.

5. O'zaro qo'llarni muvofiqlashtirishni rivojlantirish mashqlari: ikkala qo'l bilan bir vaqtning o'zida harakatlarni bajarish (chap qo'lning mushti - o'ng qo'lning qirrasi va boshqalar).

6. Grafik mashqlari (qatorni davom ettiring): 0-0-0...

Eslatma. Ish turlari va topshiriqni berish usullari bolaning yoshi, intellektual va nutqining rivojlanishini hisobga olgan holda tanlanadi.

Nutq buzilishi bolaning rivojlanishiga ham to’siqlarni yuzaga chiqaradi. Nutqni rivojlantirish uchun tavsiya qilinayotgan parallel tasvirlash, ikki predmetni tasvirlash, qayta hikoya qilish usullari yordamida nutqni rivojlantirishning texnologiyalari ishlab chiqilganligi va samaradorligi ko’rib chiqildi. Nutqida og’ir nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ishlarning sifati va samarasi ham oshib borish tartibida ekanligi ko’rindi. Har bir logoped bolaning nutq nuqsonlari darajasiga ko’ra ish turlarini tanlashi va bolaning korreksion holatini ham inobatga olishi lozim. Bolaning holatidan kelib chiqib qilingan mashg’ulotlar samaraliu va foydali bo’ladi.

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE5

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abidova, N. (2023). Creating an Inclusive Educational Environment for Children with Special Educational Needs. Texas Journal of Engineering and Technology, 27, 36-38
2. Abidova N. Z, Kaxxarova M. M. Development of sound pronunciation of speech in children with expressive alia // The American Journal of Social Science and Education Innovations. - 2021. - №. 04. - S. 2834.
3. Khakharova Malika Maksudovna (2024). TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE LEXICAL-GRAMMATICAL ASPECTS OF THE SPEECH OF CHILDREN WITH SEVERE SPEECH DEFECTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development,16-20. ISSN Online: 2771-8948. Volume 25.
4. Логопедическая диагностика и коррексия нарушений речи у детей: сборник методических рекомендатсий / Под ред. Л. В. Лопатиной. – СПб., Москва: САГА, ФОРУМ, 2006. – 272 с. - ИСБН: 5-91134-053-4

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kaxxarova Malika Maxsud qizi**, o`qituvchi, [**Каххарова Малика Махсудовна** – преподаватель], [**Malika M. Kaxxarova**,teacher]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Chilonzor tumani,Bunyodkor ko`chasi 27uy.[адрес: Узбекистан, ул. Чиланзорский район, улица Бунедкор 27.], [address: Uzbekistan, Chilonzor district, Bunyodkor street 27] .

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE5

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY ADAPTATSIYASI: MILLIY MENTALITETGA TA'SIRNING PEDAGOGIK O‘RGANISH USULLARI

© M.O. Hudayberdiyeva[1]✉
[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada yuqori sinf o‘quvchilarining ijtimoiy adaptatsiya jarayoniga milliy mentalitet ta’sirini o‘rganish va bu jarayonni pedagogik yo‘nalishda samarali boshqarish usullari yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy adaptatsiyani milliy mentalitet bilan uyg‘unlashgan holda rivojlantirish uchun samarali pedagogik usullarni aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o‘quvchilarning ijtimoiy adaptatsiya jarayonini o‘rganish uchun pedagogik usullar, milliy qadriyatlar va madaniyatni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar milliy mentalitetni hisobga olgan holda ijtimoiy adaptatsiya jarayonini boshqarish o‘quvchilarning o‘z jamiyatida ijobiy qabul qilinishiga va jamiyat bilan o‘zaro ishonchli munosabatlar o‘rnatilishiga yordam berishini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari yuqori sinf o‘quvchilarining ijtimoiy adaptatsiyasi jarayonida milliy mentalitetning muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy adaptatsiya, yuqori sinf o‘quvchilari, milliy mentalitet, pedagogik usullar, milliy qadriyatlar, jamiyatga integratsiya, madaniy meros.

Iqtibos uchun: Hudayberdiyeva M.O.Yuqori sinf o‘quvchilarining ijtimoiy adaptatsiyasi: milliy mentalitetga ta'sirning pedagogik o‘rganish usullari // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.121–125.

СОЦИАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ СТАРШКОННИКОВ: МЕТОДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ВЛИЯНИЯ НА НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ

© М.О. Ҳудайбердиева[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается влияние национального менталитета на процесс социальной адаптации старшеклассников, а также методы эффективного управления этим процессом в педагогическом направлении.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить эффективные педагогические методы для развития социальной адаптации старшеклассников в гармонии с национальным менталитетом.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы педагогические методы и учебные программы, включающие национальные ценности и культуру, для изучения процесса социальной адаптации учащихся.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что управление процессом социальной адаптации с учётом национального менталитета способствует позитивному восприятию учащихся в обществе и формированию доверительных отношений с ним.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают важность национального менталитета в процессе социальной адаптации старшеклассников.

Ключевые слова: социальная адаптация, старшеклассники, национальный менталитет, педагогические методы, национальные ценности, интеграция в общество, культурное наследие.

Для цитирования: Ҳудайбердиева М.О. Социальная адаптация старшконников: методы педагогического изучения влияния на национальный менталитет // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 121–125.

SOCIAL ADAPTATION OF HIGH SCHOOL STUDENTS: PEDAGOGICAL STUDY METHODS OF INFLUENCE ON NATIONAL MENTALITY

© Odina M. Temirova[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the influence of national mentality on the social adaptation process of high school students and effective methods for managing this process from a pedagogical perspective.

AIM: the main objective of the study is to identify effective pedagogical methods for fostering social adaptation in high school students in harmony with national mentality.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed pedagogical methods and educational programs, incorporating national values and culture, to study the social adaptation process of students.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that managing the social adaptation process while considering national mentality helps students be positively received in society and establish trustworthy relationships with it.

CONCLUSION: the study results confirm the importance of national mentality in the social adaptation process of high school students.

Keywords: social adaptation, high school students, national mentality, pedagogical methods, national values, societal integration, cultural heritage.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Odina M. Temirova (2024) ‘Social adaptation of high school students: pedagogical study methods of influence on national mentality’, Inter education & global study, (8(1)), pp. 121–125. (In Uzbek).

Borgan sari o'zaro bog'langan dunyoda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi nafaqat bevosita ijtimoiy muhitga qo'shilishni, balki madaniy va milliy o'ziga xoslik bilan aloqani saqlab qolishni ham o'z ichiga oladi. Yuqori sinf o'quvchilari bu jarayonda o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki ular ijtimoiy qabul qilish bosimi va milliy mentalitetiga xos bo'lgan madaniy qadriyatlarni saqlab qolish bilan shug'ullanadilar.[1] Madaniyatning umumiy qadriyatlari, e'tiqodlari va ijtimoiy normalarini o'z ichiga olgan milliy mentalitet talabalarning o'zini va jamiyatdagi o'rnini qanday qabul qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Milliy mentalitetni hurmat qilish bilan birga ijobiy ijtimoiy moslashuvni qanday rivojlantirishni tushunish talabalarning shakllanish davrida shakllanadigan ta'lim muhitida juda muhimdir. Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini o'rganish va ta'sir qilishning pedagogik usullari, bu usullarning milliy mentalitet bilan o'zaro ta'siri va aks etishi ko'rib chiqiladi. Asosiy maqsad - madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolish va ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirishda o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradigan samarali yondashuvlarni o'rganishdir.

Ijtimoiy moslashuv - bu odamlar o'zlarining xatti-harakatlari, munosabatlari va ijtimoiy rollarini o'z muhitida kutilgan narsalarga moslashtirishni o'rganish jarayoni. Yuqori sinf o'quvchilari uchun ijtimoiy moslashuv ayniqsa muhimdir, chunki u kelajakdagi etakchilik rollari va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq. Ushbu moslashuvga milliy mentalitet, jamoaviylik yoki individualizm, ijtimoiy ierarxiya, an'analar va millatning o'ziga xosligini belgilaydigan madaniy belgilar kabi qadriyatlarni o'z ichiga olgan konstruktsiya ta'sir ko'rsatadi.[2]

Ta'limda ijtimoiy moslashuvning roli quyidagilarni o'z ichiga oladi: Madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish ya’ni, o'quvchilar o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini milliy qadriyatlar va an'analar bilan bog'lashni o'rganadilar. Ijtimoiy moslashuv umumiy qadriyatlarni o'zlashtirgan holda madaniy farqlarga hurmatni o'rgatish orqali turli xil talabalar guruhlarida birlikni mustahkamlaydi. Ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish talabalarga ko'p madaniyatli jamiyatda muhim xususiyatlar bo'lgan yanada chidamli, moslashuvchan va empatik bo'lishga imkon beradi.[3] Pedagogik tadqiqotlar milliy mentalitet kontekstida yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini o'rganish va ta'sir qilishning bir qancha usullarini taklif etadi. Madaniy jihatdan sezgir o'qitish talabalarning madaniy kelib chiqishini tan oladi va bu xabardorlikni ta'lim amaliyotiga kiritadi. U ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi. O’quvchilarni o'zlarining madaniy o'ziga xosligini ifoda etish va o'rganishga undash.Turli xillikka hurmatni shakllantirish va inklyuziv ta'lim muhitini targ'ib qilish. Masalan, o‘lka tarixi, adabiyoti yoki urf-odatlariga bag‘ishlangan topshiriqlar yoki muhokamalar milliy qadriyatlar bilan chuqurroq bog‘lanishga yordam beradi. Madaniy jihatdan sezgir usullarni qo'llaydigan o'qituvchilar har bir o'quvchining o'ziga xos madaniy hissalarini tan olish va qadrlash, ularning madaniy mohiyatini yo'qotmasdan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

moslashishiga yordam berish uchun faol ishlaydi. Qadriyatlarga asoslangan ta'lim o'quvchilarda umuminsoniy va madaniy o'ziga xos qadriyatlarni singdirishga urg'u beradi. Bu usul milliy mentalitetni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quv dasturiga vatanparvarlik, hurmat va hamdardlik kabi milliy qadriyatlarni singdirish. O’quvchilarni o'zaro munosabatlarda va shaxsiy tanlovlarida ushbu qadriyatlarni tushunishga va singdirishga undash. O’quvchilarga madaniy merosining ahamiyatini o'rgatadigan dasturlarni ishlab chiqish.[4] Qadriyatlarga asoslangan ta'lim talabalarga kengroq milliy mentalitetni aks ettiruvchi tamoyillarni o'zlashtirishga yordam beradi va shu bilan ularni madaniy kutishlarga mos keladigan ijtimoiy moslashuv xulq-atvoriga yo'naltiradi.

Mentorlik va tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari. Mentorlik dasturlari talabalarga moslashuv va madaniy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni o'zida mujassam etgan namunalar bilan ta'minlash orqali ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi. Mentorlar, jumladan, katta yoshdagi talabalar, o'qituvchilar yoki jamoat rahbarlari, kuchli madaniy o'zini tutish tuyg'usini saqlab, ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.[5] Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, shuningdek, o'quvchilarni ijtimoiy moslashuv jarayonlarida bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga undaydi, ularga tegishlilik va umumiy o'ziga xoslikni his qilishlariga yordam beradi. Ijtimoiy moslashuvning nuanslarini tushunish uchun o'qituvchilar va tadqiqotchilar sifat va miqdoriy usullardan foydalanadilar.[6] Bular talabalarning ijtimoiy moslashuv va ularning madaniy o'ziga xoslik bilan aloqasi haqidagi qarashlarini o'rganishga yordam beradi. Ushbu miqdoriy vositalar madaniy identifikatsiya, ijtimoiy qabul va moslashish darajasini o'lchaydi, tendentsiyalar va takomillashtirish sohalari haqida tushuncha beradi. O’quvchilarni turli ijtimoiy kontekstlarda kuzatish o'qituvchilarga adaptiv xatti-harakatlar va milliy mentalitetning ushbu xatti-harakatlarga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Milliy mentalitetga pedagogik ta’sir etishdagi muammolar va mulohazalar. Milliy mentalitet sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuviga ta’sir ko‘rsatishning pedagogik usullarini qo‘llashda bir qancha muammolar yuzaga keladi. Moslashuv va shaxsiyatni saqlab qolish muvozanati. Bunda o'qituvchilar moslashuv assimilyatsiyaga olib kelmasligiga ishonch hosil qilishlari kerak, bu erda talabalar o'zlarining madaniy ildizlaridan voz kechish uchun bosim o'tkazishlari mumkin. Ko'p madaniyatli muhitda yagona milliy mentalitetni qo'llab-quvvatlash talabalar tarkibidagi xilma-xillikni e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Turli xillikni hurmat qilish bilan birga birlashtiruvchi umumiy qadriyatlarni topish juda muhimdir.[7] Milliy mentalitet monolit tushuncha emas, u keng farq qilishi mumkin. O'qituvchilar umumlashtirilgan taxminlardan qochishlari va har bir o'quvchiga o'ziga xos nuqtai nazarga ega shaxs sifatida yondashishlari kerak.

Yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvi milliy mentalitet bilan chuqur chambarchas bog'liq bo'lgan ta'limning muhim jihati hisoblanadi. Madaniy merosni hurmat qiladigan va birlashtiradigan pedagogik usullar o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularning madaniy o'ziga xosligini mustahkamlaydi. Madaniy jihatdan mos keladigan o'qitish, qadriyatlarga asoslangan ta'lim, murabbiylik dasturlari va kuchli tadqiqot usullarini qo'llash orqali o'qituvchilar o'quvchilarni milliy qadriyatlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ulug'laydigan tarzda ijtimoiy moslashish jarayonida yo'naltirishlari mumkin. Bunday muvozanatli yondashuv o‘quvchilarga o‘z madaniyatiga mansublik tuyg‘usini rivojlantirishga imkon beradi, shu bilan birga ularning moslashuvi va shaxslararo munosabat ko‘nikmalarini oshiradi, ularni voyaga yetganlik davridagi ijtimoiy va kasbiy qiyinchiliklarga tayyorlaydi.[8] Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu usullarning o'quvchilarning o'ziga xoslik hissi va ijtimoiy birdamligiga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishi mumkin, bu esa milliy mentalitetning ta'lim tizimida samarali integratsiyalashuvi haqida qo'shimcha tushunchalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdujamilovna, Boliyeva Sevara. "O’QUVCHILAR O’RTASIDA ADAPTATSIYA JARAYONI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI." TADQIQOTLAR. UZ 36.3 (2024): 42-46.
2. Akbarovna D. S. et al. IJTIMOIY ADAPTATSIYA JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI DINIY PSIXOLOGIK OMILLAR //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 51. – №. 4. – C. 35-42.
3. Urakovna, Namazova Manzura. "O ‘zbek Adabiyotida Milliy Mentalitet Masalasi." Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA). Vol. 7. 2024.
4. Zohida, Jumayeva, Murodullayeva Nilufar, and Aliyeva Munisa. "O‘ZBEKISTON XALQLARINING MA'NAVIY MADANIYATI VA MILLIY MENTALITETINING TARIXIY TAHLILI." worldly knowledge conferens 8.1 (2024): 119-122.
5. Гудиева, Т. Т., and И. Ю. Кокаева. "НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ КАК ПРЕДМЕТ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ." Ответственный редактор: Хасухаджиев АС-А.–проректор по науке, инновациям и цифровой трансформации ФГБОУ ВО «Чеченский государственный университет им. АА Кадырова» (2022): 304.
6. Гудиева, Т. Т. "Национальный менталитет и инновационная восприимчивость педагогических работников РСО-Алания." МОЛОДЫЕ УЧЕНЫЕ В РЕШЕНИИ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ НАУКИ (2020): 192.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Hudayberdiyeva Mohira Osimjanovna**, mustaqil tadqiqotchisi, [**Худайбердийева Моҳира Осимжановна,** независимого исследователя.], [**Mohira O. Hudayberdiyeva,** independent researcher]; manzil: O‘zbekiston, Namangan sh., 160107, Boburshox ko‘chasi, 161-uy [адрес: Узбекистан, 160107, улица Бобуршоха, 161 Наманган], [address: Uzbekistan, 161, Boburshokh Street, 160107 Namangan city]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

BOLALAR SEREBRAL FALAJIDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

© M. Xamidova[1]✉

[1]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada bolalar serebral falaji (bsf) bilan kasallangan bolalarda logopedik ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning nutqiy rivojlanishga ta’siri yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bolalar serebral falaji bo‘lgan bolalarda logopedik ishlarning maxsus usullarini o‘rganish va nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda serebral falaj bilan kasallangan bolalarda nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan logopedik adabiyotlar va amaliy metodikalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, bsf bo‘lgan bolalarda nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus logopedik mashg‘ulotlar va harakatlarni koordinatsiyalashga yo‘naltirilgan mashqlar samarali bo‘ladi.

XULOSA: tadqiqot natijalari bsf bo‘lgan bolalarda logopedik ishlarning o‘ziga xos usullari va yondashuvlari orqali nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: bolalar serebral falaji, logopedik ishlar, nutqiy rivojlanish, kommunikativ ko‘nikmalar, artikulyatsion mashqlar, individual yondashuv, nafas mashqlari.

Iqtibos uchun: Xamidova M. Bolalar serebral falajida olib boriladigan logopedik ishlarning o`ziga xos xusisiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.126–136.

ОСОБЕННОСТИ ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ, ПРОВОДИМОЙ У ДЕТЕЙ С ДЦП

©М.Хамидова[1]✉

[1]Ташкентский Международный университет Кимё, Ташкент, Узбекистан, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье освещаются особенности логопедической работы с детьми, страдающими детским церебральным параличом (ДЦП), и ее влияние на развитие речи.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – изучение специальных методов логопедической работы с детьми, страдающими ДЦП, и разработка эффективных подходов, направленных на поддержку речевого развития.

Материалы и методы: в исследовании был проведен анализ логопедической литературы и практических методик, направленных на устранение речевых нарушений у детей с церебральным параличом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что для поддержки речевого развития у детей с ДЦП эффективны специальные логопедические занятия и упражнения, направленные на координацию движений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что с помощью особых методов и подходов логопедической работы можно поддерживать речевое развитие у детей с ДЦП.

Ключевые слова: детский церебральный паралич, логопедическая работа, речевое развитие, коммуникативные навыки, артикуляционные упражнения, индивидуальный подход, дыхательные упражнения.

Для цитирования:Хамидова.М. Особенности логопедической работы у детей с ДЦП. // Inter education & global study.2024. №8(1). С. 126–136.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF LOGOPEDIC WORKS CARRIED OUT IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY

© Muborak Xamidova[1]✉
[1]Kimyo International University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the specific features of speech therapy for children with cerebral palsy (cp) and its impact on speech development.

AIM: the main objective of the study is to explore specialized methods of speech therapy for children with cp and to develop effective approaches aimed at supporting speech development.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed speech therapy literature and practical methodologies focused on correcting speech impairments in children with cerebral palsy.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that specialized speech therapy sessions and exercises aimed at coordinating movements are effective in supporting speech development in children with cp.

CONCLUSION: the findings of the study confirm that speech development in children with cp can be supported through specific methods and approaches in speech therapy.

Keywords: cerebral palsy, speech therapy, speech development, communication skills, articulation exercises, individualized approach, breathing exercises.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Muborak Xamidova. (2024) 'Specific features of logopedic work in children with cerebral palsy', Inter education & global study, (8(1)), pp. 126–136. (In Uzbek).

Bolalar Serebral falaji — bu bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yollarni zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligidir. Bolalar Serebral falajida miyaning harakat va nutq sistemasida erta organik buzilishlar kuzatiladi. Bu buzilishlarning sabablari turlicha: infeksion kasalliklar, homiladorlik davridagi turli intoksikatsiya va jarohatlanishlar, surunkali kasalliklar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha nomunosibligi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari homilaning erta yoki kech tug'ilishi, genetik faktorlar ham asosiy shartlardan bo'lishi mumkin.

Bolalar serebral falaji ona homilasining faoliyatini buzilishi natijasida sodir bo'ladigan akusherlik jarohatlari, tug'ruq paytida kindikni bo'yin atrofida o'ralib qolishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatda bolaning markaziy nerv sistemasiga kislorod yetishmay qolib, bosh miya nerv hujayralarini zararlanishiga olib keladi. Bolalar serebral falaji tug'ruqdan keyin neyroinfeksiyalarning kechishi va bosh miyani qattiq jarohatlanishidan ham kelib chiqishi mumkin. Bu bolalarda barcha harakat funksiyasini shakllanishida susayish va buzilishlar kuzatiladi. Boshni ushlash, o'tirish, turish funksiyalari qiyinchilik bilan yoki kechikib shakllanadi. Bolalar Serebral falajida harakatni buzilishi asosiy nuqson hisoblanib, u o'ziga xos motor anamaliyani rivojlanishini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida bola asab-psixik funksiyasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar serebral falajida harakat sohasini buzilishi turli darajada namoyon bo'ladi: harakatning buzilishi shunday og'ir bo'lishi mumkinki, u bolaning erkin harakat qilishidan butunlay mahrum qiladi, muskullarning tonusi deyarli zarar ko'rmagan taqdirda ham bolalar o'z - o'ziga xizmat qilish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar.

Bu nuqsonga ega bolalarda faqat harakat qilishdagi qiyinchiliklar muammo tug'dirmaydi, balki ularda to'g'ri harakat qilishi haqidagi tasavvurlarni yo'qligi hamda shakllanmaganligi namoyon bo'ladi. Bolalardagi harakat buzilishlari o'z - o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini egallanishini murakkabligi, ularni atrofdagi kattalarga qaram qilib qo'yadi. Bu ularda passivlikni, tashabbus ko'rsatmaslikni shakllantirib, motivatsion va irodaviy sohani buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, harakat buzilishlari bolaning psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Harakatning buzilish darajasidan qat'iy nazar bu bolalarda hissiy-irodaviy soha, xulq, intellekt, eshitish va ko'rishizdan chiqqan bo'lib, talvasa sindromi kuzatiladi. Bunday bolalarning ko'pchiligida aqliy mehnat qilishi buzilgan bo'lib, ular tez charchab qoladilar. Biror-bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bajarilayotganda ular bo'shashadilar yoki tez jahllari chiqadi va berilgan topshiriqlarni qiyinchilik bilan bajaradilar. Ba'zi bolalarda charchash oqibatida harakatida bezovtalik paydo bo'ladi. Bola o'z icha har xil harakatlar qiladi, turli imo - ishoralarni ko'rsatadilar, solagi oqadi. Bolalarning ixtiyoriy faoliyatida tartiblikka erishish katta qiyinchilik tug'diradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Ko‘pgina bolalar taassurotlarga beriluvchan, boshqalar tez xafa bo‘ladi, ovoz toniga, tanbehga yomon reaksiya qiladilar ularda qo‘rquv, siydik tuta olmaslik, qayd qilish va boshqa buzilishlar kuzatiladi.

Bolalar serebral falaji klinikasida nutq buzilishi asosiy o‘rinni egallaydi. Bolalar serebral falajida nutq buzilishi chastotasi 80 % ni tashkil etadi. Nutq buzilishlarining o‘ziga xos tomonlari miyani qay darajada zararlanishiga qarab belgilanadi. Serebral falajga ega bolalarda ba’zi miya sohasidagi zararlanish bilan birga bosh miya po‘s tloq qismining buzilishlarini ikkilamchi rivojlanmaganligi yoki kech shakllanganligi ham namoyon bo‘ladi. Bu miyaning ontagenetik tomondan yosh bo‘lgan bo‘limlari bo‘lib, u insondagi psixik va nutq faoliyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Bolalar serebral falajida nutqni kech rivojlanishiga sabab, miyaning po‘stloq bo‘limlarini sekin shakllanishigagina emas, balki ularda amaliy faoliyatni yetarli em asligi, atrof - muhit haqida bilim va tasavvurlarni yetishmasligidir. Tarbiyaning noto‘g‘ri kechishi nutq rivojlanishini orqada qolishini murakkablashtiradi. Bu bolalar hayotining birinchi yillarida turli davolash muassasalarida bo‘ladilar, agarda u yerda pedagogik ishga yaxshi ahamiyat berilmasa bolaning nutqiy rivojlanishi kechikishi mumkin. Bundan tashqari, bolalarning onasidan uzoqda bo‘lishi salbiy emotsional holat, yangi muhitga o‘rgata olmaslik nutq rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uy sharoitida kattalar bolani juda avaylab hamma majburiyatni o‘z zimmalariga oladilar. Bu bolalarda faoliyat va nutqiy muloqotga bo‘lgan talabni shakllantirmay qo‘yadi. Bolalar Serebral falajida nutq buzilishlari patogenezida harakat patologiyasi muhim o‘rin tutadi. Bu bolalar bilan logopedik ishni tashkil qilishda nutq va harakat buzilishlarini klinik va patogenetik umumiyligini tushunish ahamiyatli hisoblanadi.

Bolalar serebral falajida motorikani buzilishini o‘ziga xos tomonlari bu ixtiyoriy harakatlarni shakllanmaganligi emas, balki sodda tug‘ma harakat avtomatizmlarini saqlanib qolganligidir. Normal rivojlanishda bu reflekslar bolaning ikki oyligida paydo bo‘ladi.

Tonik labirint refleksni namoyon bo‘lishi bolaning bel sohasidagi bukuluvchi muskullaming tonusi oshmaganligida ko‘rinadi. Uning boshi orqaga egilib bo‘yin va artikulatsion muskullar taranglashgan, oyoq va qo‘llarch o‘zilgan holda bo‘ladi, bunday bola boshini ko‘tara olmaydi yoki qiyinchilik bilan bajaradi, o‘girila olmaydi. Qorin bilan yotganda bukuluvchi muskullar tonusda bo‘ladi, shuning uchun u boshini ko‘tara olmaydi.

Simmetrik bo‘yin tonik refleksini namoyon bo‘lishida muskul tonusi bolaning boshini joylashishiga qarab o‘zgarib turadi. Assimetrik bo‘yin tonik refleksi boshni bir tomonga o‘girganda o‘sha tomondagi qo‘l va oyoqni to‘grilovchi muskul tonusi oshishi bilan namoyon bo‘ladi. Bunday bolalar bilan logopedik ish o‘tkazilganda tonik refleks artikulatsion apparatning muskul tonusiga ta’sir o‘tkazishini hisobga olish zarur.

Tonik labirint refleks til ildizini muskullarini tonusini oshiradi.

Simmetrik tonik refleksida tilni uchi va yon muskullari tonusi oshadi. Bunda ovoz hosil bo‘lishi, nafas olish, og'izni ixtiyoriy ochish, tilni oldinga va yuqoriga harakatlantirish qiyin kechadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Assimetrik bo‘yin tonik refleksida nutq muskulaturasida tonus oshadi, tonus bolani boshini o‘girayotgan tomonga qarama — qarshi ravishda oshadi.

Bolalar serebral falajida artikulatsion matorikani buzilishini o‘ziga xos tomonlaridan biri og‘iz avtomatizmi bilan bog‘liq tug‘ma reflekslarni qayta rivojlanishidagi to‘xtab qolishdir: bular so‘rish, yutish reflekslari, tishlash va boshqalar. Bu reflekslarni namoyon bo‘lishi ixtiyoriy artikulatsion harakatlarni rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Nutq-harakat analizatorlarining organik zararlanishi nutq tovushlarini artikulatsiya qilishni buzilishiga, ovozni, nafasni, nutq tempi va ritmi uning intonatsiyasini izdan chiqishiga olib keladi. Fonetika-fonematik buzilishlar yetakchi hisoblanadi. Bular bolalar Serebral falajida dizartriyani o‘ziga xosligi, bu uni nutq muskullariga tonik reflekslar orqali ta’sir etishda namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘tkaziladigan logopedik ishni o‘ziga xos ravishda o'tkazishni talab etadi.

Logopedik ish bolani shunday holatida o‘tkaziladiki, tonik reflekslar nutq matorikasiga deyarli ta’sir o‘tkazmasin. Bu holat logoped va nevropatolog ham korligini talab etadi. Agarda bola logopedik mashg‘ulot o‘tilayotganda o‘tirgan holat bo‘lsa diqqatni uni boshini harakatiga qaratish zarur: bosh ko‘krakka tushib ketmasligi, atrofga qiyshaymasligi, orqaga ham ketib qolmasdan o‘rta chiziqda turishi zarur. Zarur hollarda bosh maxsus apparat yordamida ushlab turiladi. Mashg'ulot o‘tkazilayotganda oyna va logopedning yuzi bola ko‘zi chizigida joylashishi zarur.

Bola uchun zarur holat tanlangandan so‘ng massajga so‘ngra artikulatsion muskula tura gimnastikasiga o‘tiladi. Bolalar Serebral falajidagi dizartriyaning o‘ziga xos tomonlari bu umumiy va nutqiy motorikani bo‘zilishi, dizartriyani turli shakllarini, bolalar Serebral falajini ma'lum bir shakllari bilan bog‘liqligidir. Ishni tayyorlov davrida umumiy muskullarni bo‘shashtirish va nutq muskulaturasidagi tonusni kamaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Spastik diplegiyada psevdobulbar dizartriya 80%, gemiparitik shaklida esa kasallarning uchdan bir qismida (30-35%) kuzatiladi.

Bolalar serebral falajining giperkinetik darajasi miyaning qobiq osti bo‘limlarining jarohatlanishi bilan bog‘liqdir. Umumiy va artikulatsion motorikasidagi buzilishlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: muskul tonusining o‘zgaruvchanligi (distoniya), harakatlarning ixtiyorsizligi, harakat va nutq aktidagi hissiyotning yo‘qligi. Nutqning prosodik tomonlarida kamchiliklarni yaqqol namoyon bo‘lishi. Harakat motorikasidagi kabi nutq motorikasida ham kerakli holatlarni ushlab tura olish buzilgan bo‘ladi. Harakatdagi kam chiliklaridagi va nutq harakati artikulatsion, nafas muskulaturasida, halqum paylariga tarqaluvchi tonik spazmalar hisobiga qiyinlashishi mumkin.

BSFning geperkinetik shaklida (ekspiramid) ekstra piramid, yoki bosh qacha qilib aytganda qobiqosti dizartriya kuzatilishi mumkin. BSFning giperkinetik shakli uchun ko‘p hollarda kuzatiladigan (5 dan 20% gacha) eshitish qobiliyatining susayishi xarakterlidir.

BSFning atonik – ataktik shaklida miyachaning va uning miyaning boshqa tizimlari bilan bog‘liq bo‘lgan joylari, ayniqsa katta yarim sharlarning peshana bo‘limlarining jarohatlanishi kuzatiladi. Umumiy va artiqulyatsion motorikaning buzilganligi muskul tonusining sustligi, harakatlar aniqliligining yo‘qolganligi, ritmining buzilganligida namoyon

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

bo‘ladi. BSFning bu shaklida miyachalid izartriya kuzatiladi. Uning chistotasi 70 -75%ni tashkil etadi.

BSFning eng og‘ir shakli ikki tomonlama gemiplegiya hisoblanadi. Bunda katta yarim shakllarning jarohatlanishi kuzatiladi. Bunda oyoq va qo‘llar harakati, ko‘proq qo‘llar harakati buzilgan bo‘ladi. Bolalarda statik va lokomotor funksiyalar yo‘q bo‘ladi. Nutq buzilishlari psevdobulbar dizartriyaning og‘ir ko‘rinishida, ba’zan anartriya ko‘rnishida, ba’zi hollarda esa bulbar buzilishlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Ayrim hollarda bolaning o‘zida BSFning turli shakllarining birgalikda kelishini kuzatish mumkin. Bunday hollarda dizatriyaning aralash shakllarini kuzatish mumkin. Logoped nevropatolog bilan birgalikda nutqiy nuqsonning boshlovchi turini aniqlab olish zarurdir.

- **Shaxsiy Kompetentsiyalar**: Shaxsiy kompetentsiyalar o‘zini anglash, axloqiy qadriyatlar va madaniy tushunchalarni qamrab oladi. Prensky (2001) va boshqa ta’lim psixologlari EATRda reflektiv amaliyotlarning bu kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun muhimligini ta’kidlaydi. Raqamli jurnallar, axloqiy dilemmlar va madaniy holatlarni o‘rganish talabalar shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

UTFni samarali ravishda EATRga integratsiya qilish uchun bir qancha pedagogik yondashuvlar mavjud. Masalan, tadqiqotga asoslangan o‘qitish talabalarni mustaqil ravishda bilimlarni izlash va qamrab olishga undaydi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi (Hmelo-Silver, Duncan & Chinn, 2007). Raqamli ta’limda keng qo‘llaniladigan muammo asosidagi o‘qitish (PBL) kognitiv va boshqaruv ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Barrows, 1986).

Hamkorlikka asoslangan o‘qitish modellarining EATR doirasida kommunikativ va shaxsiy kompetentsiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘p marotaba ta’kidlangan. Dillenbourg (1999) ga ko‘ra, hamkorlik faoliyatlari muloqot, muhokama va tengdoshlarning yordamini mustahkamlash orqali ta’lim va shaxslararo ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuningdek, gamifikatsiya elementlarining motivatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishni kuchaytirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi (Deterding va boshq., 2011).

UTFni EATRga integratsiya qilishning potentsial foydasiga qaramay, adabiyotlarda bir qator muammolar keltirilgan. Bosh muammolardan biri EATR asosidagi UTFni samarali amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash zaruratidir. Koehler va Mishra (2009) TPACK (Texnologik Pedagogik Kontent Bilimi) o‘qituvchilarga UTF tamoyillariga muvofiq EATR yaratish, baholash va qo‘llash uchun zarur ekanligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, adabiyotlarda imkoniyatlar tengligi va inklyuzivlik masalalari ham ko‘tarilgan. Seale (2006) EATRda universal dizayn tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi va resurslarning turli o‘quv uslublari, qobiliyatlari va madaniy kelib chiqishlarga mos bo‘lishini ta’kidlaydi. UTF rivojlanishini o‘lchash uchun standartlashtirilgan baholash vositalarining yo‘qligi tadqiqotlarda bo‘shliq sifatida qayd etilgan, chunki an’anaviy baholash usullari o‘z-o‘zini boshqarish va hamkorlik kabi kompetentsiyalarni etarlicha o‘lchay olmaydi.

Universal Ta’lim Faoliyatlarini (UTF) Elektron Axborot Ta’lim Resurslariga (EATR)

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

integratsiya qilish zamonaviy ta’limda transformatsion o‘zgarishlarni namoyon etib, akademik bilimlar bilan birga har tomonlama ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. UTF — kognitiv, boshqaruv, kommunikativ va shaxsiy kompetentsiyalarni raqamli resurslarga qo‘llash orqali o‘qituvchilar talabalarni murakkab vaziyatlarga tayyorlaydigan chuqur va moslashuvchan o‘quv muhiti yaratishlari mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari UTF tamoyillari asosida yaratilgan EATR tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini boshqarish, hamkorlik va shaxsiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlab, talabalarda moslashuvchan, umrbod o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlaydi.

Pedagogik ramkalar va strategiyalarni ko‘rib chiqish UTF yo‘nalishidagi EATR talabalarning ishtiyoqi, motivatsiyasi va umuman ta’lim natijalarini yaxshilashga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Biroq, ushbu resurslarni samarali joriy etish moslashuvchanlik, interfaollik va fikr-mulohaza mexanizmlariga e’tibor berishni talab etadi, bu esa o‘quv jarayonini mazmunli va hamma uchun ochiq qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni tayyorlash, resurslardan foydalanish imkoniyatlari va mos baholash usullari bilan bog‘liq muammolar doimiy kasbiy rivojlanish, infratuzilma qo‘llab-quvvatlovi va tadqiqotlarning zarurligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, UTFni EATRga muvaffaqiyatli integratsiya qilish raqamli ta’lim muhiti orqali keng qamrovli ta’lim maqsadlariga erishish yo‘lini ochadi. Kelgusidagi tadqiqotlar UTF natijalarini EATRda o‘lchash uchun standartlashtirilgan vositalarni yaratishga, o‘qituvchilarni tayyorlashning innovatsion yondashuvlarini o‘rganishga va barcha o‘quvchilar uchun ochiq va teng imkoniyatli resurslarni ta’minlashga yo‘naltirilishi lozim. Ushbu sohalarni rivojlantirish orqali ta’lim muassasalari raqamli resurslardan samarali foydalanib, kelajak uchun tayyorlangan har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. Allyn & Bacon.
2. Azevedo, R., & Cromley, J. G. (2004). Does training on self-regulated learning facilitate students' learning with hypermedia? Journal of Educational Psychology, 96(3), 523–535. doi:10.1037/0022-0663.96.3.523
3. Barrows, H. S. (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. Medical Education, 20(6), 481–486. doi:10.1111/j.1365-2923.1986.tb01386.x
4. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning (4th ed.). Wiley.
5. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining "gamification". Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 9–15. doi:10.1145/2181037.2181040

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

6. Dillenbourg, P. (Ed.). (1999). Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches. Pergamon.
7. Garrison, D. R., Anderson, T., & Archer, W. (2001). Critical thinking, cognitive presence, and computer conferencing in distance education. American Journal of Distance Education, 15(1), 7–23. doi:10.1080/08923640109527071

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nishonova Muattar Alisherovna**, o'qituvchi, [**Нишонова Муаттар Алишеровна,** преподаватель], [**Muattar A. Nishonova,** teacher]; manzil: Andijon viloyati, Andijon shahri, Do'stlik ko'chasi, 4-uy, [адресс: Андижанская область, город Андижан, улица Достлик, 4 дом,], [address: Andijan region, Andijan city, Do'stlik street, house 4]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

XXI ASR GEOGRAFIYASINI O‘QITISH VA O‘RGANISH NAZARIYALARI

© O.I. Orifjonova[1]✉
[1]O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada XXI asrda geografiya fanini o‘qitish va o‘rganishning zamonaviy nazariyalari, usullari va pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi – xxi asr talablari va sharoitlariga mos ravishda geografiyani o‘qitish va o‘rganishni takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni aniqlash va ularning afzalliklarini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda adabiyotlar tahlili, o‘qituvchilar va talabalarning fikrlarini o‘rganishga asoslangan so‘rovnoma hamda pedagogik eksperimentlar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar XXI asrda geografiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlarning ahamiyatini ko‘rsatdi. talabalarning e’tiborini jalb qilishda o‘quv jarayonini geoinformatsion tizimlar, virtual xaritalar va onlayn resurslar bilan boyitish ijobiy natijalar bergani aniqlandi.

XULOSA: tadqiqot natijalari geografiyani o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni keng qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: geografiya ta’limi, XXI asr ta’limi, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, geoinformatsion tizimlar, ekologik masalalar, integratsiyalashgan yondashuv.

Iqtibos uchun: Orifjonova.I.O. XXI asr geografiyasini o`qitish va o`rganish nazariyalari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.170–177.

ТЕОРИИ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ ГЕОГРАФИИ XXI ВЕКА

© И.О. Орифжонова[1]✉
[1] Узбекско-Финляндский педагогический институт, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются современные теории, методы и педагогические подходы преподавания и изучения географии в 21 веке.

ЦЕЛЬ: основной целью статьи является выявление теоретических и практических подходов, направленных на совершенствование преподавания и изучения географии в соответствии с требованиями и условиями XXI века, и анализ их преимуществ.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались анализ литературы, анкетирование, основанное на изучении мнения преподавателей и студентов, педагогические эксперименты.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали важность цифровых технологий и интерактивных методов в преподавании географии в 21 веке. Установлено, что обогащение образовательного процесса геоинформационными системами, виртуальными картами и онлайн-ресурсами в привлечении внимания учащихся дало положительные результаты.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали необходимость широкого использования современных технологий и инновационных методов в преподавании географии.

Ключевые слова: географическое образование, образование XXI века, цифровые технологии, интерактивные методы, геоинформационные системы, проблемы экологии, комплексный подход.

Для цитирования: Орифжонова И.О.Теории преподавания и изучения географии XXI века.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 170–177.

THEORIES OF TEACHING AND LEARNING GEOGRAPHY OF THE 21ST CENTURY

© Iroda O. Orifjonova[1]✉
[1]Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Samarqand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes modern theories, methods and pedagogical approaches to teaching and learning geography in the 21st century.

AIM: the main purpose of the article is to identify theoretical and practical approaches aimed at improving the teaching and learning of geography in accordance with the requirements and conditions of the 21st century and analyze their advantages.

MATERIALS AND METHODS: the study used a literature review, a questionnaire based on the study of the opinions of teachers and students, and pedagogical experiments.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed the importance of digital technologies and interactive methods in teaching geography in the 21st century. It was found that enriching the educational process with geoinformation systems, virtual maps and online resources gave positive results in attracting students' attention.

CONCLUSION: the results of the study showed the need for the widespread use of modern technologies and innovative methods in teaching geography.

Keywords: geography education, 21st century education, digital technologies, interactive methods, geoinformation systems, environmental issues, integrated approach.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Iroda O. Orifjonova. (2024) 'Theories of teaching and learning geography of the 21st century', Inter education & global study, (8(1)), pp. 170–177. (In Uzbek).

XXI asr ko'nikmalarini geografiyani o'qitish va o'rganishda rivojlantirish juda muhimdir. XXI asrda o'qitish va o'rganish deganda zamonaviy dunyo oqimiga mos ravishda muloqot, tanqidiy fikrlash, kreativlik va hamkorlik qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga, shuningdek, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim usullaridan foydalanishga urg'u beradigan ta'limning yangi yondashuvlari tushuniladi. 21-asrning geografiya fanini o'qitish va o'rganishdagi muhim ko'nikmalari qatorida o'qituvchilarning geografik muammolarni tahlil qilish va echishga e'tibor qaratish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarurati hisoblanadi. O'quvchilar berilgan ma'lumotlardan foydalangan holda geografik muammolarni baholash va echishni o'rganishlari kerak. Bundan tashqari, hamkorlik ko'nikmalari geografiyani o'qitish va o'rganishda muhim ahamiyatga ega, bu erda o'quvchilar umumiy maqsadlarga erishish uchun hamkorlik qilishlari kerak. O'qituvchilar ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun birgalikdagi guruh faoliyatini yoki loyihalarini amalga oshirishlari mumkin. 21-asrda o'qitish va o'rganish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda samarali etkazishga o'rgatiladi. O'qituvchilar o'z g'oyalarini tengdoshlari va o'qituvchilari bilan baham ko'rishni talab qiladigan loyiha yoki faoliyatga asoslangan ta'lim orqali o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. 21-asr geografiyasini o'qitish va o'rganish o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish uchun juda muhimdir, chunki ba'zi o'quvchilar geografiyadagi tushunchalarni tushunish qiyin deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, geografiya ko'pincha zerikarli deb hisoblanadi, chunki u juda mavhum, xaritalarni o'qish va turli hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu sababli, geografiyani o'qitish va o'rganish bo'yicha XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'quvchilar kelajakdagi hayotlari va martabalari uchun muhim ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

Quyida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish va geografiya darslarini amaliyotga bog'lab o'tishga yordam beruvchi ayrim ta'lim nazariyalari va yondoshuvlarga to'xtalamiz.

Kognitivizm va konstruktivizm. Bu yondashuvlar o'quvchilarning qanday fikrlashi va ma'lumotni qayta ishlashlari bilan bog'liq. Ayniqsa, Piagetning ishiga asoslanib, konstruktivizm ongni tushunchalarni ishlab chiqish va tilni egallash uchun tuzilgan deb biladi. O'rganish oldingi bilimlarni reflektiv tahlil qilish, o'ylash va ularni yangi bilimlarga bog'lash natijasida sodir bo'ladi. Biz allaqachon bilgan narsamiz orqali o'rganamiz. Konstruktivizm individual tajribalarning o'rganishga qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratadi va o'quvchilarning turli nuqtai nazarlari yangi bilimlarga turli yo'llar bilan yondashishlarini anglatishini ta'kidlaydi. Bilimni bizga "tayyor" qilib berib bo'lmaydi; o'quvchi faol ishtirok etishi kerak. Geografiya darslarida o'quvchilarga yangi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ma’lumotlarni o‘rganish va ularni allaqachon bilganlari bilan bog‘lash uchun imkoniyat va vaqt berilishi kerak. Ular o‘quv faoliyati orqali geografik bilimlarni qurishda kognitiv tarzda shug‘ullanishlari kerak.

Ijtimoiy konstruktivizm. Ijtimoiy konstruktivizm bilimni ijtimoiy jihatdan qurilgan va o‘rganishni mohiyatan ijtimoiy, hamkorlikdagi jarayon sifatida ko‘radi. O‘rganish ijtimoiy o‘zaro ta’sir va tildan foydalanishning umumiy tajribasi orqali sodir bo‘ladi. O‘qituvchilar allaqachon ma’lum bo‘lgan va bajarilishi mumkin bo‘lgan va yangi, notanish va o‘rganilishi kerak bo‘lgan narsalar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga mo‘ljallangan vazifalar va tadbirlar orqali o‘quvchilarni rivojlantirishga rahbarlik qilishlari kerak.

Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga mos keladigan pedagogik amaliyotlar o‘quvchi-o‘qituvchi yoki o‘quvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi, masalan, kichik guruh, juftlik va butun sinf interfaol ish, yuqori darajadagi savollar, o‘qituvchilarni modellashtirish va hamkorlikda o‘rganish. Ijtimoiy konstruktivistlar, barcha o‘quvchilarning sinfga olib keladigan o‘zlarining shaxsiy geografiyalari borligiga ishonishadi. O‘quvchilarga geografiya bilimlari ma’lum bir davrda va ma’lum joylarda odamlar tomonidan yaratilganligidan xabardor bo‘lishi kerak.

Jerom Bruner (Spiralsimon o‘qitish nazariyasi). Psixolog Bruner, ma’lumotni murakkab g‘oyalarni avval soddalashtirilgan darajada o‘rgatish, keyin esa murakkabroq darajalarda qayta ko‘rib chiqish uchun tuzilishi kerak, deb hisoblardi. Bu spiralsimon o‘quv dasturi sifatida tanilgan. O‘rganishda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini qayta ko‘rib chiqish, mustahkamlash va takomillashtirishni rejalashtirishlari kerak.

Bruner, shuningdek, o‘qituvchilar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini hurmat qilishlari kerak deb hisoblaydi. U o‘rganishning “kashfiyot usuli” asosida o‘quv kursini ishlab chiqdi. Bruner o‘quvchilarga savollar tug‘diradigan va muhokamalarga sabab bo‘ladigan tadbirlarni rejalashtirdi. U dalil manbalaridan foydalangan holda, ochiq munozaralarda qatnashish va o‘rganganlari haqida mulohaza yuritishga o‘quvchilarni yo‘naltiradi. U o‘qituvchini “avtoritet” emas, balki manba sifatida ko‘rdi. Yaxshi o‘qituvchi o‘quvchilarga turli xil ma’lumotlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashga yordam beradigan darslarni ishlab chiqadi.

Bu geografiyani o‘rganish uchun qanchalik muhim?

1. Darslar ketma-ketligi va geografiya o‘quv dasturi spiral o‘quv rejasini hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak. O‘quvchilar vaqt o‘tishi bilan geografiyaning asosiy jihatlarini qayta ko‘rib chiqishlari kerak, ular o‘z tushunchalarini asta-sekin yuqori darajada rivojlantirishlari kerak, masalan, xarita ko‘nikmalarini o‘rganish va fizik jarayonlarni tushunish.

2. Bruner faktlarni yodlashdan ko‘ra asosiy tushunchalarni tushunish va qo‘llashga yo‘naltirilgan tadqiqot tushunchasini kiritdi. Bu geografik tadqiqotning asosidir.

Lev Vygotskiy (proksimal rivojlanish zonasi). Vygotskiy o‘quvchilarning boshqalar yordamisiz nima qila olishi va yordami bilan nima qila olishi o‘rtasidagi farqni aniqladi, bu *proksimal rivojlanish zonasi* deb ataladi. Bu ijtimoiy konstruktivizmda muhim

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

g‘oya. Agar o‘quvchilarga ma’lum darajada yordam berilsa, ularga konseptual fikrlashni rivojlantirishga yordam berish mumkin va ular yuqori darajaga erishadilar. Bu iskala o‘rganish uchun asosdir. Agar vazifa ularning proksimal rivojlanish zonasidan tashqarida bo‘lsa, bir qancha urinishlarga qaramasdan natija samrali bo‘lmasligi mumkin.

Vygotskiy tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni ko‘nikma va strategiyalarni rivojlantirishning samarali usuli sifatida ko‘rdi. U o‘qituvchilarga proksimal rivojlanish zonasida faol, bilimli o‘quvchilar yordamida kam malakali bolalarni ham hamkorlikda o‘quv mashqlaridan foydalanish orqali rivojlantirish mumkinligini taklif qildi.

Bu geografiyani o‘rganish uchun qanchalik muhim?

Geografiya mashg‘ulotlarini rejalashtirishda o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan muammolar o‘zgalar yordamisiz qila oladigan vazifalardan iborat bo‘lmasligi kerak. O‘quvchilar o‘rganishga yordam berish uchun o‘qituvchining aralashuviga va ularning yordamiga muhtoj - bu ko‘pincha *iskala* deb ta’riflanadi.

“Iskala qurish” Vygotskiyning o‘quvchilarga o‘zlari hal qila olmaydigan muammolarni hal qilishlari uchun “yengil yordam” berilishi kerak degan g‘oyalariga asoslanadi. Geografiyada bu o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savol berish, taklif qilish, xatolarini yo‘l ko‘rsatish orqali to‘g‘rilab borish demakdir – shunda o‘quvchilar o‘zlari muammoning echimiga javob topishlari mumkin. Bu ularga ularga tayyor ma’lumotni berishni anglatmaydi!

Iskaladan unumli foydalanish uchun o‘qituvchi o‘quvchining qobiliyatlari va mavjud bilim darajasi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarga yuqori darajadagi tushunishga imkon beradi.

Vygotskiy biz o‘quvchilarga tildan foydalanish, ayniqsa nutq, fikrlarini shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etishimiz kerak deb hisoblardi. Keyinchalik Barns tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o‘quvchilar “umumiy bilim”ni shakllantirish uchun sinfda nutq orqali qanday fikr almashishlarini ko‘rsatdi. Merser fikriga ko‘ra *tadqiqot nutqi* muhim ahamiyatga ega, bu erda o‘quvchilar bir-birining g‘oyalari bilan tanqidiy, lekin konstruktiv tarzda tanishadilar, muhokama qiladilar.

Bu geografiyani o‘rganish uchun qanchalik muhim?

Tildan foydalanish - gapirish, yozish, o‘qish va tinglash - geografiya fanidan o‘quvchilarning fikrlash va o‘rganishini rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. Savodxonlik - bu mavzu bo‘yicha bilim va tushunchalarni rivojlantirish vositasi, chunki u o‘quvchilarga fikrlarni shakllantirish, dalillarni asoslash va ma’lumotlarni saralashga yordam beradi. Geografiya o‘qituvchilari o‘quvchilarga munozara va yozish orqali fikrlashni shakllantirish uchun tildan foydalanish imkoniyatini berishlari kerak. Ular barcha o‘quvchilarni faol jalb etadigan maqsadli, kichik guruhlardagi munozaralardan unumli foydalanishlari kerak, shunda ular ham gapirish, ham yozish orqali fikrlarini aniqlashtirishlari va rivojlantirishlari mumkin. Ular geografiya darslarida munozaralarda taxminiy va izlanuvchan bo‘lishga undashlari kerak va har doim ham “to‘g‘ri” javob berishga intilmasliklari kerak. Og‘zaki va yozma tilning shaxsiy va ekspressiv shakllari o‘quvchilar geografiyada nimani his

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

qilishlari, ishonishlari va o‘ylashlarini ochib beradi va o‘qituvchiga ularni tushunish uchun muhim tushunchalarni beradi.

Benjamin Bloom (o‘rganishning uch domeni va Bloom taksonomiyasi). Bloom o‘rganish nazariyasiga ikkita asosiy g‘oyani qo‘shgan. U o‘rganishning uchta “domeni” va Bloom taksonomiyasini ishlab chiqdi.

Bloom o‘rganish maqsadlarini 3 ta asosiy domen bo‘yicha tasniflab beradi:

1. Kognitiv (Bilish) domeni: Bu domen o‘rganuvchining bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish kabi oliy aqliy faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bilish domeni o‘rganish maqsadlarining 6 ta bosqichini (eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish) qamrab oladi. Kognitiv domen o‘quvchining ma’lumotlar, tushunchalar, g'oyalarni qabul qilish va ularni qayta ishlash qobiliyatini o‘lchaydi.

2. Affektiv (his-tuyg‘u) domeni: Bu domen o‘rganuvchining hissiyotlari, qadriyatlari, motivatsiyasi, motivlar, emotsional reaksiyalari va munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Affektiv domen o‘rganish maqsadlarini qabul qilish, javob berish, qadriyatlarni qaror toptirishni, tashkil etish va xarakter qilish kabi bosqichlarga ajratadi. Affektiv domen o‘quvchining his-tuyg‘ularini, motivatsiyasini va qiziqishlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

3. Psixomotorik (harakatlar) domeni: Bu domen o‘rganuvchining jismoniy ko‘nikmalar, harakatlar va mahoratlarini o‘z ichiga oladi. Psixomotorik domen o‘rganish maqsadlarini qabul qilish, yo‘nalish, moslashtirish, mexanizatsiya va takomillashtirish kabi bosqichlarga ajratadi. Psixomotorik domen o‘quvchining jismoniy ko‘nikmalarini, harakatlarini, sezgi-harakatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan. Bloomning ushbu 3 ta domeni o‘rganish jarayonini yaxlit tarzda qamrab oladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu domenlar bir-biri bilan uzviy bog’liq holda rivojlantiriladi.

U shuningdek, ta’limni tizimlashtirish va baholashda asosiy vositaga aylangan ta’lim maqsadlarining Bloom taksonomiyasini (klassifikatsiyasi) ishlab chiqdi. U topshiriqlarda kognitiv qiyinchiliklar darajasini tasniflash va baholashni yanada aniqroq muhokama qilish uchun vosita sifatida yaratilgan. Shuningdek, u tushunchalar, jarayonlar, protseduralar va tamoyillarni tahlil qilish va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu kontseptual taksonomiya ierarxiya sifatida taqdim etilgan, ya’ni yuqori darajadagi o‘rganish quyi darajalarga erishishga bog‘liq; eng past daraja faktlarni eslab qolishni talab qiladi. Eng past daraja - bu faktlarni yodlash va qayta tiklash (esda saqlash) va ularni eslab qolish. Mazmunni tushunish va tushuntirish, muammoni o‘z so‘zlari bilan tasvirlay olish keyingi bosqich bo‘lib, undan keyin qo‘llash, ya’ni tushunchani yangi vaziyatda qo‘llash qobiliyati.


To‘rtinchi daraja - bu g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish uchun tahlil va beshinchi daraja - sintez - bir butunni hosil qilish uchun qismlarni birlashtirish, yangi nazariya yaratish. so‘ngi bosqich, baholash g‘oyalar yoki materialning qiymati to‘g‘risida xulosa chiqarishni o‘z ichiga oladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Bu geografiyani o‘rganish uchun qanchalik muhim?

Geografiyada oddiy sabab va oqibat bo‘lgan bir nechta tushuntirishlar mavjud. Ko‘pincha tushuntirishlar murakkab bo‘lib, bilim va tushunishning turli jihatlarini sintez qilishni talab qiladi. Geografik o‘rganish yangi ma’lumotlarni turli kontekstlarga qo‘llashni o‘z ichiga oladi, tahlil va tushunishni talab qiladi. Baholash - bu dalil va g‘oyalarni ko‘rib chiqishda geografiyada muhim bo‘lgan yana bir yuqori darajadagi fikrlash qobiliyati. Bloomning g‘oyalari o‘qituvchilar tomonidan ortib borayotgan kognitiv talablar bilan geografiya maqsadlarini aniqlashda keng qo‘llaniladi, chunki u yuqori darajadagi fikrlash shunchaki eslash yoki tushunishdan ko‘ra ko‘proq narsani talab qilishini ko‘rsatadi.

Kolb va tajribaviy o‘rganish. Kolb konstruktivistik g‘oyalar asosida ishlab chiqilgan va Kolb tajriba asosida o‘rganish tsikli deb nomlangan modelni yaratdi. David A. Kolb tomonidan taklif etilgan “Tajriba asosidagi o‘rganish” sikli (Experiential Learning Cycle) o‘rganish jarayonini to‘rt asosiy bosqichda tasvirlab beradi (1-rasm):



1-rasm. Kolb o‘rganish sikli

U g‘oyalar tajriba orqali shakllanadi deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, o‘rganish - bu jarayon va mavhum tushunchalar bilan bog‘langanda, aniq tajribalar, reflektiv kuzatish va mavhum kontsepsiyalash orqali amalga oshiriladi. Kolb uchun yakuniy bosqich uni qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rish uchun faol tajribadir. Kolb o‘rganishni “tajribani o‘zgartirish orqali bilimlarni yaratish jarayoni” deb ta’riflaydi.

Bu geografiyani o‘rganish uchun qanchalik muhim?

Kolb modeli ko‘proq geografiyada amaliy ishlarda qo‘llaniladi, bunda o‘quvchilar bilim olish uchun nima qilishlarini amalda bajarib ko‘rish imkoniyatiga ega. Kolb sikli odatda sinf amaliyotlariga moslashtiriladi, chunki o‘quvchilar o‘zlari tekshiradigan mavhum nazariyalarni o‘rganish asosida faol tajribada sinab ko‘rishadi.

Amaliy ishlarda qatnashish Kolbning fikricha o‘quvchilar buni shunchaki tomosha qilish yoki o‘qish orqali o‘rganish mumkin emas, ular buni amalga oshirishlari kerak. Shuning uchun ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha aniq tajriba muhim ahamiyatga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ega. Nihoyat, o‘quvchilar o‘rganganlarini bajarish va qayta ko‘rib chiqishdan keyin fikr yuritadilar. Kolbning ta’kidlashicha, bu aniq misollarni mavhum tushunchalar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarga yangi g‘oyalarni tushunishga yordam beradi. U shuningdek, faol eksperiment va mulohazalarni rejalashtirish o‘quvchilarning tushunchasi-ni o‘zgartiradi deb ta’kidlaydi. Geografik so‘rovlarni o‘tkazishda o‘quvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri geograflar kabi asosiy savolga javob izlash, buning uchun ma’lumotni tushunish va xulosa chiqarish uchun ishlashni amalda bajaradilar. Ushbu faoliyatning barchasida tajribani reflektiv tahlil qilish va undan o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan yondoshuv va nazariyalar asosida bugungi dunyo ta’limi talabi bo‘yicha o‘quvchilar geografiya darslarida tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki o‘z bilimlarining; kuzatishlar, izlanishlar, tadqiqotlar o‘tkazish orqali, hamkorlikda jamoada ishlash orqali quruvchilari bo‘ladi. Bu yondoshuv va nazariyalar asosida geografiya darslarini tashkil qilish o‘quvchilarni kelajakka tayyorlash, ularni o`zgaruvchan dunyoga moslashishlarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ularni kelajakda yuzaga keladigan ekologik muammolarni bartaraf etish, hayot uchun kurash, har qanday vaziyatga moslashishga tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Roberts M. Geography by Inquiry: Approaches to Teaching and Learning in the Secondary School, Second Edition, Sheffield: Geographical Association. 2023.
2. Bokhove C and Campbell R. “Rethinking Bloom's Taxonomy”, Impact (Chartered Teaching College). January, 2020.
3. Bustin R. “Teaching a good geography lesson” in Jones, M. (ed) Handbook of Secondary Geography, Sheffield: Geographical Association, Chapter 11, pp. 1-140. 2017.
4. Anderson L and Krathwohl D, et al (Eds.) A Taxonomy for Learning, Teaching and Assessment: Revisiting Bloom‘s Taxonomy of Learning Objectives. Allyn and Bacon. Boston, MA (Pearson Education Group). 2001.
5. Leat D. Thinking Through Geography, London: Chris Kington Publishing 1998. pp. 157-9.
6. Kolb D. Experiential Learning: Experience as a Source of Learning and Development, Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hal. 1984.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Orifjonova Iroda Orifjon qizi**, asistent, [**Орифжонова Ирода Орифжон қизи** – ассистент], [**Iroda O. Orifjonova**, assistant]; manzil: O‘zbekiston, Samarqand viloyati., Shahar:Samarqand,Spitamen shoh ko'chasi, 166-uy [Узбекистан, Самаркандская обл., Город: Самарканд, проспект Спитамен, 166], [address: Uzbekistan, Samarkand region., City: Samarkand, Spitamen avenue, 166]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

MUAMMOLI TA`LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI O`QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

© O.I. Tolipova[1]✉
[1]Qo`qon davlat pedagogika instituti, Qo`qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada muammoli ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – muammoli ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan usullarni o‘rganish va bu texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda muammoli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha adabiyotlar tahlili, o‘quv jarayonidagi muammoli vaziyatlar va ularning ijodiy tafakkurga ta’sirini kuzatish usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari muammoli ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim texnologiyalari, ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat, ta’lim motivatsiyasi, o‘quv jarayoni, noan’anaviy yondashuv.

Iqtibos uchun:Tolipova. O.I. Muammoli ta`lim texnologiyalari orqali o`quvchilarning ijodiy taffakurini rivojlantirish.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.178–183.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

© О. И.Толипова[1] ✉
[1] Кокандский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются методы развития творческого мышления учащихся через проблемные образовательные технологии и их эффективность.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучение методов, направленных на развитие творческого мышления учащихся с помощью проблемных

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

образовательных технологий, и анализ значимости этих технологий в учебном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применялись методы анализа литературы по проблемным образовательным технологиям, наблюдения за проблемными ситуациями в учебном процессе и их влияния на творческое мышление.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что проблемные образовательные технологии обладают высокой эффективностью в формировании творческого мышления у учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что развитие творческого мышления учащихся через проблемные образовательные технологии является эффективным.

Ключевые слова: проблемные образовательные технологии, творческое мышление, критическое мышление, проблемная ситуация, учебная мотивация, учебный процесс, нестандартный подход.

Для цитирования:Толипова.О.И.Развитие творческого мышления учащихся посредством проблемных образовательных технологий..// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 178–183.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE THINKING THROUGH PROBLEM-BASED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

©Ozoda I. Tolipova[1]✉
[1]Kokan State Pedagogical Institute, Kokan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes methods for developing students' creative thinking through problem-based educational technologies and their effectiveness.

AIM: the main objective of the study is to examine methods aimed at developing students' creative thinking through problem-based educational technologies and to analyze the significance of these technologies in the learning process.

MATERIALS AND METHODS: the study used literature analysis on problem-based educational technologies, observation of problem situations in the learning process, and their impact on creative thinking.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that problem-based educational technologies are highly effective in fostering creative thinking in students.

CONCLUSION: the study results confirm that developing students' creative thinking through problem-based educational technologies is effective.

Keywords: problem-based educational technologies, creative thinking, critical thinking, problem situation, educational motivation, learning process, unconventional approach.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Ozoda I. Tolipova (2024) Development of students' creative thinking through problem-based educational technologies ' media competence, (8(1)), pp. 178–183. (In Uzbek).

Muammoli ta’limning bosh maqsadi – o’quvchilarning o`rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to’liq tushunib etishiga erishish va ularni hal eta olishga o’rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo’llashda asosiy masalalardan biri o’rganilayotgan mavzu bilan bog’liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o’quv fanlari bo’yicha o’qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni echish usullarini oldindan ko’zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari: o’qituvchi o’quvchilarga dars mavzusi bilan bog’liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni echish yo’lini topishni taklif qiladi; bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi; hal etish uchun etarli bo’lmagan yoki ortiqcha ma’lumotlar bo’lgan yoki savolning qo’yilishi noto’g’ri bo’lgan masalalarni echishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:o’qituvchi muammoni qo’yadi va o’zi echadi;o’qituvchi muammoni qo’yadi va uning echimini o’quvchilar bilan birgalikda topadi; o’quvchilarning o’zlari muammoni qo’yadilar va uning echimini topadilar.

Muammoli vaziyatni echishda qo’llaniladigan usullar: muammoni turli nuqtai-nazardan o’rganish, tahlil qilish; solishtirish, umumlashtirish; faktlarni aniqlash va qiyoslash; vaziyatga bog’liq xulosalar chiqarish; o’quvchilarning o’zlari aniq savollar qo’yishi va boshqalar.

Muammoli ta’lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Grestiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo’llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo’nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta’limning asosiy g’oyasi bilimlarni o’quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo’yicha o’quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o’zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

O’zbekistonda muammoli ta’limni qo’llash bo’yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o’quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go’zal nutq tarkib toptirilgan.

Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta’lim usullaridan biri sifatida qo’llaniladi. Bunda o’quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to’g’ri so’zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o’rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o’qituvchining o’quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto’g’ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo’liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi. Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin: savol-javoblar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

orqali o'quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash; o'rganilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, o'quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo'lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi; o'quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag'batlantirish usullaridan foydalaniladi; o'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek, o'quvchidek tutib, savollar berib boradi; o'quvchining to'g'ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish; o'quvchining xato fikrlarini aniqlab boorish; o'quvchining xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o'quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o'quvchini o'z xatolarini o'zi tuzatishiga yo'naltiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo'lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat.

Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish. Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash; ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish; o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish; zarur o'quv vositalarini tayyorlash; muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish; topshiriqni va uni echish uchun etarli shartlarni aniq bayon qilish; o'quvchilarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish; o'quvchilarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin: muammoli vaziyat hosil qilish; muammoni echish taxminlarini shakllantirish; yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan echim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali). Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim: muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi; darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi. Muammo o'quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart.

Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni echish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Muammoni echish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyligi, umumlashtirilganligi, xususiylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq. Intellektual taraqqiyot darajasi o'qituvchilarda hamda o'quvchilarda qancha yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo'ladi. Shunga ko'ra o'quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, echimiga doir taxminni to'g'ri belgilash va echimning to'g'riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin: isbotlash – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi; tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi; tushuntirish – bu muammoning echimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Oguvchilarning ijodiy tafakkur va ijodiy gobiliyatlarini ostirishda muammoliy talimdan unumliy foydalanish uchun uninig ayrim nazariy asoslari sifatida B. Blumning yuqoridagi I.2.- mavzu ilovasida keltirilgan bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlar taksonomiyasi (tafakkurning bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajasi) ga hamda G. Gardnerninig intellekt kopligi nazariyasiga asoslsnish maqsadga muvofiq. Intellekt kopligi nazariyasining qisqacha bayoni quidagicha: bu nazariyani amerikalik psixolog Govard Gardner (1943 yil 11 iyulda tug`ilgan) ishlab chiqqan.

Bu nazariya har bir odam turli darajada ifodalangan kamida sakkizta tipdagi intellektga ega ekanligini ochib berdi. Ular quyidagilar: Verbal-lingvistik intellekt-so`z xotirasi, so`z boyligi yaxshi, o`qishni yaxshi ko`radi, so`z bilan ijod qilishni yoqtiradi. Bular shoir, yozuvchi, notiqlar; mantiqiy-matematik intellekt-hisoblash va sonlar bilan ishlashni, mantiqiy masalalar, boshqotirmalarni echishni, shaxmat o`ynashni yaxshi ko`radi, tengqurlariga nisbatan ko`proq abstrakt darajada fikrlaydi, sabab-oqibat bog`liqliklarini tushunadi. Bular matematik, fizik va boshqalar.

1. Vizual-fazoviy intellekt-ko`rish obrazlari bilan fikrlaydi, karta, sxema, diagrammalarni tekstga nisbatan oson o`qiydi, xayolga berilish, rasm chizish, modellar konstrukstiyalashni yaxshi ko`radi. Bular rassom, haykaltarosh, me'mor, ixtirochi, shaxmatchilar.

2. Motor-harakatli intellekt-yuqori sport natijasiga erishadi, boshqalarning harakatlari, mimikasi, odatlarini yaxshi takrorlaydi, hamma narsaga qo`l tekkizish, buyumlarni qismlarga ajratish va yig`ish, yugurish, sakrash, kurash tushishni yaxshi ko`radi. Hunarlarga qobiliyatli. Bular raqqos, mim, artist, sportchilar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

3. Musiqiy-ritmik intellekt-qo`shiqlar, kuylarni eslab qoladi, ovozi yaxshi, musiqa asbobini chaladi, xorda ashula aytadi, harakatlari va so`zlashi ritmli, o`zicha sezmasdan kuylaydi, biror ish qilayotib, stolni ritmik chertadi. Bular bastakor, musiqachi, qo`shiqchi, raqqoslar.

4. Shaxslararo intellekt-tengqurlari bilan muloqotni, boshqa bolalar bilan o`ynash va ularga o`rgatishni yaxshi ko`radi, turli holatlarda etakchi bo`lib qoladi, hamdardlikni, boshqalarga g`amxo`rlik ko`rsatishni biladi, boshqa bolalar unga sherik bo`lishga intiladilar. Bular diniy xodim, siyosatchi, diplomatlar.

5. Ichki shaxsiy intellekt-mustaqillik hissi, iroda kuchini namoyish qiladi, o`zinining yaxshi va yomon xislatlarini real anglaydi, vazifalarni hech kim xalaqit bermaganda yaxshi bajaradi, o`zini boshqara oladi, yakka ishlashni ma'qul ko`radi, o`z hissiyotlarini aniq tasvirlaydi, o`z xatolaridan ibrat oladi, o`z qadrini bilish hissi rivojlangan. Bular psixolog, o`qituvchi, tarbiyachilar.

6. Tabiatshunos intellekti-tabiatga, tabiat hodisalariga, jonivorlar, o`simliklarga qiziqadi, tabiat olamini tushunish, atrof-muhitning belgilari va xususiyatlarini farqlash, tasniflash va shu kabilarga qobiliyatini namoyon qiladi. Bular tabiatshunos, ekolog, qishloq xo`jalik xodimlari.

Ayrim bolalar o`zlaridagi eng ustun intellekt tipi orqali boshqalarga nisbatan osonroq o`qishlari mumkin. Har bir boladagi o`z vaqtida aniqlangan va rivojlantirilgan talant unga hayotda yuksak cho`qqilarga erishish uchun yo`l ochib beradi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoni bolalarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan holda tashkil etilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Tolipova, Ozoda, and Zarinabonu Mirzaliyeva. "MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI ILMIY ME'ROSINING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI." Development and innovations in science 2.12 (2023): 106-111.
2. Tolipova, Ozoda, and Alimardon Juliboyev. "MILLIY UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING TA'LIM VA MAORIF HAQIDAGI DASTLABKI QARASHLARI." Development of pedagogical technologies in modern sciences 2.12 (2023): 152-156.
3. Толипова, О.И. "Kreativlikni o'rganish va tushunishga bo'lgan yondashuvlar." Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире 1.4 (2022)

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Ozoda Tolipova Ikrom qizi**, PhD, [**Озода Толипова Икром кизи,** Ph.D.], [**Ozoda I. Tolipova**, PhD]; manzil:O'zbekiston, 150700, Farg'ona viloyati, Shahar: Qo'qon, Turon ko'chasi, 23[адрес: Узбекистан, ул.150700,Ферганская область, Город: Кокан, улица Турон, 23], [address: Uzbekistan, 150700, Uzbekistan, Fergana region, City: Kokan, Turon street, 23]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

O‘SMIR QIZLARNI SHARQONA MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

© O.O. Qo`chqarova[1]✉
[1]Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o‘smir qizlarni tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy qarashlarining ahamiyati yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi – o‘smir qizlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanishning usullarini tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini ochib berishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda adabiy manbalar va tarixiy asarlar tahlil qilindi. o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatgan mutafakkirlarning qarashlari o‘rganilib, pedagogik amaliyot bilan bog‘liq kuzatuvlar olib borildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari asosida qizlarni tarbiyalash ularda odob-axloq me’yorlarini rivojlantirish va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishda samarali natija beradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari o‘smir qizlarni tarbiyalashda sharq mutafakkirlarining qarashlarini qo‘llash axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Sharq mutafakkirlari, o‘smir qizlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, pedagogik yondashuvlar, Sharqona qarashlar.

Iqtibos uchun: Qo`chqarova O.O. O`smir qizlarni sharqona ma`naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining qarashlari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.184–190.

МНЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ВОСТОЧНЫХ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ ВОЗЗРЕНИЙ ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ

© О.О. Кучкарова[1]✉
[1]Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье подчеркивается значение духовно-нравственных воззрений восточных мыслителей в воспитании девочек-подростков.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ЦЕЛЬ: цель исследования – проанализировать методы использования взглядов восточных мыслителей в духовно-нравственном воспитании девочек-подростков и выявить их практическое значение.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы литературные источники и исторические произведения. изучены взгляды мыслителей, оказавших влияние на нравственное воспитание учащихся, и сделаны наблюдения, связанные с педагогической практикой.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что обучение девочек на основе идей восточных мыслителей дает эффективные результаты в развитии моральных норм и формировании у них чувства социальной ответственности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что применение взглядов восточных мыслителей в воспитании девочек-подростков имеет большое значение в формировании нравственных ценностей.

Ключевые слова: восточные мыслители, девочки-подростки, духовно-нравственное воспитание, нравственные ценности, педагогические подходы, восточные взгляды.

Для цитирования: Кучкарова.О.О.Взгляды восточных мыслителей на формирование восточных духовно-нравственных взглядов смирских девушек.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 184–190.

VIEWS OF ORIENTAL THINKERS IN FORMING TEENAGE GIRLS' ORIENTAL SPIRITUAL AND MORAL VIEWS

© Oysha. O. Qo‘chqarova[1]✉
[1]Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights the importance of the spiritual and moral views of Eastern thinkers in the upbringing of teenage girls.

AIM: the purpose of the study is to analyze the methods of using the views of Eastern thinkers in the spiritual and moral upbringing of teenage girls and to reveal their practical significance.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed literary sources and historical works. The views of thinkers who influenced the moral upbringing of students were studied, and observations were made related to pedagogical practice.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that educating girls based on the ideas of Eastern thinkers gives effective results in developing moral standards and forming a sense of social responsibility in them.

CONCLUSION: the results of the study showed that the application of the views of Eastern thinkers in the upbringing of teenage girls is of great importance in forming moral values.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Keywords: Eastern thinkers, teenage girls, spiritual and moral education, moral values, pedagogical approaches, Eastern views.

For citation: Oysha O. Qo`chqarova. (2024) 'The views of Eastern thinkers in the formation of Eastern spiritual and moral views of Smir girls', Inter education & global study, (8(1)), pp. 184–190. (In Uzbek).

Yoshlarning ahloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O‘zbekistonda katta e’tibor qaratilgan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma’nan etuk, barkamol avlodni va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko‘rsata oladigan ko‘ngilli, milliy g‘urur hissi ustun bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda “biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” va o‘sib kelayotgan yosh avlodni

Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan ma’suliyat yuklamoqda. Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa, albatta, maktab ta’limining o‘rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari bu borada maktab o‘qituvchilarining oldiga o‘smir qizlarda milliy xususiyatlardan bo‘lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantrish masalasiga urg‘u bermoqdalar. Kitobxonlik haqida faylasuf va tarixchining inson ruhiyatini shakllantirishdagi o‘rni haqida so‘z borar ekan, yozuvchi Frensis Bekonning quyidagi so‘zlari yodga tushadi. U “Kitoblar vaqt to‘lqinlarida kezib, o‘zining qimmatbaho yukini avloddan - avlodga tashib o‘tayotgan tafakkur kemalaridir”, - deydi. Haqiqatdan ham, kitoblar yaratilgan ilk davrlardan boshlab, to hozirgi kunga qadar, inson tafakkur dunyosini boyitish uchun beminnat xizmat qilib kelmoqda. XXI asrga kelib, jahon xalqlarining hayotida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.,” “Milliy taraqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”, “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” nomli nutq va ma’ruzalar to‘plamidan iborat bo‘lgan kitoblarida yangi sharoitda islohotlarni izchillik bilan amalga oshirishning tarixiy zaruriyat ekanligi, uni amalga oshirishning yangicha shakl, usul va vositalari ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan. Mustaqillik uchun ochiq yoki pinhona davom etgan kurashlardan so‘ng o‘zining haqiqiy mustaqilligiga erishgan o‘zbek xalqi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish orqali ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayot kechirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Bu maqsadga erishish uchun odamlarning yangicha dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, ya’ni ularni “tafakkur qilishi”dan ozod qilish masalasi eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Eng muhimi, taraqqiyotning umumiy ko‘lamida o‘zbek

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

halqining o‘rnini ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz o‘qigan kitoblarning umumiy soni, miqdori bilan belgilanib kelingan. Shuning uchun bu bebaho xazina bizni minglab asr avval dunyodan o‘tgan odamlar bilan uchrashtiradi. Bu avlodlarimiz kitoblarni oddiy sham yorug‘ida o‘qiganlarini bugungi yoshlar tasavvur ham qilaolmaydi.

Chunki, avlodlarimiz kitobga ustoz, bilim va ma’naviyat, qadriyat yuksalishga erishishning eng asosiy manbasi, xazinasi deb qaraganlar. Bu kitobga berilgan baho zamirida juda katta ma’no, tafakkur ziyosi mavjudligini isbotlab turibdi. Eng muhimi, hayotni o‘rgatuvchi murabbiy hisoblanadi. Ma’naviy barkamol inson bo‘lib etishishning asosiy mezoni sanalgan axloqiy tarbiya kitob mutolaasi vositasida ham uzluksiz bo‘lmog‘i lozim. Chunki, har qanday millat, elatlarda birinchi navbatda mehr-oqibat, saxovat va muruvvat, do‘stlik va sadoqat, qanoat kabi insoniy xislatlar asosiy masala, mezon sanaladi.

Tadqiqotning maqsadi: O‘smir qizlarni sharqona ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining qarashlari haqidagi ma’lumotlarni yoritish.

Tadqiqot vazifalari:

-O‘smir qizlarni sharqona ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- o‘smir qizlar tarbiyasida sharq mutafakkirlarinig tarbiyaviy qarashalridan foydalanishning ahamiyatini asoslab berish;

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi: Qadimdan ko‘hna toshbitiklardan boshlangan kitob va kitobnavislik insoniyat tamaddunining eng buyuk, oliy kashfiyoti va mo‘jizasi sifatida bani bashar tarixida dunyo turguncha quyoshday porlab, charaqlab turmog‘i muqarrar.

Eng qadimgi turkiy toshbitiklardan tortib O‘rxun – Enasoy yozuvlarigacha, Zarautsoy g‘oridagi suratlar-u Afrosiyob naqshlari, qadim Baqtiriyaning qo‘xna Kushon xatlaridan toki Oltoy tog‘laridagi toshlarga bitilgan harflarga qadar butun bashariyat avlodiga xalqimiz tamaddunining, nasl-nasabimiz-u ma’rifatimiz tomirlarining naqadar qadimiyligi bilan buyukligidan darak bermaydimi?! Eng qadim va donishmand noshir sifatida xalqimiz “Avesto” singari ulkan nashrni insoniyat tamadduni va tarixining kitob javonida hanuzga qadar saqlab kelmoqda. “Temur tuzuklari” timsolida bizning ajdodlarimiz davlatchilik va sarkardalik, lashkar tutish va harbiy zarb yuritishning qomusiy tamoyillari va yo‘riqlarini tuzganlarida, bugun dunyoga dag‘dag‘a solayotgan ayrim mamlakatlarning Yer yuzida nom-nishoni ham yo‘q edi.

Holbuki, ayni shu davlatlarning armiyasida Amir Temur bobomiz tuzuklaridagi lashkar tuzish, jang yuritish san’ati va uslublari harbiy taktika darslari sifatida hozirga qadar o‘qitilib, o‘rgatilib kelinmoqda. Bobolarimiz butun ro‘yi olamni-Yerni ham, samoni ham-bilim bilan, tafakkur va kitob bilan zabt etgan. Seryulduz osmon Mirzo Ulugbek bobomizning duraxshon kutubxonasiga o‘xshaydi. Termiziylardan Buxoriylargacha, Ibn Sinolar u Beruniylar, Ulugbeklar-u Farg‘oniy bilan Xorazmiy bobolargacha jahonni aql-u zakovat, ilm-u hikmat bilan egallagan buyuk jahongirlar bo‘lgan. Buyuk adabiyot namoyandalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti, deb ta’rif berganlarida, uning inson va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ma’naviy olamini boyitishni nazarda tutganlar. Kitob vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mehr – oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi. Ilm – fan, jamiyatning yutuqlari, taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi.

Kitob yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yaxshiroq do‘st yo‘qligi xususidagi fikr va g‘oyalarni juda ko‘p eshitamiz. Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma’naviy taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni qadimdan ma’lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg‘usini rivojlantiradi. Kitob talaba-qizlarda dunyoni anglab olishga ko‘mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ijobiy xarakterni tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib echish yo‘llarini o‘rgatadi. Bu xislatlarni egallab olgan har bir talaba-qizlar yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lib kamolga etadi. Zero, kitob avlodlar zanjirini mustahkamlovchi ma’naviy merosdir. U inson ruhiga ta’sir etib, ularni ma’naviy-axloqiy kamolotga etaklaydi, hissiyotiga ta’sir etadi va bilim berish bilan birga talaba-qizlarga zavq bag‘ishlaydi hamda aqlni charxlab, uni tarbiyalaydi, adabiyotshunos Safo Matjonov ta’kidlaganidek, “Ilmiy asarlar g‘aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag‘allik va razolatdan xalos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma’rifatli, baxt-saodatli bo‘lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir”.

Darhaqiqat, kitob o‘zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, talaba-qizlarni insoniyatning ma’naviyat tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg‘ularini yuksaltiradi. U yoki bu asar talaba-qizlar tomonidan qanchalik chuqur va to‘liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta’sir ko‘rsatadiki, talaba-qizlar o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yib, yomon illatlardan o‘zini saqlaydi. Shuning uchun ham ta’limning etakchi vazifalaridan biri talaba-qizlarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, ularni voqea va hodisalarni tahlil etishga o‘rgatishdir. Buning uchun, avvalom bor, har bir o‘qituvchi u qaysi fandan dars berishidan qat’iy nazar, talaba-qizlarni kitob o‘qishga qiziqtirish yo‘llari, shart-sharoitlarini bilishi zarur [104]. Mamalakatimizning asrlar davomida shakllangan bayramlari, tantanasi sharoitlari bilan bog‘liq urf-odatlar ham o‘ziga xos xususiyatga egadir

Ayniqsa, musulmon davlatlarida o‘tkaziladigan motam marosimlari islom dini aqidalariga tayanilgan holda o‘tkazilishida ham o‘ziga xos odob-axloq qoidalari mavjuddir. Eng muhimi avlod-ajdodlarimiz o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida o‘tmish merosimizga sadoqat, ezgu tuyg‘ularga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e’ribor berilgan. Shuning barobarida halqimizning ommaviy hasharlarda, bayramlarda, to‘y va azalar bilan bog‘liq turli oilaviy marosimlarda yoshlarning ishtirokiga alohida diqqat qaratilgan. Ularnig faol ishtiroki kattalar oldida ko‘rikdan o‘tish vazifalarini ham bajargan. Eng muhimi, bu tilga olingan milliy qadriyatlar har bir yigit va qiz qalbida o‘z xalqi madaniyatining dunyo madaniyatida tutgan o‘rnini qadrlashga, milliy g‘ururni o‘stirishga xizmat qiladi. anglashga, sharqda oila tushunchasi bilan bog‘liq o‘ziga xos qonuniyatlar mavjud. Birinchidan, o‘zbek oilalari o‘zining serfarzandligi bilan G‘arb mamlakatlaridan tubdan farq qiladi. Sharqda avlodlar shajarasining davomiyligini ham bir necha avlod o‘zaro birlashtirishini ham, katta oilani barpo etish orqali erishish mumkinligi haqidagi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

aqidaga amal qilganlar. Ya’ni, o‘zbek oilalariga xos xususiyatlardan biri, bir necha oilaning bir xonadonda yashashidir. Aksariyat oilalar bobo va buvi, ota–ona, o‘g‘il, kelin, kuyovlar, chevaralardan iborat bo‘ladi. Bunday xonadonlarda bobo va buvilar, ota-ona va boshqa oila vakillarining umumiy ta’lim-tarbiya usullari mavjud bo‘lib har kim o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, turli yoshdagi bolalarni tarbiyalaydilar. Ularni nazorat qiladiganlarning soni ko‘pligi sababli e’tiborsiz qolmaydilar. Katta oilada tarbiya ko‘rgan o‘g‘il-qizlar eng avvalo ko‘pchilik bilan muomala qilish madaniyatini o‘rganadilar, o‘zlari mas’ul bo‘lgan vazifalarni o‘z o‘rnida bajarishga harakat qiladilar, oilaviy me’yorga rioya qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Eng muhimi, o‘zidan kattalarni hurmat qilishni, qarindosh urug‘lar bilan o‘zaro munosabatlarda yaqin bo‘lishni o‘rganadilar. Salbiy xislatlar: yolg‘on gapirish, chaqimchilik, o‘g‘rilik va boshqa tarbiya uchun zid bo‘lgan harakatlar katta oila a’zolari oldida ishonchsizlik keltirishini, o‘zaro totuvlikka ziyon keltirishini anglab etadilar. Ayniqsa, o‘smir qizlar tarbiyasi bilan bog‘liq o‘git nasihatlar ko‘pchilik tomonidan berilishi bevosita axloq ilmi bilan bog‘liq bo‘lib kelajakda turmush, uy-ro‘zg‘or, oilani boshqarish, biror hunarni o‘rganish, kiyinish qoidalariga amal qilish va boshqa masalalar bilan bog‘liqdir. Chunki, bu o‘git nasihatlar ularning katta xonadonda ko‘rgan-bilganlari ertaga turmushda o‘ziga to‘g‘ri yo‘l tanlay bilishda katta yordam berishi mumkin.

Eng muhimi, jamoaviy oila tarbiyasini amalga oshirishda kattalar pand nasihatlarining asosi bo‘lgan kitobxonlik xususida ham so‘z yuritiladi. Keyingi yillarda o‘smir qizlar tarbiyasida ularning axloqi, odobi masalasida ommaviy axborot vositalari gazeta, jurnallar sahifalarida yuzaga kelgan muammolar va ularning echimlariga doir suxbatlar, badiiy-ma’rifiy chiqishlar namoyish etilmoqda. Ayniqsa, milliy an’ana va urf-odatlar, qadriyartlarni targ‘ib qilishga, shuning barobarida, ommaviy axborot vositalari sahifalarida, televideniya ko‘rsatuvlarida ma’lumotlarning, bevosita telespektakllar va dramaturgiyaning turli ko‘rinishlari vositasi orqali tashkil etadi. Oila davrasida kattalar mazkur namoyishlar xususida mulohazalar bildirar ekan, axloqiy - ma’naviy ahamiyatga alohida urg‘u bergan holda badiiy asarlarda ilgari surilgan g‘oyasi asosiy mohiyati muammolari xususida, dramaturglarning teatr saxnalarida namoyish qilingan ko‘rinishi aktyorlarning mahoratlariga fikr bildirishlari odatiy holatdagi an’anadir. Sharq xalqlarida odatiy, ammo, muhim bo‘lgan salomlashish odobi ham g‘arb mamalakatlaridagiga nisbatan keskin faqr qiladi. Dono xalqimiz “Bola boshidan, uning tarbiyasi beshikdan boshlanadi”,- degan aqidaga amal qilib keladilar. Shuning uchun ham xalqimiz bolalarni go‘dakligidanoq salom berishga o‘rgatadi. Insonga, do‘stga, keksalarga, ustoz-murabbiylarga, mehmonga beriladigan salom xalqimizning eng muhim xislatlari-hurmat-ehtiromini bildiradigan, mehr-oqibat ko‘prigi bo‘lib, odob-axloq qoidalari voyaga etmagan qizlarga alohida uqtiriladi.

Komil inson tarbiyasi, ularning ma’naviy-axloqiy qarashlarini tarbiyalash masalasi Sharq xalqlarining milliy pedagogikasida o‘ziga xos uslub va tamoyillar ko‘rinishida mavjud bo‘lib, G‘arb pedagogikasiga xos bo‘lgan jihatlardan keskin farq qiladi. Mana shu o‘rinda ikki mintaqaning milliy pedagogik yo‘nalishlarini qisman solishtirib taqqoslash

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

orqali yoshlar tarbiyasiga oid o‘zaro o‘xshashlik va farqli xususiyatlari ko‘zga tashlandi. Ularning eng muhim jihatlarini umumlashtirgan holda ijobiy jihatlariga e’tibor qaratildi.

Ayrim hollarda hayotida muammoga uchragan o‘smir-qizlar o‘z imkoniyatidan, o‘z bilimi darajasidan va hayotiy tajribalariga tayanib uni hal qilish yo‘llarini qidiradi. Tabiiyki, o‘smir-qizlar balog‘at yoshiga etgunga qadar tarbiyaning dastlabki bosqichidayoq o‘ziga xos pedagogik tasavvurga ega bo‘ladi. Bu hol qisman bo‘lsada, vazifalarni aniq belgilab olish va ularni bajarishga qa’tiy rioya qilish orqali yo‘lga qo‘yilsa va ko‘nikma hosil qilinsa, hayotida uchrovchi muammolarni oson hal qilish imkoniyati tug‘iladi. Ya’ni ma’naviy axloqiy dunyoqarashlarining kitobxonlik asosida yo‘lga qo‘yish, bolalikning har bir bosqichida amalga oshirish lozimligi masalasi pedagogik muammo sifatida ko‘zga tashlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.– T.: Fan, 2006. 112- b.
2. Nosruddin Burxonuddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – T.: Yozuvchi, 1990. – 240 b.
3. 42. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. II. Nasr. –T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006. -480 b.
4. Qodirova M. Dilshod (Hayoti va ijodi) –T.: Fan. 1971. 14-b Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: Kamalak, 2016. -/306 b.
5. Qulbek Ergo‘bek. Yozuvchi ijodxonasi. – Turkiston: Turon, 2007. - 472 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qo`chqarova Oysha Oltibay qizi**, dotsent, [**Қўчқарова Ойша Олтибай қизи**, доцента], [**Aysha O. Kochkarova**, associate professor]; manzil: O‘zbekiston, Samarqand,Amir Temur ko`chasi 18 [адрес: г. Самарканд, ул. Амира Темура, 18 Узбекистан,], [address: Uzbekistan, 18 Amir Temur St., Samarkand]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

© O'.Y. Qalandarova[1]✉

[1]Urganch davlat pedagogika instituti, Xorazm, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada texnologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari va ularning ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – texnologik yo'nalishdagi talabalar uchun kasbiy kompetentlikni shakllantirish usullari va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan samarali metodlarni o'rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga oid adabiyotlar va ilg'or ta'lim metodlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatdiki, texnologik ta'lim yo'nalishida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda loyiha asosidagi yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlar samarali natijalar beradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari texnologik ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun kasbiy kompetentlikni shakllantirishda loyiha asosidagi va amaliy mashg'ulotlarning muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, texnologik ta'lim, loyiha asosida ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, kasbiy tayyorgarlik, jamoaviy ish, qaror qabul qilish ko'nikmasi.

Iqtibos uchun: Qalandarova O'.Y. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy kompetentligini shakllantirish // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.191–196.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© У.Й.Каландарова[1]✉

[1]Ургенчский государственный педагогический институт, Хорезм, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются вопросы формирования профессиональной компетентности для студентов технологического направления и их значимость.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить методы формирования профессиональной компетентности для студентов технологических направлений и эффективные методы, применяемые в учебном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы литература и передовые методы обучения, направленные на развитие профессиональной компетентности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что проектный подход и практические занятия дают эффективные результаты в подготовке студентов технологического направления к профессиональной деятельности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают важность проектного и практического обучения в формировании профессиональной компетентности студентов технологического направления.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, технологическое образование, проектное обучение, практические занятия, профессиональная подготовка, командная работа, навыки принятия решений.

Для цитирования: Каландарова У.Й. Формирование профессиональной компетентности студентов технологического образования. // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 191–196.

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

© O'rinposhsha Y. Qalandarova[1]✉
[1]Urgench State Pedagogical Institute, Khorezm, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes issues related to the development of professional competence for students in the field of technological education and its significance.

AIM: the main objective of the study is to explore methods for developing professional competence in students of technological disciplines and effective methods used in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the study reviewed literature and advanced educational methods aimed at enhancing professional competence.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that project-based approaches and practical exercises yield effective results in preparing technology students for professional activities.

CONCLUSION: the study results confirm the importance of project-based and practical training in developing professional competence for students in technological education.

Keywords: professional competence, technological education, project-based learning, practical training, professional preparation, teamwork, decision-making skills.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation Sarvinoz E. Jumanazarova, Formation of professional competence of students of technological education, Inter education & global study, (8(1)), pp. 191–196. (In Uzbek).

Texnologiyaning jadal rivojlanishi va uning sanoatning deyarli barcha sohalariga integratsiyalashuvi nafaqat texnik ko'nikmalarga, balki murakkab, doimiy o'zgaruvchan ish muhitini boshqarish uchun professional malakaga ega bo'lgan ishchi kuchini talab qiladi. Natijada, texnologik ta'lim talabalarning kasbiy rollarga tayyorgarligini oshirish uchun muhim sohaga aylandi. Ushbu kontekstdagi kasbiy kompetentsiya bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va shaxslararo munosabatlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi, ular birgalikda talabalarni zamonaviy sanoat va innovatsiyalar talablariga javob berish uchun jihozlaydi.

Texnologik ta'limda maqsad nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki o'quvchilarni haqiqiy dunyo muammolariga tayyorlaydigan yaxlit ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Bu an’anaviy, bilimga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlaridan amaliy mashg‘ulotlar, muammolarni hal qilish va axloqiy mulohazalar bilan o‘quv tajribasiga integratsiyalashgan kompetensiyaga asoslangan ta’limga o‘tishni o‘z ichiga oladi. Kompetentsiyaga asoslangan ta'lim nafaqat texnik jihatdan malakali, balki moslashuvchan, hamkorlikka va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyojni aks ettiradi - texnologiya sohasida uzoq muddatli martaba muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan fazilatlar.

Texnologik ta'lim talabalarida kasbiy kompetentsiyani shakllantirish, shuning uchun ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu innovatsion pedagogik strategiyalarni o'z ichiga oladi, sanoat hamkorliklarini yo'lga qo'yadi va professional sharoitlarda qo'llaniladiganlarni aks ettiruvchi raqamli vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Biroq, kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish resurslarni cheklash, nazariy va amaliy komponentlarni muvozanatlash va o'qituvchilarning yuqori sifatli kompetentsiyaga yo'naltirilgan ta'lim berish uchun jihozlanishini ta'minlash kabi qiyinchiliklardan holi emas. Ushbu maqola texnologik ta'limda talabalar uchun kasbiy kompetentsiyaning muhim tarkibiy qismlari, ushbu ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik usullar va ushbu sohada kompetentsiyaga asoslangan ta'limni samarali amalga oshirish bo'yicha muammolar va tavsiyalarni o'rganadi. Ushbu jihatlarni o'rganib chiqib, biz talabalarni nafaqat texnik tajriba, balki ularning dinamik texnologik landshaftda uzoq muddatli muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan muhim kasbiy fazilatlar bilan qurollantiradigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun asos yaratishni maqsad qilganmiz. So‘nggi yillarda kasbiy kompetentlik tushunchasi, ayniqsa texnologik ta’lim sohasida, muhim e’tibor qozondi. Ushbu sohada sanoatning tez sur’atlarda o‘zgarishi yuqori malakali va moslashuvchan kadrlar talab qiladi. Kasbiy kompetentlik — bu nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, axloqiy qadriyatlar va shaxslararo munosabatlarni o‘zida mujassam etuvchi ko‘p qirrali tushuncha hisoblanadi. Ushbu adabiyotlar sharhida kompetentlikka asoslangan ta’limning rivojlanishi, turli pedagogik yondashuvlar hamda texnologik ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari va tavsiyalari muhokama qilinadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Texnologik ta'limda kasbiy kompetentlik ko'pincha kognitiv, funksional, ijtimoiy va axloqiy sohalarni birlashtiruvchi ko'p o'lchovli tushuncha sifatida belgilanadi. Shavelson va boshqalar (2002) kasbiy kompetentlikni maxsus professional sharoitlarda murakkab vazifalarni samarali bajarish uchun bilim, ko'nikma va munosabatlarni birlashtirish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Cheetham va Chivers (2005) texnologik ta'lim uchun kompetentlik modelini kengaytirib, unga kognitiv (bilimga asoslangan), funksional (ko'nikmaga yo'naltirilgan), shaxsiy (o'z-o'zini boshqarish) va axloqiy (axloqiy tafakkur) kompetentsiyalarni qo'shadi. Ushbu modellar texnologiyaga asoslangan kasb-hunar sohalarida talabalarni tayyorlashda kompetentlikka asoslangan o'quv dasturlarini rivojlantirish uchun asosiy nazariy asoslar hisoblanadi.

Kompetentlikka asoslangan ta'lim (CBL) oldindan belgilangan kompetentsiyalarga erishishga qaratilgan ta'lim strategiyalarini qo'llashni ta'kidlaydi. Tynjälä (2008) ta'kidlaganidek, kompetentlikka asoslangan yondashuv texnologik ta'lim uchun samaralidir, chunki u nazariy tushunchalar bilan amaliy qo'llash o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi. Bu yondashuv talabalarga sanoat muammolarini hal etishga imkon beradi, bilim va ko'nikmalarni namoyon qilishga ko'maklashadi.

Loyiha asosidagi ta'lim (PBL) texnologik ta'limda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali usul sifatida tan olingan. Thomas (2000) ga ko'ra, PBL talabalarni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qiluvchi loyihalar ustida ishlashga imkon beradi. Barak va Dori (2005) PBL o'quvchilarni mavzu bo'yicha yanada chuqurroq tushuncha va qiziqishga ega bo'lishiga yordam berishini ta'kidlaydi, bu nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirish uchun muhim hisoblanadi.

Ish asosidagi ta'lim (WBL) va amaliyotlar talabalarni sanoat standartlari bilan tanishtirib, amaliy ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi. Billet (2011) amaliy ta'limning ahamiyatini ta'kidlab, haqiqiy professional muhit bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishish nazariy bilimlarni mazmunli tarzda qo'llash imkonini beradi, deb hisoblaydi. Smith va Betts (2000) ga ko'ra, amaliyot va sanoat hamkorliklari talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish bilan birga ularning professional tarmoqlar bilan tanishishiga yordam beradi.

Raqamli vositalar va simulyatsiyalarning ta'limga integratsiyasi texnologik dasturlarga murakkab muhitlarni nazoratli sharoitda yaratish imkonini beradi. Hobbs va Coiro (2016) raqamli simulyatsiyalar talabalar murakkab jarayonlarni xavfsiz platformada sinovdan o'tkazishlari va bu orqali muhim ko'nikmalar hosil qilishlarini ta'kidlaydi. Simulyatsiyaga asoslangan ta'lim muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologik sohalarda zarur bo'lgan jamoada ishlash, muloqot va moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Johnson va Johnson (2009) ga ko'ra, hamkorlik o'quvchilarni bilim almashishga, rolni moslashtirishga va muloqot qilishga o'rgatadi. Barkley va boshqalar (2014) hamkorlik faoliyatlari, ayniqsa, sanoat loyihalariga yaqin bo'lgan loyihalarda, talabalarning jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Ushbu yondashuvlarning samaradorligiga qaramay, texnologik sohalarda kompetentlikka asoslangan ta'limda bir qancha cheklovlar mavjud: texnologik ta'lim ko'pincha maxsus uskunalar, dasturlar va inshootlarni talab qiladi, bu esa katta xarajatlarni talab qilishi mumkin. Brown va boshqalar (2011) resurslarning cheklanganligi amaliy ta'limning imkoniyatlarini cheklashini va talabalarning kompetentlik rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Texnologik rivojlanish o'quv dasturining tez moslashuvchan bo'lishini talab qiladi. Harvey va Green (1993) qattiq tuzilgan o'quv dasturlari texnologiyalardagi o'zgarishlarga javob bera olmasligini va shu sababli malaka bo'shliqlariga olib kelishini ta'kidlaydi.

O'qituvchilar kompetentlikka asoslangan ta'limni samarali o'rgatishi uchun tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Webster-Wright (2009) texnologik sohalarda o'qituvchilarni doimiy ravishda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi, chunki o'qituvchilarning yetarli tayyorgarligi bo'lmasa, ta'lim samaradorligi pasayadi.

Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasida muvozanatni topish dolzarb muammo hisoblanadi. Biggs (1999) nazariya yoki amaliyotga ortiqcha e'tibor berish talabalarning bilim va ko'nikmalarida bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

Texnologik ta'lim sohasidagi talabalar uchun kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiya sohasida tezkor rivojlanayotgan murakkab talablarni qondira oladigan kadrlarni tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada kompetentlikka asoslangan ta'lim, loyiha asosida o'qitish, ish asosidagi ta'lim va simulyatsiya asosidagi ta'lim kabi yondashuvlar ko'rib chiqildi. Bu yondashuvlar o'quvchilarda professional muhitda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan umumiy ramka yaratadi. Ayniqsa, amaliy qo'llash, tanqidiy fikrlash va moslashuvchanlik nazariy bilimlar qadar muhim bo'lgan texnologik ta'lim uchun mos keladi.

Shunga qaramay, ushbu yondashuvlarning samaradorligi tasdiqlangan bo'lsa-da, resurslar cheklanganligi, o'quv dasturining qat'iyligi va o'qituvchilarni doimiy rivojlantirish zarurati kabi muammolar mavjud. Ushbu masalalarni hal qilish uchun sanoat bilan moslashuvchan va dolzarb o'quv dasturlarini yaratish, sanoat bilan mustahkam hamkorlikni o'rnatish va o'qituvchilar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash talab etiladi. Ushbu o'zgarishlarni amalga oshirish orqali ta'lim muassasalari talabalarni texnologiya sohasidagi murakkab talablarni samarali bajara oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlaydi va ularni nafaqat texnik ko'nikmalar, balki uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan keng qamrovli kasbiy kompetentlik bilan ta'minlaydi. Kelgusidagi tadqiqotlar innovatsion aralash ta'lim modellarini o'rganish va raqamli vositalar va simulyatsiyalarning integratsiyasini chuqurlashtirishga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, kompetentlikka asoslangan ta'limning bitiruvchilarning kasbiy faoliyatlariga uzoq muddatli ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar ushbu pedagogik strategiyalarning samaradorligi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ushbu harakatlarni davom ettirish orqali texnologik ta'lim takomillashib boradi va talabalarning dinamik va tobora raqamli bo'lib borayotgan ish muhitida muvaffaqiyatga erishishlariga zamin yaratadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Barak, M., & Dori, Y. J. (2005). Enhancing undergraduate students' chemistry understanding through project-based learning in an IT environment. Science Education, 89(1), 117-139.
2. Billet, S. (2011). Vocational Education: Purposes, Traditions, and Prospects. Springer.
3. Biggs, J. (1999). What the student does: teaching for enhanced learning. Higher Education Research & Development, 18(1), 57-75.
4. Brown, P., Hesketh, A., & Williams, S. (2011). The mismanagement of talent: Employability and jobs in the knowledge economy. Oxford University Press.
5. Cheetham, G., & Chivers, G. (2005). Professions, Competence, and Informal Learning. Edward Elgar Publishing.
6. Eraut, M. (1994). Developing Professional Knowledge and Competence. Routledge.
7. Harvey, L., & Green, D. (1993). Defining quality. Assessment & Evaluation in Higher Education, 18(1), 9-34.
8. Hobbs, R., & Coiro, J. (2016). Design features of a digital literacy curriculum for elementary education. The Journal of Digital Literacy, 7(3), 189-204.
9. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. Educational Researcher, 38(5), 365-379.
10. Mulder, M. (2014). Conceptions of professional competence. International Handbook of Research in Professional and Practice-based Learning, 107-137.
11. Shavelson, R. J., Cordeiro, P. A., & Blumberg, A. (2002). Assessing hands-on science. Educational Leadership, 59(7), 20-25.
12. Smith, E., & Betts, M. (2000). Learning as partners: Realizing the potential of work-based learning. Journal of Vocational Education & Training, 52(4), 589-604.
13. Thomas, J. W. (2000). A review of research on project-based learning. Autodesk Foundation.
14. Tynjälä, P. (2008). Perspectives into learning at the workplace. Educational Research Review, 3(2), 130-154.
15. Webster-Wright, A. (2009). Reframing professional development through understanding authentic professional learning. Review of Educational Research, 79(2), 702-739.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qalandarova O'rinposhsha Yuldashovna,** katta o‘qituvchi [**Каландарова Оринпошша Юлдашовна,** старший преподаватель], [**Orinposha Y.Kalandarova,** senior teacher]; manzil: O‘zbekiston, Xorazm, Gurlan ko'chasi, 1-a uy [адрес: Узбекистан, ул. Гурлан 1а ,Хорезм], [address: Uzbekistan, 1-a , Gurlan st.,Khorezm]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA DTS TALABLARI

© R.B. Sulaymanova[1]✉
[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda Davlat Ta'lim Standartlari (DTS) talablarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilariga DTS talablariga muvofiq ravishda ingliz tilini o'qitish usullari va yondashuvlarini aniqlash hamda DTS talablarining o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda DTS talablari asosida boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar DTS talablariga muvofiq ravishda o'qitish orqali o'quvchilarning eshitish, o'qish, yozish va so'zlash ko'nikmalarining muvozanatli rivojlanishi ta'minlanishini ko'rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari boshlang'ich sinfda DTS talablariga mos ravishda ingliz tilini o'qitishning ahamiyatini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: DTS talablari, boshlang'ich sinf, ingliz tili, lingvistik ko'nikmalar, kommunikativ ko'nikmalar, ta'lim metodikasi, interfaol yondashuv.

Iqtibos uchun: Sulaymanova.B.R. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida ingliz tilini o`rganishda DTS talablari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.197–203.

ТРЕБОВАНИЯ ГОС К ИЗУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА УЧАЩИМИСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

© Р.Б. Сулаеманова[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется роль и значение требований Государственных образовательных стандартов (ГОС) при обучении английскому языку учащихся начальной школы.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определить методы и подходы обучения английскому языку учащихся начальной школы в соответствии с

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

требованиями ГОС и изучить значение требований ГОС в развитии лингвистических и коммуникативных навыков учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования была проанализирована методика преподавания английского языка в начальных классах с учетом требований ГОС

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что сбалансированное развитие навыков слушания, чтения, письма и разговорной речи учащихся обеспечивается преподаванием в соответствии с требованиями ГОС.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили важность преподавания английского языка в соответствии с требованиями ГОС в начальной школе.

Ключевые слова: требования ГОС, начальная школа, английский язык, лингвистические навыки, коммуникативные навыки, методика обучения, интерактивный подход.

Для цитирования: Сулаеманова.Б.Р. Требования ГОС для изучения английского языка учениками начальной школы.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 197–203.

SES REQUIREMENTS FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNING IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

© Barno R. Sulaymanova[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University,Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the role and importance of the requirements of the State Educational Standards (SES) in teaching English to primary school students.

AIM: the main objective of the study is to identify methods and approaches to teaching english to primary school students in accordance with the requirements of the ses and to study the importance of the ses requirements in developing students' linguistic and communicative skills.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed the methodology of teaching English in primary school based on the requirements of the SES.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that teaching in accordance with the ses requirements ensures a balanced development of students' listening, reading, writing and speaking skills.

CONCLUSION: the results of the study confirmed the importance of teaching english in primary school in accordance with the requirements of the SES.

Keywords: SES requirements, primary school, English, linguistic skills, communicative skills, educational methodology, interactive approach.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Barno R. Sulaymanova. (2024) 'SES requirements for English language learning in elementary school students', Inter education & global study, (8(1)), pp. 197–203. (In Uzbek).

Ta'lim tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Bu qonuniyatlar ta'limning umumdidaktik tamoyili deyiladi. Boshqa qonuniyatlar esa ayrim fanlarni o'qitishga xos bo'lishi mumkin, masalan; ingliz tili o'qitish tamoyillari. Tamoyil tushunchasi didaktikada hali to'la hal etilmagan. Agar bir guruh tamoyillar ta'lim jarayonining qonuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi guruh tamoyillar qaysidir nutq faoliyatining turiga xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi, uchinchisi esa til materialining qaysidir bo'limiga xos bo'lgan tamoyillardir.

Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tilio'qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi. Ilmiy manbalarda ingliz tili o'qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «verbalizatsiya» (o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi) va «korrelatsiya» (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan [1]. Ingliz tilio'qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida ingliz tili o'qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e'tibor qaratilgan.

T.Q. Sattorov bilim va malakaning o'zaro munosabati nuqtayi nazardan o'quv predmetlarini (a) bilim va nazariya beruvchi fanlar (tarix, adabiyot, geografiya); (b) amaliy malakani shakllantirishga yo'naltirilgan fanlar (rasm, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya) kabi guruhlarga tasniflaydi. Bu borada ingliz tili o'qitish umumiy metodikasi mualliflarining fikriga qo'shiladi va ingliz tilini yuqoridagi ikki guruh o'rtasidagi predmet deb hisoblaydi. O'quv predmetlarining funksiyaviy, ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflash hollarini ham ilmiy-tadqiqotlarda kuzatishimiz mumkin. Taniqli metodistlardan J.J. Jalolov, S.S. Saydaliyevlar barcha o'quv predmetlarini shartli ravishda quyidagicha tasniflashgan [2]: a) fan asoslaridan saboq beradigan o'quv predmetlari (ximiya, biologiya, fizika, matematika, tarix); b) tarbiya berishga qaratilgan o'quv predmetlari (rasm, musiqa, ashula); d) amaliy faoliyatni o'rgatadigan o'quv predmetlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi); e) tilga oid o'quv predmetlari (ona tili, ikkinchi til, chet til).

Tillararo nazariyaga muvofiq ingliz tili o'rganish jarayoniga ta'sir etuvchi barcha omillar hisobga olinishi lozim. Bu omillar ingliz tili o'rganuvchining yoshga oid (psixologik va bilish faolligi) xususiyatlari, ta'lim mazmuni va maqsadi hamda ularga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim vositalaridan iboratdir [3]. Mazkur nazariyaga muvofiq ingliz tili o'rganish jarayonida o'quvchi til tajribasiga tayanib ingliz tilidagi kommunikatsiyaning yangi lisoniy tizimi «aralash/tillararo kod»ni shakllantiradi. Ya'ni ona tili tajribasi ikkinchi tilni o'rganishda, so'ngra ularning ikkovi ingliz tilini egallashda (tillararo transpozitsiya va interferensiya) ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, darslik va dasturlar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

tuzishda tillararo interferensiya va o‘quvchining til tajribasi hisobga olinadi, ta’lim berishga mo‘ljallangan qoidalar (oddiy nazariy bilimlar) amaliy ko‘nikma va malakalarning egallanishini tezlatish va soddalashtirish maqsadlariga bo‘ysundiriladi. Ya’ni ayrim zaruriy qoidalar yoki nazariyalarning elementlari ingliz tili o‘rganish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirish maqsadida bayon etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning pedagogik tamoyillari o‘zbek va rus tilidagi ilmiy manbalarda dadidaktik tamoyil sifatida mufassal bayon etilgan. Lekin xorijiy adabiyotlarda pedagogik tamoyil alohida tadqiq etiladi. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda uch tildagi ilmiy manbalardan foydalandik [4].

1. O‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamolotga etkazish. Ingliz tili vositasida o‘zlashtiriladigan axborot va ingliz tili o‘rganish mobaynida olinadigan aqliy va nutqiy ko‘nikma hamda malakalar o‘quvchilarni tarbiyalaydi.
2. O‘quvchilarni o‘rganilayotgan tildan foydalanishga rag‘batlantirish.
3. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish.
4. O‘quvchilarni atrofdagilarga nisbatan bag‘rikenglik va turli qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.
5. Darslarda bilimlarning mustaqil fahmlab o‘rganilishi uchun optimal vaziyat yaratish.
6. O‘quvchilarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini mustaqil va o‘zaro aniqlab borish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.
7. O‘quvchilarga o‘z bilimlarini o‘rganilayotgan tilda namoyon qilish imkoniyatini yaratish

Boshlang’ich sinflarda o’qitilayotgan chet tillari bolalarning kelajagi va ularning miya faoliyatini yaxshi tashkil qilish uchun foydali hisobalandi. Dasturlarning o’qish va nutq o’stirish bo’limida o’tkaziladigan mashg’ulotlar mazmuniga; o’quvchilarni to’g’ri, ravon, ma’lum darajadagi tezlik bilan ifodali o’qishga o’rgatish; bolaning ona — Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g’oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o’quvchilarning bilim, ko’nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O’qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog’lab o’tishi uning ta’sirchanligi ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. O’qish va nutq o’stirishning ta’limiy — tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo’yicha o’qish mazmunini o’qish ko’nikmalarining og’zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o’qish mashg’ulotlarining yozma nutq bilan bog’lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

Boshlang’ich sinflarda o’qish darslari yuqori sinflardagi o’zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o’zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi [5]. Shuning uchun boshlang’ich sinflardagi o’qish darslariga jiddiy e’tibor talab qilinadi. O’qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o’qituvchi asosan quyidagilarga e’tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo’ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyil harakatda, xayoli o’yinda bo’ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglayolmaydilat. Shu tugayli bu sinflarda ta’lim-

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

tarbiya vazifalari, asosan o’yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o’qish orqali amalga oshiriladi.

Ingliz tili darslari yosh o'quvchilarni o'qish va yozish dunyosi bilan tanishtiradi. Turli matnlarni o‘qish va yozma topshiriqlar orqali o‘quvchilar so‘z boyligini kengaytiradi, tushunish qobiliyatini oshiradi, yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat akademik muvaffaqiyat uchun, balki umrbod ta'lim uchun ham juda muhimdir. Ingliz tilini o'rganish matnlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarishni o'z ichiga oladi. Ushbu kognitiv jarayonlar bolalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ular savol berishni, baholashni va o'z fikrlarini shakllantirishni o'rganadilar, bu ularning akademik va shaxsiy rivojlanishida qimmatlidir. Ingliz tili darslari ko'pincha ijodiy yozish mashqlari va adabiy izlanishlarni o'z ichiga oladi. Yoshlikdan ijodkorlikni rag‘batlantirish bolalarga o‘z tasavvurlarini, g‘oyalarini erkin ifodalash imkonini beradi [6]. Bu ularga o‘zlarining betakror ovozlarini kashf etishga, adabiyot va hikoya qilishga bir umrlik muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi.

To’g’ri o’qishga o’rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. So’zlarni bo’g’inlarga bo’lib o’qish. Masalan: “Fazliddin” Faz-lid-din, ro’z-no-ma. Shuningdek, buzib o’qigan ayrim so’zlarni to’g’ri o’qiy olmasa uni bo’g’in tovushlarga bo’lib o’qigan ayrim so’zlarni ovoz chiqarib takror o’qish. Tez aytish ham ancha foydali usullardan hisoblanadi. Ongli o’qishga o’rgatish uchun notanish so’zlarga izoh berish, matn yuzasidan berilgan savol topshiriqlarni o’rgatish matn yuzasidan savollar tuzish, reja asosida matn mazmunini qisqartirib, kengaytirib so’zlash kabi usullar ham muhim yordam beradi. Kuchli ingliz tilini bilish kelajakda ham akademik, ham professional muvaffaqiyat uchun zarurdir [7].

Farzandlar o‘z ta’limini rivojlantirar ekan, ingliz tilini bilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu oliy ta'lim imkoniyatlari va kelajakdagi martaba istiqbollari uchun eshiklarni ochadi. Bugungi globallashgan dunyoda ko'p tilli bo'lish qimmatli boylikdir [8]. Ingliz tili ko'pincha xalqaro muloqot tili hisoblanadi va ingliz tilini bilish o'quvchilarga turli madaniyatlar va kelib chiqishi bo'lgan odamlar bilan aloqa o'rnatish imkonini beradi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Bolalar ingliz tilini o'zlashtirgani sayin o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qiladi. Ular sinf muhokamalarida, taqdimotlarda va boshqa tadbirlarda qatnashishga ko'proq tayyor bo'ladilar. O'z-o'zini hurmat qilishning bu ortishi ularning umumiy akademik ko'rsatkichlari va shaxsiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tili darslari ularning ta'lim yo'llarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ingliz tilini o'rganish bo'yicha mustahkam poydevor yaratish orqali ushbu darslar yosh o'quvchilarni porloq kelajakka tayyorlaydi. Imtiyozlar sinfdan tashqarida ham o'ziga ishongan, so'zli va tanqidiy fikrlaydigan zamonaviy dunyo qiyinchiliklariga dosh berishga tayyor shaxslarni shakllantiradi. Boshlang'ich maktab yillarida ingliz tilidagi ta'limga sarmoya kiritish bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga sarmoya bo'lishi aniq.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

O‘zbekistonda ingliz tili ta’limi ikkinchi tildagi axborot sohibini (kognizant) shakllantirishga yo‘naltiriladi, ya’ni o‘rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosning o‘rganilishi ingliz tili ta’limining bosh maqsadidir [9]. Ikkinchi tildagi axborot sohibi deganda, autentik muloqot vaziyatlarida o‘zga madaniyat vakili bilan chet tilda adekvat muloqot qilish kompetentligiga ega shaxsni tushunish mumkin. Tilni o‘rganish chog‘ida o‘quvchi lingvistik bilimlar to‘plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyalari)ni oshirish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ingliz tili kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida o‘rgatiladi.

Tillararo nazariya asosidagi ingliz tili o‘qitishning shaxsga va faoliyatga yo‘naltirilgan kommunikativ yondashuvi o‘quvchilarga imkon qadar tezroq va qo‘rquvsiz jonli muloqotga kirishish imkoniyatini yaratadi. Xatolardan qo‘rqmaslik, ta’lim mazmuniga jiddiy urg‘u berilishi o‘quvchilarning o‘rganilayotgan chet tildan foydalanish ishtiyoqini kuchaytiradi. Ushbu yondashuvga muvofiq ingliz tili o‘rganish jarayoniga ta’sir etadigan a) o‘quvchining psixologik va yoshga oid xususiyatlari; b) ona tili, rus tili va ingliz tili o‘rtasida farq – tillararo interferensiya; d) ta’lim vositalari; e) ta’lim muassasasi; f) o‘qituvchining mutaxassislik mahorati kabi barcha omillarning hisobga olinishi tavsiya etiladi [10]. Ma’lumki, ingliz tili tabbiy sharoitda muvaffaqiyatli o‘zlashtiriladi. Geografik jihatdan olisda joylashgan va til sohibi bilan muloqatda bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘lmagan ta’lim sharoitidagi ingliz tili o‘rganish jarayonida amaliy maqsadga erishish murakkablashadi. Aynan shu vaziyat ingliz tili o‘quv predmetini o‘qitishda qator qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Shu sababdan o‘quv jarayonini tabiiy muhitga yaqitlashtirish, darslarda tabiiy nutq vaziyatlarini yaratish yuzasidan izlanishlar olib boorish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – 240 с.
2. Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – 258 p.
3. Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave &Macmillan, 2011. – 308 p.
4. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari. – Xalq ta’limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32.
Houcine предполагает, что «эффективное использование интернета и гипермедиа дает ценные ресурсы как учителям, так и ученикам». Эти изобретения диверсифицируют учебные мероприятия и облегчают учебный процесс, который постоянно совершенствуется, особенно наряду с развитием технологий.

По мнению исследователей Сингапурского университета, использование технологий на занятии позволяет значительно обогатить опыт учащихся, дает возможность применить знания в практических ситуацях, тем самым оказывая положительное влияние на результаты обучения. Некоторые эмпирические исследования показывают, что преподаватели могут усилить вовлеченность студентов в процесс обучения, не только применяя в аудитории информацонно-коммуникацонные технологии, но и поощряя обучающихся использовать интернет и смарт-технологии.

Но какие изменения в технологиях оказали наибольшее влияние на преподавание английского языка в последние годы?

Цифровые платформы. Когда говорят об инновацях, мы часто сразу задумываемся об интернете и о его возможностях. Facebook и Edmodo пользуются большой популярностью у преподавателей и создают безопасную онлайн-среду для взаимодействия учителей, обучающихся и родителей. Облачные инструменты, такие как документы Google, также стали незаменимыми. Список цифровых платформ обширен и постоянно растет. Мультимедийное руководство, такое как NikPeachey, сопровождает учителей в сложном мире цифровых ресурсов и помогает им в организаци мероприятий, уроков и курсов с использованием соответствующих инструментов.

Онлайн-сообщества. Появление интернета и развитие социальных сетей позволили преподавателям английского языка со всего мира создавать онлайн-сообщества, которые действуют как огромная глобальная штаб-квартира. Например, блоги Twitter ведут люди, которые могут предложить свои советы, поддержку и идеи.

Мобильное обучение и BYOD («Bring Your Own Device» – «принесите собственное устройство»). Развитие мобильных технологий и распространение

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

смартфонов позволили получить свободный доступ к интернету и приложениям. В этих условиях учитель английского языка имеет возможность использовать бесчисленные ресурсы с онлайн играми, которые стимулируют развитие и улучшают языковые навыки. Интернет обеспечивает образовательный процесс разнообразными обучающими играми, которые бесплатны и доступны для всех. Они предназначены для изучения и практического закрепления, например, целевого словаря, конкретной грамматической конструкции или понимания текста. Кроме того, обучающиеся имеют возможность практиковаться в своих знаниях, загружая приложения и игры на устройствах, используемых дома.

Учителя также слушают подкасты, такие как TEFL Commute, или смотрят вебинары. Приложение Storybird позволяет обучающимся создавать истории. LaunchPad – это приложение, с помощью которого учителя следят за ходом обучения, а также ведут реестр, который помогает им отслеживать индивидуальный или групповой прогресс, также оно предлагает практические упражнения, поддержку перевода и виртуальную доску. Приложение Culips ESL Podcast содержит подкасты по нескольким темам: от повседневных разговоров до конкретных вопросов. Приложение позволяет пользователю переводить каждый эпизод на язык, с которым он знаком. Приложение StudyMode дает доступ к документам по широкому кругу вопросов: исследования, карточки, эссе, обсуждение классики, созданной Хемингуэем, Шекспиром и т. д. Приложение MyWordBook, разработанное Британским советом и Cambridge University Press, предоставляет пользователям возможность загрузки для последующего использования словарных статьей и карточек. Интерактивное приложение SpeakingPal English Tutor предлагает упражнения, диалоги с виртуальными персонажами, ролевые игры и серию мини-уроков.

Имеется функция распознавания речи и языка и обеспечивается мгновенная обратная связь с обучающимися. Приложение Voxy предназначено для изучения языка, может быть настроено в соответствии с требованиями и интересами учащихся. Voxy предоставляет пользователям возможность общаться с носителями английского языка для его изучения. Пользователи имеют возможность изучать его посредством игр. Грамматика – основа языка, поэтому важно знать, как грамматические правила влияют на его использование. Приложение Grammar Up содержит более чем 1800 грамматических вопросов по 20 категориям. Обучающийся может сам выбрать конкретную тему. Приложение Miracle FunBox предлагает изучающим английский язык разговорные истории и транскрипты, а также игры с цепочкой слов, оно способно идентифицировать и оценивать произношение, а также позволяет пользователям добавлять закладки.

Общение с людьми в интернете. Доступ к общению в интернете с людьми за пределами учебного класса через Skype и аналогичные инструменты позволяет и преподавателям, и обучающимся делать это на английском языке, что в одноязычных классах в условиях отсутствия такой возможности в реальности

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

должно мотивировать обучающих беседовать с кем-либо на английском языке. Для преподавателей интернет сделал доступным новый рынок уроков по Skype и онлайн-классов.

Контент-специфические инструменты. Комиксы – отличный способ практиковать чтение и письмо. Marvel.com позволяет студентам создавать своих персонажей и писать свои собственные комиксы. FluentU приучает обучающихся к языку с помощью видео и реальных «взаимодействий», предлагает качественную независимую практику в занимательной и эффективной форме. FluentU содержит большую коллекцию аутентичных английских видеороликов, которые люди в англоязычном мире смотрят регулярно.

Цифровые учебники и электронные книги. Цифровые учебники почти всегда дешевле, чем традиционные, в связи с представленностью на смартфонах они удивительно мобильны. Многие цифровые учебники имеют встроенные функции, которые позволяют учащимся взаимодействовать с текстом в цифровом виде, узнать больше о теме и на практике изучить ключевые моменты. Kindle Reader – популярный цифровой учебник, позволяющий обучающимся выделить конкретные слова, прослушать их произношение и посмотреть определение. Эти функции дают обучающимся большую независимость и предоставляют возможность доступа к текстам по их интересам и текстам, которые могут быть сложнее относительно их уровня владения чтением.

Презентационные инструменты. Powerpoint – это простой в использовании инструмент для создания презентатцй. Для достижения необходимого эффекта презентатця должна быть вариативной и не ограниченной дублированием одних и тех же текстовых форматов и образцов [6, с. 60].

Flipped classroom (формат перевернутого класса). В данном формате изучение материала и выполнение практических заданий происходит в противоположной («перевернутой») стандартному уроку последовательности: дома обучающийся посредством интернета просматривает предлагаемый преподавателем учебный материал (часто в формате мультимедиа), а на уроке происходит разбор практических заданий.

Интернет-аутентичные материалы. Серьезным преимуществом интернета для изучающих язык является аутентичность источников: доступ к ежедневным новостям, видео на YouTube и др. Но с таким количеством общедоступного контента выбор правильных онлайн-материалов имеет решающее значение для эффективного обучения. Language Learning with Digital Video (Cambridge University Press) рассказывает о том, как учителя могут использовать документальные онлайн-фильмы и видеоролики YouTube для создания эффективных уроков. Интерактивные доски позволяют сохранять и печатать заметки, написанные на доске, управлять компьютером в классе с доски, воспроизводить звуковое сопровождение, использовать экран для презентатцй и трансляции материалов из интернета и т. д. (см.рис.1).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Ключевую роль в устранении монотонности работы в классе играет видео, просмотр которого способствует расширению лексики, развитию навыков слушания. В соответствии с предпочтениями дети могут смотреть мультфильмы или анимированные истории, старшим ученикам с большей вероятностью будут интересны документальные фильмы или «журналы» путешествий. Лирические видеоролики очень интересны и способствуют вдохновению. К тому же преподаватель может использовать любимые песни своих учеников. В результате визуальная форма изучения языка дает представление о естественном использовании английского языка. Такие возможности практически бесконечны. Но само по себе наличие интерактивной доски в учебном классе не позволяет автоматически улучшить образовательный процесс. Действительно, если преподаватель не используют ее правильно, чтобы дополнить процесс обучения, она может отвлекать обучающихся от него. За последние несколько десятилетий в обучении постепенно происходил переход от подхода «сверху вниз», ориентированного на преподавателя, к восходящему, ориентированному на обучающегося.




Рис.1. Понятие «готовность педагога к работе со смарт-технологиями»

Преподавателю для начала необходимо обсудить свою деятельность в отношении использования смарт-технологий обучающимися. Если в

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

образовательной организатци уже имеется конкретная система смарт обучения, преподавателю необходимо включить желаемые дополнительные рекомендатци и сделать их частью своей работы в классе. Руководству образовательного учреждения следует составить беседу с обучающимися и родителями о важности использования технологий, возможных последствиях отсутствия подобного опыта, о домашних заданиях, которые потребуют использования технологий, о способах контроля их выполнения. Одним из серьезных препятствий для встраивания в образовательный процесс технологий является нехватка ресурсов в школе или у самих обучающихся. Важным вопросом является выбор инструментов для каждого класса.

В современном образовательном процессе формирование готовности студентов к использованию смарт-технологий приобретает особое значение. Сущность этого процесса заключается в создании условий и предоставлении инструментов, которые позволяют студентам эффективно использовать цифровые и смарт-технологии для улучшения их образовательного опыта и повышения профессиональных компетенций.

Содержание формирования готовности студентов включает несколько ключевых компонентов:

- Образовательная инфраструктура: создание технически оснащенной среды, обеспечивающей доступ к современным смарт-технологиям.
- Методическое сопровождение: разработка учебных программ и методик, интегрирующих использование смарт-технологий в учебный процесс.
- Педагогическая поддержка: подготовка преподавателей, способных эффективно использовать смарт-технологии и обучать этому студентов.
- Практическое применение: предоставление студентам возможности применять смарт-технологии на практике через лабораторные работы, проекты и стажировки.
- Развитие цифровой культуры: формирование у студентов навыков критического мышления, информатционной грамотности и безопасного использования цифровых технологий.

Таким образом, формирование готовности студентов к использованию смарт-технологий в образовательном процессе требует комплексного подхода, включающего как технические, так и педагогические аспекты. В результате, студенты приобретают не только знания и навыки работы с новыми технологиями, но и готовность к их применению в профессиональной деятельности, что существенно повышает их конкурентоспособность на современном рынке труда.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Беспалько, В.П. (2002). Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М.: ИТФ РАО.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

2. Гребенщикова, М.В., и Иванова, Е.В. (2018). Инноватционные образовательные технологии в высшей школе. М.: Академия.
3. Кузьмина, Н.В. (2013). Теория и практика образовательного процесса в условиях информатизатци общества. СПб.: СПбГУ.
4. Монахов, В.М. (2016). Образовательные технологии: Теория и практика. М.: ВЛАДОС.
5. Сапрыкин, Д.Л., и Сидоренко, Е.С. (2019). Интегратця смарт-технологий в образовательный процесс. Вестник современного образования, 2(4), 45-53.
6. Симонов, А.В. (2017). Технологии цифрового обучения: Педагогические аспекты. М.: МГИМО-Университет.
7. Фрадис, М.Н. (2015). Электронное обучение: Теория и методика. М.: ИКАР.
8. Харитонова, И.В. (2020). Цифровая трансформатця высшего образования: вызовы и перспективы. Университетский вестник, 3(7), 22-31.
9. Чубарова, О.Е. (2018). Педагогические основы использования смарт-технологий в учебном процессе. М.: Высшая школа.
10. Шулепов, В.В. (2019). Проблемы и перспективы внедрения смарт-технологий в образовании. Вестник педагогики, 5(11), 66-74.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАТЦЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**O`sarova Umida**, tadqiqotchi [**Усарова Умида**, исследователь], [**Umida Osarova**, Researcher]; manzil: 130100, Uzbekistan, Jizzakh region, City: Jizzakh, Islam Karimov avenue (former Friendship of Peoples), 4 [адрес: 130100, Узбекистан, Джизакская область, Город: Джизак, проспект Ислама Каримова (бывший Дружбы Народов), 4], [address: 130100, Uzbekistan, Jizzakh region, City: Jizzakh, Islam Karimov avenue (former Friendship of Peoples), 4]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TALABALARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FANLARNING AHAMIYATI VA SHARQONA YETAKCHILIK G‘OYALARI

© V.T. Jo‘rayev[1]✉
[1]Farg`ona davlat universiteti, Farg`ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada talabalarning boshqaruv faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida ijtimoiy fanlarning ahamiyati va sharqona etakchilik g‘oyalarining roli o‘rganiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarning boshqaruv faoliyatiga tayyorgarligida ijtimoiy fanlar va sharqona etakchilik tamoyillarining ahamiyatini aniqlash va bu yondashuvlarning ta’lim tizimidagi o‘rnini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ta’lim jarayonida ijtimoiy fanlar va etakchilik tamoyillarining talabalarga ta’sirini o‘rganish uchun empirik so‘rov va intervyular o‘tkazildi. adabiyot tahlili orqali sharqona etakchilik falsafasi va zamonaviy boshqaruv nazariyalari taqqoslandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar talabalarda boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishda ijtimoiy fanlar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. siyosatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya fanlari orqali talabalar muloqot, hamkorlik va konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy fanlar va sharqona etakchilik g‘oyalari talabalarning boshqaruv faoliyatiga tayyorgarlik jarayonini boyitib, ularning axloqiy va ijtimoiy javobgarlikni his qilishini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy fanlar, boshqaruv faoliyati, sharqona etakchilik, ta’lim jarayoni, boshqaruv ko‘nikmalari, axloqiy qadriyatlar, pedagogik yondashuvlar.

Iqtibos uchun: Jo`rayev V.T. Talabalarning boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ijtimoiy fanalrning ahamiyati va sharqona etakchilik g`oyalari. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 383-390.

ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК И ВОСТОЧНЫХ ИДЕЙ ЛИДЕРСТВА В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

© В.Т. Джураев[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается значение социальных наук и роль идей восточного лидерства в процессе подготовки студентов к управленческой деятельности.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определить значение социальных наук и восточных принципов лидерства в подготовке студентов к управленческой деятельности и проанализировать место этих подходов в образовательной системе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовался эмпирический опрос и интервью для изучения влияния социальных исследований и принципов лидерства на студентов в образовательном процессе. Восточная философия лидерства и современные теории управления сравнивались посредством анализа литературы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что социальные науки играют важную роль в формировании управленческих навыков у студентов. Благодаря политологии, социологии и психологии студенты приобретут навыки общения, сотрудничества и управления конфликтами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что социальные науки и идеи восточного лидерства обогащают процесс подготовки студентов к управленческой деятельности и повышают их чувство моральной и социальной ответственности.

Ключевые слова: общественные науки, управленческая деятельность, восточное лидерство, образовательный процесс, управленческие навыки, моральные ценности, педагогические подходы.

Для цитирования: Джораев В.Т. Значение обществознания и идей восточного лидерства в подготовке студентов к управленческой деятельности.// Inter education & global study.2024. №8(1). С.383-390.

IMPORTANCE OF SOCIAL SCIENCES AND ORIENTAL LEADERSHIP IDEAS IN PREPARING STUDENTS FOR MANAGEMENT ACTIVITY

©Vohid T. Jo`rayev[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the importance of social sciences and the role of eastern leadership ideas in preparing students for management.

AIM: the main objective of the study is to determine the importance of social sciences and Eastern leadership principles in preparing students for management and to analyze the place of these approaches in the education system.

MATERIALS AND METHODS: the study conducted an empirical survey and interviews to study the impact of social sciences and leadership principles on students in the educational process. through literature analysis, eastern leadership philosophy and modern management theories were compared.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that social sciences play an important role in the formation of management skills in students. through political

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

science, sociology and psychology, students acquire communication, cooperation and conflict management skills.

CONCLUSION: the results of the study show that social sciences and oriental leadership ideas enrich the process of preparing students for management activities and strengthen their sense of moral and social responsibility.

Keywords: social sciences, management activities, oriental leadership, educational process, management skills, moral values, pedagogical approaches.

For citation: Vohid. T. Jo`rayev.(2024) 'The Importance of Social Science and Eastern Leadership Ideas in Preparing Students for Management Activities, (8(1)), pp. 383-390. (In Uzbek).

Hozirgi vaqtda talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonida ularni shakllantirish orqali xodimlar shaxsini ijtimoiylashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshqaruv sohasida samaradorlikka erishish uchun talabalarga ijtimoiy fanlar orqali zaruriy bilimlar va ko'nikmalar berilishi zarur. Ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va boshqaruv faoliyatidagi qoidalar bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ular ta'lim jarayonida keng qamrovli yondashuv talab qiladi. Buyuk faylasuflar va mutafakkirlar, jumladan Aristotel, Konfutsiy, Forobiy kabi shaxslar rahbarlik va boshqaruvchanlikning mohiyati va lider shaxsini shakllantirish haqida ko'plab asarlar qoldirganlar. Ularning asarlari zamonaviy boshqaruv nazariyasining konseptual asosini tashkil qiladi va bugungi kunda ham talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonida ularni shakllantirish orqali xodimlar shaxsini ijtimoiylashtirishda ijtimoiy fanlarning roli ortib bormoqda, bu jamiyatimizni isloh qilish va uning eng muhim sohasi – ta'lim bilan bog'liq. Ijtimoiy munosabatlar sohasidagi muayyan siljishlar, shuningdek, shaxsning qadriyat yo'nalishlari ustuvorliklarining sifat o'zgarishlari ta'lim tarbiya maqsadlari va mazmunining o'zgarishiga olib keladi.

Boshqaruv muhitidagi davr, o'ziga xos xususiyatlar to'plami boshqaruvchilik, erkinlikka intilish, harakat, madaniyatning o'zida tavsiflanadi, erkin tanlov sharoitida talabalarning o'z ma'naviy rivojlanishi jarayoni sodir bo'ladigan sohani yaratadi, uning muhim faoliyatga bo'lgan haqiqiy ehtiyojlari amalga oshiriladi, odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir ma'no va mazmun bilan to'ldiriladi, madaniy qadriyatlarni interiorizatsiya qilish, madaniy ijod, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani takomillashtirish yuzaga keladi.

Boshqaruvchanlik masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Bu borada ko'plab faylasuflar, jumladan, Mark Avreliy, Aristotel, Tomas Gobbs, Konfutsiy, Nikollo Makiavelli, Fridrix Nitsshe, Platon, Seneka, Sokrat, Immanuel Kant va boshqalar o'z fikrlarini bildirgan. Ayniqsa, Aristotel, I.Gabirol, K.A.Gelvetsiy, Kant va V.V.Rozanov rahbar va liderlarni rivojlantirish va tarbiyalash muhimligini ta'kidlaganlar. XX asrning o'rtalarida Maks Veber, Meredit Belbin, Djeyms Bërns, Piter Druker kabi tadqiqotchilar boshqaruvchanlik nazariyasiga katta hissa qo'shgan. 1970-yillardan boshlab esa,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

V.V.Afanasyev, B.Bass, G.A.Demidova kabi ko‘plab olimlar boshqaruvchanlikning turli jihatlarini o‘rganishni davom ettirdilar. Liderlik fenomenining sharqona tahlilida o‘ziga xos tarbiya, ezgu fazilatlar, axloqiy qarashlar va siyosiy etakchilik sifatlari ustuvorlik qiladi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nizomulmulk, Yusuf Xos Hojib, Unsurul Maoliy Kaykovus, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xusayn Voiz Koshifiy kabi Sharq mutafakkirlari ilgari surgan pedagogik g‘oya va qarashlar – bugungi kunda ham lider shaxsini tarbiyalash yuzasidan konseptual asosga ega va o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Buyuk allomalarimizning bu borada bildirgan har bir g‘oya va nuqtai nazari, talabalarning mustahkam bilim sohibi, professional ko‘nikmalar egasi va jamiyat hayotidagi barcha jabhalarda ilg„or shaxs sifatida o‘rin topishida prinsipial ahamiyatga ega ekani, bugun yana bir bor o‘z isbotini topdi.

Fikrimizcha, "boshqaruvchi", "yetakchi", "sardor", "lider" va "rahbar" kabi tushunchalar vazifa doirasi jihatidan o‘zaro adekvat bo‘lib ko‘rinsa-da, ularning semantik tavsifi va xususiyatlari o‘ziga xos farqlarga ega. Har bir tushuncha boshqaruv va liderlik doirasida turli xil mas’uliyat va vazifalarni anglatadi, shuningdek, ushbu rollarning guruhga ta’siri va guruh ichidagi mavqeyi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ularni bir-biridan ajratib turadi. Quyida ularning har biri haqida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Boshqaruvchi – boshqarib, yo‘naltirib turuvchi; boshqarma va umuman korxona, muassasa, tashkilot va sh. k. boshlig‘i, rahbari.

Boshliq – idora, muassasa, tashkilot va sh. k. ga rahbarlik qiluvchi shaxs; rahbar; boshchilik, rahbarlik qiluvchi; rahnamo.

Yetakchi – yo‘l yurish, yo‘nalishda boshqarib, «yetaklab» boruvchi, boshqaruvchi; yo‘lboshchi, rahbar. Yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri – har doim "bir qadam oldin"da bo‘lish, ya’ni doimo yangiliklardan xabardor bo‘lish va boshqalarga ochiq bo‘lmagan axborotga ega bo‘lishdir. Bu, boshqalardan ustun turish imkonini beradi. Yetakchi bu axborotni qayerdan va qanday topishni yaxshi biladi. O‘spirinlar o‘z hayotlaridagi voqealarni yaxshiroq tushunish uchun bunday axborotdan foydalanadilar. Shu tariqa, etakchilik xususiyatlari yoshlarning fikrini erkin bildirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi va bu, ularga nisbatan ishonchni oshiradi.

Adabiyotda "lider" atamasini "yetakchi" so‘zi bilan almashtirish hollari ko‘p uchraydi. Biroq, "yetakchi" atamasi "lider"ga xos bo‘lgan psixologik tavsifni to‘liq ifodalay olmaydi. "Yetakchi" so‘zi odatda guruhga munosabatda qo‘llanilib, uning a’zolariga ta’sir ko‘rsatadigan va ularni maqsadga yo‘naltiradigan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Shu sababli, "lider" so‘zi ko‘proq rahbarlik, boshqaruv va psixologik jihatlar bilan bog‘liq kengroq ma’noni anglatadi.

Nazarimizda, "yetakchi" so‘zi shaxsning guruhni boshqarishga va oldinga boshlashga bo‘lgan ishtiyoqini ifodalaydi. "Peshqadam" iborasi esa ma’lum fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsning ortidan guruhning o‘z ixtiyori bilan ergashishini, ya’ni jamoa o‘z ishonchi bilan tanlagan yo‘lni anglatadi. Bu holat "lider" iborasiga ham tegishli bo‘lishi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

lozim. Liderning bu xususiyati uning hissiy jozibadorligi va boshqalarni o‘ziga jalb qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Lider (ingl. leader – etakchi, boshliq, rahbar) – biror siyosiy partiya yoki tashkilotning rahbari, yo‘lboshchisi; sport musobaqalarida oldinda boruvchi shaxs yoki jamoa; etakchi, peshqadam. "Lider" tushunchasi XIII asrda ingliz tilida paydo bo‘lgan bo‘lib, dastlab mustaqil emas, balki "rahbar", "yetakchi" so‘zlaridan olingan. Ingliz tilidan kirgan "leader" atamasi "olib boruvchi" ma’nosini anglatadi, va "to lead" (yetaklash) fe’lidan shakllangan. Hozirgi kunda bu termin ko‘proq siyosiy faoliyatda qo‘llaniladi va XX asrda "siyosiy partiya yoki qandaydir tashkilot rahbari" ma’nosida ishlatila boshlangan. Lider — bu jamoada katta obro‘ va ta’sirga ega bo‘lgan shaxsdir. Ayrim ta’riflarga ko‘ra, lider jamoa a’zosi bo‘lib, u belgilangan vaziyatlarda qaror qabul qilish huquqiga ega va jamoa faoliyatini tashkillashtirish hamda munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Liderlik munosabatlar ta’sir va ergashish, hukmronlik va bo‘ysunish tizimini o‘z ichiga oladi. Liderlik shaxsning ijtimoiy maqomini anglatadi, bu maqom unga odamlarni etaklash va boshqarish imkonini beradi.

A.V.Ivanovga ko‘ra, liderlik — bu etakchi sifatlar, ijtimoiy-madaniy qobiliyatlar va ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarining yig‘indisidir. Liderlik sifatlari orasida kuchli iroda, axloqiy fazilatlar, optimizm, tirishqoqlik va muvozanatlilik bor. N.I.Ilinning fikricha, "liderlik" shaxs va guruhning maqsadlarga erishish uchun harakatlariga ta’sir o‘tkazish qobiliyatini anglatadi.

S.T.Turg‘unov liderlik tushunchasini “ma’lum bir guruhda o‘zi rahbarlik qilayotgan yo‘nalishlarda shaxslararo (norasmiy) munosabatlarni boshqarib, guruh a’zolarining kuchli va kuchsiz (nozik) tomonlari, ijobiy va salbiy odatlari, shuningdek, ularning psixologik xususiyatlari, kayfiyatlari, moyilligi, intilishlari, hamda qiziqishlarini yaxshi bilganligi natijasida jamoani muayyan yo‘nalishga boshlashga yo‘naltirilgan faollik” – deya, X.O.Qodirov “nostandart pedagogik vaziyatlarni hal etish uchun egallangan kommunikativ tashkiliy tajribadan mahoratli foydalanish hamda talabalar jamoasi barcha a’zolarining uzluksiz shaxsiy o‘sishlari rejimini ta’minlash qobiliyatidir” tarzida, M.M.Zufarova “ma’lum ijtimoiy guruh, jamoa, insonlar birlashmasida boshqalarga nisbatan katta obro‘-e’tiborga, ya’ni avtoritetga ega bo‘lib, ularga nisbatan boshqarish darajasida ta’sir ko‘rsata oluvchi shaxs, subyektning o‘zini lider sifatida tuta olish qobiliyatini shakllantirilishi jarayoni”, F.M.Komilova esa liderlikni mantiqan “tashkilotchilik” qobiliyatining muhim elementi sifatida tadqiq etgan holda, “Lider – etakchi, u tashkilotchilik ishlaridan tashqari liderlik ishlari bilan ham shug‘ullanadi. Bu vazifani yaxshi uddalash uchun tashkilotchi, insonlarni o‘ziga ergashtirib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi, ya’ni lider vazifasini bajarishi lozim” deb hisoblaydi. Mehnat jamoasidagi lider, avvalambor, o‘zining ishchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu fazilatlar unga jamoa orasida alohida e’tibor qozonishga yordam beradi. Lider, guruh manfaatlarini himoya qilgan holda, zarur paytda rasmiy doiralarga qarshi chiqishga ham tayyor bo‘ladi. Shu sababli, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

mumkin. Korxona manfaatlari nuqtai nazaridan, rasmiy rahbar va norasmiy liderning bir shaxsda birlashishi eng maqbul holat hisoblanadi.

Rahbar (yo‘lboshchi, yo‘l boshlovchi (ko‘rsatuvchi), boshliq) – biror davlat, tashkilot, guruh, jamoa va sh. k.ga yo‘l ko‘rsatib, boshchilik qilib boruvchi, rahbarlik qiluvchi; yo‘lboshchi, rahnamo; ta’lim-tarbiya beruvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi; ustoz. Rahbarlik insonlarga maqsadli ta’sir o‘tkazish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayondir. Rahbarlar turli funksiyalarni bajaradi, jumladan, jamoaning maqsadlarini belgilash va shakllantirish, ushbu faoliyatni rejalashtirish, rag‘batlantirish vositalarini belgilash va ularni nazorat qilishni amalga oshirish. Rahbarlik bu jarayonlarda odamlarga ta’sir o‘tkazish va ularning xulqini tartibga solish orqali boshqaruvning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.


Rahbarlik tayinlanadigan lavozim bo‘lsa, liderlik hamfikrlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan mavqe hisoblanadi. Rahbar va lider o‘rtasidagi asosiy farqlar shundaki, rahbar xodimlarga ega bo‘ladi, lider esa hamfikr tarafdorlariga. Rahbar tayinlanadi, lider esa jamoa a’zolari orasidan ajralib chiqadi. Rahbar hokimiyatga, lider esa obro‘ga asoslanadi. Rahbar tashkilot manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi, bu esa uni liderga nisbatan jamoa oldida rasmiyroq, ba’zan esa zaifroq ko‘rsatishi mumkin. Yetakchi va rahbar atamalari ko‘pincha bir xil ma’noda qo‘llanilsada, aslida ular orasida sezilarli farq mavjud. Yetakchi har doim ham tashkilot boshida turmaydi; u guruh a’zolariga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsdir. Yetakchi guruh a’zolarini birlashtirib, ularni yuksak maqsadlarga etaklaydi, ularni ilhomlantiradi va kerakli ma’lumot va bilim bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Rahbar esa tashkilotning rasmiy boshqaruvchisi bo‘lib, uning asosiy vazifasi tashkilotni maqsadga yo‘naltirishdir. Yetakchi va rahbarning rollari bir-birini to‘ldiradi, va ularni bir-biridan ajratish har doim ham samarali natijaga olib kelmaydi.

Yetakchi (lider)	Rahbar
Yetakchining vazifasi guruhni ruhlantirish va g‘oyani amalga oshirishga ishtiyoq uyg‘otish	Rahbarning vazifasi rejalashtirish, ishni tashkillashtirish va vazifalarni bo‘lib berishdan iborat
Yetakchi innovatsiya qiladi, ya’ni yangi g‘oyalar yaratadi	Rahbar esa ularni amalga oshirish jarayonini boshqaradi
Yetakchining orqasidan unga ergashuvchilari bor	Rahbarning esa unga bo‘ysunuvchi ishchilari bor
Yetakchining nazari odamlarda, guruh a’zolarida bo‘ladi	Rahbarning e’tibori tizim va tashkillashtirishda bo‘ladi
Yetakchi ishonch qozonishga ahamiyat bersa	Rahbar nazorat ostiga olishga harakat qiladi
Yetakchi uzoqni ko‘zlaydi	Rahbar qo‘l ostidagi ishlarni bajarishga ko‘proq ahamiyat beradi
Yetakchi nima? va nima uchun? deb so‘rasa	Rahbar qanday? va qachon? Savollarga javob izlaydi
Yetakchi original g‘oyalarni yaratadi	Rahbar esa taqlid qiladi, ya’ni o‘xshatishga harakat qiladi
Yetakchi to‘g‘ri ish qiladi	Rahbar ishni to‘g‘ri qiladi

Hozirgi kunda o‘zida liderlik qobiliyatlarini mujassamlashtirgan rahbarlarga talab oshib bormoqda. U.Elmurodov o‘z tadqiqotlarida ayni shu masalani gender jihatdan tadqiq qilgan. Uning fikricha “Oliy ta’lim tizimi kafedra mudirlarida liderlik qobiliyati rivojlanishida kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini tarkib toptirishda gender tafovutlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

yuqori darajaga rivojlantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini amaliyotiga joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim tizimi rahbarlarida shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish uchun, maqsadga intilish, tanqidiylikni rivojlantirish muhimligiga ko'ra "Rahbarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish xususiyatlari" modelini qo'llash maqsadlidir"



Rahbar shaxsida liderlik qobiliyatini rivojlantirish modeli

Gallup Exceptional Workplace Award (GEWA) tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko'ra, liderlikning samaradorligi uch muhim jihatga bog'liq: xodimlarga masofadan turib ishlashga ruxsat berish, ularni yangiliklardan muntazam xabardor qilish, va ularning ehtiyojlariga mos sharoitlar yaratish. 2020 yilda tashkilot tomonidan shaxsning faoliyatga yo'nalganligi, shaxslararo munosabatga kirishishi va ehtiyojlarini qondirish maqsadida 12 ta muhim xususiyatni tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Zamonaviy dunyoda boshqaruvda liderlik qobiliyatiga ega bo'lgan rahbarlarning roli ortib bormoqda. Rahbarlik va liderlik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar bo'lib, ular samarali boshqaruvni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Yetakchi – yangilikka intiluvchi, odamlarni ilhomlantiruvchi, jamoani oldinga boshlovchi shaxs bo'lsa, rahbar tashkilotning rasmiy boshqaruvchisi bo'lib, u maqsadlarni amalga oshirish uchun mas'uldir. Boshqaruvda samaradorlikka erishish uchun rahbarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, xodimlar bilan samarali muloqot o'rnatish va ularni rag'batlantirish zarur. Bugungi kunda liderlik qobiliyatlariga ega bo'lgan rahbarlarni tayyorlash, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv tamoyillarini qo'llash ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

1. Фурсова П. Социально-культурное сопровождение студенческой молодежи по формированию лидерских компетенций в организации досуговой деятельности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2022. – С. 38. (176)
2. Mutalov S. Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – B. 11.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.345.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.342.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 17.
6. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. -Toshkent: "Akademiya", 2008.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 497.
8. Иванов А.В. Культурная педагогическая среда общеобразовательного учреждения как условие развития личности ребенка: Монография. – М.: АПК и ППРО, 2005. – 143 с.
9. Ильин В. А. Психология лидерства: учебник для вузов. – М.: Издательство Юрайт, 2020. – 311 с.
10. Turg'unov S. va b. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. – Toshkent, 2014. – B. 86.
11. Zufarova M. Umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarida etakchilik qobiliyatini shakllantirish. – Toshkent, 2012.
12. Комилова Ф. Система формирования организационной культуры школьников // Вестник науки и образования. 2020. №20-2 (98). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-formirovaniya-organizatsionnoy-kultury-shkolnikov (дата обращения: 18.08.2024).
13. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. -Toshkent: Akademiya, 2006.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 3-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 362.
15. Turg'unov S. va b. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. – Toshkent, 2014. – B. 86. (120)
16. Elmurodov U. Oliy ta'lim tizimi rahbarlarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 22.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jo`rayev Vohid Tojimamat o`g`li**, dotsent, **[Жураев Воҳид Тожимамат угли** – доцент.], [**Vohid.T.Jo`rayev**, associate professor]; manzil: O'zbekiston, Farg'ona viloyati, 712000, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. [адрес:Ферганская область, 712000, Фергана, Мураббилар,19]. [address:Fergana region, 712000, Fergana, Murabbilar street, 19].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TARIXIY ILMIY KASHFIYOTLARNI 7-8-SINFLAR UCHUN TABIIY FANLAR BO‘YICHA ZAMONAVIY O‘QUV DASTURIGA MOSLASHTIRISH METODIKASI

© X.Q. Uzoqboyev[1]✉
[1]Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada tarixiy ilmiy kashfiyotlarni 7-8-sinflar uchun tabiiy fanlar bo‘yicha zamonaviy o‘quv dasturiga moslashtirish metodikasi ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – 7-8-sinflar uchun tabiiy fanlar dasturida tarixiy kashfiyotlarni moslashtirish orqali o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ilmiy-tarixiy tafakkurni shakllantirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tabiiy fanlarga oid tarixiy kashfiyotlar bo‘yicha adabiyotlar va zamonaviy o‘quv dasturlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, tarixiy ilmiy kashfiyotlarni o‘quv dasturiga kiritish orqali o‘quvchilarning fanlarga qiziqishi va mavzuni amaliy tushunish darajasi oshadi.

XULOSA: tadqiqot natijalari tarixiy ilmiy kashfiyotlarni tabiiy fanlar dasturiga integratsiyalashning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: tarixiy ilmiy kashfiyotlar, tabiiy fanlar, o‘quv dasturi, moslashtirish metodikasi, ilmiy tafakkur, 7-8-sinflar, tarixiy kontekst, ilmiy qiziqish.

Iqtibos uchun: Uzoqboyev X.Q. Tarixiy ilmiy kashfiyotlarni 7-8sinflarda tabiiy fanlar bo`yicha zamonaviy o`quv dasturiga moslashtirish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.391-396.

МЕТОДОЛОГИЯ АДАПТАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ НАУЧНЫХ ОТКРЫТИЙ К СОВРЕМЕННОЙ ПРОГРАММЕ ЕСТЕСТВЕНСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ 7-8 КЛАССОВ

© Х.К. Узокбоев[1]✉
[1]Наманганский государственный педагогический институт, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается методика адаптации исторических научных открытий для современного учебного плана по естественным наукам для 7-8 классов.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить интерес учащихся к наукам и сформировать научно-историческое мышление путем адаптации исторических открытий в учебный план по естественным наукам для 7-8 классов.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ литературы по историческим открытиям в области естественных наук и современных учебных программ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что включение исторических научных открытий в учебный план способствует повышению интереса учащихся к наукам и улучшению их практического понимания предмета.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают эффективность интеграции исторических научных открытий в учебный план по естественным наукам.

Ключевые слова: исторические научные открытия, естественные науки, учебный план, методика адаптации, научное мышление, 7-8 классы, исторический контекст, научный интерес.

Для цитирования: Узогбоев.Х.К. Методика адаптации историко-научных открытий к современной программе естествознания в 7-8 классах.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 391-396.

METHODOLOGY OF ADAPTATION OF HISTORICAL SCIENTIFIC DISCOVERIES TO THE MODERN CURRICULUM OF NATURAL SCIENCES FOR 7-8 GRADES

©Xojiakbar Q. Uzoqboyev[1]✉
[1]Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the methodology for adapting historical scientific discoveries to the modern curriculum in natural sciences for grades 7-8.

AIM: the main objective of the study is to enhance students' interest in sciences and to develop scientific-historical thinking by adapting historical discoveries in the natural science curriculum for grades 7-8.

MATERIALS AND METHODS: the study involved an analysis of literature on historical discoveries in the natural sciences and modern curricula.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that incorporating historical scientific discoveries into the curriculum increases students' interest in sciences and improves their practical understanding of the subject.

CONCLUSION: the study results confirm the effectiveness of integrating historical scientific discoveries into the natural science curriculum.

Keywords: historical scientific discoveries, natural sciences, curriculum, adaptation methodology, scientific thinking, grades 7-8, historical context, scientific interest.

For citation: Xojiakbar Q. Uzoqboyev. (2024) 'Methodology of adaptation of historical scientific discoveries to the modern curriculum of natural sciences in grades 7-8', Inter education & global study, (8(1)), pp. 391-396. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

7-8-sinf o‘quvchilari uchun tabiiy fanlar o‘quv dasturiga tarixiy ilmiy kashfiyotlar kiritilishi ularning o‘quv tajribasini sezilarli darajada boyitishi mumkin. Ilmiy g‘oyalarning kelib chiqishi va evolyutsiyasini tushunish o‘quvchilarga tarixiy bilimlarni zamonaviy ilmiy tushunchalar bilan bog‘lash imkonini beradi, fanga yanada yaxlit nuqtai nazarni tarbiyalaydi [1]. Ushbu maqolada tarixiy ilm-fan yutuqlarini zamonaviy o‘quv dasturiga moslashtirish metodologiyasi bayon etilgan bo‘lib, asosiy e’tibor ta’lim standartlari, pedagogik strategiyalar va talabalarning faolligiga mos keladi. Fan-texnika taraqqiyoti hukmron bo‘lgan doimiy rivojlanayotgan dunyoda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligining ahamiyatini kamaytirib bo‘lmaydi.

Maktab o‘quvchilari uchun ilmiy tushunchalar va fikrlash shakllari bo‘yicha malakaga ega bo‘lish tabiiy dunyoning murakkabligini tushunish uchun eshikdir. Biroq, bu savodxonlik faktlarni yodlashdan tashqariga chiqadi; tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu ko‘nikmalarni oshirishning samarali usullaridan biri tarixiy kontekstlarni fan ta’limiga integratsiya qilishdir. Tarixiy kontekstlar kuchli ta’lim vositasi bo‘lib, talabalarga ilmiy kashfiyotlar qanday qilinganligi, tadqiqotchilar duch kelgan muammolar va bu yutuqlarning ijtimoiy oqibatlari haqida tushuncha beradi.

Tarixdan olimlarning usullari, sinovlari va muvaffaqiyatlarini tahlil qilish orqali talabalar nafaqat ilmiy tushunchalarni o‘rganadilar, balki asosiy kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlash, tadqiqot va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tarixiy kontekstlardan foydalanishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Tarixiy kontekstni fan ta’limiga integratsiyalash o‘quvchilarga ilmiy izlanishning mohiyatini, ilmiy fikr taraqqiyoti va kashfiyotlarning jamiyatga ta’sirini baholashga yordam beradi. Ushbu yondashuv nafaqat o‘quvchilarga fanning “nimasini” o‘rgatadi, balki “qanday” va “nima uchun” ni ham o‘rgatadi, bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va bir-biriga bog‘lab turadigan hikoyani taqdim etadi [2]. O‘tmishdagi olimlarning muammolari va muvaffaqiyatlarini o‘rganish orqali talabalar ilmiy tamoyillarni chuqurroq tushunadilar va ilmiy taraqqiyotning interaktiv tabiati haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Tarixiy kashfiyotlarni o‘quv dasturiga moslashtirish metodikasi

1-qadam: Tegishli tarixiy kashfiyotlarni aniqlash. Tarixiy ilmiy kashfiyotlarni zamonaviy o‘quv dasturiga moslashtirishning birinchi bosqichi 7-8-sinflarda o‘tilgan mavzularga bevosita tegishli bo‘lganlarini aniqlashdan iborat. Fizika, kimyo, biologiya va yer haqidagi fanlar kabi sohalardagi asosiy kashfiyotlar ularning ahamiyati va o‘quv dasturining o‘quv maqsadlariga mos kelishidan kelib chiqib tanlanishi kerak [3]. Masalan:

Fizika: Nyutonning harakat qonunlari va klassik mexanikaning rivojlanishi.

Kimyo: Mendeleyev davriy sistemasi va atom tuzilishi haqida tushuncha.

Biologiya: Darvinning evolyutsiya nazariyasi va Mendelning genetika tamoyillari.

Yer fanlari: Plitalar tektonikasini o‘rganish va geologik jarayonlarni tushunish.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Ushbu kashfiyotlar zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida qurilgan poydevor bo‘lib, ularni o‘quv dasturiga kiritish uchun ideal qiladi.

2-bosqich: Tarixiy mazmunni o‘quv dasturlari standartlariga moslashtirish. Tarixiy mazmunning o‘quv dasturiga samarali kiritilishini ta’minlash uchun ushbu kashfiyotlarni 7-8-sinflar uchun mavjud ta’lim standartlari va ta’lim natijalariga moslashtirish juda muhimdir. Tarixiy kontekst o‘quvchilar o‘rganayotgan mavzularni to‘ldiradigan tarzda taqdim etilishi kerak. Ushbu moslashtirish o‘quvchilarning asosiy tushunchalarni tushunishlarini mustahkamlashga yordam beradi va vaqt o‘tishi bilan ilmiy g‘oyalarning rivojlanishini namoyish etadi.

Tarixiy kashfiyotlarni zamonaviy ilmiy tushunchalar bilan bog‘laydigan mavzular atrofida darslarni tashkil qiling, masalan, Nyuton qonunlari va hozirgi fizika ilovalari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Tarixiy kontekst har bir mavzu bo‘yicha o‘quv maqsadlarini qanday qo‘llab-quvvatlashini aniq belgilab qo‘ying, bu o‘quvchilar ushbu kashfiyotlarning hozirgi tadqiqotlariga mosligini ko‘rishlarini ta’minlash [4].

3-bosqich: Pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish. O‘quvchilarni tarixiy ilmiy kashfiyotlar bilan qiziqtirishda samarali pedagogik yondashuvlar zarur. O‘qituvchilar turli xil ta’lim uslublariga mos keladigan turli xil o‘qitish usullarini qo‘llashlari kerak, jumladan, hikoya qilish, amaliy tajribalar va interfaol muhokamalar.

Tarixchi olimlarning hikoyalari, kashfiyotlari va duch kelgan qiyinchiliklarini aytib bering. Bu usul ilm-fanni insonparvarlashtiradi, uni o‘quvchilar uchun ko‘proq bog‘lash va ilhomlantiradi. Ilmiy tamoyillarni ko‘rsatish uchun muhim tarixiy eksperimentlarning amaliy tadqiqotlaridan foydalaning. Masalan, talabalar Galileyning harakatdagi tajribalarini yoki Rezerfordning oltin folga tajribasini tahlil qilishlari mumkin [5]. Talabalarni tarixiy olimlar rolini o‘ynashga yoki o‘tmishdagi ilmiy qarama-qarshiliklar bo‘yicha munozaralarga kirishishga undash, tanqidiy fikrlashni va ilmiy jarayonlarni chuqurroq tushunishni rivojlantirish.

4-qadam: Amaliy faoliyat va tajribalarni birlashtirish. Tarixiy ilmiy kashfiyotlarni takrorlaydigan yoki ilhomlantirgan amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar o‘quvchilarga fanning empirik mohiyatini tushunishga yordam beradi. Nyutonning yorug‘lik yoki Mendel no‘xat o‘simliklari genetikasini o‘rganish uchun prizmalar bilan o‘tkazgan tajribalari kabi oddiy tajribalarni qayta yaratish ushbu asosiy kashfiyotlar haqida amaliy tushunchalarni berishi mumkin. Tarixiy nazariyalarga asoslanadigan va ularning joriy ilmiy tamoyillarga mosligini tekshiradigan eksperimentlarni loyihalash o‘quvchilarga o‘tmish va hozirgi ilmiy bilimlar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga yordam beradi.

5-qadam: Texnologiya va raqamli resurslardan foydalanish. Tarixiy ilmiy kashfiyotlar bo‘yicha darslarga texnologiya va raqamli resurslarni integratsiya qilish talabalarning faolligini va foydalanish imkoniyatini oshirishi mumkin. Raqamli simulyatsiyalar, interaktiv vaqt jadvallari va virtual eksperimentlar talabalarga ilmiy yutuqlarni yanada chuqurroq va interaktiv tarzda o‘rganishga imkon beradi.

Interfaol vaqt jadvallari: Tiki-Toki yoki TimelineJS kabi vositalar muhim ilmiy kashfiyotlar xronologiyasini xaritalash uchun vizual vaqt jadvallarini yaratish uchun

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ishlatilishi mumkin. PhET Interactive Simulations kabi veb-saytlar tarixiy ilmiy tushunchalarga mos keladigan virtual eksperimentlarni taqdim etadi, bu esa talabalarga real vaqt rejimida o‘zgaruvchilarni tasavvur qilish va boshqarish imkonini beradi [6].

Tarixiy kashfiyotlarni o‘quv dasturiga moslashtirishning afzalliklari shuki, talabalar ushbu g‘oyalarning vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanganligini va rivojlanishini ko‘rganlarida, ilmiy tushunchalarni chuqurroq tushunishadi. Tarixiy ilmiy munozaralar va yutuqlarni tahlil qilish talabalarni ilmiy izlanishning tabiati haqida tanqidiy fikrlashga undaydi [7].

Tarixiy ilmiy kashfiyotlarning hikoyaviy jihati ilm-fanni yanada jozibador qiladi, o‘quvchilarning qiziqishi va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini rag‘batlantiradi. Tarixiy istiqbollarni integratsiyalash talabalarga kontekstni taqdim etadi va ularga ilmiy bilimlar real vaziyatlarda qanday qo‘llanilishini tushunishga yordam beradi.

Tarixiy ilmiy kashfiyotlarni 7-8-sinflar uchun tabiiy fanlar bo‘yicha zamonaviy o‘quv dasturiga moslashtirish fan ta’limini boyitish uchun qimmatli imkoniyat yaratadi. Ushbu metodologiya nafaqat tarixiy mazmunni o‘quv dasturlari standartlari bilan moslashtiradi, balki talabalarning faolligi va tushunishini oshirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llaydi. O‘tmishni bugungi kun bilan bog‘lash orqali o‘qituvchilar tabiiy fanlarni chuqurroq anglash, tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish va ilmiy savodxonlikni rivojlantirishlari mumkin.

Tarixiy kashfiyotlarning fan o‘quv dasturiga integratsiyalashuvi talabalarga fanni dinamik va rivojlanayotgan soha sifatida ko‘rishga yordam beradi, ularni kelajakdagi ilmiy vazifalarga tayyorlaydi. Tarixiy ilmiy kashfiyotlarni 7-8-sinflar uchun tabiiy fanlar bo‘yicha zamonaviy o‘quv dasturiga moslashtirish o‘quvchilarni qiziqtirish va ilmiy jarayon haqidagi tushunchalarini oshirishning kuchli usuli hisoblanadi [8].

Tarixiy mazmunni joriy ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, yoshga mos materiallar yaratish va o‘tmishdagi kashfiyotlarni zamonaviy ilm-fan bilan bog‘lash orqali o‘qituvchilar tanqidiy fikrlashni, qiziquvchanlikni va tabiat olamini chuqurroq anglashni rivojlantirishi mumkin. Bu metodologiya nafaqat tabiatshunoslik o‘quv dasturini boyitibgina qolmay, balki o‘quvchilarga fanni chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan dinamik soha sifatida ko‘rishga yordam beradi va ularga uning kelajagiga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Murodov G. “Aniq va tabiiy fanlar: aniq va tabiiy fanlar”. //Filologiya ufqlari jurnali. 2023. – T. 12 – №. – B.12.
2. Салохитдинова Н. “Аниқ ва табиий фанлар тушунчаларининг интеграцияси” (Аниқ ва табиий фанлар мисолида) //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 368-371.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

3. Mamanova G, Jurayev X. “Tabiiy fanlar darslarida loyiha asosida o‘qitish metodikasi”. //News of the NUUz. 2024. – T. 1. – №. 1.7. 1. – C. 141-144.
4. Raupova S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini shakllantirishda ilg‘or xorijiy tajribalar //Interpretation and researches. 2024. – T. 1. – №. – B. 10.
5. Mirxalilova N. A, and Akbarova S. S. “Xalqaro TIMSS 2019 tadqiqotida tabiiy fanlar savodxonligi”. Образование наука и инновационные идеи в мире 18.2. 2023. - C. 169-173.
6. Baxriddinovna R. U., Musurmonovich F. S. “Maktabda tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitishning afzalliklari” // Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari//. 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 259-263.
7. Elmuradov B., Mirsalixov B. A., Saytdjanov S. N. “Tabiiy fanlar (fizika va kimyo) ni o‘qitishda talabayoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati”. //Academic research in educational sciences//. 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 325-328.
8. Boymatov B. “Umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitish texnologiyalari”. //News of the NUUz//. 2024. – T. 1. – №. 1.8. 1. – C. 86-88.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Uzoqboyev Xojiakbar Qobiljon o`g`li**, tadqiqotchi, [**Узогбаев, Ходжиакба угли Кабилжона**, научный сотрудник], [**Xojiakbar Q.Uzoqboyev** researcher,];manzil: O‘zbekiston, Namangan sh., Uychi ko'chasi, 316-uy [адрес: Узбекистан, ул. Уйчи, 316, г. Наманган], [address: Uzbekistan, 316, Uychi st., Namangan city]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

INTEGRATSION TA'LIM MUHITIDA O‘QITUVCHILARNING DIGITAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

© X.N. Anvarbekova[1]✉
[1]73-DIUM, Andijon viloyati Jalaquduq tumani, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada integratsion ta’lim muhitida o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish va metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar-dan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali integratsion ta’lim jarayonini takomillashtirish va o‘quv jarayonini interfaol va innovatsion tarzda tashkil etish imkoniyatlarini o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalar va adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Natijalar o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish ta’lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integratsion ta’lim muhitida o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini takomillashtirish ta’lim jarayonini interfaol va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: integratsion ta’lim muhit, raqamli texnologiyalar, o‘qituvchi metodikasi, interfaol ta’lim, kreativ yondashuv, ta’lim sifatini oshirish, raqamli resurslar.

Iqtibos uchun: Anvarbekova X.N. Integratsion ta`lim muhitida o`qituvchilarning digital texnologiyalaridan foydalanish. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 397-403.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПЕДАГОГИ В ИНТЕГРИРОВАННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

© Х.Н. Анварбекова[1]✉
[1]73-DIUM, Андижанская область, Джалакудукский район, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются вопросы повышения навыков и совершенствования методики использования цифровых технологий учителями в интеграционной образовательной среде.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — улучшение интеграционного образовательного процесса за счет повышения знаний и навыков учителей в использовании цифровых технологий и изучение возможностей для организации учебного процесса в интерактивной и инновационной форме.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы передовые педагогические практики и литература по использованию цифровых технологий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что повышение навыков работы учителей с цифровыми технологиями значительно улучшает качество учебного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что совершенствование навыков учителей в использовании цифровых технологий в интеграционной образовательной среде способствует интерактивной и эффективной организации учебного процесса.

Ключевые слова: интеграционная образовательная среда, цифровые технологии, методика учителя, интерактивное обучение, креативный подход, повышение качества образования, цифровые ресурсы.

Для цитирования:Анварбекова.Х.Н. Использование цифровых технологий педагогов в среде интегрированного образования.// Inter education & global study.2024. №8(1). С.397-403.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES BY TEACHERS IN AN INTEGRATED EDUCATIONAL ENVIRONMENT

©Xilola N. Anvarbekova[1]✉
[1]73-DIUM, Andijan, Jalakuduq district, Andijan region, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the issues of enhancing teachers' skills and improving methods for using digital technologies in an integrative educational environment.

AIM: the main objective of the study is to improve the integrative educational process by increasing teachers' knowledge and skills in digital technology usage and exploring opportunities to organize the learning process in an interactive and innovative way.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed advanced pedagogical practices and literature on the use of digital technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that improving teachers' digital technology skills significantly enhances the quality of the educational process.

CONCLUSION: the study results indicate that improving teachers' digital technology skills in an integrative educational environment helps organize the learning process interactively and effectively.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Keywords: integrative educational environment, digital technologies, teacher methodology, interactive learning, creative approach, improving education quality, digital resources.

For citation: Xilola N. Anvarbekova. (2024) 'Use of digital technologies of teachers in the environment of integrated education', Inter education & global study, (8(1)), pp. 397-403. (In Uzbek).

"Kechagi bilim bilan bugungi va ertangi zamonni qura olmaymiz"

Shavkat Mirziyoyev

Ta'lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar ta'limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda.

Dunyo texnologik taraqqiyotni davom ettirar ekan, ta'lim ham u bilan tez rivojlanmoqda. An'anaviy sinf xonalari endi noutbuklar, planshetlar va hatto smartfonlardagi virtual yoki aralash o'quv muhitlari bilan to'ldirilmoqda va ba'zi hollarda almashtirilmoqda . Ushbu siljish bilan o'qituvchilar moslashishi va raqamli platformalar orqali o'qiyotgan talabalarini jalb qilishning samarali usullarini topishlari kerak.Bu erda raqamli vositalar o'ynaydi. Bu vositalar o'quvchilar uchun virtual va aralash ta'lim tajribasini kuchaytirib, darslarni interaktiv, qiziqarli va natijada samaraliroq qiladi. Ushbu qo'llanmada biz o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning virtual va aralash muhitda o'qishini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil raqamli vositalar mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi, ta'limning yangi metodlaridan keng foydalanish, moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, masofaviy ta'limni joriy etish, ta'lim tashkilotlarining mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning hamda ta'lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etish tizimni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim sohasida integrallashuv katta ahamiyatga ega hisoblanib kelinmoqda. Shuningdek, N.M. Ahmedova o'z tadqiqot ishlarida integratsiya ob'ektlarining o'zaro joylashuviga ko'ra ular yangi integratsion tuzilmaning asosi sifatida ma'-lum tuzilishiga: integratsiya ob'ektlari zanjir bo'g'inlari kabi ketma-ket joylashishi; bitta ob'ekt boshqalari uchun aloqa vositasi bo'lib xizmat qilishi; bir ob'ekt boshqalarini o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi, ta'limning yangi metodlaridan keng foydalanish, moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

foydalanish, masofaviy ta‘limni joriy etish, ta‘lim tashkilotlarining mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta‘lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning hamda ta‘lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etish tizimni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi.

A.A. Xasanov ta’kidlab yozadi, “O’quv mavzularini o’rganishda takrorlashning yo’qolishi turfa imkoniyatlarni keltirishini izohlab, alohida
masalalarni o’rganishda muddatni belgilash imkoniyati, ilmiy tushuncha tavsifidagi o’xshashlik, izchillik, o’ziga xoslik hamda ular orasidagi aloqadorlik muhim pedagogik vazifalarni hal etadi”. Muallif o’z mulohazalarida asosli ta’kidanganidek, fanlararo aloqadorlik kontsentrizm tamoyiliga mos ravishda takroriylikning imkoniyatini cheklaydi hamda ichki va tashqi to’g’onoqlarni bartaraf etadi.

Fransuz olimi K. Allegr ta’kidlaganidek, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, ularning individual va guruhiy ishlarini, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham kasb-hunar o‘quv yurtlarining asosiy vazifasidir. Psixologlarning tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda bilimlarini shakllantirish o‘qituvchi rahbarligida, maqsadli tashkil qilingan faoliyat jarayonida samarali rivojlanadi va bu pedagogik jarayonda o‘z aksini topadi. Faqatgina samarali tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchida o‘quv muammosini mustaqil hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish va o‘rganilayotgan bilimlar yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini yaratadi.

N.Muslimovning fikricha mustaqil ta’lim - bilimlarni o‘zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bo‘yicha o‘quv jarayonining sub’ektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda yagona faoliyatni tashkil etish demakdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini ham inobatga olgan holda baholashni e’tiborga olish muhimdir.[3]

Natijalar. Fanlararo aloqadorlikning didaktik asosi boshlang’ich maktab o’quv dasturlarida tasvir vositalarini birlashtirib, mavzulararo turdosh manbalar yaqinligi-yu rang-barangligini ifodalovchi manbalar zanjirini hosil qiluvchi yaxlit bilimlar shakllanishini inkor etmaydi. Chunonchi, boshlang’ich sinf o’quv dasturi va fanlari bir-biriga yaqinligi jihatidan, o’quv fanlarini o’zlashtirish asnosida to’plangan kontent-bilimlarni fanlararo aloqadorlik maqsadiga ko’ra boshqasiga ko’chirishda foydalanish usuli o’quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo takomillashtirish metodikasi samaradorligining zaruriy didaktik sharti hisoblanadi. Masalan boshlang’ich sinfda o’quvchilarni kichik guruhlarga bo’lib didaktik materiallar asosida o’yinli darslarni tashkil qilsak bo’ladi. Bunda biz misol tariqasida “Uzum pishdi, bog`ga kir” o`yini texnogiyasidan foydalansak bo’ladi. Bu o`yinni kichik guruhlarda o`ynash yaxshi samara beradi. Har bir guruh uchun “Uzum” maketi tarqatiladi. Uzum bargidagi topshiriqqa asosan uzum “pishiriladi”.(O`quvchilar uzum donalariga kompyuterning qurilmalari haqida so`zlarni yozadilar.) Qaysi guruh topshiriqni to`g`ri va tez bajarsa, shu guruh g`olib hisoblanadi.

Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar o‘rganilishi kerak bo‘lganda, shuningdek o‘quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Bir nechta o‘quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o‘zaro hamkorlik vujudga keladi. Guruhli bo‘lib ishlashda ikkita holat farqlanadi: - bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi; - har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi Bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida bir necha guruhlarga bir xil topshiriqlar beriladi. Topshiriq va mashqlarni yechish sharoitlari ham bir xil bo‘ladi. O‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta’lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O‘quv va didaktik materiallarga qo‘shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi.

Shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to‘g‘risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Predmet vositalari tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flipchart, kodoskop (proektor) kamera va компьyuterlar kiradi. Tajriba ishi sohasiga tegishli kerakli tajriba uskunalari, namunalar, jihozlar va asboblar nazariy dars yoki amaliy mashg‘ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo‘lsa, o‘quv vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va zamonaviy ta‘lim mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yaratishi uzoq vaqtdan ma‘lum. Ta‘lim jarayonida zarur bilim va ko‘nikmalar, kasbiy munosabat, faoliyatning ayrim turlariga va uning tuzilishiga tayyorlik to‘plami shakllanadi. Ta‘lim ma‘lum qobiliyatlarning rivojlanish darajasini belgilaydi va hatto mutaxassisning individualligi yoki shaxsiy xususiyatlarini to‘g‘rilaydi va shakllantiradi.[6.29]

Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o’zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o’zgartiradi, o’rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o’qitish usullarini qo’llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg’ulotlar o’tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo`llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma’lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo’ladi.[2]

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o`stirish va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o`z ustida ko`proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. [3]

Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin. Quyida raqamli texnologiyalrni bazilariga to'xtalib o'tamiz: bulutili texnologiyalar –internet foydalanuvchisiga on-layn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir.

Raqamli texnologiyalar - narsalar interneti (Internet of Things, IoT). Raqamli axborotga asoslangan asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar internetidir. Ko'pgina maishiy texnikaning elektr tarmog'iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko'proq ob'ektlari Internetga ulanadi, bu esa ma'lumot to'plash va hatto ushbu ob'ektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Darhaqiqat, Internetda ob'ekt va tashqi dunyoning turli parametrlarini o'z ichiga olgan va Internet orqali ob'ektni boshqarish imkonini beruvchi jismoniy ob'ektning virtual nusxasi paydo bo'ladi. Narsalar internetiga misol qilib, kinoteatrdagi proyektor kabi qurilma texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga aniqlangan nosozlik va rejadan tashqari ta'mirlash doirasida almashtirilishi kerak bo'lgan ehtiyot qismlar ro'yxati haqida signal yuboradi.[4]

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo`llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

borganmiz. Bu esa o`z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo`lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim, zero, bugungi kunning talabi ana shundan iborat. Maktabgacha ta'lim esa mazkur jarayonlarda bolalikdan ezgulik haqidagi tuyg'ularni, tabiat va insoniyatga bo'lgan munosabatni, jamiyat hayotiga mas'uliyatni, insoniyatga bo'lgan qarashlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida yaratish imkoniyatini rivojlantirish bilan mazmunlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мирзахмедова, Н. Д. (2015). Применение макросов в программе Power Point для создания тестовых заданий. Наука, техника и образование, (4 (10)), 180-182.
2. Абдурахманова, Ш. А. (2017). Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (1), 428-430.
3. Sh.A.Abduraxmanova, & X. Jo'rayev. (2022). MODERN WEB TECHNOLOGIES USED IN PROFESSIONAL EDUCATION. Conference Zone, 178–179. Retrieved from http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/248
4. Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova. (2022). INDIVIDUALIZATION OF PROFESSIONAL EDUCATION PROCESS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. World Bulletin of Social Sciences, 8, 65-67. Retrieved from https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/721
5. Shahnoza, A. (2019). ABOUT ONE ASPECT OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'INTELLECTUAL SKILLS USING MULTIMEDIA INTERACTIVE TESTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)
6. Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna. Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish va kompetentli yondashuv mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 19-20-may 2023-yil II QISM

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Anvarbekova Xilola Numan qizi,** o`qituvchi,[ **Анварбекова Хилола Нуман кизи**, учительница.],[ **Xilola N. Anvarbekova** teacher];manzil: O'zbekiston, Andijon viloyati, Jalolquduq tumani, Beshtol shaharchasi Xamza MFY, Beshtol ko`chasi [аддрес: Узбекистан, ул Андижанская область, Джалалкудукский район, город Бештол, Хамза МФМ, улица Бештол.], [address: Uzbekistan, Andijan region, Jalalkuduq district, Beshtol town, Khamza MFY, Beshtol street.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUHANDIS MEXANIKLARNI RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING USULLARI

© Y.R. Najmiddinova[1]✉

[1]Namangan muxandislik qurilish instituti, Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Bugungi kunda texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandis mexaniklarni tayyorlash jarayonida zamonaviy va samarali ta'lim usullarini qo'llash dolzarb ahamiyatga ega. Muhandis mexaniklar sanoat va ishlab chiqarish sohasida texnik muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etishda muhim rol o'ynaydilar.

MAQSAD: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandis mexaniklarni tayyorlashda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim usullarini tahlil qilish va ularning o'quv jarayonida samaradorligini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: So'rovnoma natijalariga ko'ra, zamonaviy ta'lim usullari o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi, ularning texnik sohadagi bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarning fikricha, modellashtirish va simulatsiya vositalaridan foydalanish real muhandislik vaziyatlariga tayyorlanishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: adqiqot davomida aniqlanishicha, muhandis mexaniklarni tayyorlashda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim usullari ularning texnik ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya darslari o'quvchilarning real texnik muammolarni echish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni ish o'rinlariga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandis mexaniklarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim usullarini qo'llash samarali natijalar beradi. Amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va simulatsiya texnologiyalari yordamida o'quvchilar texnik bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Kalitso'zlar: muhandis mexaniklar, texnika oliy ta'lim muassasalari, ta'lim usullari, amaliy mashg'ulotlar, simulatsiya, modellashtirish, texnik ko'nikmalar, innovatsion ta'lim

Iqtibos uchun:Najmiddinova.Y.R.Texnika oily ta`lim muassasalarida muhandis mexaniklarni rivojlantiruvchi ta`limning usullari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B. 404-410.

МЕТОДИКА РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ИНЖЕНЕРОВ-МЕХАНИКОВ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

© Ё.Р. Нажмидиннова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

[1]Наманганский инженерно-строительный институт, Наманган, Узбекистан

Аннотатсия

ВВЕДЕНИЕ: на сегодняшний день актуальное значение приобретает использование современных и эффективных образовательных методов в процессе подготовки инженеров-механиков в технических вузах. Инженеры-механики играют важную роль в решении технических проблем, создании и внедрении новых технологий в области промышленности и производства.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – проанализировать современные образовательные методы, используемые при подготовке инженеров-механиков в высших технических учебных заведениях, и определить их эффективность в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: согласно результатам анкетирования, современные методы обучения повышают интерес учащихся к процессу обучения, развивают у них навыки применения знаний в технической сфере. По мнению студентов, использование инструментов моделирования и симуляции помогает подготовиться к реальным инженерным ситуациям.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования установлено, что современные образовательные методы, используемые при подготовке инженеров-механиков, существенно повышают их технические навыки. Практика и лабораторные занятия развивают у студентов способность решать реальные технические задачи, играют важную роль в подготовке их к работе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что использование современных образовательных методов при подготовке инженеров-механиков в технических вузах дает эффективные результаты. С помощью практических занятий, лабораторных занятий и технологий моделирования студенты получат возможность применить свои технические знания и навыки на практике.

Ключевые слова: инженеры-механики, технические вузы, методы обучения, производственная практика, симуляция, моделирование, технические навыки, инновационное образование.

Для цитирования: Нажмиддинова.Ё.Р. Методика обучения, готовящая инженеров-механиков в технических семейных образовательных учреждениях. // Inter education & global study.2024. №8(1). С. 404-410.

METHODS OF DEVELOPMENTAL EDUCATION OF MECHANICAL ENGINEERS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

©Yoqutxon R. Najmiddinova[1]✉
[1]Namangan Engineering Construction Institute, Namangan, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

INTRODUCTION: today, the use of modern and effective educational methods in the process of training mechanical engineers in technical higher education institutions is of urgent importance. Mechanical engineers play an important role in solving technical problems, creating and introducing new technologies in the field of industry and production.

AIM: the main goal of this study is to analyze modern educational methods used in the training of mechanical engineers in higher technical educational institutions and to determine their effectiveness in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: according to the results of the survey, modern educational methods increase students' interest in the learning process, develop their skills in applying knowledge in the technical field. According to the students, the use of modeling and simulation tools helps to prepare for real engineering situations.

DISCUSSION AND RESULTS: during the research, it was found that the modern educational methods used in the training of mechanical engineers significantly increase their technical skills. Practical training and laboratory classes develop students' ability to solve real technical problems, play an important role in preparing them for jobs.

CONCLUSION: The results of the research show that the use of modern educational methods in the training of mechanical engineers in technical higher education institutions gives effective results. With the help of practical exercises, laboratory classes and simulation technologies, students will have the opportunity to apply their technical knowledge and skills in practice.

Key words: mechanical engineers, technical higher education institutions, educational methods, practical training, simulation, modeling, technical skills, innovative education

For citation: Yoqutxon R. Najmiddinova (2024) 'Methods of education that develop mechanical engineers in technical family educational institutions', Inter education & global study, (8(1)), pp. 404-410. (In Uzbek).

Jahon iqtisodiyotini integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarining ko'chayib borishi bilan halqaro maydondagi raqobat ham keskinlashadi. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalarida rivojlantiruvchi ta'limning o'rni va ahamiyati bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Rivojlantiruvchi ta'lim muhandis-mexaniklarni o'qitish nazariyasi va amaliyotidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim deyilganida o'qitishni shunday tarzda tashkil etish tushuniladiki, bunda o'quv jarayoni mazmuni, o'qitish metod va shakllari talabalarni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltiriladi. Eng avvalo, rivojlantiruvchi ta'limning muhim farqli jihatlari haqida to'xtalib o'tmoq lozim. Rivojlantiruvchi ta'lim ham axborot-reproduktiv ta'limdagi singari uchta asosiy pedagogik vazifa, ya'ni o'qitish (bilim berish), rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari orqali amalga oshiriladi. Bu vazifalar har bir darsda mavzuni o'rganishda joriy etilishi mumkin [1].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Ammo rivojlantiruvchi ta’lim axborot-reproduktiv (faqat ma’lumotlar berish, quruq yodlash, tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga asoslangan) ta’limdan farq qiladi.

Rivojlantiruvchi ta’limda: a) ta’limiy vazifa (o‘qitish, bilim berish vazifasi) axborot-reproduktiv tizimdagi kabi tayyor ma’lumot-materiallarni quruq yodlashni emas, balki nazariy tushunchalar(qonuniyatlar, qonunlar, nazariyalar)ni va amaliy ko‘nikmalarni puxta egallashni nazarda tutadi. Ular muhim belgilariga ko‘ra o‘quv axborotidan alohida ajratib o‘rganiladi; b) rivojlantirish vazifasi ilmiy ijodkorlik metodlarini o‘zlashtirish uchun o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida talabalarning ijodiy faoliyatiga ustuvorlik berishni nazarda tutadi; v) tarbiyalash vazifasi talabalarda ijtimoiy ijodkorlikning asosiy texnologiyalari (yoki ularning ayrim amallari)ni mustaqil qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa o‘qituvchi va talabalarning izchil muloqoti va hamkorligini taqozo etadi.

Rivojlantiruvchi ta’lim tuzilmasi qiyinlashtirilib boriladigan predmet masalalaridan iborat bo‘lib, ular talabalarda yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga ehtiyoj uyg‘otadi, yechimlarning yangi sxemalarini yaratish va faoliyatning yangi usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda nafaqat ilgari o‘zlashtirilgan bilim va faoliyat usullari faollashtiriladi, balki yangi farazlar ilgari suriladi, g‘oyalar izlanadi va original yechimlar ishlab chiqiladi. Buning natijasida talabalar ta’lim jarayonida intellektual va shaxsiy sifatlarini, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Rivojlantiruvchi ta’lim jarayonida o‘qituvchining asosiy vazifasi muhandis-mexaniklarning mustaqil bilishi va kasbiy malakalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv va amaliy faoliyatini tashkil etishdan iborat [2,9].

Ta’limning rivojlantirish vazifasi muhandis-mexaniklarni ijodiy tasavvurlarini, fikrlashi, xotirasi, nutqi, amaliy kasbiy ko‘nikmalarini boytishga qaratilgan turli faoliyatlarga jalb etish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi talabalarni turli amaliy o‘quv faoliyatiga jalb etib, ularning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yanada rivojlantiradi.



1-Rasm. Muhandis-mexaniklarni rivojlantiruvchi ta’limning trayektoriyasi.

Rivojlantiruvchi ta’limdagi eng asosiy masalalardan biri – bu talabaning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdir. Rivojlantiruvchi ta’limda talaba nafaqat muayyan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini o‘zlashtiradi, balki o‘zining o‘quv faoliyatini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

boshqarish usullarini ham egallaydiRivojlantiruvchi ta’limga qator umumiy talablar qo‘yiladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi (1-rasmga qarang): maqsadga yo‘nalganlik; motivatsiya; amaliy yo‘nalganlik; o‘qitishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi; qaytar aloqaning mavjudligi.

Ta’limning maqsadga yo‘nalganligi o‘qitish maqsadini aniq tasavvur etishni nazarda tutadi [10].

Ta’lim motivatsiyasi turlicha bo‘lishi mumkin: yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga qiziqish; kelgusida o‘zi egallagan kasb bo‘yicha ishlashga intilish; boshqalar bilan muloqotga kirishish istagi va boshqalar. Ta’limning amaliy yo‘nalganligi. Ishlab chiqarish ta’limi, eng avvalo, aniq korxona yoki tashkilotda muayyan amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltiriladi. O‘qitishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi dasturning izchilligini va ta’limni kompleks amalga oshirishni nazarda tutadi. Qaytar aloqaning mavjudligi. Bu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, ta’lim natijasi uning maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Ta’lim samaradorligio‘qitish maqsadiga erishish natijasiga iarab baholanadi.

O‘qish jarayonida muhandis-mexaniklarni doimiy ravishda aqliy jihatdan rivojlantirish va tarbiyalab borish lozim. Buning uchun, eng avvalo, o‘qituvchi talabalarning rivojlanish darajasini qayd etishni o‘rganishi zarur. Agar muhandis-mexaniklar oldiga aniq maqsad qo‘yilsa va bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish zarurati tug‘ilsa, ularning aqliy jihatdan rivojlanishi ancha muvaffaqiyatli bo‘ladi. Talaba muayyan vazifani amalga oshirish uchun fikrlaydi, izlanadi. Bu ish bir necha amallarni o‘z ichiga qamrab oladi. U kuzatadi, tahlil qiladi, o‘quv masalalarini yechish uchun ma’lum qoidalarni qo‘llaydi. Shuning uchun, o‘qituvchi talaba chuqur fikrlashga o‘rgatishi kerak. Ta’limning rivojlantirish vazifasi ana shundan iborat [3,8]. Ta’lim ham, tarbiya ham talaba shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, ta’limning rivojlantirish vazifasi haqida so‘z yuritishga zarurat yo‘qdek tuyuladi. Ammo bugungi kunda amaliyot ko‘rsatadiki, o‘qitish jarayonida ta’limning rivojlantirish vazifasini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish mumkin. Bunda ta’limning maxsus rivojlantiruvchi yo‘nalishi shakllantiriladi. Talabalar sensor qabul qilish, harakat, intellektual, irodaviy, emotsional, motivatsion va kasbiy-amaliy ko‘nikma va malakarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlariga jalb etiladi. Ana shunga bog‘liq holda, o‘tgan asrning oltmishinchi yillarida pedagogikada «rivojlantiruvchi ta’lim» atamasi paydo bo‘ldi [4]. Rivojlantiruvchi ta’lim talabalarda nafaqat bilim va maxsus amaliy ko‘nikmalarni, balki shu bilan birga ularni umumiy rivojlantirishni va bu borada maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

L.V. Zankovning e’tiroficha[6], ta’lim jarayonida talabalarni ijodiy fikrlashini jadal rivojlantirish uchun o‘qitishni qiyinlik darajasi ortib boradigan tartibda tashkil etish, talabalarning o‘z o‘quv-amaliy faoliyati mazmunini anglab yetishini ta’minlash zarur. Shu bilan birga, talabalarda «fikrlash» yoki «kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish» tushunchasini “shakllantirish” tushunchasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Rivojlanish shaxsning barcha sohalarini qamrab oladi. Va shuning uchun ham, hozirgi zamon didaktikasida ta'limning rivojlantiruvchi ta'sirini kengaytirish yo'llari izlanmoqda. Ta'limning rivojlantirish vazifasining o'ziga xosligi shundaki, u mustaqil ravishda mavjud bo'la olmaydi, balki o'qitish (bilim berish) va tarbiyalash vazifalarining natijasi hisoblanadi. Talabaning rivojlanishi o'qitish jarayonida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning qanchalik darajada muvaffaqiyatli joriy etilganligiga bog'liq [5,7]. Ta'limning bu uch vazifasini o'quv jarayoni oqimida «bir-birlari bilan kesishmaydigan uch parallel chiziq» tarzida tasavvur etib bo'lmaydi.Ular bir-biri bilan qo'shilib ketadi va o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi: biri ikkinchisidan oldin amalga oshib, boshqasi uchun sabab bo'lishi, uchinchisi uning oqibati bo'lib, ayni vaqtda birinchi sababni faollashtirishi mumkin. O'qitish (bilim berish) va tarbiyalash vazifalarining birligi ta'limning rivojlantirish vazifasining asosini tashkil etadi. Rivojlantirish vazifasi ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni jadallashtiradi. Ta'limning vazifalari dialektik xarakterga ega.

Biz muhandis-mexaniklarni nafaqat kasbiy ko'nikmalarini, balki metapredmet kompetensiyalarni hamda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish holatini o'rganish maqsadida so'nggi yillarda nashr etilgan bir qancha psixologik-pedagogik va o'quv adabiyotlarini tahlil qilib chiqdik. Ularda asosan talabalarga bilim berish metodikasi va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash mashqlari haqida so'z yuritilgan. Holbuki kasbiy-amaliy ko'nikmalar va ijodkorlik qobiliyatining rivojlanishi bevosita amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq. Shu bois, eng avvalo, kasbiy ko'nikmalarni va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish yo'llari haqida so'z yuritmoq lozim.

Shuni eslatib o'tish lozimki, rivojlantiruvchi ta'lim talabalarni tizimli o'qitishdan iborat. Ijodkorlikka o'rgatish talabalarni ijodiy faoliyat metodlari va texnologiyalari bilan tanishtirishni talab etadi. Muammolarni yechish va tizimlarni rivojlantirish metodlari eng muhim hisoblanadi. Muammolarni yechish va tizimlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan metodlari bugungi kunda rivojlantiruvchi ta'lim tizimida yetishmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkunki ta'lim, ijodkorlik va rivojlanishning bog'liqligi muammosini qarab o'tishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim: talabaning shaxsi va kasbiy amaliy ko'nikma va malakalarini hamda metapredmet kompetensiyalarini rivojlantirish va uni ijodiy yondashuvlarga o'rgatish ancha murakkab involyutsion-evolyusion jarayon bo'lib, uning natijasida xulq-atvori, shaxsi, faoliyati va aql-idrokida progressiv o'zgarishlar yuz beradi. Jamiyat taraqqiyoti bo'lajak mutaxassislar shaxsi, kasbiy ko'nikmalari, ijodkorligi va axloqiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mutlaqo yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Bu esa ta'limda istiqbolli yo'nalishlarni belgilash va yangi strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 1.Нажмиддинова Ё.Р. Коллеж талабаларида касбий кўникмаларни ривожлантириш методикаси. Монография. - Тошкент.- "Sano-standart" 2018. 128.б.
2. 2.Najmiddinova Yo. R. Conditions of Forming Professional Abilities and Skills on

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Competence Approach among Colleges Students // Eastern European Scientific Journal. – Germany, 2018. -№4. – P.196-199.
3. Najmiddinova Yo. R., Inamov D. D., Davronova M. U., Inamiddinova D. K. METHODOLOGY OF THE FORMATION OF GENERAL VOCATIONALTRAINING IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF COMPETENCY APPROACH // PALARCH'S JOURNAL OF ARCHAEOLOGY OF EGYPT / EGYPTOLOGY, PJAEE, 17 (6) (2020). – 3663-3679 page. http://www.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1482
4. Najmiddinova Yo. R., Ibragimov R. Sh., Yigitaliyev J. A. THE CONCEPT OF ICT COMPETENCE OF PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF HAVING ICT COMPLEMENT AND INFORMATION CULTURE // INTERNATIONAL ENGINEERING JOURNAL FOR RESEARCH AND DEVELOPMENT - Vol. 5 Issue 2, March 2020... http://www.iejrd.com
5. Нажмиддинова Ё.Р. Regional training centers: the establishment, implementation, prospects // Высшая школа. – Уфа., 2017. -№ 11. -Б. 40-42.
6. Занков Л. В. Избр. пед. Труды. –М., 1990. С. 102–115.
7. ЁКУТХОН Н., Абдуллаева Н., МУХАЙЁ Д. Перспективы адаптации выпускников профессиональных колледжей на производственных предприятиях //European research. – 2016. – №. 3 (14).
8. Нажмиддинова Ё.Р. Запрограммированная вспомогательная компьютерная система – как информatsionно-образовательная среда в обучении инженеров-техников // ЎзМУ Хабарлари, 2019.№1/2.- 131-134 стр.
9. Нажмиддинова Ё.Р., Давронова М.У. Бўлажак муҳандис-техникларда касбий тарбия муаммоси. – "Техника ва технологик фанлар соҳаларининг инноватsion масалалари" мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани. ТДТУТФ -2020 йил. 24-бет.
10. Askarov I. B. Management and planning of the formation of research skills of future teachers of vocational education // School of the future. - 2017. - No. 2. - p. 10-15.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Najmiddinova Yoqutxon Ruxiddinovna**,dotsent [**Нажмиддинова Ёқутхон Рухиддиновна**,доцент],[**Yoqutxon R.Najmiddinova** associate professor]; manzil: O'zbekiston, 160100, Namangan viloyati, Shahar: Namangan, Islom Karimov ko'chasi (sobiq Do'stlik shoh ko'chasi), 12 [adrec: Uzbekistan, ul. 160100, Namanganskaya oblast, Gorod: Namangan, uliца Islama Karimova,],[address: Uzbekistan, 160100, Namangan region, City: Namangan, Islam Karimov Street (formerly Do'stlik Shoh Street).]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING FONEMATIK IDROKINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA KORREKSION PEDAGOGIK ISH MAZMUNI

© Z.M. Axmedova[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan korreksion pedagogik ishning mazmuni va ahamiyati yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda fonematik idrokni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan korreksion pedagogik yondashuvlarni aniqlash va samarali metodlarni ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi va nutqiy nuqsonlarni aniqlash uchun diagnostik testlar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, nutqiy nuqsonlarga ega bolalarda fonematik idrokni rivojlantirish logopedik mashg‘ulotlar va maxsus pedagogik yondashuvlar yordamida sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

XULOSA: Tadqiqot natijalari fonematik idrokni rivojlantirish bo‘yicha korreksion pedagogik ishlarning bolalarning nutqiy rivojlanishidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: fonematik idrok, nutqiy nuqson, korreksion pedagogika, logopedik mashg‘ulotlar, tinglash mashqlari, nutqiy rivojlanish, talaffuz.

Iqtibos uchun: Axmedova.Z.M. Nutqida nuqsoni bo`lgan bolalarning fonematik idrokini rivojlantirish bo`yicha korreksion pedagogik ish mazmuni.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.411-416.

СОДЕРЖАНИЕ КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ ФОНЕМИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ ДЕТЕЙ С ДЕФЕКТАМИ РЕЧИ

© З. М. Ахмедова[1]✉

[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье раскрывается содержание и значение коррекционной педагогической работы, направленной на развитие фонематического восприятия у детей с речевыми нарушениями.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить коррекционные педагогические подходы, необходимые для развития фонематического восприятия у детей с речевыми нарушениями, и разработать эффективные методы.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ педагогической литературы, направленной на развитие фонематического восприятия, а также использовались диагностические тесты для выявления речевых нарушений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что развитие фонематического восприятия у детей с речевыми нарушениями может быть значительно улучшено с помощью логопедических занятий и специальных педагогических подходов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают важность коррекционной педагогической работы для развития фонематического восприятия в речевом развитии детей.

Ключевые слова: фонематическое восприятие, речевые нарушения, коррекционная педагогика, логопедические занятия, упражнения на восприятие, речевое развитие, произношение.

Для цитирования:Ахмедова.З.М. Содержание коррекционно-педагогической работы по развитию фонематического восприятия детей с дефектами речи.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 411-416.

CONTENTS OF THE CORRECTION PEDAGOGICAL WORK ON DEVELOPING THE PHONEMIC PERCEPTION OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS

©Zuxra M. Axmedova[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights the content and significance of correctional pedagogical work aimed at developing phonemic perception in children with speech impairments.

AIM: the main objective of the study is to identify the correctional pedagogical approaches necessary for developing phonemic perception in children with speech impairments and to develop effective methods.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing pedagogical literature focused on developing phonemic perception, as well as using diagnostic tests to identify speech impairments.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that phonemic perception development in children with speech impairments can be significantly improved through speech therapy sessions and special pedagogical approaches.

CONCLUSION: the study results confirm the importance of correctional pedagogical work for phonemic perception development in children's speech development.

Keywords: phonemic perception, speech impairment, correctional pedagogy, speech therapy sessions, listening exercises, speech development, pronunciation.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Zuxra M. Axmedova. (2024) 'Content of corrective pedagogical work on the development of phonemic perception of children with speech defects', Inter education & global study, (8(1)), pp. 411-416. (In Uzbek).

Nutq inson uchun bilish, faollikni rivojlantirish, atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo'lishning asosiy vositasidir. Inson shaxsining kamol topishida nutq juda katta ahamiyatga ega. Nutq - til tizimi bo'lib ko'plab aloqalarga kirishadi, jumladan, ma'noni so'zga aylantiradigan hamda inson ongi va his-hayajonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan semantik axborot apparati, psixofiziologik hodisasi, muloqot va ijtimoiy aloqa vositachilari ularning asosiylari hisoblanadi.

Nutq faoliyatining ayrim tomonlarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni aniqlash maqsadida quyidagi maxsus ishlar amalga oshiriladi: talaffuz malakalarini shakllantirish; fonematik idrokini rivojlantirish; tovush analiz va sintezi ko'nikmalarini rivojlantirish.

Korreksion ta'limning maqsadi - bolalarda umumiy va nutq kamchiliklarini tuzatish hamda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus logopedik metod va usullarni qo'llash yo'li bilan bolaning yoshiga muvofiq lug'at boyligi va mustaqil nutq bilan birga to'g'ri, aniq, ravon nutqni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Logopedik mashg'ulotda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: bolalarda so'zning morfologik tarkibiga va so'zlarning o'zgarishga e'tiborni jalb etish hamda so'zlarning gapda bog'lanishini rivojlantirish. Bolalarga oddiy yoyiq va qo'shma gaplarni to'g'ri tuzishlari, mustaqil nutqda turli konstruksiyadagi gaplarni qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalash, mustaqil nutqni rivojlantirish, lug'atini boyitish, talaffuzini to'g'irlash asosida savodga o'rgatish, ixtiyoriy diqqat va xotirani, eshituv idrokini rivojlantirishni o'rgatish.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan korreksion ish tizimi shartli ravishda 3 davrga bo'linadi. Ularning har birining mazmuni va xajmi jixatidan farq qilgan xolda bir-biriga bog'liqdir. Korreksion logopedik ishning oldingi davri keyingi davrdagi ish mazmunini o'zlashtirib olishga bolalarni tayyorlaydi.

Tayyorlov davrda olib boriladigan ishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: artikulyatsion apparat xarakatchanligini rivojlantirish, to'g'ri talaffuz qilinadigan tovushlarni aniqlash, tovushlarni nutqga qo'yish, eshituv idrokini rivojlantirish, tovushlar differensiatsiyasi ustida ishlash, so'z va bo'g'in ichidan tovushni ajratish. Nutqning tovush tomonining shakllanishida faqatgina artikulyator motorikaning efferent zvenosining shakllanganligi emas, balki nutqiy sezgilar- kinesteziyalar ham muhim axamiyat kasb etadi. N.I Jinkin qaytish reaksiyasining bo'lmasligi nutqiy organlar xarakati mashqlari uchun tajriba to'planishini to'xtadi deb ta'kidlagan, qaytish reaksiyalarining (kinesteziya) kuchayishi nutqni o'zlashtirishni tezlashtiradi va engillashtiradi. Xarakat – kinestetik aloqalarni rivojlantirish uchun tovush talaffuzi vaqtida artikulyator organlar xolatini aniqlovchi maxsus mashqlar bajartiriladi. Mashqlarni bajarish jarayonida bolalarning diqqati doimo kinestetik sezgilarga qaratiladi. Artikulyator xarakatlarning kinestetik asosini shakllantirish turli xil mashqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Artikulyatsion apparat xarakatchanligini va to‘g‘ri artikulyatsiyani tarbiyalash ishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: statik va dinamik mashqlar, artikulyator apparat xarakatchanlik kuchini, xarakatlar aniqligini rivojlantirish, nutq apparat muskullaridagi taranglikni yo‘qotish, xarakatlarning me’yoriy tempini tarbiyalash.

Korreksion ta’limning birinchi davridagi vazifalardan biri tovushlarni nutqga qo‘yish, bolalarda buzilgan artikulyatsion tizimlarni korreksiyalashga yo’naltirilgan. Tovushlarni nutqga qo‘yish individual mashg‘ulot davomida, har bir bolaga 10 – 15 daqiqa ajratilgan xolda olib boriladi. Xar bir aniq xolatda tovushlarni nutqga qo‘yish usullari tanlanadi. Ularni tanlashda bola shaxsiga, talaffuzdagi kamchilik hususiyatlariga, nutq hususiyatlariga e’tibor berilishi lozim. Tovushni nutqga qo‘yish bo‘yicha olib boriladigan ishlar rejalashtirilar ekan, logopedik ishni va tovushni nutqga qo‘yish qoidalarini ketma-ketligini xisobga olish zarur. Asosiy diqqat e’tibor tovush artikulyatsiyasini ongli ravishda mustaxkamlashga qaratilib, bolalar til, lablar, qay xolatda turganligini ko‘rsatib va aytib bera olishlari kerak. Bolalar diqqati ko‘proq tovushlar artikulyatsiyasiga qaratiladi. Korreksiyalash usullari artikulyatsion apparat tuzilishi va funksiyasini xisobga olgan xolda tanlanadi.

Nutqning fonetik - fonematik rivojlanmaganligini korreksiyalash analitik- sintetik mashqlarni murakkablashtiruvchi tizim orqali logopediyada qabul qilingan usullarni qo‘llash bilan olib boriladi. Bunda bolalarni nutq organlari artikulyatsiyasiga ongli yondoshishga, o‘z talaffuzini nazorat qilishga, nutqga qo‘yilgan tovushlarnigina emas, balki nutqdagi barcha tovushlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz etishga, tovushlarni xosil bo‘lish o‘rni va jarangdorligiga ko‘ra tasniflab berishga o‘rgatish lozim. Bunday tayyorgarlik ishlaridan so‘ng bolalar tovush analizi operatsiyasini shakllantirishga, ya’ni bo‘g‘in va so‘zlarda tovushlarni ajrata bilishga o‘rgatiladi.

Korreksion ta’limning ikkinchi davrida tovushlarni nutqga qo‘yish davom ettiriladi, nutqga qo‘yilgan tovushlarni nutqda mustaxkamlash, eshitish idrokini rivojlantirish, tovush analizi va sintezini shakllantirishdan iborat. Ya’ni so‘zda tovush o‘rnini topish, so‘zlarda tovushlar soni va ketma-ketligini aniqlash, nutqning leksik grammatik tomonini boyitish va rivojlantirish bo‘yicha logopedik ish olib boriladi. Ushbu davrda xam tovushlarni nutqga qo‘yish ishlari davom ettiriladi. Tovushlarni nutqda mustahkamlashda bolalar tovushlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qila olganlaridan so‘ng o‘tiladi. Tovushlarni nutqda mustaxkamlash uchun turli xil ish turlaridan foydalaniladi: kerakli tovush ishtirok etgan bo‘g‘inlar, bo‘g‘in birikmalari, so‘z, jumlalarni logoped ketidan qaytarish, rasmlar bo‘yicha so‘zlarni mustaqil talaffuz etish, berilgan tovushga so‘z o‘ylab toppish, o‘qilgan matnni qayta xikoya qilib berish, kerakli tovushni o‘z ichiga olgan topishmoq, tez aytish, maqol, kichik-kichik matn va she’rlarni aytib berish. Tovushlar differensiatsiyasi ustida ish olib borish ikkinchi davrning asosiy vazifalaridandir. Logopedik ish ko‘rish, eshitish, taktil va kinestetik nazoratga tayangan xolda olib boriladi.

Fonematik idrokini rivojlantirish bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishning asosiy vazifasi xisoblanadi. Fonematik idrokni rivojlantirish ishlari tovush analizini shakllantirish bilan o‘zaro bog‘liq xolda olib boriladi. Fonematik idrokni rivojlantirish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ishlarida quyidagi mashqlardan foydalaniladi: nutqiy bo‘lmagan tovushlarni ajratish; tovushlar qatoridan ma’lum tovushlarni ajratish (akustik va artikulyatsion belgilari o‘zaro yaqin bo‘ladi); so‘z tarkibidan ma’lum tovushni ajratish (tovush tarkibi jixatidan yaqin va uzoq bo‘lgan tovushlar); berilgan tovushga so‘z o‘ylab topish; bitta tovush bilan farq qiluvchi bo‘g‘inlar qatorini qaytarish; berilgan ma’lum tovushga rasm tanlash; nutqta to‘g‘ri talaffuz qilinadigan so‘zlardan o‘zlashtirilgan tovushlarni mustaxkamlash; so‘z tarkibidagi aloxida tovushlarni eshita bilish.

Ta’limiy mashg‘ulotlarni o‘yin ko‘rinishida o‘tkazish tavsiya etiladi. Xar bir o‘yin boshqa vazifalarni ya’ni; so‘zlar, gaplar va mustaqil nutqda tovushlarini to‘g‘ri talaffuzini mustahkamlashni ko‘zlagan xolda o‘tkaziladi. O‘yinlar nutqda tovushlarni mustaxkamlash va aniqlash, fonematik idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulot davomida “Topchi nimani ovozi”, “ Ovoz qayerdan kelyapti”, “So‘zdagi tovushni top”, “ Kim ko‘proq so‘z topadi”, “ Rasmlarni eslab qol” kabi o‘yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Aniq kinestetik va eshitish sezgilariga tayangan holda olib borilgan tovush analizi va sinteziga oid mashqlar o‘z navbatida nutq tovushlarini o‘zlashtirishga, o‘z talaffuzi ustida mustaqil nazorat ko‘nikmalarini tarbiyalashga, disgrafiya va disleksiyani oldini olishga yordam beradi. Korreksion ta’limning so‘nggi davrining maqsadi nutqiy muloqot sharoitida fonematik idrok va to‘g‘ri tovush talaffuzi ko‘nikmalarini mustaxkamlashdir.

Korreksion ta’limning uchunchi davrida bolalarda tovush analizi malakalarini shakllantirishga oid korreksion ishlar davom ettiriladi. Bunda ish xarakatning quyidagi algoritmidan foydalaniladi: so‘zdagi tovushlarni baland ovozda takrorlab, to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zdagi har bir tovushni eshitish va uni qo‘shni tovushdan ajrata bilish, so‘zdagi tovushlarni navbat bilan aytish. Logopedik mashg‘ulotlarda aloxida operatsiyalarni bajarish bilan birga nutqiy materialning analiz va sintezi bilan bog‘liq xamma aqliy ish xarakatlar tizimi qayta ishlanadi. Korreksion ta’limning muhim vazifalaridan biri oppozitsion va to‘g‘ri talaffuziga erishilgan tovushlar differensiatsiyasiga oid mashg‘ulotlar xisoblanadi. Ushbu mashg‘ulotlarda artikulyatsion va akustik belgilari jixatidan o‘xshash tovushlar differensiatsiyasiga oid turli usullar qo‘llaniladi. Mashg‘ulotlarda bolalar diqqati, xotira, tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, solishtirish, umumlashtirish), nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish, mustaqillikni rivojlantiruvchi ishlar olib boriladi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning fonematik idrokini rivojlantirish bo‘yicha korreksion pedagogik ish mazmuni bolani juda yoshligidan boshlab narsalarni tanishga, atrofdagilarning ovozini eshitishga o‘rgatib borish kerak. Fonematik idrok – nutq tovushlarini eshitish orqali idrok qilish qobiliyatidir. Fonematik idrokni rivojlantirish maqsadida maxsus logopedik o‘yin va mashqlardan foydalaniladi.

Bu o‘yinlar xilma-xildir. Nutqning fonematik idrok tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tovush artikulyatsiyasini aniqlash, bo‘g‘in va so‘zlarda tovushlarni ajratish; berilgan tovushning so‘zdagi o‘rnini topish (so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida); eshitish orqali nutq tezligini ajrata olish malakasini rivojlantirish; tovush kuchini eshitish orqali ajrata olish ko‘nikmasini rivojlantirish; tovushni to‘g‘ri artikulyatsiyasini tasvirlash; eshitish orqali ovoz tonini aniqlay olish malakasini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

rivojlantirish va boshqalar. Bolalarning nutqiy tovushlarni farqlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi qabul qilinadigan materialni asta-sekinlik bilan murakkablashtirishni mashg‘ulotlarda tovushlarni farqlab qabul qila oladigan hajmda kengaytirishni talab qiladi. Har bir mashg‘ulotlarda beriladigan nutqiy material hajmi oshirib boriladi. Ishda tahliliy-sintetik (umumlashtiruvchi) usullar qo‘llaniladi. Nutqni eshitib qabul qilishni o‘qitishda bolalarning eshitish imkoniyatiga, nutqiy rivojlanish va boshqa alohida o‘ziga xos hususiyatlariga bog‘liq xolda olib boriladi. Nutqiy eshitishni rivojlantirish bo‘yicha ishlar samaradorligi birinchi navbatda o‘qitishning nutqni eshitib qabul qilishni o‘rgatish masalasiga javob bera oladigan asoslangan talablariga, ishni rejalashtirilishiga, tashkillashtirilishiga va mazmuniga bog’liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абелева И.Ю. Речь о речи: коммуникативная система человека.М.: 2004.
2. Ayupova M.Yu. Logopediya. Faylasuflar milliy jamiyati. – T.: 2017.
3. Логопедия / Под ред. Волкова Л.С -М.: Просвещение,1993.
4. Методы обследования речи детей: Пособие по диагностике речевых нарушений / Под общ. ред. Г.В. Чиркиной. - М.: 2003.
5. Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – М.: 2000
6. Жинкин. Н.И. Речь как проводник информации. — М.: Наука, 1998

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Axmedova Zuxra Mirzabek qizi**, dotsent, [**Ахмедова Зухра Мирзабек қизи**, доцент], [**Zuxra. M. Axmedova**, associate professor]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh.Chilonzor tumani, Bunyodkor ko`chasi 27-uy. [адрес: Узбекистан, ул. Город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, 27], [address: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilonzor district, Tashkent city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

MAMLAKATIMIZDAGI INKLYUZIV TA’LIM MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI

© Z.S. Sadinova[1]✉

[1]Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda duch kelinayotgan asosiy muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun samarali echimlar taklif qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda amaldagi ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim jarayonini kuzatish, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan intervyular o‘tkazish hamda mavjud qonunchilik va ta’lim dasturlarini tahlil qilish usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar inklyuziv ta’limni amalga oshirishda kadrlar etishmasligi, infratuzilma kamchiliklari, metodik materiallarning cheklanganligi va o‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarining kamligi kabi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimini samarali rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va ijtimoiy tushunchalarni o‘zgartirish kabi kompleks chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, teng imkoniyatlar, ijtimoiy integratsiya, maxsus ehtiyojli bolalar, kadrlar tayyorlash, infratuzilma, xabardorlik oshirish.

Iqtibos uchun: Sadinova Z.S. Mamlakatimizdagi inklyuziv ta`lim muammolari va ularni hal etish yo`llari. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.417-422.

ПРОБЛЕМЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

© З.С. Садинова[1] ✉

[1]Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются проблемы, возникающие в процессе развития инклюзивного образования в нашей стране, и пути их решения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявление основных проблем, с которыми сталкивается инклюзивное образование в нашей стране, и предложение эффективных решений для их устранения.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались методы наблюдения за процессом инклюзивного образования в действующих учебных заведениях, интервью с учителями и родителями, а также анализ существующего законодательства и образовательных программ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что при внедрении инклюзивного образования существуют такие проблемы, как нехватка кадров, недостатки инфраструктуры, ограниченность методических материалов и недостаточное количество специальных программ подготовки для учителей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что для эффективного развития системы инклюзивного образования в нашей стране необходимо принять комплексные меры, такие как подготовка кадров, укрепление материально-технической базы и изменение социальных представлений.

Ключевые слова: инклюзивное образование, равные возможности, социальная интеграция, дети с особыми потребностями, подготовка кадров, инфраструктура, повышение осведомленности.

Для цитирования: Саднова.З.С. Проблемы инклюзивного образования в нашей стране и пути их решения.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 417-422.

PROBLEMS OF INCLUSIVE EDUCATION IN OUR COUNTRY AND WAYS TO SOLVE THEM

© Zarina S. Sadinova[1]✉
[1]Kattakurgan branch of Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the challenges encountered in developing the inclusive education system in our country and the ways to address them.

AIM: the main objective of the study is to identify the primary challenges faced in the development of inclusive education in our country and to propose effective solutions to overcome them.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized methods such as observing the inclusive education process in existing educational institutions, conducting interviews with teachers and parents, and analyzing existing legislation and educational programs.

DISCUSSION AND RESULTS: the results indicated several issues in implementing inclusive education, including a shortage of personnel, infrastructural deficiencies, limited methodological materials, and a lack of specialized training programs for teachers.

CONCLUSION: the study results demonstrate the necessity of comprehensive measures, such as training personnel, strengthening the material and technical base, and changing social perceptions, for the effective development of the inclusive education system in our country.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Keywords: inclusive education, equal opportunities, social integration, children with special needs, personnel training, infrastructure, awareness raising.

For citation: Zarina S. Sadinova (2024) `Problems of inclusive education in our country and ways to solve them ' media competence, (8(1)), pp. 417-422. (In Uzbek).

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida e’tibor qaratilmoqda. Ularni sog’lom bolalardan ajratmagan holda ta’lim-tarbiya berish, jamiyatda o‘z o‘rniga ega shaxs bo‘lib etishishlari va turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, maktablarda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta’lim va boshlang’ich tayanch – korreksion sinflar faoliyati yo‘lga qo‘yilayotganligi buning yorqin dalilidir.

Inklyuziv ta’lim nima va u qanda ta’lim tizimi? "Inklyuziv" so‘zi inglizcha "inclusive" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda "shu jumladan" yoki "birlashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, jismoniy yoki intellektual qobiliyatlari, ijtimoiy mavqei va boshqalardan qat'i nazar, barcha odamlarning ishtirokini o‘z ichiga olishga qaratilgan tushuncha yoki yondashuvni bildirish uchun ishlatiladi.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalasi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 50-moddasida: “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” deb belgilab qo‘yilganligi, yurtimizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim jarayoni tashkil etilganligining qonuniy isbotidir.

“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ – huquqiy hujjatlar tasdiqlash to‘g‘risida“ gi qarorda mamlakatimiz ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lini joriy etishning me’yoriy – huquqiy asoslari, joriy etish tartibi, me’zonlari belgilangan. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta’lim olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda inklyuziv va boshlang’ich tayanch korreksion sinflar tashkil etiladi. Qarorda inklyuziv ta’lim sinfi hamda boshlang’ich tayanch korreksion atamalariga quyidagicha ta’rif keltirilgan:

- inklyuziv ta’lim sinfi – maktabdagi imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta’lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf.

- boshlang’ich tayanch korreksion sinfi – maktabda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun alohida tashkil etilgan boshlang’ich sinf.O‘quvchilarni mazkur sinflarga qabul qilishda ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar hamda Psixolog-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra amalga oshiriladi. Inklyuziv va boshlang’ich tayanch-korreksion sinflarga faqat bir xil tashxisdagi o‘quvchilar qabul qilinadi.

Ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni tashkil etishning barcha uchun foydali tomonlari juda ko‘p. Ularning har birini alohida keltirib o‘tamiz: maxsus ta’limga ehtiyoji bor bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsata olishi; ta’lim-tarbiya olib, savod chiqarishi; yangi do‘stlar orttirishi; turli sohalarda muvaffaqiyatlarga erishishi; boqimandalikni yo‘qotishi;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

shaxsiy rivojlanishi va jamiyat uchun foyda keltiradigan inson bo‘lib etishishini ta’minlashga xizmat qiladigan ta’lim turi bu- inklyuziv ta’limdir.

Butun dunyoda mavjud bo‘lgan segregatsiya tushunchasi yurtimizda ham saqlanib qolmoqda. Segregatsiya bu – insonlarni ularning holatiga qarab ajratib quyish. Masalan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun alohida ixtisoslashtirilgan maktab internetlarini olsak, ular faqat shunday insonlarga ta’lim-tarbiya berish uchun moslashtirilgan, ya’ni sog’lom odamlardan ajratib ta’lim berish maqsadida. Segregatsiya muhitida ta’lim olgan shaxsning jamiyatga qo‘shilib ketishi birmuncha qiyin kechadi. Unda odamlardan tortinish, qo‘rquv hissi nisbatan yuqori bo‘ladi. Segregatsiya tushunchasiga qarama-qarshi bo‘lgan tushuncha bu inklyuziya tushunchasidir. Inklyuziya – imkoniyati cheklangan shaxslarni qabul qilib, sharoit yaratib, ularni keng jamiyatga qo‘shish. Demak, inklyuziya va inklyuziv ta’limning mohiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ikkisida ham maxsus ta’lim va tarbiyaga muhtoj bolalarning maxsus maktablarda emas, balki sog’lom bolalar o‘qiydigan oddiy maktablarda ham ta’lim-tarbiya olishlari mumkin.

Inklyuziv ta’limda echimini kutayotgan ko‘plab muammolar ham mavjud. Bularga ko‘plab misollarni keltirib o‘tsak bo‘ladi.

- ota-onalarning imkoniyati cheklangan bolalarini maktablarga bermasdan, jamiyatdagi odamlardan yashirish holatlari va natijada boqimandalikning vujudga kelishi;
- jamiyatda maxsus ta’limga muhtoj odamlar uchun noto‘g’ri qarashlar mavjudligi;
- maktablarda darsliklar etishmasligi;
- pedagog o‘qituvchilarning maxsus bilim va psixologik malakaga ega emasligi;
- ta’lim dargohlarida imkoniyati cheklangan bolalarning harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yo‘qligi;
- olis hududlarda inklyuziv ta’limga bo‘lgan munosabatning qoniqarsizligi;
- imkoniyati cheklanganlar uchun transport vositalarining yo‘lga qo‘yilishdagi muammolar;
-maktabda o‘quvchilar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarni kamsitish holatlari;
- nuqsoni bor bo‘lgan bolalarni davolash uchun mutaxassislar va apparatlarning etishmasligi;
- ota-onalarda huquqiy bilimlarning etishmasligi, ya’ni nogiron bolaga qarayotganliklari uchun qanday imtiyozlar mavjudligini bilmaslik holatlari;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni hunarga o‘rgatishda yoki ularni ish bilan ta’minlashda mavjud bo‘lgan muammolar;
- ota-onalarning psixologik bilimlarni yaxshi bilmaslik jarayoni;
- chekka-chekka qishloqlardagi maxsus yordamga muhtoj bolalarni ham inklyuziv ta’limga qamrab olish jarayoni;
- nogironligi bo‘lgan shaxslarning harakatini yaxshilash uchun ko‘cha yo‘larida maxsus yo‘lakchalar tashkil etish;
- inshootlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

- moddiy mablag'larning etishmasligi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish va uni o'qitish masalasi juda qimmatga tushadi deb o'ylashadi shuning uchun inklyuziv ta'limni joriy qilish masalasini hal qilmaydilar.

Inklyuziv ta'lim tizimini samarali tashkil etish, barcha imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim tizimiga qamrab olish hamda ijobiy natijalarga erishish uchun mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish hamda amalga oshirish lozim. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo'yayotgan davlatimizda bunday to'siqlarni o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallarda hal etish mumkin. E'tiborsizlik (1), yashirish (2), mablag' masalasi (3), sharoitga moslashmaslik (4), kambag'allik (5), sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (6), kamsitish (7), qaramlik (8), kutilmagan holatlar (9) kabi to'siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo'ladi, Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning etishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Har qanday jamiyatda har bir bola noyob, maxsus ehtiyojli bolalar esa boshqa bolalar singari huquq, ehtiyoj va intilishlarga ega degan dalilni idrok etish zarurati mavjuddir. Ushbu bilimlarni chuqurlashtirish bu imkoniyati cheklangan ish olib borish bola, oila, hamjamiyat darajasida hamma uchun muhimdir.

Inklyuziv ta'lim-davr talabi hisoblanadi. Inklyuziv ta'limdagi mazkur muammolarni hal etishning yo'llari haqida fikr yuritamiz: nogironligi bo'lgan bolalarning oilasi va maktab jamoasi sheriklikda ish olib borishi kerak; jamiyatdagi odamlarning imkoniyati cheklangan bolalar haqidagi noto'g'ri qarashlarini yo'qotishlari; nogiron bolalarning maktab jamoasi va o'quvchilar tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; jamiyatda nogiron shaxslar borligini va ularni hamma qatori inson ekanligini to'g'ri qabul qila olishimiz; imkoniyati cheklangan insonlar vaqtini mazmunli o'tkazishlari uchun ularga mo'ljallab sport klublar, kasb-hunarga tayyorlov kurslarning ochilishi; olis hududlarga ham inklyuziv ta'limning kirib borishini ta'minlash; pedagog xodimlarning bilim saviyasini oshirib borish; maktablarga kelib-ketishlari uchun maxsus avtomobillar qatnovini yo'lga qo'yish zarurligi; olis hududlardagi yo'llar afalt qilinmaganligi sababli nogiron bolalarning harakatlanishi birmuncha qiyinroq. Ular harakatlanishiga yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqish kerakligi; ota-onalar uchun maxsus, imkoniyati cheklanganlar psixologiyasi to'g'risida seminar-treninglar tashkil etilishi; shifokorlar tomonidan imkoniyati cheklangan insonlarni uy sharoitida parvarishlash bo'yicha zarur yo'l-yo'riqlar berilishi uchun maxsus punktlar faoliyatini yo'lga qo'yish; nogiron bolasi bor ota-onalarga uzluksiz nafaqa pullarini berish tizimini joriy etish.

Dunyo hamjamiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, inklyuziv ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'limga o'rgatish va sog'lom odamlardan farq qilmagan holda teng huquq va imkoniyatlar yaratish maqsadida ko'plab qonunlar joriy etilmoqda. Xususan 1975-yilda "Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar huquqlari to'g'risida" gi Deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: "Maxsus tarbiyaga muhtojlar shaxsiyatini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

hurmat qilish huquqlari ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi. Maxsus tarbiyaga muhtojlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqlariga ham egadirkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega ".

Jamiyatda nogiron bolalar haqidagi noto'g'ri fikrlar sababli, ularning insonlar jamosiga qo'shilib ketishi qiyinlashmoqda va natijada ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Bizda shunday bir qarash mavjudki, nogiron insonlarni ko'rib qolsak jirkanish, ulardan qo'rqish va ularga nisbatan o'zimizning hamma joyimiz sog'lomligi uchun shukr aytish tuyg'ularini his qilamiz. Aslida bunday fikrlar noto'g'ri. Ijtimoy himoyaga muhtoj insonlar shaxsiyatini hurmat qilish, ular va biz teng huquqli ekanligimizni qabul qilishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Inklyuziv ta'lim. Darslik / Madatov I.Y.,;O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali, 2024. – 240 b.
2. Shomahmudova R.Sh. Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar). Toshkent-2011.
3. . Fayziyeva U., Nazarova D., Kolbayeva X. J. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef. XBJ.T.,2005
4. X.N. Muzaffarova, D.Tangirova "Inklyuzv ta'lim" fani bo'yicha o'quv metodik qo'llanma . Jizzax davlat pedagogika instituti. 2011 y.
5. "Inklyuziv ta'lim" fanidan o'quv-uslubiy majmua. A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti. Toshkent -2014.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-yil.
7. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. PQ-4860.
8. "Maktablar hamma uchun" – "Bolalarni qutqaring jamg'armasi " – 2002-yil.
9. R. Shomaxmudova, D. Tulagonova, A. Berdiyeva, - Jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar bilan inklyuziv ta'lim tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. Uslubiy qo'llanma, - Razzoqov O. J. XT Bosmaxonasi 2007 y.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sadinova Zarina Sirojiddin qizi**, talaba, [**Садинова Зарина Сирожиддин қизи**, студент], [**Zarina.S.Sadinova**, student]; manzil: O'zbekiston, Samarqand viloyati, Shahar: Kattaqo'rg'on, Amir Temur ko'chasi. [адрес: Узбекистан, ул Самарканд, город: Каттакурган, улица Амира Темура], [address: Samarkand, City: Kattakurgan, Amir Temur street.]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA VIRTUAL LABORATORIYALARNING AHAMIYATI

© E.X.Yusupov[1]✉
[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanishning ahamiyati va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda virtual laboratoriyalarning o‘rnini o‘rganish va bu texnologiyaning kasbiy tayyorgarlikda qanday yordam berishini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda virtual laboratoriyalar va ularning ta’lim jarayonidagi roli bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar virtual laboratoriyalar bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining eksperimental ko‘nikmalarini va mavzuga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda virtual laboratoriyalarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: virtual laboratoriyalar, fizika ta’limi, o‘qituvchi tayyorgarligi, interfaol ta’lim, amaliy ko‘nikmalar, eksperimental ta’lim, pedagogik malaka

Iqtibos uchun: Yusupov E.X. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda virtual laboratoriyalarning ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.423-428.

ЗНАЧЕНИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ

© Э.Х. Юсупов[1]✉
[1]Институт предпринимательства и педагогики Денова, Термез, Узбекистан.

Аннотатsiя

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется значение использования виртуальных лабораторий в процессе подготовки будущих учителей физики и их влияние на эффективность обучения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить роль виртуальных лабораторий в подготовке будущих учителей физики и определить, как эта технология способствует профессиональной подготовке.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ литературы по теме виртуальных лабораторий и их роли в учебном процессе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что виртуальные лаборатории значительно повышают экспериментальные навыки и интерес к предмету у будущих учителей физики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают высокую эффективность виртуальных лабораторий в подготовке будущих учителей физики.

Ключевые слова: виртуальные лаборатории, физическое образование, подготовка учителей, интерактивное обучение, практические навыки, экспериментальное обучение, педагогическая квалификатsiя.

Для цитирования:. Юсупов Э.Х. Значение виртуальных лабораторий в подготовке будущих учителей физики. // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 423-428.

THE IMPORTANCE OF VIRTUAL LABORATORIES IN THE TRAINING OF FUTURE PHYSICS TEACHERS

© Erkin X. Yusupov[1]✉
[1]Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Termez, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the importance of using virtual laboratories in the training process of future physics teachers and their impact on educational effectiveness.

AIM: the main objective of the study is to examine the role of virtual laboratories in preparing future physics teachers and to determine how this technology supports professional training.

MATERIALS AND METHODS: the study involved a literature review on virtual laboratories and their role in the educational process.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that virtual laboratories significantly enhance experimental skills and interest in the subject among future physics teachers.

CONCLUSION: the study's findings confirm the high effectiveness of virtual laboratories in the training of future physics teachers.

Keywords: virtual laboratories, physics education, teacher training, interactive learning, practical skills, experimental education, pedagogical qualification.

For citation: Iroda. A. Khajieva (2024) The Importance of virtual laboratories in the training of future physics teachers, Inter education & global study, (8(1)), pp. 423-428. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

Ta’lim sohasi rivojlanib borar ekan, o‘qitish va o‘rganish jarayonlariga texnologiyani integratsiya qilish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar ta’limida texnologiyalar o‘quvchilarni jalb qilish va murakkab tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Fizika — nazariy tushuncha va amaliy tajribaga asoslangan fan — raqamli rivojlanishdan katta foyda ko‘rmoqda. Virtual laboratoriyalar — fizik tajribalarni simulyatsiya qiluvchi kompyuter asosidagi platformalar — ushbu sohada o‘zgaruvchan vosita sifatida paydo bo‘ldi. Ular foydalanuvchilarga raqamli muhitda nazorat qilinadigan tajribalarni o‘tkazish imkoniyatini berib, an’anaviy laboratoriyalar bilan bog‘liq uskunalar xarajatlari, cheklangan imkoniyatlar va xavfsizlik masalalari kabi asosiy cheklovlarni hal qiladi.

Kelajakdagi fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘ziga xos muammolar va talablar mavjud. Talabalarni real o‘quv-tajriba sharoitlariga samarali tayyorlash uchun o‘qituvchi tayyorlash dasturlari nazariy bilimlarni etkazish bilan cheklanib qolmasdan, mazmunli va amaliy tajriba taqdim etishi zarur. Ammo fizikada amaliy ta’lim ko‘pincha yaxshi jihozlangan laboratoriyalarga kirishni talab qiladi, bu esa ko‘plab ta’lim muassasalari uchun qimmat va murakkab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ayrim tajribalar xavf-xatar bilan bog‘liq bo‘lib, yoki sharoitlarni doimiy ravishda qayta yaratish qiyin kechadi. Virtual laboratoriyalar ushbu muammolarga qiziqarli echim taklif etadi, ular o‘quvchilarga interfaol, arzon va xavfsiz platformani taqdim etadi. Virtual laboratoriyalar orqali o‘qituvchi talabalar qimmatli amaliy tajriba orttirib, fizik tushunchalarni chuqurroq anglay oladi va keyinchalik o‘z o‘quvchilariga etkazadi.

Ushbu maqola virtual laboratoriyalarning kelajakdagi fizika o‘qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyatini o‘rganadi va ularning konseptual tushunchalarni chuqurlashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va xilma-xil ta’lim muhitida dars berishga tayyorlashdagi rolini yoritadi. Virtual laboratoriyalarni o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga tatbiq etishning foydalari, qiyinchiliklari va pedagogik yondashuvlarini ko‘rib chiqish orqali ushbu tadqiqot zamonaviy fizika ta’limida ushbu raqamli resurslarning ahamiyatini ta’kidlab o‘tadi.

Virtual laboratoriyalar — kompyuter asosida ishlaydigan va real tajriba muhitini simulyatsiya qiluvchi platformalar bo‘lib, foydalanuvchilarga virtual muhitda tajribalarni o‘tkazish imkonini beradi. Fizika ta’limida ular bir nechta afzalliklarga ega:

- Kengroq Foydalanish Imkoniyati: Virtual laboratoriyalar joylashuvdan qat’i nazar talabalar uchun ochiq bo‘lib, jismoniy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi va amaliy o‘rganish imkoniyatlarini teng taqsimlashni ta’minlaydi.

- Xavfsizlik va Ekologik Masalalar: Yuqori kuchlanish, radiatsiya yoki xavfli materiallar bilan bog‘liq fizik tajribalar xavf tug‘dirishi mumkin. Virtual laboratoriyalar xavfsiz, virtual muhitda tajribalar o‘tkazishni ta’minlaydi.

- Tejamkorlik: Jismoniy laboratoriyalarni saqlash uskunalarning eskirishi va maxsus materiallarga bo‘lgan ehtiyoj sababli qimmatga tushadi. Virtual laboratoriyalar qo‘shimcha xarajatlarsiz kengaytirish imkoniyatini beruvchi tejamkor alternativ hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

Virtual laboratoriyalar kelajakdagi fizika o‘qituvchilarining kasbiy o‘sishiga katta hissa qo‘shuvchi bir qancha afzalliklarga ega: nazariy Bilimlarni Mustahkamlash: Virtual laboratoriyalar talabalar murakkab nazariy tushunchalarni interfaol, simulyatsiyalangan muhitda ko‘rish va amalda qo‘llash imkoniyatini beradi va abstrakt tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi; amaliy Ko‘nikmalarni Rivojlantirish: Virtual laboratoriyalar jismoniy tajribalarni to‘liq o‘rnini bosa olmasa-da, ular talabalarga faraz qilish, ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish kabi muhim eksperimental ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi; tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish: Virtual laboratoriyalar takroriy tajribalar o‘tkazish va tezkor fikr-mulohaza imkoniyatini taqdim etadi, bu talabalarni farazlarni sinab ko‘rishga, natijalarni tahlil qilishga va yondashuvlarini takomillashtirishga undaydi; turli Ta’lim Muhitlariga Tayyorlash: Virtual laboratoriyalar kelajakdagi o‘qituvchilarni raqamli vositalar bilan tanishtirib, ularga shunga o‘xshash texnologiyalarni o‘z sinflariga integratsiya qilish va turli o‘quv scenariylariga moslashish imkonini beradi. O‘qituvchi tayyorlash dasturlariga virtual laboratoriyalarni integratsiya qilishdagi muammolar

Ular bir qancha afzalliklarga ega bo‘lsa-da, virtual laboratoriyalarni o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga integratsiya qilish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi: texnik va Logistik Cheklovlar: Virtual laboratoriyalar ishonchli internet va tegishli dasturiy ta’minotni talab qiladi, bu esa barcha ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lmasligi mumkin; Tayyorlov va Bilim Saviyasi: Kelajakdagi o‘qituvchilar virtual laboratoriyalardan to‘liq foydalanish uchun etarlicha tayyorlanishi, ya’ni texnologiyadan bemalol foydalanishni o‘zlashtirishi kerak; jismoniy Tajriba Yetishmasligi: Virtual laboratoriyalar qimmatli bo‘lsa-da, ular jismoniy laboratoriyalar tomonidan taqdim etiladigan hissiy tajribani to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli, o‘qituvchilar virtual laboratoriyalarni jismoniy laboratoriya mashg‘ulotlari bilan birlashtirishlari kerak.

Fizika ta’limi uchun maxsus ishlab chiqilgan bir nechta virtual laboratoriya platformalari mavjud bo‘lib, ular mexanika, elektromagnetizm, termodinamika va kvant fizika kabi yo‘nalishlarda simulyatsiyalar va tajribalar taklif qiladi. Masalan, PhET Interactive Simulations va Labster dasturlari fizika o‘quv dasturiga mos keluvchi, sozlanishi mumkin bo‘lgan interfaol simulyatsiyalarni taqdim etadi. Ushbu platformalar talabalar ishtiyoqi, konseptual tushunchasi va bilimni saqlash darajalarida ijobiy natijalarni ko‘rsatib, o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida foydalanish uchun katta potensialga ega ekanligini isbotladi.

Eng yaxshi natijalarga erishish uchun virtual laboratoriyalar fizika o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlariga quyidagi pedagogik yondashuvlar orqali integratsiya qilinishi kerak:

Aralash Ta’lim: Virtual laboratoriyalarni an’anaviy ma’ruzalar va jismoniy laboratoriyalar bilan birlashtirish nazariy, virtual va amaliy o‘rganishni muvozanatlash-tiruvchi keng qamrovli ta’lim tajribasini taqdim etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

-hamkorlikka Asoslangan Ta'lim: Virtual laboratoriyalarda guruh vazifalarini topshirish hamkorlikni rag'batlantiradi va talabalarni birgalikda muammolarni hal qilishga undaydi, bu ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi.

- tadqiqotga Asoslangan Ta'lim: Virtual laboratoriyalar tadqiqotga asoslangan ta'lim uchun juda mos keladi, bu erda talabalar ilmiy savollarni o'rganishadi va xulosa qilish uchun tajribalar o'tkazishadi, bu esa materialga chuqur qiziqishni shakllantiradi.

Tadqiqotlar virtual laboratoriyalar talabalar o'qish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, virtual laboratoriyalardan foydalangan talabalar konseptual tushunish, ishtiyoq darajasi va bilim saqlash ko'rsatkichlari yaxshilangan. Ushbu natijalar kelajakdagi o'qituvchilar uchun ayniqsa foydalidir, chunki fizik tamoyillarni chuqurroq anglash ularga ushbu tushunchalarni o'z o'quvchilariga samarali etkazish imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalarning fizika o'qituvchilarini tayyorlashda foydasini maksimal darajaga etkazish uchun ta'lim muassasalari quyidagi tavsiyalarni ko'rib chiqishi kerak: infratuzilmani Rivojlantirish: muassasalar virtual laboratoriyalarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur texnologik infratuzilmaga sarmoya kiritishlari va barcha talabalar uchun bu resurslarni mavjud qilishlari kerak; fakultetni Tayyorlash va Qo'llab-quvvatlash: Fakultet a'zolari virtual laboratoriyalarni o'quv dasturiga integratsiya qilish bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlari va rivojlanayotgan raqamli vositalarga moslashish uchun doimiy qo'llab-quvvatlovga ega bo'lishlari kerak; o'quv Dasturiga Integratsiya: Virtual laboratoriyalar o'quv dasturiga tizimli ravishda kiritilishi, nazariy va amaliy komponentlar bilan mos keluvchi aniq o'quv maqsadlari belgilanib, ularning ta'lim jarayonida yuksak samaradorlikka erishishlari uchun yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Virtual laboratoriyalar kelajakdagi fizika o'qituvchilarini tayyorlashda o'zgaruvchan resurs sifatida o'zini namoyon etib, nazariy bilim va amaliy tajriba o'rtasidagi tafovutni raqamli platforma orqali bartaraf etmoqda. Real hayotdagi tajribalarni simulyatsiya qilgan holda, virtual laboratoriyalar o'qituvchi talabalariga fizikadagi murakkab tushunchalar bilan ishlash uchun moslashuvchan, xavfsiz va tejamkor usulni taqdim etadi. Ular kelajakdagi o'qituvchilarga an'anaviy laboratoriyalardagi yuqori xarajatlar, uskunalar eskirishi va xavfsizlik xavflari kabi cheklovlardan xoli holda tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Ushbu qulaylik nafaqat konseptual tushunchalarni kuchaytiradi, balki samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

O'qituvchi tayyorlash dasturlari uchun virtual laboratoriyalar kelajakda raqamli vositalar va resurslar kengroq integratsiya qilinadigan sinflarga tayyorgarlik ko'rish orqali fizika ta'limini tubdan o'zgartirish imkonini beradi. Texnik imkoniyatlar va maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi qiyinchiliklarga qaramay, virtual laboratoriyalarning ta'lim natijalari, keng qamrovli va interfaol o'qitish tajribalari kabi foydalari bu to'siqlarni ortda qoldiradi. An'anaviy usullar bilan birga qo'llanganda, virtual laboratoriyalar pedagogik va fan bo'yicha bilimlarni boyitadigan keng qamrovli ta'lim tajribasini taqdim etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 8(1)

Ta’lim rivojlanishda davom etar ekan, virtual laboratoriyalarni o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga kiritish kelajakdagi fizika o‘qituvchilarini o‘z o‘quvchilariga ilhom berish va ularni o‘qitishga tayyor holda etishtirishni ta’minlaydi. Virtual laboratoriyalarning fizika ta’limidagi imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun raqamli resurslarga sarmoya kiritish, fakultetni tayyorlash va o‘quv dasturlarini rivojlantirish yo‘lidagi tadqiqotlar va ishlar davom ettirilishi lozim. Bu esa raqamli asrda o‘qituvchilar va talabalar ehtiyojlariga mos keluvchi dinamik o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Longman.
2. Barak, M., & Dori, Y. J. (2005). Enhancing undergraduate students’ chemistry understanding through project-based learning in an IT environment. *Science Education*, 89(1), 117–139.
3. Billet, S. (2011). *Learning in the Workplace: Strategies for Effective Practice*. Allen & Unwin.
4. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning* (4th ed.). Wiley.
5. Dillenbourg, P. (1999). What do you mean by ‘collaborative learning’? In *Collaborative-learning: Cognitive and Computational Approaches* (pp. 1–19). Oxford: Elsevier.
6. Hobbs, R., & Coiro, J. (2016). Design features of a digital and media literacy curriculum in practice. *Journal of Media Literacy Education*, 2(2), 1–11.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. *Educational Researcher*, 38(5), 365–379.
8. Jonassen, D. H. (1999). *Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking* (2nd ed.). Prentice Hall.
9. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 9(1), 60–70.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yusupov Erkinjon Xurramovich,** dotsent, [**Юсупов Эркинжон Хуррамович,** Доцент], [**Erkinjon X. Yusupov,** Associate professor]; manzil: O‘zbekiston, Termiz,Denov tumani, Bog' ko'chasi 112-uy [адрес: Республика Узбекистан, г. Термез, Деновский район, улица Богь 112], [Address: Uzbekistan, Termez, Denov district, Bog' street, 112]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGILAR ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

© R.O. Adxamova, U.N.Nurtayev[1]✉
[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'rni va afzalliklarini o'rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy adabiyotlar, innovatsion dars usullari va metodlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida bo'lajak san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli san'at, interfaol o'qitish, ijodiy yondashuv, san'at ta'limi.

Iqtibos uchun: Adxamova R.O. Nurtayev U.N. Bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.429-434.

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

© Р.О. Адхамова, У.Н. Нуртаев[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются вопросы развития профессиональной компетенции будущих учителей изобразительного искусства на основе современных педагогических технологий.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить роль и преимущества использования современных педагогических технологий в формировании профессиональной компетенции будущих учителей изобразительного искусства.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы научные работы по современным педагогическим технологиям, инновационные методы и подходы к обучению.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование современных педагогических технологий способствует развитию профессиональной компетенции будущих учителей искусства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают значимость современных педагогических технологий для развития профессиональной компетенции будущих учителей изобразительного искусства.

Ключевые слова: учитель изобразительного искусства, профессиональная компетенция, современные педагогические технологии, цифровое искусство, интерактивное обучение, творческий подход, художественное образование.

Для цитирования:Адхамова.О.Р. Нуртайев У.Н. Проблемы развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства на основе современных педагогических технологий // Inter education & global study.2024. №8(1). С. 429-434.

ISSUES OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

©Oltinoy R. Adxamova, Urinbay N.Nurtayev[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the issues of developing the professional competence of future art teachers based on modern pedagogical technologies.

AIM: the main objective of the study is to explore the role and advantages of using modern pedagogical technologies in shaping the professional competence of future art teachers.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scientific literature on modern pedagogical technologies, as well as innovative teaching methods and approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that modern pedagogical technologies contribute to the development of professional competence in future art teachers.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

CONCLUSION: the study results confirm the significance of modern pedagogical technologies in enhancing the professional competence of future art teachers.

Keywords: art teacher, professional competence, modern pedagogical technologies, digital art, interactive teaching, creative approach, art education.

For citation: Oltinoy R. Adxamova, Urinbay N. Nurtayev (2024) 'Issues of professional competence development of future visual arts teachers based on modern pedagogical technologies', Inter education & global study, (8(1)), pp. 429-434. (In Uzbek).

Bugungi kunda jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida oliy ta'lim tizimida talaba yoshlarga ya'ni bo'lajak pedagoglarga ta'lim sifati jarayonida ularga mutahasislik fanlarini yanada chuqurroq va murakkab o'rgatish bilan birgalikda ularni kelgusi faoliyatga hozirdan tayyorlab borish ularda pedagoglik mahoratini shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda etuk malaka va kasbiy kompetensiya salohiyatiga ega bo'lgan kadrlarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bo'lajak pedagoglarni nafaqat kasbiy balki etuk ma'naviy barkamol shaxs sifatida etishtirish masalalariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Fikrimizni yanada ochiqroq aytadigan bo'lsak bu yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar bo'lajak Tasviriy san'at fani o'qituvchilariga ham ta'luqli hisoblanadi, chunki tasviriy san'at orqali bo'lajak mutaxasis kadrlarni zamonaviy pedagogic tehnalogiyalar asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish borasida maqsadli tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ayniqsa, mustaqillikdan keyin hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berib kelinmoqda. Keling endi kompetensiya va kompetentlik so'zlarining manosini bir tahlil qilib olamiz. Kompetensiya-lotin tilidan tarjima qilinganda (competentia) u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik, bilim va tajribaga aga masalalar yig'indisi ma'nosini anglatadi. Yanaham ochiqroq aytadigan bo'lsak bilim, ko'nikma, malaka degan tushunchalarni bildiradi. Demak biz bugungi kunda bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarini o'qitar ekanmiz ularda zamonaviy pedagogic tehnalogiyalar asosida ularning kasbiy kompetensiyasini ham rivojlantirmog'imiz zarurdir.

Metodika ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunining xususiyatlariga qarab chiqadi. Ma'lumki, maktabda o'qitishning xilma-xil metodlari qoilaniladi. Bu erda ta'lim usuli, o'quv materiallarining joylashishi (o'quv, reja, dastur), ta'lim prinsiplari va yana (so'ngida), o'quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir. «Metod» so'zi grekcha boiib, «Tadqiqot yoli» «bilish usuli ma'nosini anglatadi. Pedagogik o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilaming bilim, mahorat va malakalarini egallashida, ulaming ijodiy qobiliyatlarini rivoj lantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qollagan ish usullari tushuniladi. Hozirda barcha ta'lim, fan sohalariga yuksak e'tibor qaratilishi barobarida tasviriy san'at fanining ta'lim muassalalarida o'qitilishi, o'rganilishida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ham ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda talim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, talimning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, etibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. O‘quv tarbiya jarayoida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o‘quvchidan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har bir tasviriy san’at fani o‘qituvchisining vazifasi mana shu texnologiyani topish, uni amalda qo‘llashdan iborat. Buning uchun o‘qituvchi o‘z bilimi ustida ko‘proq ishlashi, kompyuter texnologiyalaridan foydalana olishni bilishi, ta’lim sohasida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi, uning imkoniyatlari va chet el jurnallarida chop etilayotgan dolzarb maqolalar bilan tanishib borishi, yangi g‘oyalar ustida ishlashi, o‘z fikrini bayon qila olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi chet tilini bilishi, shu tildagi axbortlarni bemalol o‘qiy olishi, chet ellik hamkasblari bilan internet orqali muloqot qila olishi zarur.

Tasviriy san’at o‘qitish metodlari deganda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash usullari natijasida o‘quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va o‘zlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir o‘qitish metodlari o‘quvchilar egallashi lozim bo’lgan bilimlarning mazmuni (hajmi)ga monand tarzida ta’lim maqsadiga, o‘quvchilaming yosh va fiziologik xususiyatlariga bog’liq. «Usul» iborasi pedagogik adabiyotlarida tez-tez uchrab turadi. O‘qitish usuli - bu ta’lim-tarbiyada alohida qismi hisoblanadi, ularning yigindisi o‘qitish metodlariga kiradi. Umumiy yo‘nalishga qaratilgan ma’lum bir o‘qitish metodlari va usullarining majmuasidan o‘qitish tizimi tuziladi. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san’atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy san’atni o‘rgatish qonun qoidalarini ta’riflab beradi, kelajak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi.Tasviriy san’at metodikasi metodika fanining boshqa sohalari kabi umumiy va xususiy turlarga ajratiladi.

Umumiy metodika - o‘quv fanning nazariy qismini asoslariga qarashli savollami va ko‘pchilik fanlarga tegishli o‘qitish usul va uslublarini qo‘llanishlarini ko‘rib chiqadi. Bular quyidagilar:

- tasviriy san’at fanining maqsad va vazifalari;
-tasviriy san’at fani dasturiarining tuzilishi va mazmuni;
- o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqish;
- ko'rgazmali metodik vositalami tadqiq qilish va tanlash (o‘quv ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalari);
- tasviriy san’atning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (adabiyot, musiqa, biologiya, tarix);
-tushunchalarni, iboralarni ta’riflash va boshqalar.

Xususiy metodika biron-bir o‘quv fanining o‘qitish uslubi nazarda tutiladi.

- ko‘rgazmali qurollardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

- amaliy va ijodiy ishlaming mazmunlari aniqlanadi va h.k.

Hozirgi kundagi tasviriy san’atni o’qitish metodikasi birdaniga shakllangan emas, bunga qadar mazkur yo’nalish bo’yicha metodika shakllanishi va murakkab taraqqiyot yo’lini bosib o‘tdi. Respublikamizda tasviriy san’atni o‘rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o‘quv qo’llanmalarning ahamiyati juda katta o‘rin tutadi. «Tasviriy san’at» o‘quv predmeti ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo’lgan badiiy madaniyatni uyg‘un rivojlanishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo’lgan qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarni milliy merosni o‘zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun imkoniyat yaratadi. Maktabda tasviriy san’at darslarida mashg'ulotlarning quyidagi turlari bo‘yicha ishlar olib boriladi; Borliqni idrok etish; San’atni idrok etish; Naturaga qarab tasvirlash;

A) Naturadan rasm ishlash. B) Naturadan haykal ishlash. Kompozitsiya; A) Rangtasvir kompozitsiyasi. B) Dekorativ kompozitsiya. V) Haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

Kompyuter yordamida tashkil etiladigan darslar o‘quvchilarda tasviriy san’at fanida yuzaga kelayotgan yangi yo‘nalishlar, zamonaviy bilimlar hamda raqamli texnologiyalarga oid kompetentsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchida bugungi kunda vujudga kelayotgan yuqori sanoatli va axborot jamiyatida o‘z o‘rnini topa olishida ko‘maklashadigan malaka va ko‘nikmalar hosil bo‘ladi. Bugungi kunda Internetning keng tarqalishi, Virtual o‘quv hamda ijtimoiy muhitlarning ko‘payib borishi natijasida raqamli texnologiyalar va tasviriy san‘atni o‘zaro integratsiyasi mahsuli hisoblangan “Grafik dizayn”, “Web Dizayni”, “Animatsiya”, “O‘yinlar (Game)Dizayni”, “Raqamli tasviriy san‘at” kabi ko‘plab atamalar vujudga kelmoqda. Jumladan, raqamli (kompyuter) san‘ati deb kompyuter (axborot) texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan ijodiy faoliyat tushuniladi, uning natijasida raqamli shaklda badiiy asarlar olinadi. " Pedagogik mahorat o‘qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim - tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy - m a’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida m a’lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi. Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’atni o‘qitishda, tasviriy san’at o‘qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat talab qilinadi. Tasviriy san'at o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida o‘quvchilarning ishlarida kuzatilayotgan xatolarni tahlil qilib borish va ularga mos metodik yo‘nalish va yordam berib borish tasviriy san'at ta'limining barcha sohalari (faoliyat turlari) bo‘yicha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Shuningdek, kamchiliklarning faoliyat turlari, bo‘yicha klassifikatsiyalab borish mavjud kamchiliklarni batratarf etishga yo‘naltirilgan metodikani to‘g‘ri tanlash imkonini beradi.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki sohani chuqur o‘rganish, zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tish, uni shakllantirish,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

takomillashtirishni amalga tatbiq etish jarayonining rivojlanishi yuqori darajada deb bo‘lmaydi. Bu muammoning ijobiy hal qilinishi uchun tasviriy san’at o‘qituvchilaridan dars o‘tish jarayonida yangi pedagogik texnologiyani qo‘llanilishi talab qilinayotgan ekan, dars o‘tish jarayonida qanday texnologiyalardan foydalanishimiz mumkin degan savol tug‘iladi. Bu haqda biz o‘qituvchilar chuqur va jiddiy o‘ylab ko‘rishimizga to‘g‘ri keladi. Tasviriy san’at darslari amaliy mashg‘ulot jarayoni bo‘lib, berilgan mavzuni to‘laqonli tasvirlash uchun qisqa vaqt (xaftasiga 1 o‘quv soati ya’ni 45 daqiqa) sarflanadi. Agar biz tasviriy san’at darslarda boshqa asosiy vaqti nazariy bilimlarga ajratilgan fanlarda bo‘lgani kabi o‘yin texnologiyasini qo‘llasak, bunda juda ko‘p vaqtimizni bu mashg‘ulotga sarflab amaliy ishni bajarishga vaqtimiz etmaydi. Shuning uchun hamma texnologiyalar ham tasviriy san’at darslariga to‘g‘ri kelavermaydi. O’quvchilarning badiiy ijodiy bilimlari, ko’nikmalarini shakllantirish yuqorida qayd etilgan fikrlarga tayangan holda olib borilishi kerak va eng asosiysi o’qituvchilar yani bo’lajak tasviriy san’at fani o’qituvchilari ko’proq o’z ustilarida ishlashlari kerak anashundagina pedagogic salohiyatimizni rivojlantirishimiz va fanda yangi kreativ g’oya va qarashlar bilan darslarni olib borib yoshlarni etuk mutahasis qilib tarbiyalashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdirasilov S.,Tolipov N. Rangtasvir. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2006.
2. Abdirasilov S.,Boymetov B.,Tolipov N. Tasviriy san’at. – T.: Ilm Ziyo, 2010.
3. Oydinov N. Rassom– o’qituvchilar tayyorlash muammolari. – T.: O’qituvchi, 1997.
4. Abdurahmonov G’. Kompozitsiya. – Toshkent: 2010.
5. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. – T.: O’qituvchi: 2004.
6. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san’at. – T.: Ilm Ziyo , 2010.
7. Oydinov N. Rassom – o’qituvchilar tayyorlash muammolari. – T.: O’qituvchi, 1997.
8. Nurtayev U.N. Rangshunoslik. – Toshkent: ILM-ZIYO, 2008.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi**, magistrant, **Nurtayev Urinbay Nishanbekovich, professor,** [Адхамовой Олтиной Рафикжоновна, аспирантка, **Нуртайев Уринбай Нишанбекович,** профессор,], [**Oltinoy R. Adxamova**, graduate student, **Urinbay N. Nurtayev,** professor,]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy. [адрес: Узбекистан, ул. Город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, 27.], [address: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilonzor district, Tashkent city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

O‘ZBEK MILLIY MUSIQASIDA SOZANDALAR ANSAMBLLARINING O`RNI

© SH. Shorahmetov[1]✉
[1]Yunus Rajabiy nomidagi o`zbek milliy musiqa san`ati instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqasida sozandalar ansambllarining o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi – o‘zbek milliy musiqasida sozandalar ansambllarining o‘rnini aniqlash, ularning musiqa madaniyatidagi rolini tadqiq qilish va bu ansambllarning bugungi kunda milliy musiqani rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tarixiy va musiqiy adabiyotlar tahlil qilindi. o‘zbek milliy musiqasidagi ansambllarning musiqiy tarkibi, uslubi va ijro usullari haqida ma’lumot to‘plandi. shuningdek, milliy musiqashunoslar bilan suhbatlar o‘tkazilib, ansambllarning madaniy merosni saqlash va davom ettirishdagi ahamiyati o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar o‘zbek milliy musiqasida sozandalar ansambllarining xalq madaniyati va musiqiy merosini saqlash va rivojlantirishdagi muhim o‘ringa ega ekanini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari o‘zbek milliy musiqasida sozandalar ansambllari milliy qadriyatlarni saqlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish vositasi sifatida xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek milliy musiqasi, sozandalar ansambllari, musiqa madaniyati, milliy meros, ijro uslubi, madaniy qadriyatlar, musiqiy an’analar.

Iqtibos uchun: Shorahmedov.SH. O`zbek miliy musiqasida sozandalar ansambillarining o`rni.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.435-441.

РОЛЬ АНСАМБЛЕЙ МУЗЫКАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКЕ

© Ш.Шорахметов[1] ✉
[1]Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье описывается роль и значение ансамблей музыкантов в узбекской национальной музыке.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи – определить место ансамблей музыкантов в узбекской национальной музыке, исследовать их роль в музыкальной культуре, показать значение этих ансамблей в развитии национальной музыки сегодня.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании была проанализирована историческая и музыкальная литература. Собрана информация о музыкальном составе, стиле и методах исполнения узбекских национальных музыкальных ансамблей. Также были проведены интервью с отечественными музыковедами, изучено значение ансамблей в сохранении и продолжении культурного наследия.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что ансамбли музыкантов узбекской национальной музыки занимают важное место в сохранении и развитии народной культуры и музыкального наследия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что ансамбли музыкантов в узбекской национальной музыке служат средством сохранения национальных ценностей и передачи их будущим поколениям.

Ключевые слова: узбекская национальная музыка, музыкальные ансамбли, музыкальная культура, национальное наследие, исполнительский стиль, культурные ценности, музыкальные традиции.

Для цитирования: Шорахметов.Ш.Роль ансамблей музыкантов в узбекской национальной музы.ке..// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 435-441.

THE ROLE OF MUSICIANS' ENSEMBLES IN UZBEK NATIONAL MUSIC

©Shomahmud Shorahmetov[1]✉
[1]Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabi, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the role and significance of musical ensembles in Uzbek national music.

AIM: the main purpose of the article is to determine the place of musical ensembles in Uzbek national music, to study their role in musical culture and to show the significance of these ensembles in the development of national music today.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed historical and musical literature. Information was collected about the musical composition, style and performance methods of ensembles in Uzbek national music. Also, interviews were conducted with national musicologists and the significance of ensembles in preserving and continuing cultural heritage was studied.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that musical ensembles in Uzbek national music play an important role in preserving and developing folk culture and musical heritage.

CONCLUSION: the results of the study showed that musical ensembles in Uzbek national music serve as a means of preserving national values and passing them on to future generations.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Keywords: uzbek national music, musical ensembles, musical culture, national heritage, performance style, cultural values, musical traditions.

For citation: Shomaxmud Shoraxmetov.(2024)` The role of musicians' ensembles in Uzbek national music ' media competence, (8(1)), pp. 435-441. (In Uzbek).

O‘zbek xalqining ko‘hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma’naviyat manbai bo‘lganligi o‘tmish tarix zarvaraqlaridan ma’lum. Markaziy Osiyada yetishib chiqqan buyuk olimlar jahon fani, me’morchiligi, adabiyoti va san’ati rivojiga katta hissa qo‘shib kelganlar. Musiqa san’ati ravnaqida ham ana shunday allomalarning ulushi katta bo‘lgan. Sharq musiqa madamiyatini o‘rganish, tatbiq etish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar, olib borilganligi barchaga ma’lum. O‘rta Osiyo hududida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida kashf etilgan musiqaga oid topilmalar, bu yerlarda islomgacha ham yuqori darajadagi musiqiy jarayon davomiy bo‘lib turganini ko‘rsatadi. Miloddan avvalgi musiqa madaniyatiga oid Qadimiy Parfiya, Xorazm, Baqtriya, Sug‘d, Choch (Shosh), Sharqiy Turkiston arxeologik topilmalaridan tashqari, Kushon (I-IV asrlar), Eftalitlar (VVI asr o‘rtalari) davlatlari va turk hoqonligi (VI-VII asrlar) davrlariga oid topilmalar, xususan, Afrosiyob, Marv, Zartepa, Dalvarzintepa, qadimiy Xorazmdagi Qo‘y qirilgan qal’a, Surxon vodiysidagi Ayritom, Xolchayon, Ashxobod yaqinidagi Nisa va boshqa yerlardan topilgan sopol haykalchalar, tosh tasvirlar, fil suyagidan yasalgan idishlar - ritonlarning tepa qismidagi bo‘rtma tasvirlar bu jihatdan ibratlidir. Musiqaga oid arxeologik topilmalar orqali musiqa va musiqa asboblari takommillashuvi jarayonini kuzatish mumkin. Masalan, V asrga mansub Toshkent yaqinidan topilgan qadimiy tasvirda sozanda ayol qo‘lida ikki torli ud cholg‘usini ushlab turgani tasvirlangan. VII asrga oid Panjikent devoriy suratlaridagi ud tasvirlarida esa uning tori to‘rtta bo‘lib, ilgak xarrak bilan bir butun va u qorin ustida, qorin katta, qopqog‘ida aks-sado chiqaruvchi tuynukchalar bor, dastasi kalta, dastaning oxiridagi quloqxona nihoyasi orqaga qayirilgan, ud chalayotgan ayolning qo‘lida esa mizrob bor. Ayritomda, ibodatxonaning kiraverish peshtog‘iga bo‘rttirib ishlangan tasvirlarda qo‘shnay, nog‘ora, ud, arfa kabi musiqa asboblarini chalayotgan 14 sozandani, ya’ni cholg‘uchilar ansamblini ko‘rish mumkin. Panjikent devoriy suratlarida ham ansambl tasvirlangan, faqat bu yerda ashula, raqs va musiqa asboblari o‘zaro birgalikda ansamblni tashkil qilishgan . Biz bu kabi topilma hamda afsonalarda keltirilgan ma’lumotlardan o‘sha davr ijrochiligi haqida nazariy xulosalar chiqara olamiz holos. Bu kabi topilmalar shuni anglatadiki, bu hududlarda musiqa qadimdan kasbiy darajada rivojlangan deyish mumkin.

Shu o‘rinda ansambl atamasi haqida to‘xtalib o‘tasak. Ansambl fransuzcha ensemble – birgalikda, uyg‘unlik, ohangdoshlik ya’ni birgalikda ijro etish ma’nosini bildiradi. Ansamblning turli tarkiblari mavjud. Jumladan: vokal yoki cholg‘u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi; bir guruh artistlarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishi. Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Cholg‘ular va cholg‘u ijrochiligi xususida qadimiy risolalarda ham ko‘plab ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Urmaviy, Marog‘iy, ibn Zayla, Husayniy, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Changiy va Fitrat kabi allomalarning musiqaga oid risolalari so‘zimizning yorqin dalilidir. Qolaversa IX-XII asrlarda Rud, tanbur, borbat, daf, ko‘s, tabl, qo‘biz, rubob, taburak, nay, zir, dagona, shaypur, surnay, karnay, organun, qonun, chang kabi musiqa asboblaridan keng foydalanilganligining o‘zi ham musiqa madaniyatining nechog‘lik taraqqiy etganligini ko‘rsatib beradi.

Hirot, Buxoro, Samarqand vohalarida madaniyat XV-XVII asrlarga kelib ravnaqi tobora yuksala boshlaydi. Podshoh va xon saroylariga yetuk sozanda va xonandalar jalb qilinib, musiqa sohasi jadal rivojlanib bordi. O‘sha davrdagi musiqa cholg‘ularining tuzilishi va ijrochilik uslubi haqida aniq fikrlar bildirish qiyin. Chunki bu davr musiqasi va ijrochiligi xususida faqatgina yozma manbalar orqali nazariy ma’lumotlar olish mumkin. Amaliy tomoni esa qorong‘uligicha qolaveradi. XV-XVII asrlarga oid Hirot, Buxoro va Samarqand miniatura maktablari vakillarining kitobiy mo‘jaz tasvirlari asosida ansambl ijrochiligi bilan bog‘liq muayyan vaziyat va joylar hamda o‘sha davrlarda ijro etilgan musiqa janrlari haqida ham ma’lum tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan: karnay, nog‘ora va dovullar harbiy yurishlar, janglar, ov jarayonlari, shuningdek, xalq sayllari, ommaviy marosim va bayram tantanalarida chalingan bo‘lsa, tanbur, rubob, g‘ijjak, ud, nay, chang-arfa kabi cholg‘ularning nozik nolasi saroylardagi ziyofatlarda, oshiqlarning xonaqohlardagi nafis yig‘inlarida, kiborlar majlislarida, do‘stlar davrasida yangragan

Xuddi shunday Kamoliddin Behzod tomonidan A. Navoiy asarlariga ishlangan miniaturalar tasvirida daf, nay, ud va chang chog‘ularini ko‘rish mumkin. Bu tasvirlar bizga cholg‘ular tuzilishi bilan birgalikda ijrochilik masalalarida ham kengroq tassavvur uyg‘otadi. YA’ni cholg‘ular ijrochiligida yakka va jamoa bo‘lib ijro qilish uslublari qadimdan bor bo‘lib, hozirgacha yetib kelmoqda.

Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonlik va amirliklarida XVIII-XIX asrlarga kelib madaniy hayot gullab yashnaydi. Xususa Buxoro amirligida yetuk sozanda va hofizlarning samarali ijodi o‘laroq “Shashmaqom” uzil-kesil shakllanadi. Tarixiy manbalardan bizga bir qator Buxoro Mug‘anniylari – Hofizi Kalon, Habib Udiy, Hofiz Xoja Go‘yanda, Hasanali Hofiz, Soleh Setoriy, Tora Hofiz, Shahin Buxoriy, Usta To‘la, Islimxon Hofiz, Zuhriddin Burxon Tanburiy, Sulton Hakim Mavrigixon, Maxdumi Xandon, Yusuf Mavlud Dutoriy, Xo‘ja Navro‘z Tanburiy, Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘ani kabi ko‘plab sozanda va hofizlarning nomlari yetib kelgan. Bizga ma’lumki, ota Jalol amir saroyida Shashmaqomning puxta bilmdoni, yetuk hofizi bo‘lgan hamda Shashmaqomchilar guruhiga rahbarlik qilgan, ota G‘iyos esa mohir tanburchi bo‘lib sozandalar ansamblini boshqargan. Amir saroyida ansambl ijrosida Shashmaqomning cholg‘u qismlaridan chalinar, keyin Nasr qismiga o‘tib, salobatli asarlar ijro qilinar va birin-ketin yengillashib borar hamda oxirida o‘ynaqi Ufarlar ijro qilingan.

XX asrning allomalaridan biri Abdurauf Fitrat ham o‘zining «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobida cholg‘ular haqida ma’lumotlar berib, ansambl ijrochiligi xususida te’ran fikrlarni berib o‘tadi: “Bizning bu kungi musiqa ustozlarimiz cholg‘ularning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

bir-biriga munosabati to‘g‘risida ham katta yanglishiliqlar ko‘rsatdilar. Bir tanbur bilan, bir dutor topilg‘och, darhol bir g‘ijjak bilan bir chang qo‘shadilar. Xolbuki, bir g‘ijjak tovushi ikki tanburning tovushini yeb qo‘yadi. Birgina tanburni bir g‘ijjak bilan bir changga topshirish u bechorani bo‘g‘ib o‘ldirishdan boshqa narsa emasdir. Bizning burung‘i ustodlar masalani butunlay boshqacha qo‘yganlar:

1. uch tanbur, bir rubob, bir dutor, bir g‘ijjak, bir balabon, bir qo‘shnay, bir chang, bir doyra;
2. ikki tanbur, bir qubuz, bir dutor, bir nay, bir doyra;
3. ikki tanbur, bir qubuz, bir doyra (dutor ham qo‘shilsa bo‘ladi);
4. hech bo‘lmaganda bir tanbur, bir dutor, bir doyra.

Burung‘i ustodlar shu, yo shunga yaqin bir tartib bilan musiqa chalg‘onlar. Musiqamizning katta kamchiliklaridan bittasi uning tarqoqligidir. Musiqamizda birlik yo‘q. Bir kuy Xivada boshqa, Toshkentda boshqacha chalinadir. Hozirgi texnikumlarimiz ham shu chizig‘dan chiqolmay yuradilar” .

Yuqoridagi fikrlarbugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ansambl ijrosida sozandalar o‘zaro ohang mutanosibligini his qilgan holda ijroga yondashishlari asosiy vazifadir. Bunda sozandalardan shakl va ijro mohiyatini tushinish, uslublarni ajrata olish(yakka ijro va jamoaviy ijro), badiiy mazmunni idrokalsh talab qilinadi. Ansambl ijrosida har bir sozning o‘z o‘rni bor va buni eshituvchiga yetkaza olish sozandalardan alohida mahorat talab etadi. YA’ni ijroda doira ham, chang ham duto va tanbur ham bir xil balandlikda eshitilishi asosiy masaladir. Zero, sozlarning ijrodagi tovush balandligi turlicha bo‘lib, bunda yuqorida ta’kidlanganidek ijrochilardan va ansambl rahbaridam yetuk did hamda mahota talab etiladi. O‘zbek milliy ansambllarining o‘ziga xos jihatlaridan bir shundaki, ansamblda orkestrlarga o‘xshab drijior yo‘q. Bu esa ijro davomida sozandalardan yanada masuliyat hamda bir-birini his qilib ijro qilishni talab qiladi.

XX asrning boshlariga kelib, xalqimizning musiqa san’atiga bo‘lgan qarashlari ham tobora ijobiy tomonga o‘zgara bordi. Turli hududlarda badiiy jamoalar tuzilib, xalq orasida tez-tez konsert dasturlari qo‘yila boshlandi. 30-50-yillarda musiqa sohasi keskin rivojlandi va vohalarni o‘zining zabardast, o‘ta didli musiqa ilmini o‘ziga xos namoyandalari o‘z faoliyatlarini boshlaydi. Bu fikrimizga - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, musiqa ustasi, mohir xalq sozandasi, tashkilotchi va murabbiy usta Ro‘zimatxon Isaboyev (Namangan 1885-1964) tanburchini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Ular tuzgan ansambl tarkibida: - Inomjon, Bahriddin, Sharif hoji - g‘ijjakchilar, Mallavoy - changchi, Ergashvoy - tanburchi, Toshmirza - surnaychi kabi sozandalar faoliyat olib borishgan. O‘z o‘rnida vohaviy maktablarning musiqiy ta’limini izchil bir yo‘lga qo‘yish borasida ijodiy ishlar barpo etila bordi. 1919-yilda To‘xtasin Jalilov boshchiligida xalq cholg‘ulari ansambli tashkil qilinib, 1923-yilda Moskva shahrida o‘tkazilgan butun Rossiya qishloq xo‘jalik savdo ko‘rgazmasida ishtirok etib muvaffaqiyat bilan qaytishgan. Shundan so‘ng, 24 nafardan iborat havaskorlik to‘garak ijro dastasi o‘z faoliyatini boshlaydi. 1921-yilda Abdurauf Fitratning tashabbusi bilan “Sharq musiqa maktabi”

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ochiladi. Aynan shu maktabda o‘z davrining yetuk ustozlari yig‘ilishib talabalarga tahsil berishadi. Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘ani, Domla Halim, Hoji Abdulaziz, V.Uspenskiy, Levicha Hofiz kabilar shular jumlasidan. Xuddi shu maktab tarbiyalanuvchilari o‘zbek mumtoz musiqasining bugungi kungacha saqlanib qolishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1927-yili O‘zbekiston radiosi qoshida xalq cholg‘ulari ansambli tashkil etiladi. Bu ansambl mumtoz musiqa sohasini mohir sozandalarining majmuasi edi. Ansambl ijrochilari: naychilar - Dadaali Soatqulov, Saydali Kalonov, qo‘shnaychi - Xayrulla Ubaydullayev, changchilar Nig‘matjon Do‘stmuhamedov, Faxriddin Sodiqov, dutorchilar - Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar - Rixsi Rajabiy, Mahsudxo‘ja Yusupov, g‘ijjakchilar - Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, doyrachi - Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevlardan iborat edi . Ularning asosiy maqsadi mumtoz musiqa me’rosi namunalarini ijro etish hamda magnit tasmalarga muhirlash edi. 1959-yilda maqomchilar ansambli tashkil etildi. Unga Yunus Rajabiy Rahbar qilib tayinlandi. 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi huzurida “Sharq musiqasi” kafedrasi tashkil etildi hamda an’anaviy ijrochilikdan tahsil berish uchun Yunus Rajabiyning ko‘p yillardan beri yonida bo‘lib, yetuk ustozlik darajasiga chiqqan Faxriddin Sodiqov taklif qilindi. F.Sodiqov talabalarga chang, dutor, g‘ijjak, qo‘shnay cholg‘ularidan tahsil bera boshladi. Ayni paytda talabalar maqom ansambliga ham rahbarlik qildi. Talabalar bilan birgalikda Shashmaqomning Mushkilot bo‘limidan ko‘plab maqom kuylarini ijro etishdi. Faxriddin Sodiqov ansambl ijrochiligida yangicha uslubni olib kirdi. Buni T.S. Vizgo shunday ta’riflaydi: “ bu yangilikka tembrlar rango-rang taqqoslanishlari orqali erishiladi. Koloritni sezishda tug‘ma iste’dod egasi F.Sodiqov monodik maqom ijrochiligi an’anasi ichida go‘yo “partiturani yozib chiqqandek” bo‘ladi. F. Sodiqov ansambl ijrochiligida yangi davrni olib kirdi hamda bu uslub asosida yangi bir ansambl ijrochilari yetishib chiqdi. Aynan shu maktab tarbiyalanuvchilari respublika bo‘ylab ustoz-shogirt an’anasini davom ettirishdi. Hozirgi kunda ham O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida Faxriddin Sodiqov nomida ustozlardan tashkil qilingan maqomchilar ansambli o‘z faoliyatini olib bormoqda.

F. Sodiqovdan keyin uning yaqin shogirtlaridan biri Abdurahim Hamidov talabalarga ansambldan tahsil berdi. Abdurahim Hamidov rahbarligida talabalar ansambli Shashmaqomning Mushkilot bo‘limidagi barchga maqom va xalq kuylarini maginit tasmalariga muhirlashdi. Bugungi kunda talabalarga ansambl darslari aynan mana shu yozuvlar orqali olib borilmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, milliy musiqa hamda maqom san’atiga bo‘lgan e’tibor yil sayin oshib bordi. Turli xil badiiy jamoalar tuzildi, musiqa va san’at maktablarida milliy ichrochilikka bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqning ma’naviyatini oshirish masalasini birinchi o‘ringa qo‘ydi va bunga milliy mumtoz musiqa va maqomlarimiz bilan erishish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Prezidentimiz tomonidan maqom san’ati va milliy musiqaga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Maqomnirivojlantirish, xalq orasida targ‘ib qilish va o‘rgatish hamda kelajak avlodga yetqazish masalalari qo‘yildi. Ular tomonidan 2017-yil 17-noyabrdagi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

“O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Maqom markazi tuzildi va uning negizida maqom ansambli tashkil qilindi. Har bir viloyatda namunali maqom ansambllari tashkil etilib, bugungi kunda faoliyat yuritib kelmoqda. Qolaversa 2020 yilda Prezidentimiz farmoni bilan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti tashkil etildi.Xozirda ushbu dargoxda elimizning ardoqli san’atkorlari,ustozlar dars berib kelishmoqda.Maqom cholg‘u ijrochiligi kafedrasida talabalar ansambllari mavjud.Xar bir kursda sozandalar ansambli fanidan dars o‘tiladi.Ular ustozlardan Shashmaqom,milliy musiqa va bastakorlar asarlarini chuqur o‘rganmoqdalar.Kafedra professor o‘qituvchilari tomonidan ansambl faniga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilmoqda.Albatta bu ilmiy izlanishlar maqom ijrochiligini rivojlanishida,kelajak avlodga to‘la yetkazishda o‘z samarasini beradi deb o‘ylayman.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Natan Mallayev O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 1965 yil. 1-kitob
2. Akbarov. Musiqa lug‘ati. Toshkent. 1986-yil
3. A.Fitrat. “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”. Toshkent.1993-yil.
4. R.Yunusov. «Faxriddin Sodiqov”. Toshkent. 2005-yil
5. Zokirjon Oripov. X-XV Asrlar markaziy osiyo musiqa manbashunosligi. Toshkent 2017-yil.
6. To‘rayev F.J. Buxoro mug‘anniylari. Toshkent 2009 yil
7. Saloxiddin Azizboyev. “Ansambl sinfi”. Toshkent 2018-yil
8. Oqilxon Ibrohimov. “Amir Temur va musiqa”. Maqolasidan.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shomahmud Shorahmetov**, dotsent, [**Шомахмуд Шорахмедов**, доцент.], [**Shomahmud Shorahmetov** professor.]; manzil:O‘zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani MUSTAQILLIK SHOX KO`CHASI, 31-UY [аддрес: Узбекистан, ул УЛИЦА МУСТАКИЛЛИК ШОК, 31, Мирзо Улугбекский район, город Ташкент], [address: Uzbekistan, Mustakillik shok street, 31, Mirzo Ulugbek district, Tashkent city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

AYOLLARDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-MADANIY OMILLARI

© A.F.Abdurahmanova[1]✉

[1]Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada ayollarning qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar va ularning ijtimoiy-madaniy omillari o‘rganiladi. Ayollarning turmush tarzi, ijtimoiy rol va mas’uliyatlari bilan bog‘liq qadriyatlarning zamon bilan transformatsiyasi, jamiyatning modernizatsiya jarayonlari va gender tengligi kabi omillar asosida ko‘rib chiqiladi. Ushbu masala milliy an’analar va global madaniyatlar to‘qnashuvi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – ayollarda qadriyatlar transformatsiyasini shakllantiruvchi ijtimoiy va madaniy omillarni aniqlash va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Bu orqali gender tengligi, an’ana va modernizatsiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar chuqur o‘rganiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sotsiologik so‘rovlar, intervyular va kuzatuvlar asosida empirik ma’lumotlar yig‘ildi. Shuningdek, tahliliy va statistik metodlar qo‘llanilib, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar mintaqaviy va global ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi. Adabiyot tahlili orqali qadriyatlar transformatsiyasining nazariy jihatlari yoritildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar ayollarning qadriyatlari o‘zgarishida quyidagi omillarning ahamiyatini ko‘rsatdi: ijtimoiy institutlarning evolyutsiyasi, gender siyosati, ta’lim va mehnat sohasidagi islohotlar, hamda mass-media orqali gender stereotiplarning qayta shakllanishi.

XULOSA: tadqiqot natijalari ayollarda qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar jamiyatning modernizatsiya jarayonlari va gender tenglikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy islohotlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Qadriyatlar transformatsiyasi, gender tengligi, ijtimoiy-madaniy omillar, modernizatsiya, an’analar, ayollar, gender siyosati.

Iqtibos uchun: Abdurahmanova. F.A. Ayollarda qadriyatlar transformatsiyaning ijtimoiy-madaniy omilari.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.442-449.

СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ЦЕННОСТЕЙ У ЖЕНЩИН

©А. Ф.Абдурахмонова[1]✉

[1] Научно-исследовательский институт семьи и гендера, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются изменения в системе ценностей женщин и их социокультурные факторы. Рассмотрена трансформация ценностей, связанных с образом жизни женщин, социальными ролями и обязанностями с течением времени, процессы модернизации общества и гендерного равенства. Этот вопрос особенно важен в условиях столкновения национальных традиций и мировых культур.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – выявить социальные и культурные факторы, формирующие трансформацию ценностей у женщин, и проанализировать их значение в общественной жизни. Благодаря этому взаимосвязь между гендерным равенством, традициями и модернизацией подробно исследуется.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования собраны эмпирические данные на основе социологических опросов, интервью и наблюдений. Также использовались аналитические и статистические методы, а изменения в системе ценностей сравнивались с региональными и глобальными показателями. Теоретические аспекты трансформации ценностей были освещены посредством анализа литературы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали значимость следующих факторов в изменении женских ценностей: эволюция социальных институтов, гендерная политика, реформы в сфере образования и труда, а также реформирование гендерных стереотипов через средства массовой информации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что изменения в системе ценностей женщин тесно связаны с процессами модернизации общества и социальными реформами, направленными на укрепление гендерного равенства.

Ключевые слова: Трансформация ценностей, гендерное равенство, социокультурные факторы, модернизация, традиции, женщины, гендерная политика.

Для цитирования: Абдурахмонова.Ф.А. Ценности у женщин являются социокультурными факторами трансформации.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 442-449.

SOCIO-CULTURAL FACTORS OF THE TRANSFORMATION OF VALUES IN WOMEN

© Feruza A. Abdurahmonova[1]✉
[1]Research Institute of Family and Gender, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines changes in the value system of women and their socio-cultural factors. The transformation of values related to women's lifestyle, social roles and responsibilities over time, modernization processes of society and

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

gender equality are considered. This issue is particularly important in the context of the clash of national traditions and global cultures.

AIM: the main purpose of the research is to identify the social and cultural factors that shape the transformation of values in women and to analyze their importance in social life. Through this, the relationship between gender equality, tradition and modernization is explored in depth.

MATERIALS AND METHODS: the research collected empirical data based on sociological surveys, interviews and observations. Analytical and statistical methods were also used, and changes in the value system were compared with regional and global indicators. Theoretical aspects of value transformation were highlighted through literature analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed the importance of the following factors in the change of women's values: the evolution of social institutions, gender policy, reforms in the field of education and labor, and the re-formation of gender stereotypes through mass media.

CONCLUSION: the results of the study showed that changes in the value system of women are closely related to the processes of modernization of society and social reforms aimed at strengthening gender equality.

Key words: transformation of values, gender equality, socio-cultural factors, modernization, traditions, women, gender politics.

For citation: Feruza. A. Abdurahmonova (2024) Socio-cultural factors of the transformation of values in women, Inter education & global study, (8(1)), pp. 442-449. (In Uzbek).

Subyektning shaxsiy sohasi qadriyatlari to‘plami - bu tarbiya, hayot va ijtimoiylashuvning butun davrida shakllanadigan dinamik va barqaror tizim. Shu bilan birga, u hayotning muhim, burilish nuqtalarida sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Qadriyat tizimi inson o‘z tanlovi, qarorlari va harakatlarini o‘lchaydigan o‘lchov sifatida ishlaydi. Bolaning tug‘ilishi ayolning hayotidagi burilish nuqtasi sifatida qaraladi, bunda qadriyatlar tizimi o‘zgarishi mumkin. Shaxsning qiymat-semantik yo‘nalishlari mualliflar tomonidan insonning qadriyatlarga bo‘lgan tanlab munosabati sifatida tushuniladi, ular inson xulq-atvorining ko‘rsatmasi va o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi [1].

Yigirmanchi asrning oxiri inson mavjudligining qadriyatlarini tushunish muammosini ilmiy bilimlarning birinchi o‘ringa qo‘ydi va shu bilan fan rivojlanishining zamonaviy, aksiologik bosqichini belgilab berdi. Biroq, insoniy qadriyatlar va qadriyat yo‘nalishlari har doim falsafa, etika, sotsiologiya va psixologiyaning alohida bilim sohalari sifatida shakllanishi va rivojlanishining barcha bosqichlarida eng muhim tadqiqot ob'ektlaridan biri bo‘lib kelgan. G.P.Vyjletsov falsafa rivojlanishining ontologik, gnoseologik va aslida aksiologik bosqichlarini tavsiflab, ularning har biri uchun tahlil qilinadigan asosiy qadriyatlar va ideallarni - ezgulik, baxt va ma’naviy erkinlikni belgilaydi [2].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Etikaning asoschisi hisoblangan Suqrot antik davr faylasuflaridan birinchi bo‘lib, bu tushunchalar bilan ifodalangan xatti-harakatlar yoki narsalardan qat’iy nazar, ezgulik, ezgulik va go‘zallikning o‘zida nima degan savolga javob topishga harakat qilgan. Uning fikricha, ushbu asosiy hayotiy qadriyatlarni aniqlash orqali erishilgan bilimlar axloqiy xulq-atvor asosida yotadi. Suqrot nuqtayi nazaridan, yaxshilik («agaton») inson tomonidan qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lsa, shunday ta’riflanadi. Suqrotning ezgulik va go‘zallik uchun umumiy bo‘lgan maqsadga muvofiqlik tamoyilini kiritishi ularni baholovchi tushunchalardan («yaxshi», «chiroyli») ideal qadriyatlar darajasiga ko‘taradi [3].

Shaxs dinamik tizim bo‘lib, doimiy o‘zgarish va rivojlanish holatidadir. Bunday shaxsiy rivojlanish jarayonida uning ichki harakatlantiruvchi kuchlari tobora muhim ahamiyat kasb etib, insonga o‘z taraqqiyotining vazifalari va yo‘nalishini tobora mustaqil ravishda belgilash imkonini beradi. Shaxsning qadriyat yo‘nalishlari tizimi bunday rivojlanishning tartibga soluvchisi va mexanizmi bo‘lib, ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish shaklini belgilaydi va agar ular erishish natijasida rag‘batlantiruvchi kuchini yo‘qotsa, yangi muhim maqsadlarni qo‘yishni rag‘batlantiradi. O‘z navbatida, shaxs rivojlanishining erishilgan darajasi izchil ravishda uning qadriyat yo‘nalishlari tizimini rivojlantirish va takomillashtirish uchun yangi shart-sharoitlarni yaratadi. Shu munosabat bilan R.Xeyvigerstning nuqtayi nazari diqqatga sazovordir, unga ko‘ra shaxsiy rivojlanishning asosiy vazifasi umuminsoniy qadriyatlar sohasida o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘z qadriyatlar tizimini rivojlantirishdir. Bir qator rivojlanish nazariyalarida muhim o‘rin egallagan qadriyat yo‘nalishlari tizimining bosqichma-bosqich shakllanishi individual rivojlanishning umumiy davriyligiga mos keladi. Shaxsning qadriyat yo‘nalishlari tizimini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu ma’lum darajadagi intellektual rivojlanishdir. J.Piaje axloqiy rivojlanish bosqichlaridagi o‘zgarishlar umumiy kognitiv yoshga bog‘liq o‘zgarishlar bilan bog‘liqligiga aniq ishongan. Uning so‘zlariga ko‘ra, «shaxsning ijtimoiy tuzum me'yorlariga hurmati va uning adolat tuyg‘usi» da namoyon bo‘ladigan axloqiy mulohazalar bolalarda ularning rivojlanayotgan aqliy tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va asta-sekin kengayib borayotgan ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi.

J.Piajening fikricha, axloqiy rivojlanish ham aqliy rivojlanish kabi progressiv, bosqichli xarakterga ega. J.Piaje axloqiy rivojlanishning ikkita asosiy bosqichini belgilaydi. «Axloqiy realizm» ning dastlabki bosqichida bolalar xatti-harakatlarning barcha axloqiy me'yorlari haqiqiy, o‘zgarmas, majburiy va istisnolarga ega emasligiga ishonishadi. Harakatni axloqiy baholash mezoni faqat uning oqibatlari hisoblanadi. Keyinchalik, 5 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan davrda, bolada mavhum tafakkurni rivojlantirish jarayonida, voqelik kategoriyasi o‘rniga, imkoniyat kategoriyasi birinchi o‘ringa chiqadi. Shunday qilib, bola harakatning niyatlarini baholash, uning o‘ziga xos oqibatlaridan mavhumlash qobiliyatini rivojlantiradi. J.Piaje «axloqiy relativizm» deb ataydigan ushbu bosqich, kerak bo‘lganda, ularni o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv asosida yaratilgan axloqiy me'yorlarning nisbiyligini tushunish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda axloqiy baholash mezoni - bu insonning niyatlari shakllanishidir [4].

An'anaviylikdan oldingi daraja egosentrizm bilan tavsiflanadi, axloqiy qadriyatlar tashqi tabiatga ega va ularga rioya qilish foyda tamoyiliga asoslanadi. Birinchi bosqichda bola jazodan qochish uchun norma va qoidalarga bo‘ysunadi, ikkinchisida - mukofot yoki shaxsiy manfaat olish uchun intiladi. An'anaviy daraja ijtimoiy muvofiqlik, o‘z guruhining baholarini tanqidsiz qabul qilish va belgilangan tartib, an'analar va qoidalarni saqlash istagi bilan tavsiflanadi. Yaqin atrofdagi me'yorlar va qadriyatlar ichki qabul qilinadi, ularga rioya qilish ichki ehtiyojga aylanadi, ammo ular baribir tashqi hokimiyatga asoslanadi. Uchinchi bosqichda qoidalarga bo‘ysunish «yaxshi bo‘lish», umidlarni qondirish va boshqalarning noroziligi yoki qoralanishidan qochish istagi bilan belgilanadi [5]. To‘rtinchi bosqich butun jamiyatning qadriyatlar tizimiga yo‘naltirilganligiga to‘g‘ri keladi, xatti-harakat esa qonuniy hokimiyat tomonidan qoralashdan qochish istagi va burchni bajarmaganlik uchun aybdorlik hissi bilan tartibga solinadi. Post-an'anaviy daraja o‘z axloqiy tamoyillariga va axloqiy qadriyatlarning avtonom tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilganligiga mos keladi. Ushbu darajadagi shaxsiy qadriyatlar ko‘proq mavhum, umuminsoniy, umuminsoniy qadriyatlar bilan belgilanadigan ma’lumot guruhining qadriyatlari bilan mos kelmasligi mumkin. Beshinchi bosqichda inson o‘z qadriyatlari va tamoyillariga muvofiq harakat qiladi, shu bilan birga ushbu jamiyat qonunlarini va boshqa odamlarning qadriyatlarini hurmat qiladi va umumiy manfaatlar uchun harakat qiladi.

Yaqqollik printsipi barcha o'qitilayotganlar uchun birgina mezonlar bo'yicha ochiq sinovlar o'tkazishdan iborat. Diagnostika jarayonida har bir talabaning reytingi yaqqol, qiyoslama xaraterga ega bo'lishi lozim.

Oshkoralik printsipi baholarni oshkor qilish va sharhlab berishni taqazo etadi. Baho bu o'qiyotganlar o'ziga nisbatan talablar etalonlari, shuningdek, pedagogning ob'ektivligi haqida mulohaza yuritishining belgisi. Diagnostik natijalarni e'lon qilish, ta'lim beruvchi pedagog ishtirokida ularni muhokama va tahlil qilish, talabalar bilimlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilishning istiqbolli rejalarini tuzish, mazkur printsipni amalga oshirishning zaruriy shartlari hisoblanadi.

Bizningcha, diagnostik vositalar uchun o'ta muhim sanalgan ishonchlilik va validlik printsiplarini diagnostik printsiplar tizimiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lib, ularga amal qilish ilmiy asoslanganlik printsipiga to'g'ri keladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Pedagogik faoliyatda diagnostika metodikasini qo'llash va samarali natijaga erishish uchun modullik, variativlik, texnologiklik va o'z-o'zini boshqarish kabi etakchi printsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va bu faoliyatda o'ziga xos axamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, "Pedagogik diagnostika metodikasi o'quv faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, muntazamlilik va tizimlilik, ob'ektivlik, ishonchlilik va validlik, tasdiqlovchi va tuzatuvchi funksiyalarning mujassamligi, diagnostika istiqbollari, diagnostika shakl va metodlarini optimallligi" diagnostikaning murakkablik printsiplariga amal qilishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абдраимова Б.Б. Current challenges in biology education pedagogy: an analysis of contemrary methodological issues// European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)// ISSN: 2660-5589 Vol. 4 No.11, November 2023 [52-53]
2. Абдраимова Б.Б. Проблемы методики преподавания биологии на современном этапе// Eastern European Scientific Journal// DOI: 10.31618/ESSA.2782-1994.2023.1.95 [33-35]
3. Каримова Н.А. Means of directing students to the profession in the teaching of biology // Journal of Advanced Scientific Research // Vol. 3 No. 9 (2023) ISSN –0676-9595 [93-94]
4. Абдраимова Б.Б. Проблема подготовки педагогических кадров к инновационной деятельности //East European Scientific Journal Wschodnioerzopejskie Czasopismo Naukowe Vol.1/ 12 (64), 2020 part 6 [4-6]
5. Абдраимова Б.Б. Естественные направления диагностической деятельности учителя //Вестник – науки Международный научный журнал. Тольятти 2021 Том 3// [стр 5-12]
6. Абдраимова Б.Б. Личностно-ориентированный процесс обучения как объект педагогической диагностики// Вестник – науки Международный научный журнал. Тольятти 2022, №9 Том (54/4) [стр. 18-22]

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdiraimova Barno Baxtiyorovna**, v/b dotsent, [**Абдираимова Барно Бахтиёровна**, в/б доцент], [**Barno B. Abdiraimova**, v/b dotsent]; manzil: O'zbekiston, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy. [адрес: Узбекистан, ул. Город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, 27.], [address: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilonzor district, Tashkent city.]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

© T.I.Ismoilov[1]✉
[1]Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada verbal kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari va ularning shaxsiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – verbal kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni aniqlash va samarali yondashuvlarni ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kommunikativ kompetensiyalar va ularni rivojlantirish bo'yicha adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar verbal kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda psixologik omillarning muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. ishtirokchilarning o'z-o'zini anglash darajasi, shaxsiy ishonch va muloqotda ochiqlik ko'rsatkichlari kommunikatsiyaning sifatiga ta'sir ko'rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari verbal kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda psixologik xususiyatlar va individual yondashuvning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: verbal kommunikativ kompetensiyalar, psixologik omillar, shaxsiy o'z-o'zini anglash, muloqot ko'nikmalari, psixologik trening, individual yondashuv, interfaol mashg'ulotlar.

Iqtibos uchun: T.I. Ismoilov Verbal kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlar // Inter education & global study. 2024. №8(1). C. 466-471.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ВЕРБАЛЬНЫХ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

© Т.И. Исмоилов [1]✉
[1]Наманганский государственный педагогический институт, Наманган, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются психологические особенности развития вербальных коммуникативных компетенций и их влияние на личностное развитие.

ЦЕЛЬ: основной целью исследования является выявление психологических факторов, влияющих на развитие вербальных коммуникативных компетенций, и разработка эффективных подходов к этому процессу.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы литературные источники по вопросам коммуникативных компетенций и их развития.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что психологические факторы играют важную роль в развитии вербальных коммуникативных компетенций. Показатели уровня самосознания участников, уверенности в себе и открытости в общении влияли на качество коммуникации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают значимость психологических особенностей и индивидуального подхода в развитии вербальных коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: вербальные коммуникативные компетенции, психологические факторы, самосознание, коммуникативные навыки, психологический тренинг, индивидуальный подход, интерактивные занятия.

Для цитирования: Исмоилов Т.И.Психологические особенности развития вербальных коммуникативных компетенций // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 466-471.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF VERBAL COMMUNICATIVE COMPETENCES

© Temur I. Ismoilov[1]✉
[1]Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the psychological characteristics of developing verbal communicative competences and their impact on personal development.

AIM: the main objective of the study is to identify psychological factors influencing the development of verbal communicative competences and to develop effective approaches to support this process.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed literature related to communicative competences and their development.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that psychological factors play a significant role in the development of verbal communicative competences. Participants' levels of self-awareness, personal confidence, and openness in communication affected the quality of their interactions.

CONCLUSION: the study results confirm the importance of psychological traits and an individualized approach in developing verbal communicative competences.

Keywords: verbal communicative competences, psychological factors, self-awareness, communication skills, psychological training, individualized approach, interactive activities.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

For citation: Madina K. Kholikova. (2024) Psychological features of the development of verbal communicative competences, Inter education & global study, (8(8)), pp. 466-471. (In Uzbek).

Bugungi global muloqotlar dunyosida og'zaki kommunikativ kompetensiya shaxsiy va professional muvaffaqiyat uchun muhim hisoblanadi. Og'zaki kompetensiya nafaqat axborotni samarali yetkazib berishga imkon beradi, balki boshqalar bilan mazmunli muloqot qilish, tushunishni ta'minlash va munosabatlar o‘rnatishga ham yordam beradi. Bu ko‘nikma esa oddiy lingvistik mahorat bilan cheklanib qolmay, odamlarning tilni turli ijtimoiy kontekstlarda qanday o‘rganishi, ishlatishi va talqin qilishiga ta'sir qiluvchi murakkab psixologik jarayonlarga asoslanadi.

Og'zaki kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi psixologiya, lingvistika va ta'lim sohalarida keng o‘rganilgan. Psixologlar xotira, diqqat va tilni qayta ishlash kabi kognitiv jarayonlarning og'zaki ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdagi rolini ta'kidlab kelishadi. Shu bilan birga, ijtimoiy psixologlar va pedagoglar til o'rganish va kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi atrof-muhit va ijtimoiy omillar — ota-ona bilan muloqot, tengdoshlar ta'siri va madaniy muhitning ahamiyatiga e'tibor qaratishadi. O'z-o'zini qadrlash, empatiya va xavotir kabi emotsional omillar ham og'zaki kompetensiyaga sezilarli ta'sir qiladi, chunki ular insonning kommunikativ jarayonlarda ishtirok etishiga tayyorligi va ishonchiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqola og'zaki kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi psixologik xususiyatlarni — kognitiv, ijtimoiy va emotsional jihatlarni o'rganadi. Bu omillarni tadqiq qilish orqali biz og'zaki ko'nikmalar qanday rivojlanishi, bu yo‘lda shaxslar duch keladigan qiyinchiliklar va ta'lim muhitida og'zaki kompetensiyani samarali shakllantirish uchun qanday strategiyalardan foydalanish mumkinligini yanada chuqurroq tushunib olishimiz mumkin. Bu bilim o'qituvchilar, ota-onalar va turli yoshdagi hamda madaniy kelib chiqishga ega bo‘lgan shaxslarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan til mutaxassislari uchun ayniqsa qimmatli hisoblanadi. Ushbu tahlil orqali biz psixologik jarayonlar va og'zaki kommunikativ rivojlanish o'rtasidagi dinamik aloqani yanada chuqurroq anglashni maqsad qilamiz va turli muhitlarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalarni taqdim etishga intilamiz.

1. Og'zaki kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari

Og'zaki kommunikativ kompetensiya til o'zlashtirish va muloqot psixologik nazariyalariga chuqur asoslangan. Ushbu sohani yorituvchi asosiy nazariyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi: Vigotskiy ijtimoiy muloqotning kognitiv rivojlanishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi, ayniqsa til o'zlashtirish va og'zaki ko'nikmalar bilimli insonlar bilan muloqot orqali rivojlanadi. Bu og'zaki kompetensiya rivojlanishida ijtimoiy kontekstlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

- Piagining kognitiv rivojlanish bosqichlari: Piagining nazariyasi bolalarda kognitiv qobiliyatlarning o‘sishini tushuntiradi, bu esa til o‘zlashtirish va og‘zaki ifoda ko‘nikmalariga bevosita ta’sir qiladi.

- Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi: Banduraning nazariyasi kuzatish va taqlid orqali o'rganishni ta’kidlaydi, bu esa og'zaki kommunikativ kompetensiyani samarali muloqot qiluvchilarni kuzatish va ularga taqlid qilish orqali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

2. Og'zaki kommunikativ kompetensiyaning kognitiv tarkibiy qismlari

Og'zaki kommunikativ kompetensiyaning kognitiv jihatlari xotira, diqqat va tilni qayta ishlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kognitiv funktsiyalar tilni tushunish va ishlab chiqarish uchun juda muhimdir.

- Ishchi xotira: Og'zaki muloqot ishchi xotiraga ko‘p jihatdan tayanadi, bu esa til ma'lumotlarini qayta ishlash, saqlash va qayta tiklash imkonini beradi. Ishchi xotira suhbat davomida so‘zlarni eslash, grammatik jihatlarni tuzishda muhim rol o‘ynaydi.

- Diqqat va e'tibor: Diqqatni saqlash og'zaki axborotni to'g'ri qayta ishlash uchun zarurdir. E’tiborni yaxshiroq nazorat qiladigan shaxslar suhbatda e'tiborini jamlash va to‘g‘ri javob berish orqali samarali muloqot qiluvchilardir.

- Tilni qayta ishlash ko‘nikmalari: Og'zaki kompetensiya rivojlanishi fonologik xabardorlik, grammatik tushunchalar va lug‘atni eslab qolish kabi rivojlangan til qayta ishlash ko‘nikmalarini talab qiladi, bular og'zaki muloqotni kontekstga mos holda amalga oshirish qobiliyatiga hissa qo‘shadi.

3. Og'zaki kommunikativ kompetensiyaga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar

Ijtimoiy muloqotlar og'zaki kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga asosdir. Asosiy ijtimoiy omillar quyidagilardan iborat:

- Ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqot: Bolalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi erta muloqotlarning sifati til o‘zlashtirishga sezilarli ta'sir qiladi. Farzandlari bilan boy, javob beruvchi va xilma-xil muloqot qiluvchi ota-onalar ularning lug‘at va sintaktik bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Tengdoshlarning ta'siri: Tengdoshlar bilan muloqot shaxslarga tilni qo'llash, ma’nolarni kelishib olish va suhbat ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Tengdoshlar orasidagi ijtimoiy dinamikalar turli tilda ifodalash uslublari va uslublardan foydalanishni rag‘batlantirishi mumkin.

- Madaniy va atrof-muhit kontekstlari: Madaniy me'yorlar va atrof-muhit kontekstlari muloqot uslublarini, lug‘atdan foydalanishni va jamiyatda kutilayotgan og‘zaki kompetensiya darajasini shakllantiradi. Tilga boy muhitga duch kelish tilni rivojlantirishga yordam beradi, cheklangan muhit esa bu jarayonga to'sqinlik qilishi mumkin.

4. Og'zaki kompetensiyaga ta'sir qiluvchi emotsional omillar

Emotsional omillar og'zaki kommunikativ kompetensiyada muhim rol o‘ynaydi, chunki ular insonning muloqotda qatnashishga tayyorligi, ifoda qilish ishonchi va boshqalarning emotsional ishoralarini tushunish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

- O‘z-o‘zini qadrlash va ishonch: Yaxshi o‘z-o‘zini qadrlash va ishonch og‘zaki muloqotga ijobiy ta’sir qiladi, bu esa xavotirni kamaytiradi va shaxsni muloqotda faolroq ishtirok etishga undaydi.

- Xavotir va muloqotdan qo‘rqish: Xavotir og'zaki kompetensiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatib, insonni muloqot vaziyatlaridan chetlanishga undaydi, bu esa amaliyot va o‘sish imkoniyatlarini cheklaydi.

- Empatiya va emotsional intellekt: Boshqalarni tushunish va ularga hamdardlik ko‘rsata olish qobiliyati og‘zaki muloqotni yaxshilaydi, bu esa faol tinglash va so‘zsiz ishoralarni tushunishga yordam beradi, natijada mazmunli muloqotlar o‘rnatiladi.

5. Og'zaki kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha ta'limiy tavsiyalar

Ta'lim muhitlari og'zaki kompetensiyani rivojlantirish uchun strukturaviy imkoniyatlar yaratadi. Samarali pedagogik strategiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Tilga boy muhitlar: Maktablar o‘quv dasturlari, munozaralar va hikoya qilish faoliyatlari orqali tilga boy muhit yaratishi mumkin, bu esa o‘quvchilarga og‘zaki ko‘nikmalarni mashq qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

- Hamkorlikda o‘qitish: Guruh faoliyatlari va hamkorlikda o‘qitish og‘zaki muloqotni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarga til ko‘nikmalarini mashq qilish imkonini beruvchi kontekstlarni taqdim etadi.

- Qayta aloqa va rag‘batlantirish: O‘qituvchilardan olingan konstruktiv qayta aloqa o‘quvchilarga og‘zaki qobiliyatlarini yanada yaxshilashga yordam beradi, ijobiy rag‘batlantirish esa til o‘rganishga bo‘lgan sa’y-harakatlarni davom ettirishga undaydi.

Verbal kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish – bu kognitiv, ijtimoiy va emotsional omillar uyg‘unligida shakllanadigan ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu har bir omil shaxsning verbal muloqotda tushunish, aniq ifoda qilish va javob berish qobiliyatiga o‘ziga xos hissa qo‘shadi. Kognitiv jarayonlar, jumladan xotira, e'tibor va tilni qayta ishlash, samarali muloqot uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni tashkil etib, shaxsga mazmunli muloqotni qurish va tushunish imkonini beradi. Ijtimoiy omillar – erta yoshdagi oila a'zolari bilan o‘zaro muloqot, tengdoshlar bilan munosabatlar va madaniy kontekst – til o‘zlashtirish va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, tilga boy, qo‘llab-quvvatlovchi muhitning ahamiyatini ta’kidlaydi. Shuningdek, emotsional omillar, masalan, o‘ziga bo‘lgan ishonch, empatiya va xavotirni boshqarish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular shaxsning muloqotga kirishish istagini va boshqalarning verbal va noverbal ishoralariga sezgirligini ta’sir qiladi.

Ta'lim va ijtimoiy muhitlar ushbu jihatlarni ustuvorlikda tan olish orqali hayotning barcha bosqichlarida verbal kommunikativ kompetensiyalarni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Tilda boy muloqotlarni, hamkorlikda o‘qishni va empatiyaga asoslangan tinglashni rag‘batlantiruvchi strategiyalar nafaqat til ko‘nikmalarini, balki o‘ziga ishonchni, ijtimoiy hamjihatlikni va o‘zaro tushunishni ham kuchaytiradi. Bundan tashqari, kommunikatsiyadagi xavotir yoki ishonch yetishmasligi kabi emotsional to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etish til o‘rganishni yanada qulay va qiziqarli qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Xulosa qilib aytganda, verbal kommunikativ kompetensiyalarning psixologik asoslarini tan oladigan holistik yondashuv til o‘rgatishni samaraliroq qilish, ijtimoiy muloqotni inklyuziv va muvaffaqiyatli qilishga yordam beradi. Ushbu yo‘nalishdagi doimiy tadqiqotlar va xabardorlik ta’limchilar, psixologlar va til mutaxassislariga kommunikativ qobiliyatlarni oshirish bilan birga shaxslarning umumiy psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqishda yordam beradi, bu esa ularni tobora ko‘proq verbal va ijtimoiy dinamikaga ega dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice-Hall.
2. Bruner, J. (1983). Child's Talk: Learning to Use Language. Oxford University Press.
3. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. Longman.
4. Piaget, J. (1954). The Construction of Reality in the Child. Basic Books.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ismoilov Temur Islomovich**, DSc, professor, [**Исмоилов Темур Исломович, DSc, профессор]**, [**Temur I. Ismoilov,DSc, professor**]; manzil: O‘zbekiston, Namangan sh., Uychi ko'chasi, 316-uy [адрес: Узбекистан, ул. Уйчи, 316, г. Наманган], [address: Uzbekistan, 316, Uychi st., Namangan city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

BOLALARNING GENDER O'ZIGA XOSLIKLARI BILISH JARAYONINI FAOLLASHTIRISH OMILI SIFATIDA

© J.R. Gulyamov[1], S.R. Mansurova[2], M.Sh. Abdusalomova[1]✉
[1]O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi, Navoiy, O'zbekiston
[2]Navoiy Davlat universiteti, Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bolalarda gender o'ziga xosliklarni bilish va tushunishni faollashtirish omillari, hamda ushbu jarayonning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. gender xususiyatlarini anglash bolalarning shaxsiy identifikatsiyasi va o'zini tanib-bilishga xizmat qiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bolalarda gender xususiyatlarni bilish jarayonini faollashtirish va ushbu jarayon orqali ularning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish omillarini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqotda kuzatuv va so'rovnoma metodlari qo'llanilib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichidagi bolalar bilan muloqotda gender mavzularini ochib beruvchi metodik mashg'ulotlar tashkil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar bolalarning gender o'ziga xosliklarini anglash jarayonini faollashtirishda interfaol metodlar samarali ekanini ko'rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari gender o'ziga xosliklarni bilish jarayonini faollashtirish orqali bolalarda bag'rikenglik va o'zaro hurmat tuyg'ularini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdi. ta'lim jarayonida gender tushunchalarini tushuntirish orqali ularning ijtimoiy xulq-atvori va kommunikatsiya ko'nikmalarini boyitishga erishish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: gender o'ziga xoslik, ta'lim jarayoni, shaxsiy identifikatsiya, interfaol metodlar, ijtimoiy ko'nikmalar, tenglik, bag'rikenglik.

Iqtibos uchun: Gulyamov J.R, Mansurova S.R, Abdusalomova M.Sh, Bolalarning gender o'ziga xosliklari bilish jarayonini faollashtirish omili sifatida // inter education & global study. 2024. №8(1). B.472-481.

ПОЛОВАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ ДЕТЕЙ КАК ФАКТОР АКТИВАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

© Ж.Р.Гулямов[1], С.Р.Мансурова[2], М.Ш.Абдусаломова[1]✉
[1]Навоийское отделение Академии наук Республики Узбекистан, Навои, Узбекистан
[2] Навоийский государственный университет, Навои, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются факторы активизации знаний и понимания гендерной идентичности у детей, а также роль этого процесса в процессе обучения и воспитания. понимание гендерных особенностей служит личностной идентификации и самопознанию детей.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – активизировать процесс изучения гендерных особенностей у детей и определить факторы развития их личностных и социальных навыков посредством этого процесса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались наблюдательный и анкетный методы, были организованы методические занятия по раскрытию гендерной тематики в общении с детьми дошкольного и младшего школьного возраста.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что интерактивные методы эффективны в активизации процесса понимания гендерной идентичности детей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что развивать у детей чувства толерантности и взаимного уважения можно путем активизации процесса обучения гендерной идентичности. рекомендуется обогащать их навыки социального поведения и общения путем объяснения гендерных концепций в образовательном процессе.

Ключевые слова: гендерная идентичность, образовательный процесс, личностная идентификация, интерактивные методы, социальные навыки, равенство, толерантность.

Для цитирования: Гулямов Ж.Р, Мансурова С.Р, Абдусаломова М.Ш, Половая идентичность детей как фактор активации познавательного процесса // Inter education & global study. 2024. №8(1). С. 472-481.

CHILDREN'S GENDER IDENTITY AS A FACTOR OF ACTIVATION OF COGNITIVE PROCESS

© Jahongir R. Gulyamov[1], Surayyo R. Mansurova[2], Maftuna SH. Abdusalomova[1]✉
[1]Navoi Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Navoi, Uzbekistan
[2]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the factors of activating the knowledge and understanding of gender identities in children, as well as the role of this process in the educational and upbringing process. Understanding gender characteristics serves children's personal identification and self-knowledge.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

AIM: the main goal of the study is to identify the factors that activate the process of knowing gender characteristics in children and develop their personal and social skills through this process.

MATERIALS AND METHODS: the study used observation and questionnaire methods, and methodological exercises were organized to reveal gender topics in communication with children at the preschool and primary education levels.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that interactive methods are effective in activating the process of understanding gender identities in children.

CONCLUSION: the results of the study showed that it is possible to develop tolerance and mutual respect in children by activating the process of knowing gender identities. It is recommended to enrich their social behavior and communication skills by explaining gender concepts in the educational process.

Keywords: gender identity, educational process, personal identification, interactive methods, social skills, equality, tolerance.

For citation: Jahongir R. Gulyamov, Surayyo R. Mansurova, Maftuna SH. Abdusalomova (2024) Children's gender identity as a factor of activation of cognitive process, Inter education & global study, (8(1)), pp. 472-481. (In Uzbek).

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining tashkil etish orqali shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarni tarbiyalashga yo‘naltirish talab qilinmoqda. So‘ngi yillarda O’zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda ular asosida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur hujjatlarda ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini sog‘lom va barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish hamda ularni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratish kabi maqsad va vazifalar qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-son qarorlarida bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib shakllantirish, ularga ta’lim-tarbiya berishda sohaga yangidan innovatsion usul va metodlarni qo‘llash, tizimga zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va adabiyotlar bilan ta’minlash, ta’lim jarayoniga innovatsion g‘oya va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Prezidentimizning 2017-yil 7-fevralda "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 4947-sonli farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish chora-tadbirlari yo’lga qo’yilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini gender yondashuv asosida - qiz va o‘g‘il bolalarni o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tashkil etishni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ushbu masalalarning yechim yo'llaridan biri sifatida qabul qilish mumkin. Gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta'limda, bolalarning shaxsiy va individual imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib ta'lim jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim bolalarni mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar bilan birga mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalaydi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalik davri bolalar uchun nafaqat maktabga tayyorlash bosqichi hisoblanadi, balki bu yoshda bolada inson sifatidagi individuallikning asoslari – ijodiy tasavvur, o‘z xulq-atvorini boshqarish, boshqalarga (ko‘pincha kattalarga) taqlid, obrazli tafakkur va "ijtimoiy" hissiyot shakllanadi va rivojlanadi. Bu rivojlanishning eng faol nuqtasi bolalar 5-6 yoshga to‘lguniga qadar bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Ya'ni, shu yoshda bolaning shaxs sifatidagi rivojlanish davri boshlanadi.

N.Sh.Abdullayevaning maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy ishida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish uchun o‘quv dasturlarida bolalarning yoshi, psixologik va intellektual jihatlarini inobatga olish, ta'limni individuallashtirish va differensiyalashga asoslangan texnologiyalaridan foydalanish, bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodik ta'minotni ishlab chiqish va amalda joriy etish zaruriyati ilmiy asoslangan. Variativ yondashuvning asoslari sifatida ta'lim texnologiyalarining variativligi, ta'lim trayektoriyasi va ta'limni individuallashtirish ekanligini alohida ta'kidlagan 1.

N.Yunusova, D.R.Gulyamov va V.J.Anvarova maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi va pedagog-psixologlari bola shaxsini har tomonlama va chuqur bilishlari, uning psixofiziologik xususiyatlari, ma'lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda gender o‘ziga xosliklari hisobga olish zarurligini o'z ilmiy tadqiqotlarida tavsiya qilganlar.12

Ta'lim jarayonini yuqori darajada va qisqa fursatda o‘zlashtirishning takomillashtirilgan varianti bu bilish jarayonlardan foydalanishdir. Bola idrok va e'tibor jarayonlaridan foydalangan holda yangi bilimlarni egallaydi, fikrlash jarayonida ma'lumotlarni tushunadi va xotirada saqlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, bilish faoliyatning o‘zi ham samarali va samarasiz natijali bo‘lishi mumkin. O‘rganishda bilish jarayonlardan foydalanish samarali bo‘lishi va o‘rganishga yordam berishi mumkin. Bilish jarayoni samara bermaganda bolalar bilimlarni o‘z vaqtida xotirada saqlamaydilar yoki umuman, taklif qilingan fikrlash modellarini ishlab chiqmaydilar. [13]

Ta'lim jarayonida bilim olish va o‘zlashtirish muammosi o‘quv jarayoni rivojlanishining markaziy muammolaridan biridir. Bolalar bilim olish jarayonida yuqori bilim faolligiga erishsa, natijada o‘zlashtirilgan bilimlar yanada sifatli bo‘ladi. Faoliyat bilish uchun zarur shartlardan biri bo‘lganligi sababli, o‘quv jarayoniga jalb qilingan bola imkon qadar faol bo‘lishi kerak. O‘qituvchining maqsadi bolalarning bilim faolligini rivojlantirishga har tomonlama hissa qo‘shishdir.

Z.T.Xolmatovaning tadqiqotlarida gender yondashuv asosida maktabgacha ta'lim modelining bir qator tamoyillariga ta'rif berilgan: - jismoniy, psixologik, ijtimoiy, ma'naviy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

salomatlikni saqlash tamoyili; - tabiatga muvofiqlik tamoyili – u erkak va ayol individualligini qaror toptirish, jinslarning o‘zaro munosabat madaniyatini, erkaklik va ayollikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunida amalga oshiriladi; - majmuaviylik tamoyili u vositalar majmui va integrativ dasturlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi.11

D.B.Xakimova 5-7 yoshli bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishining yosh va jins xususiyatlarini tadqiq etib, 5 yoshdagi o‘g‘il bolalar va qiz bolalarda psixologik belgilar kuchli namoyon bo‘lishini aniqlagan. Bu yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishi yosh va jins xususiyatlariga bog‘liqligi to‘g‘risida psixologik jihatdan o‘g‘il va qiz bolalarni individual xususiyatlarini turlicha namoyon bo‘lishini o‘z tadqiqotida bayon etgan. Tadqiqotchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda guruhdagi barcha bolalarning qobiliyat, imkoniyat va ehtiyojlari o‘rtasida farq kuzatilishini aniqlagan. **Ошибка! Источник ссылки не найден.**

Erik R.Kendel bolalarga ta’lim berish jarayonini sun’iy ravishda tezlashtirish bolalarning rivojlanish sur’atini jadallashtirsa-da, biroq ularning shaxs sifatidagi kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlagan. Bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini sun’iy ravishda jadallashtirish “ijtimoiy adaptatsiya” jarayonini tezlashtirganday ko‘rinsada, qat’iy belgilangan o‘quv dasturiga muvofiq, yoshiga nisbatan psixik shakllanishi yakunlanmagan bolalar bilan olib boriladigan o‘quv mashg‘ulotlari davomida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini talab qilinishi normal psixik rivojlanish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Buning sababi sifatida, bolalarda o‘quv motivatsiyasining erta “so‘nishi” va himoyaviy nevrotik reaksiyalar yuzaga kelishi mumkin. 3

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni o‘qitish uchun bir qator muhim o‘ziga xos jihatlarni e’tiborga olish zarurligi A.L.Sirotyukning ilmiy tadqiqotlarida keltirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘quv ishlarini tashkil etishda har bir mashg‘ulot maqsadini aniq belgilanishi va bilish jarayonini tashkil etishda aniq sifat o‘zgarishlarga erishish ko‘zda tutilishi kerakligini alohida ta’kidlangan. Olimning e’tirof etishicha, maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasini yosh davrlari bo‘yicha normal rivojlanishi uchun o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda bola bosh miyasi tashkil etilishining yosh davrlari bo‘yicha o‘ziga xosliklari hisobga olinishi kerak.**Ошибка! Источник ссылки не найден.**

V.D.Eremeeva va T.P.Xrizman o‘qitish jarayoni bola bosh miyasining tarkibiy qismlari va tizimlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi uchun tarbiyachi-pedagoglar interfaol o‘yin metodlariga tayanishlari – bola psixikasining yosh davrlari bo‘yicha faol rivojlanishiga konkret ijtimoiy sharoitlar yaratish imkonini aniqlaganlar. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni psixik funksiyalari faol rivojlanishini hisobga olib, kichik guruhlar va individual shaklda interfaol o‘yin metodlaridan foydalanishni tavsiya qilganlar.**Ошибка! Источник ссылки не найден.**

V.Frankl, T.Parkinson bolalarning aqliy rivojlanishi, idrok etishi, shuningdek, har bir bolani yosh davrida miya “quvvati” muayyan bo‘laklarining funksional rivojlanishi ularning gender farqlari bilan bog‘liq ravishda turlicha kechishi masalalarini tadqiq etganlar.4

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

M.J.Neuman qiz va o‘g‘il bolalarga ilk yoshdanoq ota-onalari, tarbiyachilari va oila a’zolari ijtimoiy qadr-qimmati va ularni o‘zaro gender munosabati to‘g‘risida o‘rgatish orqali o‘g‘il bolalar kelajakda oila ta’minotchisi va himoyachisi, qizlar esa ona va g‘amxo‘r ayol fazilatiga ega xulq-atvorli bo‘lishi kerakligini o‘z tadqiqotlarida bayon etadi. Tadqiqotchi gender xususiyatlarini shakllanishida oilaviy munosabatlar muhim ekanligini ta’kidlaydi.7

P.Gleason gender tengsizlik va gender tafovut masalasida bir jinsli sinflarni tashkil etilishi, o‘g‘il va qiz bolalarni alohida o‘quv muhitida, maxsus ta’lim dasturlari asosida o‘qitilishi ta’lim sifatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishini aniqlagan.5

Biz P.Gleasonning bu fikriga qo‘shila olmaymiz. Chunki? o‘g‘il va qiz bolalarga birgalikda ta’lim berish ularni har tomonlama rivojlanishiga va ijtimoiylashuv jarayonning nisbatan yengil kechishida muhim omillardan biri, deb hisoblaymiz.

Maree Todd qizlar va o‘g‘il bolalarga ta’lim-tarbiya berishda ularning gender stereotiplarini erta yoshdanoq hisobga olish muhim ekanligini, ushbu muammoning ijobiy hal bo‘lishi bolalarning ijtimoiylashuviga samarali ta’sir qilishini e’tirof etgan.6

O.N.Pichugina maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim berishning faol, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi asosiy tamoyillaridan biri – bolalarning ma’lumotlarni o‘zlashtirishlaridagi o‘ziga xosliklarini hisobga olish, deb hisoblaydi. Buning uchun quyidagi pedagogik shartlar bajarilishi kerakligini ta’kidlagan: bolalarda bilim va tushuncha bo‘lishini ta’minlash; bolalarga nisbatan muhabbat ruhida bo‘lish; pedagogni puxta nazariy tayyorgarligi; bolalarda fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish.8

Muhokama. Barcha tadqiqotlarda qiz va o‘g‘il bolalarning bilish jarayonlarida bir qator o‘ziga xosliklar mavjud bo‘lib, ulardan biri – o‘g‘il va qiz bolalarda ilk yoshlaridanoq idrok mexanizmlari va psixik jarayonlarning kechishi ham bir-biridan ajralib turishi: o‘g‘il bolalar borliqni bevosita izomorf, hissiy anglash belgilar tizimiga, qizlar esa hissiy tasavvurlarning mantiqiy tahliliga asoslangan simvolik belgilar tizimiga tayanishlari ta’kidlangan.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahliliga asoslanib, mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning gender farqlaridan kelib chiqib, ularni tafakkur strategiyalarini hisobga olgan holda ma’lumotlarni sintezlab taqdim etish orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish tavsiya qilindi. Bunda pedagogik jarayon sub’ekti tomonidan taqdim etayotgan ma’lumotlar va topshiriqlar kamida ikki variantda talqin qilinadi:

birinchi variant – ma’lumotlar analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik tarzda ifodalanib induktiv operatsiyalarni bajarishga qaratiladi. Ma’lumotlarni bunday tarzda taqdim etilishi qiz bolalarning muammolarni tahlil qilish va mantiqiy yo‘l bilan yechim yo‘llarini izlashga chorlaydi;

ikkinchi variant – ma’lumotlar va topshiriqlar emotsional-hissiy, obrazli-intuitiv tafakkur strategiyasiga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, ular obrazlarni bir butunlikda idrok qilishlariga, obrazli fikrlashga yo‘naltiradi.

Bolalarning gender farqlaridan kelib chiqib ma’lumotlarni sintezlab taqdim etish uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

1. Tayyorgarlik bosqichida bajariladigan vazifalar:

- neyropedagogik diagnostika metodlari vositasida guruhning gender tarkibini va bolalarning individual lateratsiya profillarini aniqlash;
- guruhdagi bolalarning gender farqlari bo‘yicha nisbatni aniqlash;
- har bir mavzuni ikki xil yo‘l bilan tushuntirish uchun o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlash (to‘plash).

2. Asosiy bosqichda bajariladigan vazifalar:

- mashg‘ulot jarayonida bolalarning gender xususiyatlari nuqtai-nazaridan ma’lumotlarni qabul qilishlari va ishlashlari, vazifa va topshiriqlarni bajarishlarini nazorat qilish;
- bir xil laterallikka ega bo‘lgan bolalarni juft yoki kichik guruhlarga bo‘lib topshiriq berish;
- bolalarga o‘tilgan mavzu bo‘yicha bajarilgan topshiriqni ularning gender xususiyatlariga zid bo‘lgan variantini havola qilish va ma’lumotni qanday qabul qilishlarini kuzatish.

3. Yakuniy bosqich – bolalarning rivojlanish xaritalariga bajarilgan ishlar va sodir bo‘lgan o‘zgarishlar yuzasidan ma’lumotlarni kiritish.

Ushbu yondashuvni tajriba-sinovidan o‘tkazish ishlari uch bosqichda – aniqlashtiruvchi, shakllantiruvchi hamda yakunlovchi bosqichlarda amalga oshirildi.

Tajriba-sinovining aniqlashtiruvchi bosqichi (2021 yil) da tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun Navoiy viloyatining 21- va 22-sonli, Samarqand viloyatining 18- va 29-sonli hamda Buxoro viloyatining 55- va 31-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan jami 149 nafar tarbiyalanuvchi tanlandi.

Diagnostika natijalari tahlili asosida bolalarning gender jihatlari, tafakkur strategiyalari va afzal ko‘radigan reprezentativ tizimlari kesimida guruhlarning neyropedagogik releflari aniqlandi.

Natija. Gender tenglik, jinsidan qat’iy nazar, ta’lim olish va kasbiy faoliyatdagi huquqlarining tengligi ta’minlanishini nazarda tutadi. Xotin-qizlar va erkaklarning gender tengligi ularni moliyaviy mustaqillik, ta'lim va shaxsiy rivojlanishlari uchun teng kuchga ega ekanliklarini anglatadi. Ushbu atama erkak va ayollar, qiz hamda o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi.

Gender xususiyat shaxsning fiziologik va ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq bo‘lib, uning hissiy-irodaviy jarayonlari, idrok mexanizmlari hamda tafakkur, diqqat va xotira tizimlari faoliyatida aks etadi.

“Ta’limiy faoliyatga gender yondashuv” deganda pedagog-tarbiyachining ta’limiy faoliyatga metodologik yo‘nalganligi bo‘lib, faoliyatning tegishli bosqichida tarbiyalanuvchilarning jinsi, fikrlash strategiyasi, ma’lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirish mexanizmlaridagi o‘ziga xosliklarni hisobga olib ta’lim jarayonida ularni ijtimoiy mavqeining tengligini tan olgan holda cheklaydigan gender stereotiplaridan ozod qilish orqali takrorlanmas individuallikni rivojlantirishni tashkil etilishini tushunamiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Ta’limiy faoliyatni gender yondashuv asosida tashkil etish:

1) ta’lim jarayonini tarbiyalanuvchilar shaxsiga yo‘naltirish, bilish faolligini oshirish ва ular shaxsini qadriyatli-mazmunli gender rivojlantirish, psixik va aqliy rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirish, ruhiy salomatligini mustahkamlash va individualligini qo‘llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi;

2) ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda gender tenglikni ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga, tarbiyalanuvchilarda kuzatuvchanlik, loyihalash, faraz qilish, tasavvur ва ijod qilish ko‘nikmalarini izchil shakllanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Gender yondashuv asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlarda asosiy e’tibor – o‘quv mavzularini bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olib kamida ikki variatsiyada tayyorlash, sintezlab havola qilish ва o‘yinlar yordamida mustahkamlashga qaratilishi kerak.

Tajriba-sinov ishlari boshlanishida tajriba guruhidagi qizlarda matematikadan bilim, ko‘nikma va malakalari o‘zlashtirish tajribaga qadar 75%ni (nazorat guruhida 71%), o‘g‘il bolalarda esa 74%ni (nazorat guruhida 75 %) tashkil qilgan edi. Tajriba yakunida qiz bolalarning matematik bilim, ko‘nikma va malakalari 92% (nazorat guruhlarida 82%)ga, o‘g‘il bolalarda esa 94%ga (nazorat guruhlarida 80%) o‘zgargani aniqlandi.

Yuqoridagi natijalar biz tomondan taklif qilingan yondashuv maktabgacha katta yoshdagi qiz bolalarning matematik bilim, ko‘nikma va malakalarini 17 %ga (nazorat guruhlarida 11 %), o‘g‘il bolalarning bilimlarini esa 20 %ga (nazorat guruhlarida 5%) ortishiga yordam bergan.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti katta yoshdagi bolalar ta’limiy faoliyatni gender yondashuv asosida tashkil etish samaradorligini aniqlash maqsadida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari χ^2 Pirson taqsimoti kriteriyasi yordamida matematik-statistik tahlil qilindi.

Pirsonning χ^2 kriteriyasi taqsimotidan foydalanib,

$$\chi^2 = n_1 n_2 \sum_{j=1}^{m} \frac{1}{n_{1j}+n_{2j}} \left(\frac{n_{1j}}{n_1} - \frac{n_{2j}}{n_2}\right)^2 = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{j=1}^{m} \frac{(n_{1j} n_2 - n_{2j} n_1)^2}{n_{1j}+n_{2j}}.$$

Tarbiyalanuvchilarni tajriba va nazorat guruhiga ajratib, olingan statistik natijalarni χ^2 kriteriyasi asosida erkinlik darajasi $k = n - 1$ va qiymatdorlik darajasi $\alpha = 0{,}05$ ga mos keluvchi kritik qiymat $\chi^2_{\text{кр}} = 7{,}815$ qiymatga teng ekanligi, natijaning ishonchliligini χ^2 kriteriyasiga tasdiqlanganligini izohlash mumkin.

Mazkur tahlil bolalarning ta’limiy faoliyatni gender yondashuv asosida tashkil etish modelining tajriba-sinovi jarayonida olingan natijalar ishonchli ekanligini nazariy jihatdan tasdiqladi.

Xulosa. Ta’lim jarayonida o’quvchilarni gender yondashuv asosida ta’limiy faoliyatni tashkil etishga asoslangan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Gender yondashuv – faoliyat mazmunnini shaxsga yo‘naltiradi, bilish faolligini oshiradi, shaxsni qadriyatli-mazmunli gender rivojlantirish va gender tenglikni ta’minlash

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

orqali psixik va aqliy rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltiradi, ruhiy salomatligini mustahkamlaydi, individualligini qo‘llab-quvvatlaydi ва ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2. Ta’limiy faoliyatga gender yondashuv – bu tarbiyachining ta’limiy faoliyatga metodologik yo‘nalganligi bo‘lib, faoliyatning tegishli bosqichida tarbiyalanuvchilarning jinsi, fikrlash strategiyasi, ma’lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirish mexanizmlaridagi o‘ziga xosliklarni hisobga olib ta’lim jarayonini gender farqlarini yumshatish va ularni cheklaydigan gender stereotiplaridan ozod qilish orqali bolalardagi takrorlanmas individuallikni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ta’limiy faoliyatini gender yondashuv asosida tashkil etish modeli maqsadli, mazmunli-jarayonli va baholovchi-me’zonli bloklardan tashkil topgan.

4. Gender yondashuv asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etish uchun ta’lim oluvchining individualligi, xususan gender xususiyatlari: fikrlash strategiyasi, ma’lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirish mexanizmlaridagi o‘ziga xosliklarini tashxis qilishdan boshlanadi.

5. Gender yondashuv asosida ta’limiy faoliyatni tashkil etishda sentizlangan hikoya, muloqot, polimodal o‘qitish, idrok xaritasi, infografika hamda o‘yin kabi metodlardan hamda turli elementar eksperement-tajribalar, vaziyatlar, loyihalar yaratish qobiliyatini erta anglash orqali rivojlantirish (aqliy qobiliyatini rivojlantirish), davra suhbatlari (eshitish, idrok etish, fikrlash, tanqidiy fikrlash), bahs va munozara (muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish) kabi individual va jamoaviy o‘qitish shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Gender yondashuv asosida ta’limiy faoliyatni tashkil etishning samaradorligi, ko’p jihatdan, tarbiyalanuvchilarning gender xususiyatlari bilan bir qatorda qiziqish sohalari va ehtiyojlarini hisobga olib ilmiy-metodik ва didaktik vositalarni manzilli tayyorlashga bog’liq.

7. Tajriba-sinov natijalari va ularning matematik-statistik tahlili gender yondashuv asosida ta’limiy faoliyatni tashkil etilishi ta’limni tarbiyalanuvchilar shaxsiga va individualligiga yo‘naltirishga va, natijada, ularni bilish faolligini oshirish, aqliy rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirish, individualligini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solinishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullaeva N.Sh. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ped. fan..fals dok. (PhD) – T., 2019.- 25b.
2. Еремеева В.Д., Хризман Т.П. Мальчики и девочки – два разных мира. Нейропсихологи – учителям, воспитательям, родителям, школним психологам. – Санкт-Петербург, 2001.
3. Eric R. Kandel. In Search Of Memory The Emergence of a New Science of Mind Copyright, 2006.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

4. Frankl.V, Parkinson. T The specific problem is: needs independent review https://The International Journal of Psychoanalysis.,2016
5. Gleason, Paul, "Gender Segregated Learning Environments An Analysis Of The Perceived Impact Of Single-sex Classrooms In South Carolina" (2011). Electronic Theses and Dissertations. 2039. https://stars.library.ucf.edu/etd/2039.
6. Maree Todd. How we support improvement // Improvement programmes and topics // Gender equal play in early learning and childcare. https://hub.careinspectorate.com/how-we-support-improvement/improvement-programmes-and-topics/gender-equal-play-in-early-learning-and-childcare/
7. Neuman M.J., Devercelli A.E. (2013) op. cit// Gender inequality and early childhood development / https://plan-international.org/publications/gender-inequality-and-early-childhood
8. Пичугина Н.О..и др. Дошкольная педагогика, Методическое руководство,-М:- Становление дошкольной педагогики как науки// https://www.litres.ru/book/галина-айдашева / дошколная педагогика -181200/ читат-онлайн
9. Сиротюк А.Л. Нейропсихологическое и психофизиологическое сопровождение обучения. – Москва: «Ц СФЕРА», 2003. — 288 с.
10. Хакимова Д.Б. Половозрастние особенности развития познавателной сфери детей 5-4лет.Авторефер….к.пс.н.Ташкент.2011.-24с
11. Xolmatova T.Z. Maktabgacha ta'limni rivojlanishining yangi impulslari: ilmiy tadqiqotlari, tijoratlashtirish raqamlashtirish masalalari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.1-kitob. –Navoiy, 2023. – 80 b.
12. Yunusova N., Gulyamov D.R., Anvarova V. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga doir / -Toshkent, "Pedagogika" J., №2, 2016. –B.37-42.
13. Elshansky S. P., Puchkova E. B. \Cognitive Effectiveness of School Learning\ J: Cross-Cultural Studies: Education and Science\ March 17, 2020\ C-33-43. file:///C:/Users/user/Downloads/cognitive-effectiveness-of-school-learning%20(1).pdf

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

o‘z his tuygularini tushunish	30	6.00	25.00	14.7667	5.01503	-.065	-.670
Tuygularingizni bohqarish	30	6.00	19.00	12.6000	3.58733	-.072	-.769
Ifodani nazorat qilish	30	7.00	49.00	14.0000	7.21588	4.122	20.256
Shaxslararo hissiy intelekt	30	8.00	53.00	33.3667	12.75088	-.466	-.791
Intrapersonal hisiy intellekt	30	8.00	57.00	37.3000	12.41565	-.714	.240
Tuygularni_tuhunish	30	21.00	56.00	39.1667	7.97878	-.188	.629
Tuygularni boshqarish	30	25.00	69.00	42.5667	8.33225	.689	2.551
Ummumiy hisiy aql	30	50.00	98.00	71.7000	13.38849	.341	-.796

Asimetriya va o‘rtacha qiymatlar: Statistik tahlil natijalari ko‘rsatkichlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, "Tuyg'ularni boshqarish" va "Ifodani nazorat qilish" ko‘rsatkichlari o‘rtacha qiymatlarning pastligi va yuqori standart og'ish bilan ajralib turadi. Bu, ushbu ko‘rsatkichlardagi farqlar va o‘zgaruvchanlik darajasini anglatadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Asimetriya va ekstsentriklik: Ba'zi ko‘rsatkichlar, masalan, "Ifodani nazorat qilish" va "Tuyg'ularni boshqarish", yuqori ekstsentriklik ko‘rsatkichlariga ega. Bu holat normallikdan ancha farq qilishini bildiradi. "Asimetriya" qiymatlari ko‘rsatkichlarning simmetrikligini yoki simmetrik emasligini ko‘rsatadi va muayyan ko‘rsatkichlar taqsimotining xususiyatlarini belgilaydi.

Yuqori va past darajalar: "Tuyg'ularni boshqarish" ko‘rsatkichi minimal (6) va maksimal (19) qiymatlar bilan eng past o‘rtacha qiymatga ega bo‘lib, o‘ziga xos past darajada hissiy boshqaruvni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, "Tuyg'ularni tushunish" va "Ummumiy hissiy aql" ko‘rsatkichlari yuqori darajalarni ko‘rsatadi, bu esa emotsional intellekt va hissiy ko‘nikmalarning rivojlanishini aks ettiradi.

Umuman olganda, ushbu statistik natijalar emotsional intellekt va koping strategiyalari sohasidagi tadqiqotlar uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu natijalar tadqiqotlarni davom ettirish va hissiy intellektni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

Kolmogorov-Smirnov

Ko‘ratkichlar	**Kolmagorov Smirnov**	**Ishonchlilik darajasi p**
Boshqa_odamlarning tuyg’ularini_tushunish	1.226	.099
Boshqa odamlarning tuygularini boshqarish	.0.932	.350
o‘z his tuygularini tushunish	.801	.542
Tuygularingizni bohqarish	.750	.628
Ifodani nazorat qilish	.986	286
Shaxslararo hissiy intelekt	.593	.874
Intrapersonal hisiy intellekt	.649	.794
Tuygularni_tuhunish	1.593	.013
Tuygularni boshqarish	.655	.785
Ummumiy hisiy aql	.701	.710

Ushbu jadvalda keltirilgan Kolmogorov-Smirnov testining natijalari, ma'lumotlarning normal taqsimlanganligini aniqlash uchun muhimdir. Test natijalari p-qiymatlari yordamida har bir ko‘rsatkichning normal taqsimlanganligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi:

Normal taqsimlanish: P-qiymati 0.05 dan katta bo‘lgan ko‘rsatkichlar (masalan, "Boshqa odamlarning tuyg'ularini tushunish", "Boshqa odamlarning tuyg'ularini boshqarish", "O‘z his-tuyg'ularini tushunish", "Tuyg'ularingizni boshqarish", "Ifodani nazorat qilish", "Shaxslararo hissiy intellekt", "Intrapersonal hissiy intellekt", "Tuyg'ularni boshqarish", "Ummumiy hissiy aql") normal taqsimlanganligini ko‘rsatadi.

Normal taqsimlanishdan farq: "Tuyg'ularni tushunish" ko‘rsatkichi uchun p-qiymati 0.013, bu 0.05 dan kichik, demak, bu ko‘rsatkich normal taqsimlanishdan farq qiladi.

Umuman olganda, ko‘pchilik ko‘rsatkichlar normal taqsimlanganligini tasdiqlaydi. Bu, keyingi tahlillarni o‘tkazish uchun asosiy shartdir, chunki ko‘plab statistik tahlil usullari normal taqsimlanish shartiga bog'liq. "Tuyg'ularni tushunish" ko‘rsatkichining normal taqsimlanishdan farq qilishi esa, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha alohida yondashuvni talab qiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

3-jadval

Styudent t

	jinsi	N	Ortacha qiymat	Standart ogish	t	P
Boshqa_odamlarning tuyg'ularini_tushunish	1.00	6	23.8333	2.56255	1.558	.135
	2.00	24	21.3333	5.96123		
Boshqa odamlarning tuygularini boshqarish	1.00	6	20.8333	3.06050	2.501	.*024
	2.00	24	16.5000	5.88292		
o'z his tuygularini tushunish	1.00	6	15.6667	6.25033	.485	.694
	2.00	24	14.5417	4.79111		
Tuygularingizni bohqarish	1.00	6	12.0000	2.82843	-.540	.655
	2.00	24	12.7500	3.79072		
Ifodani_nazorat_qilish	1.00	6	10.3333	2.65832	-2.394	.*025
	2.00	24	14.9167	7.72864		
Shaxslararo hissiy intelekt	1.00	6	32.8333	19.74251	-.113	.939
	2.00	24	33.5000	10.96239		
Intrapersonal_hisiy_intelekt	1.00	6	32.0000	19.12067	-1.177	.445
	2.00	24	38.6250	10.28216		
Tuyg'ularni_tuhunish	1.00	6	39.5000	7.17635	.123	.911
	2.00	24	39.0833	8.30880		
Tuyg'ularni boshqarish	1.00	6	42.5000	4.80625	-.022	.976
	2.00	24	42.5833	9.08375		
Umumiy hisiy aql darajasi	1.00	6	80.6667	8.31064	2.557	.*024
	2.00	24	69.4583	13.59341		

Boshqa odamlarning his-tuyg'ularini boshqarish va ifodani nazorat qilish ko'rsatkichlari ayollarda erkaklardan yuqori statistika ko'rsatadi, bu emotsional intellektning ayollar o'rtasida kuchliroq ekanligini ko'rsatadi. Umumiy emotsional aqil darajasi esa erkaklar foydasiga farq qiladi. Boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha farqlar statistik jihatdan ahamiyatsizdir. Emotsional intellekt o'smirlar uchun muhim psixologik resurs bo'lib, ularning hayoti davomida ko'plab ijtimoiy va hissiy muammolarni hal qilishda samarali rol o'ynaydi. O'smirlar, o'z hissiyotlarini anglab, boshqarish va boshqalar bilan o'zaro aloqalarda yanada muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun emotsional intellektni rivojlantirish zarur. Emotsional intellektning o'smirlar koping strategiyalariga ta'siri, ularning stressga munosabati va hayotiy vaziyatlarga qanday yondashishini belgilaydi. O'z hissiyotlarini tushunish va boshqarish qobiliyati, o'smirlarning muammolarni hal qilishda, stressli vaziyatlarga moslashishda, va ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashda muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo'lgan o'smirlar ko'proq muammoga yo'naltirilgan va emotsiyaga yo'naltirilgan koping strategiyalarini qo'llaydilar. Bu, o'z navbatida, ularda psixologik salomatlik va hissiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, yuqori emotsional intellektga ega bo'lgan o'smirlar, ijtimoiy muammolarni hal qilishda va stressni boshqarishda samaraliroq yondashuvlarni tanlaydilar, bu esa ularning o'zaro aloqalarini kuchaytiradi va o'zligini anglashlariga yordam beradi. Shu bilan birga, emotsional intellektni oshirish o'smirlarning umumiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari va oilalar, o‘smirlarning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish orqali, ularni ijtimoiy hissiy ko‘nikmalarini mustahkamlashda va stressni boshqarishda muvaffaqiyatli qila oladi. Emotsional intellektga oid treninglar, seminarlar va psixologik yordam, o‘smirlarning o‘z hissiy holatini anglashiga va ulardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Natijada, emotsional intellektni rivojlantirish orqali, o‘smirlar o‘z hayotlarida ko‘proq muvaffaqiyatga erishishlari, hissiy barqarorlikka ega bo‘lishlari va muammolarga nisbatan yanada ijodiy va konstruktiv yondashishlari mumkin. Bu nafaqat o‘smirlarning o‘ziga ishonchini oshiradi, balki ularning ijtimoiy aloqalarini, o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini va umumiy psixologik salomatliklarini yaxshilaydi. Shunday qilib, emotsional intellektning o‘smirlar koping strategiyalariga ta'siri, ularning hayot sifatini oshirishda va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lib shakllanishlarida muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 1.Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедеятельности // Психология формирования и развития личности. - М., 1981, с. 19-44.
2. Абульханова-Славская К. А. Стратегия жизни. М.: Мысль, 1991.-299 с.
3. Абульханова-Славская К. А. Субъект как символ российского самосознания // Сознание личности в кризисном обществе. М., 1995, с. 10-28.
4. Аверьянов А.Н. Системное познание мира: методологические проблемы. М.: Политиздат, 1985. - 263 с.
5. Агеев В.С. Атрибуция ответственности за успех или неудачу группы в межгрупповом взаимодействии. // Вопросы психологии. 1982, №6, с. 101-106.
6. Алексеева Е.В. Ответственность и особенности преодоления подростками трудных жизненных ситуаций // Наш проблемный подросток. СПб., 1999, с. 122-131.
7. Ананьев б.г. Человек как предмет познания. Л.: Изд-во ЛГУ, 1969.-339 с.
8. Анисимов С.М. Мораль и поведение. М.: Мысль, 1985. -155 с.
9. Анцыферова Л.И. Психология повседневности: жизненный мир личности и «техники» ее бытия // Психол. журнал. 1993, т. 14, № 2, с. 3-16.
10. Анцыферова Л.И. Способность личности к преодолению деформаций своего развития // Психологический журнал. 1999, т.20, № 1, с. 6-19.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Boyqulova Mohinur Ravshan qizi**,o`qituvchi,[Бойкулова Мохинур Равшан, дочь, учительница], [**Mohinur.R.Boyqulova** teacher,];manzil: O‘zbekiston,Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shox ko'chasi, 259 uy [адрес: Узбекистан, ул. Джизакская область, город Джизак, ответвление улицы Ш. Рашидова, дом 259.], [address: Uzbekistan, Jizzakh region, Jizzakh city, Sh. Rashidov branch street, house 259.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

NUTQI TO`LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR NUTQINI XALQ OG`ZAKI IJODI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

© M.Rustamova[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqini xalq og‘zaki ijodi, ya’ni ertaklar, maqollar, topishmoqlar va xalq qo‘shiqlari kabi an’anaviy badiiy asarlar yordamida rivojlantirish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – nutqi rivojlanishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalarda xalq og‘zaki ijodi orqali nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish va nutq rivojlanishining o‘ziga xos pedagogik yondashuvlarini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda eksperimental metod qo‘llanilib, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar bilan xalq og‘zaki ijodi asosida darslar olib borildi. Kuzatuv, so‘rovnoma va intervyular orqali mazkur uslubning bolalar nutqiga ta’siri baholandi. Shuningdek, adabiyotlar tahlili orqali xalq ijodiyotining nutq rivojlantirishdagi o‘rniga oid ilg‘or tajribalar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar xalq og‘zaki ijodi yordamida nutqiy rivojlanishda orqada qolayotgan bolalarda so‘z boyligi, grammatik to‘g‘ri tuzish qobiliyati va ifodali gapirish ko‘nikmalarining ancha rivojlanganini ko‘rsatdi. bolalar xalq ertaklari va topishmoqlar orqali mustaqil fikr bildirish, hissiyot va tuyg‘ularni ifodalash kabi mahoratlarni o‘zlashtirdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari xalq og‘zaki ijodi yordamida nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar:nutqiy rivojlanish, xalq og‘zaki ijodi, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, pedagogik yondashuv.

Iqtibos uchun: Rustamova M. Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqini xalq og`zaki ijodi yordamida rivojlantirish.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.502-507.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ, РЕЧЬ КОТОРЫХ НЕ ПОЛНОСТЬЮ РАЗВИТАЕТСЯ С ПОМОЩЬЮ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА

© М. Рустамова[1] ✉

[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются способы развития речи детей, речь которых развита не полностью, с помощью народных устных произведений, то есть традиционных произведений искусства, таких как сказки, пословицы, загадки и народные песни, и их эффективность.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – определение конкретных педагогических подходов к формированию речевых навыков и речевого развития у детей, имеющих трудности в речевом развитии.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовался экспериментальный метод, проводились занятия с детьми, речь которых не была полностью развита на основе фольклора. Влияние этого метода на речь детей оценивалось посредством наблюдения, анкетирования и интервью. Также посредством анализа литературы изучены передовой опыт относительно роли народного творчества в развитии речи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что с помощью народных устных произведений значительно совершенствуются словарный запас, грамматическая правильность и выразительная речь детей, отстающих в речевом развитии. дети овладевали навыками выражения собственных мыслей и чувств посредством народных сказок и загадок.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что с помощью фольклора можно добиться высокой эффективности в формировании речевых навыков у детей со слаборазвитой речью.

Ключевые слова: развитие речи, фольклор, дети с неразвитой речью, сказки, пословицы, загадки, педагогический подход.

Для цитирования: Рустамова М. Развитие речи детей, речь которых развита не полностью, с помощью народного творчества.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 502-507.

DEVELOPING THE SPEECH OF CHILDREN WHOSE SPEECH IS NOT COMPLETELY DEVELOPED WITH THE HELP OF FOLK'S ORAL CREATION

© Muxayyo Rustamova[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the methods of developing the speech of children with incomplete speech development using folk art, namely, fairy tales, proverbs, riddles and folk songs, and their effectiveness.

AIM: the main goal of the study is to develop speech skills in children with speech difficulties through folk art and to identify specific pedagogical approaches to speech development.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

MATERIALS AND METHODS: the study used an experimental method, and lessons were conducted with children with incomplete speech development based on folk art.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that children with speech delays developed significantly more vocabulary, grammatically correct construction skills, and expressive speaking skills through folk tales and riddles. children mastered skills such as independent expression of thoughts, emotions, and feelings through folk tales and riddles.

CONCLUSION: the results of the study showed that it is possible to achieve high efficiency in the formation of speech skills in children with underdeveloped speech using folk tales.

Keywords: speech development, folk tales, children with underdeveloped speech, fairy tales, proverbs, riddles, pedagogical approach.

For citation: Muxayyo Rustamova (2024 Developing the speech of children whose speech is not completely developed with the help of folk's oral creation' media competence, Inter education & global study. (8(1)), pp. 502-507. (In Uzbek).

Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining kichik va ommabop hamda xalqaro janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janr yosh avlodni hayotni bilishga, borliqdagi narsa buyumlarning xususiyatlarini yodda saqlab qolishga o‘rgatadi. Qadimda topishmoqlar cho‘pchak, topmachoq, matal, bayt, jumboq. topar kabi nomlar bilan yuritilgan. Olimlarning ma’lumot berishga qaraganda, turkman, qozoq, qirg‘iz kabi turkiy xalqlar singari o‘zbeklarda ham qadimdan topishmoq aytish an’analari mavjud bo‘lgan. Bir-biriga o‘xshash ikki predmet, narsa yoki hodisa nomi yashirilib. ikkinchisiga xos o‘xshash belgilar asosida uni topishga mo‘ljallangan she’riy yoki nasriy tuzilishida berilgan savol yoki topshiriq topishmoq deb yuritiladi. Topishmoq atamasi «top» buyruq fe’liga «- ish» va «-moq» qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilingan. Topishmoqlarning mohiyati asosan metafora bilan bog‘liq bo‘lib, ularda topilishi lozim bo‘lgan narsa-buyumning asosiy xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Bu xususiyatlar topishmoq janrining xalq orasida keng ommalashuviga sabab bo‘lgan. Topishmoq, Aristotel ta’biri bilan aytganda «eng yaxshi metafora tuzish usulidir». Topishmoqlar o‘ziga xos shakliy va mazmuniy xususiyatiarga ega bo‘ladi. Aksariyat topishmoqlar bir yoki ikki qatorli she’r ko‘rinishida shakllanadi. An’anaviy bo‘lib qolgan topishmoqlarning aksariyati qofiyalanadi: «O‘zi yo‘qday, uni o‘qday», «Otdan baland, itdan past», «Qator-qator g‘isht terdim, jiyron otni bo‘sh qo‘ydim» kabilar. Topishmoqlarning bir yoki bir necha narsalarni topish nazarda tutilgan namunalari ham bor. Masalan, «Er tagida oltin qoziq» topishmog‘ining javobi bitta sabzi bo‘lsa, «Tog‘da talaymonni ko‘rdim, Suvda Sulaymonni ko‘rdim. Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim, Yumalab yotgan toshni ko‘rdim». Bu topishmoqda bo‘ri, baliq, xolvaytar (sumalak), toshbaqa nomlarini topish lozim.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Topishmoqni xalq bekorga “Yuzsiz niqob” deb atashmaydi. Topishmoqning javobi bo‘lgan predmet (“yuz”) “niqob” (ishora, boshqa so‘zlar bilan ifodalangan jumboq, sha’ma) ostida yashiringan bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir topishmoq bolaning tasavvurini sinovdan o‘tkazuvchi o‘ziga xos bosqich hisoblanadi. Agar atrof-muhitga diqqatli va ziyrak ko‘zlar bilan qaralsa, topishmoqdagi har qanday jumboqning javobini topish mumkin. Xalq topishmoqlari bolaning aqliy rivojlanishiga turtki beruvchi muhim janrlardan biri sanaladi. Topishmoq – o‘zgacha siyrat bilan taqdim etilgan yashirin tilsimlarni topishga qaratilgan o‘yindir. Uning javobini nafaqat tanib olish, balki topish ham talab etiladi. Topishmoqning javobini topishga urinish, ya’ni topqirlikni namoyish etish bu o‘yinda katta ahamiyatga ega. Topishmoqlar bolaga atrofdagi narsalarni o‘ziga xos tarzda taqqoslash, obrazli tarzda nostandart fikrlashni o‘rgatadi. U uzoqni yaqin qiladi, notanish narsani tanishtiradi, yangilikni odatiy holatga aylantiradi. Topishmoqlarni bilish nafaqat xotirani rivojlantiradi, balki bolada poetik tuyg‘uni shakllantirish orqali uni klassik adabiyot bilan tanishtirishga tayyorlaydi. Katta maktabgacha yoshda bolalar bir qator bilimlar va intellektual ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga qaramay ular topishmoqlarni doim ham to‘g‘ri va aniq topa olishmaydi. Bunday xatoliklarni yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilardan iborat: topishmoqni diqqat bilan eshitmaslik; topishmoqni to‘liq eslab qolmaslik; topishmoqning javobini topishda unda keltirib o‘tilgan barcha belgilarni solishtirmaslik; topishmoqning javobida keltirib o‘tilgan predmet haqida etarlicha bilmaslik; topishmoqda ko‘rsatilgan belgilarni tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish kabi harakatlarni to‘g‘ri bajara olmaslik.

Topishmoqlarni o‘ylab topish va ularning javobini izlash bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi. Topishmoqda metafora obrazini yaratish uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining obrazli tarzda tashkil etilishini ta’minlovchi turli ifoda vositalaridan (jonlantirish usuli, ko‘p ma’noli so‘zlar, epitetlar va taqqolash usuli hamda o‘ziga xos ritmik ifodalardan foydalanish) foydalaniladi.

Topishmoqlarda foydalanilgan so‘zlarning ko‘p mazmunga ega ekanligi sababli ular bolaning lug‘at boyligini kengaytiradi, so‘zning ikkilamchi ma’nosini payqash imkonini beradi va bolada so‘zning ko‘chma ma’nolari haqida tasavvur hosil qiladi. Ular til shakliga diqqatni qaratish va uni tahlil qilish orqali o‘zbek tilining tovush tarkibi va grammatik tuzilishini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Topishmoqlar bolada ziyraklik va topqirlik xususiyatlarini rivojlantiradi. Topishmoq berilishi bilan bola uning javobini qidira boshlaydi. Topishmoq o‘ylab topilgan elementlarga qanchalik boy bo‘lsa, uni topish shunchalik qiyin bo‘ladi. Topishmoqda ifodalangan obrazlarning g‘ayri oddiyligi topishmoqning tavsifi va real hayotda idrok qilinadigan odatiy vaziyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi, topishmoqning javobi esa barcha tushunmovchiliklarni oydinlashtiradi, topishmoq va uning javobida ifodalangan predmet xususiyatlari o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Shuningdek, topishmoq faqatgina uning javobida belgilangan predmetga xos bo‘lgan o‘ziga xos belgilarga ishora qiladi. U predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va ularni rad etishga asoslangan. Topishmoqning ushbu xususiyati bolani atrofdagi predmet va hodislar o‘rtasidagi aloqa hamda har bir predmet va hodisaning o‘ziga xos belgisi haqida fikrlashga majbur qiladi.

Topishmoq topish bolalarda tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil tarzda xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Predmet yoki hodisaga ko‘proq mos bo‘lgan belgini aniq farqlash va predmetlarning obrazini nazokat bilan etkazib bera olish bolalarda atrofdagi dunyoga “shoirona nigoh bilan” qarash xususiyatini rivojlantiradi.

Topishmoqning aniqligi, predmetliligi va detallarga yo‘naltirilganligi bolalarga didaktik ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi. Bolalarga mashg‘ulot, kuzatishlar va suhbatlar avvalida topishmoq aytish mumkin. Ishning bunday turlarida topishmoq bolada qiziqish uyg‘otadi va uni qiziqtirayotgan predmet yoki hodisa haqida batafsilroq suhbatlashish imkonini beradi. Folklorning bunday shakllari mashg‘ulotlarni “jonlantiradi” va u yoki bu predmetlarga boshqa nigoh bilan qarash, kundalik vositalardagi o‘ziga xos qiziqarli detallarni payqash imkonini taqdim etadi. Topishmoqlardan nafaqat mashg‘ulotning boshi va o‘rtasida, balki uning yakunida ham foydalanish zarurligini tavsiya etishadi. Masalan, predmetlarni ko‘rish, solishtirish va ular o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni aniqlash mobaynida bolalar aniq bir xulosaga kelishadi hamda uni so‘z orqali ifoda etishadi. Bunda topishmoq bolaning ongida predmet belgilarini yaqqol aks ettirgan holda mashg‘ulot jarayonini o‘ziga xos tarzda yakunlash va umumlashtirishga yordam beradi. Ushbu usul bolalarda predmet yoki hodisaga xos bo‘lgan tasavvurlarni aniqlashtirishga imkon beradi. Shunday qilib, topishmoqlar bolalarga til vositalaridan qanday qilib yorqin va o‘ziga xos tarzda foydalanish orqali ayni bir narsani turli so‘zlar bilan ifodalash mumkinligini anglashga yordam beradi.

Turli nutqiy buzilishlarga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion – pedagogik ishlar jarayonida folklorning qiziqarli va qulay shakllaridan biri hisoblangan topishmoqlardan keng foydalanib kelinmoqda. Topishmoqning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u so‘zli-mantiqiy topshiriq vazifasini bajaradi. Topishmoqni topish murakkab tafakkur operatsiyalarini amalga oshirish, ya’ni savolga javob berishni talab etadi. Topishmoqda nazarda tutilgan predmet yashirin tarzda ifodalanadi va uni topish uchun turli usullardan foydalaniladi. Topishmoqning korreksion-rivojlantiruvchi imkoniyatlari xilma-xildir. Quyida ulardan eng muhimlari keltirib o‘tilgan: bolada topqirlik, ziyraklik va vaziyatga tezkor ravishga munosabat bildirish qobiliyatlarini tarbiyalash; aqliy faoliyatni rag‘batlantirish; tafakkur, nutq, xotira, diqqat va tasavvurni rivojlantirish; atrof-muhit haqidagi bilimlar va tasavvurlar zaxirasini kengaytirish; sensor sohani rivojlantirish. Bu

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ayniqsa, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar uchun muhim hisoblanadi, chuni ayni holatda topishmoq bolaning to‘g‘ri nutqini shakllantirish va undagi nutq buzilishlarini korreksiyalash uchun amaliy material sifatida xizmat qilishi mumkin.

Topishmoqning murakkablik darajasini belgilashda quyidagi omillarni hisobga olish zarur: bola topishmoqni topish paytida amalga oshirishi kerak bo‘lgan aqliy operatsiyalar va mantiqiy topshiriq turi; turli nutqiy rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan bolalarning topishmoqda ifodalangan tasviriy-ifodaviy vositalarni tushuna olishi; topishmoqdagi kompozitsion-sintaktik tuzilmaning qay darajada murakkabligi (savol-javob, bir tarkibli gap, bir o‘zakli gap bo‘laklaridan foydalanish va hokazo).

Topishmoqlarni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri topish imkonini ta’minlovchi shartlar quyidagilardan iborat: bolalarni topishmoq javobida keltirib o‘tilgan predmet va hodisalar bilan avvaldan tanishtirish; pedagogning topishmoqdan qay tarzda foydalanish va uni qanday taqdim etish usullarini rejalashtirishi; bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi; maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning yoshga doir xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish. Demak, topishmoqlar bolada ziyraklik va topqirlik xususiyatlarini rivojlantiradi hamda bolalar nutqini rivojlantirish va undagi nutq buzilishlarini korreksiyalash uchun amaliy material sifatida xizmat qilishi mumkin ekan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 1.Бойчечак. Болалар фольклори. О.Сафаров, К.Очилов. Т.: ФАСН, 1993.
2. 2.Жаҳонгиров Г‘. Ўзбек болалар фольклори. Т.: “Ўқитувчи”, 1991.
3. 3.Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. Т.: “Ўқитувчи”, 1995.
4. 4.Сафарова Н. Ўзбек болалар ойин фольклори табиати. –Т.: “Фан”, 2008.
5. 5.Топишмоқлар. Ўзбек халқ ижоди, кўп томлик, Т,2010.
6. М.Жўраев, Ғ.Эшонқулов. Фольклоршуносликка кириш. Тошкент, Турон-Иқбол, 2018
7. М.Сапарниёзова. Ўзбек халқ топишмоқларида гап бўлаклари тартиби /”Ўзбек тили ва адабиёти”/ 2005, 3с.
8. Умида Қобулова. Топишмоқларнинг структуравий таҳлили /Ўзбек тили ва адабиёти/, 2005, 4-сон.
9. Наргиза Махмудова, Кҳошимова Машкҳура, Тҳе меанинг оф риддле ин фольклоре.2001

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rustamova Muxayyo**, magistrant, [**Рустамова Мухаё** – магистрант.], [**Rustamova Mukhayo** graduate student]; manzil:O‘zbekiston, Toshkent shahri,Chilonzor tumani,Bunyodkor ko'chasi 27-uy. [аддрес: Узбекистан, ул Город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, 27], [address: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilonzor district, Tashkent city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

OLIY TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

© SH.B. Nurboboyev[1]✉

[1]Samarqand davlat universitetining Kattaqo`rg`on filiali, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarini samarali boshqarishda ijtimoiy-psixologik tizimlarning ahamiyati va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritiladi.

MAQSAD: Maqolaning asosiy maqsadi – oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni aniqlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Oliy ta’lim muassasalari faoliyati haqida o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida sotsiologik so‘rov va intervyular o‘tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ijtimoiy-psixologik omillarning kuchli ta’sirini ko‘rsatdi. Hamkorlik muhiti yaratish, stress omillarini kamaytirish, kommunikativ malakalarni rivojlantirish boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalari boshqaruvini ijtimoiy-psixologik tizimlar bilan integratsiyalash muvaffaqiyatli boshqaruvning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim muassasalari, ijtimoiy-psixologik tizim, boshqaruv samaradorligi, stress boshqaruvi, kommunikatsiya, ta’lim boshqaruvi, zamonaviy menejment.

Iqtibos uchun: Nurboboyev.Sh.B. Oliy ta`lim muassasalari faoliyatini samarali boshqarishning ijtimoiy-psixologik tizimini takomillashtirish.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.508-513.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ВУЗАМИ

© Ш.Б. Нурбобоев[1]✉

[1]Каттакорганский филиал Самаркандского государственного университета, Самарканд, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье освещается значение социально-психологических систем в эффективном управлении высшими учебными заведениями и направления их совершенствования.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи – выявление социально-психологических подходов к управлению деятельностью высших учебных заведений и разработка путей их совершенствования с целью повышения эффективности их использования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались методы качественного и количественного анализа. Были проведены социологические опросы и интервью преподавателей и студентов о деятельности высших учебных заведений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали сильное влияние социально-психологических факторов на управление высшими учебными заведениями. Создание атмосферы сотрудничества, снижение стрессоров, развитие коммуникативных навыков способствуют повышению эффективности управления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что интеграция управления высшими учебными заведениями с социально-психологическими системами является важным фактором успешного управления.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, социально-психологическая система, эффективность управления, управление стрессом, коммуникация, управление образованием, современный менеджмент.

Для цитирования: Нурбобоев. Ш.Б.Совершенствование социально-психологической системы эффективного управления высшими учебными заведениями.// Inter education & global study.2024. №8(1). С. 508-513.

IMPROVING THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL SYSTEM OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

©Shokir B. Nurboboyev[1]✉
[1] Kattakorgan branch of Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the importance of socio-psychological systems in the effective management of higher education institutions and the directions for their improvement.

AIM: the main purpose of the article is to identify socio-psychological approaches to the management of higher education institutions and develop ways to improve their use to increase the effectiveness of their use.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

MATERIALS AND METHODS: qualitative and quantitative analysis methods were used in the study. A sociological survey and interviews were conducted among teachers and students about the activities of higher education institutions.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed a strong influence of socio-psychological factors in the management of higher education institutions. Creating a cooperative environment, reducing stress factors, and developing communicative skills help increase management effectiveness.

CONCLUSION: the results of the study confirm that integrating the management of higher education institutions with socio-psychological systems is an important factor in successful management.

Keywords: higher education institutions, socio-psychological system, management effectiveness, stress management, communication, educational management, modern management.

For citation: Shokir B. Nurboboyev. (2024) Improving the socio-psychological system of effective management of higher education institutions', Inter education & global study, (8(1)), pp. 508-513. (In Uzbek).

Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida rahbar shaxsiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni shakllanishi, rahbarning boshqaruv jarayonidagi uslubi, liderlik faoliyati motivatsiyasi, boshqaruv jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlovchi liderlik sifatlari masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, oliy ta'lim tizimi rahbarlarida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, rahbar kasbiy kompetentligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatini amaliy jihatdan tadqiq etish orqali oliy ta'lim tizimi rahbarlarida liderlikni shakllantirish zarurati muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda boshqaruv faoliyatini olib boruvchi shaxs, hozirgi yoshlarni mehnat bozorida talabi yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, ilmiy faoliyat nufuzini yuksaltirish, rahbar kadrlarni tayyorlashga oid huquqiy me'yoriy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lim muassasalarini shakllantirish maqsadida qator vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq "ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon" deb tushuniladi. Shu bilan birga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

ushbu qonunda ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta’lim oluvchilar, voyaga etmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari hisoblanishi qayd etilgan. Ta’kidlash joizki, ta’lim sohasidagi boshqaruvning mahalliy va xorijiy nazariyasi va metodologiyasida ushbu sohaning asosiy jihatlariga nisbatan yagona terminologik apparat shakllanmagan, bu esa oliy ta’lim muassasasini boshqarish tizimining ishlash muammolarini to‘liq o‘rganishni qiyinlashtiradi.

Ta’lim sifatini boshqarish muammosining dolzarbligi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, davlatning ta’lim siyosatidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq. Ta’lim sifatini falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilishning muammoli va ko‘p qirrali ta’lim tizimini o‘rganishni, mas’ul sub’ektlarni - oliy ta’limning manfaatdor tomonlarini aniq-lashni, ularning qoniqish darajasini va ushbu ta’rifga asoslanib, universitet faoliyatining strategiyasini nazarda tutadi. Sifat kabi umumiy falsafiy kategoriyalarni tahlil qilish oliy ta’lim sifatini boshqarishning samarali strategiyasini shakllantirish muammosini to‘liq ochib berishga imkon beradi. Oliy ta’lim sifatini boshqarishning ma’nosi oliy kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini jamiyatda vujudga keladigan qiymat yo‘nalishlariga muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lishi kerak. Oliy ta’limda olib borilayotgan islohatlar, ta’lim tizimi oldida turgan vazifalarning ko‘pligi va mavjud ta’lim tizimining etarli darajada samaradorligi nafaqat o‘qitishning yangi shakllari va usullarini, balki oliy ta’lim muassasalarida yangi ta’lim paradigmasi va yangi sifat menejmenti strategiyalarini izlashni belgilaydi. Ta’lim tushunchalarining mavjud plyuralizmi, albatta, jamiyatimizning rivojlanish jarayonini aks ettiradi, lekin ayni paytda bir qator murakkab nazariy va amaliy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Oliy o‘quv yurtlarining tabaqalanishi, ta’lim dasturlarining xilma-xilligi kasbiy faoliyatning yangi turlarining ehtiyojlariga, jamiyatimizning ijtimoiy tuzilishining murakkabligiga va unda o‘z manfaatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlarning ta’lim sifatiga o‘z talablarini qo‘yishiga mos keladi. Shu munosabat bilan zamonaviy oliy ta’lim sifati bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar masalasi dolzarb bo‘lib qoladi, bu uning strategiyasi- va taktikasini aniq jamiyatning rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda belgilashi kerak. Ta’lim faoliyatining turli tomonlarini tavsiflovchi va umuman ta’limni rivojlantirish istiqbollari, ushbu sohadagi siyosat va strategiyalar to‘g‘risida tasavvur beradigan ilmiy g‘oyalar va bilimlarni umumlashtirish, sintez qilish juda muhimdir. Ushbu sintez tafakkurning mavhumdan konkret tomonga, shu jumladan ta’lim sifatining falsafiy yo‘naltirilgan nazariyasiga harakatining asosiy vazifasidir

Ta’lim muassasalari sharoitida boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha: – sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosligi: boshqarish ob’ekti va sub’ekt bir vaqtning o‘zida; – Otm nisbati normalangan va normalanmagan ishchi soat; – Otm mehnat xususiyati, rag‘batlantirish; – Oliy ta’lim muassasasining ichki va tashqi muhitining dinamikasi; Oliy ta’lim muassasasi boshqaruviga tizimli yondashuvidagi asosiy tushuncha «tizim» atamasidir. Tizimni bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisa, jarayon yoki ob’ekt sifatida ko‘rib chiqish mumkinligini ta’kidlash o‘rinli ko‘rinadi.

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE8

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Tadqiqotchilarning ishlarini tahlil qilish kelajakdagi ishlarda hisobga olinadigan tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan quyidagilarni aniqlashga imkon berdi: - tizim o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liq qismlar to‘plamidir. Tizimni tarkibiy qismlar, ularning aloqalarini o‘rnatish asosida tavsiflash mumkin. Tizimning xatti-harakati uning elementlarining xatti-harakatlari va xususiyatlari bilan belgilanadi; - tizimlar paydo bo‘ladigan, ajralmas bo‘lib, butun xususiyatlarining ularning tarkibiy elementlari xususiyatlarining yig‘indisiga qisqartirilmasligi, shuningdek, integratsiyaning so‘nggi fazilatlarining paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi; - tizim elementlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi, har bir element o‘z funksiyalari va tuzilishiga ega bo‘lsa, tizim ham bo‘lishi mumkin; - tizimlar tashqi omillar ta’siriga munosabat bildirganda sifatli aniqlik va xususiyatlarni saqlab qoladi, bu uning barqarorligini ta’minlashga imkon beradi; - tizimni alohida ko‘rib chiqishda tashqi muhit ta’siridan cheklash mumkin bo‘lsa, uni izolyatsiya qilingan ob’ekt sifatida ham ko‘rib chiqish mum-kin; - tizim ma’lum bir muhitda mavjud bo‘lgan va rivojlanayotgan, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadigan ob’ektiv haqiqatning bir qismi sifatida ishlaydi. - tizim ierarxiya bilan tavsiflanadi, chunki u tizimostining tarkibiy qismidir; - tizimlar rivojlanish darajasida farq qiladi; - tizimlar ichki tashkil etilgan hodisadir; - tizimlar barqaror. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bu tizimli yondashuv oliy ta’lim muassasalarini boshqarish uchun zarur shartdir. Iqtisodiyotda tizimli yondashuv tizim tahlili metodologiyasidan foydalangan holda o‘rganilayotgan ob’ektlarni umuman o‘rganishning murakkab jarayoni sifatida qaraladi.

Jahon ta’lim va ilmiy muassasalarida rahbar shaxsiga xos xislatlarning shakllanishi, rahbarning boshqaruv jarayonidagi uslubi, liderlik faoliyati motivatsiyasi, boshqaruv jarayoni muvaffaqiyatini ta’minlovchi boshqaruv sifatlarining ijtimoiy-psixologik muammolari to‘g‘risida ilmiy nazariy konsepsiyalarning mavjudligi va ko‘rinishlari asoslangan. Rahbarlarda boshqaruv qobiliyati rivojlanishida kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini tarkib toptirishda gender tafovutlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayol rahbarlarda ko‘proq transformatsion liderlikka moyillik mavjud, bu lider xodimlar salohiyatini yuqori darajaga rivojlantiradi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muasasalarini boshqarish sohasida har bir rahbar xodimlar va professor-o‘qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Ayni paytda ta’lim tizimining oliy ta’lim turini amalga oshiruvchi oliy ta’lim muassasasi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiyotning real tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyotini hisobga olib, yuksak ma’naviy-ma’rifiy sifatlarga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga hamda jamiyatning ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta’minlashga qodir barkamol avlod, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim muassasalari zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Ikkinchidan, mustaqillik yillarida turli shakldagi oliy ta’lim muassasalari, xususan, respublikamizning hududlarida pedagogika institutlari negizida oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi hamda akademiya, oliy maktab ko‘rinishidagi oliy ta’lim muassasalari vujudga kelishi ta’lim sohasidagi islohotlarni boshlab berdi.

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE8

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Uchinchidan, ta’lim qonunchiligiga muvofiq oliy ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash ta’lim sohasini boshqaruvchi davlat organi vakolati etib mustahkamlangan bo‘lib, bugungi kunda ushbu mexanizmni ishlab chiqish hamda ta’lim qonunchiligida oliy ta’lim muassasasining huquqiy maqomini yanada kengroq yoritish zarurati paydo bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi “2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga PF-5953-son Farmoni. https://lex.uz//
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, PQ – 2909 -sonli, 18-son, 313-modda , 2017 yil 20 aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
4. Saipova M.L. Pedagog shaxsida makiavellizmga moyillikni diagnostika va korreksiya qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish: Psixologiya fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) .. diss.avtoref.: 19.00.06. – T.: O‘zMU, 2018.
5. Hayitov O.E. Oliy ta’lim muassasasi o‘rta bo‘g‘in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixologiya fanlari doktori (DSc) .. diss.avtoref.: 19.00.05. – T.: TDPU, 2020.
6. Elmurodov U.Y Oliy ta’lim tizimi rahbarlarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (PhD) .. diss.avtoref.: 19.00.05. – T.: SamDu, 2023.
7. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. T.: «Yangi asr avlodi», 2007. – 328 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nurboboyev Shokir Boynazar o`gli**, o`qituvchi, [**Нурбобоев Шокир Бойназар угли,** преподаватель], [**Shokir B. Nurboboyev**, teacher]; manzil: O‘zbekiston, Samarqand viloyati., Shahar:Kattaqo`rg`on,Amir Temur ko'chasi, [адрес: Узбекистан, Город: Каттакорган, улица Амира Темура], [address: City: Kattakorgan, Amir Temur Street] .

©intereduglobalstudy.com2024, ISSUE8

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Original paper

GURUHIY YONDASHUVLARNI TAQQOSLASH VA QARAMA-QARSHI QO‘YISH ORQALI MAQSADGA ERISHISH

© Z.S. Mahmudova[1]✉

[1]Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ta’lim va tashkilot boshqaruvi jarayonida guruhiy yondashuvlarni taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish orqali maqsadga erishish usullari tahlil qilinadi. ushbu yondashuv o‘quv va ish jarayonida turli guruhlarning yondashuvlari, fikr va qarashlarini o‘rganish, ular orasidagi farqlarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – guruhiy yondashuvlarni taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish orqali fikrlash jarayonida yanada kengroq nuqtai nazar shakllantirish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda guruhiy yondashuvlar, jumladan, "qarama-qarshi qo‘yish" va "ijodiy taqqoslash" usullari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar guruhiy yondashuvlarni taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish usuli fikrlash jarayonini jonlantirish, ijodiy va tanqidiy yondashuvlarni rivojlantirishda sezilarli samara berishini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari guruhiy yondashuvlarni taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish orqali yanada samarali va ijodiy fikrlash jarayonlarini shakllantirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: guruhiy yondashuvlar, taqqoslash, qarama-qarshi qo‘yish, tanqidiy tafakkur, ijodiy fikrlash, hamkorlik, jamoaviy qarorlar, samaradorlik.

Iqtibos uchun: Mahmudova. Z.S. Guruhiy yondashuvlarni taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish orqali maqsadga erishish.// Inter education & global study. 2024. №8(1). B.514-527.

СРАВНИВАТЬ И ПРОТИВОПОСТАВЛЯТЬ ГРУППОВЫЕ ПОДХОДЫ К ДОСТИЖЕНИЮ ЦЕЛИ

© З.С. Махмудова[1]✉

[1]Джизакский филиал Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, г. Джизак, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются методы достижения целей через сравнение и противопоставление групповых подходов в процессе управления образованием и организацией. Данный подход помогает изучить подходы, мнения и взгляды различных групп в учебном и рабочем процессе, выявить различия между ними и разработать эффективные решения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить возможности формирования более широкого взгляда и развития критического мышления в процессе сравнения и противопоставления групповых подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ научной литературы по групповым подходам, включая методы «противопоставления» и «творческого сравнения».

